Ta’lim dasturi sanoat talablariga moslashtirilgan yo‘nalishlar orqali talabalarning bilim va ko‘nikmalarini bozor talablari bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi, bu ularning ishga chiqish imkoniyatlarini oshiradi. Hamkorlik tizimi (Oliy ta’lim muassasasi – ilmiy tadqiqot markazi – sanoat korxonasi) kadrlarning amaliy salohiyatini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Universitet va ishlab chiqarish o‘rtasidagi tarmoq orqali stajirovka va loyihaviy faoliyatlar talabalarning amaliyot ko‘nikmalarini yuksaltirishga xizmat qiladi. Texnologik muhit esa raqamli platformalar, sun’iy intellekt va adaptiv ta’lim kabi zamonaviy vositalar orqali kadrlarning texnologik jarayonlarga moslashuvchanligini ta’minlaydi. Bu tizim kadrlarning ilmiy va amaliy salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy sanoat va innovatsion muhitga tayyorlashda samaralidir.

Jadval 1

Ilmiy-ta’lim integratsiyasining asosiy elementlari

Tarkibiy qismlar	**Mazmuni**	**Kadrlar salohatiga ta’siri**
Ta’lim dasturi	Sanoat talablariga moslashtirilgan ta’lim yo‘nalishlari	Bilim va ko‘nikmalarni bozor talablari bilan muvofiqlashtirish
Hamkorlik tizimi	“Oliy ta’lim muassasasi - ilmiy tadqiqot markazi - sanoat korxonasi” tarmog‘i	Amaliyot, stajirovka orqali salohiyatni oshirish
Texnologik muhit	Raqamli platformalar, sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim	Kadrlarning zamonaviy texnologik talablarga moslashuvchanligi

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, ilmiy-ta’lim integratsiyasining samarasi asosan universitetlar, ilmiy tadqiqot markazlari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikning darajasiga bog‘liq. Bu hamkorlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, kadrlarni tayyorlash jarayonida bilim va ko‘nikmalarning bozor talablari bilan muvofiqlashtirilishi, talabalarning amaliy salohiyati va innovatsion faoliyatda ishtirok etishi shunchalik samarali amalga oshadi. Biroq, jarayonda bir qator muammolar ham uchraydi: ta’lim dasturlari va ishlab chiqarish talablari orasidagi nomuvofiqlik, texnologik va raqamli muhitning to‘liq joriy qilinmaganligi hamda hamkorlik tarmoqlarini samarali tashkil etishda moliyaviy va kadriy to‘siqlar mavjudligi qayd etildi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalardan olingan modellar va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan dasturlar integratsiya jarayonini samaradorligini oshirish va kadrlar salohatini bosqichma-bosqich oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Ammo bir qancha muammolar ham mavjud:

- Birinchidan, integratsiya jarayonida amaliyot va ta’lim mazmunlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik, ya’ni talabalarning ko‘nikmalari va mehnat bozori

talablari orasidagi farq bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozori va mehnat bozori integratsiyasini tahlil qilgan tadqiqotlarda ko‘plab ta’lim dasturlari ishlab chiqarish talablariga to‘liq muvofiq kelmasligi qayd etilgan, bu esa kadrlarning bozorda samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun qo‘shimcha choralarni talab qiladi[2].

- Ikkinchidan, kadrlar tayyorlashda texnologik va raqamli muhitni joriy etish pasayib ketgan - masalan, oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt va adaptiv o‘quv tizimlarining keng qo‘llanilishi hanuz chegaralangan[1].

- Uchinchidan, hamkorlik tarmoqlarini yo‘lga qo‘yishda moliyaviy, huquqiy va kadrlar salohatiga oid turli to‘siqlar uchraydi. Hatto samarali modellar mavjud bo‘lsada, ular hanuz tizimli ravishda keng qo‘llanilmagan va integratsiya jarayonini maksimal darajada samarali amalga oshirishga to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, xorijiy tajribalardan saboq olish muhim. Masalan, uchrashuvlar va keys-tadqiqotlar orqali universitetlar va sanoat korxonalari o‘rtasida loyihaviy hamkorlikni rivojlantirish kadrlar tayyorlash jarayonida samarali bo‘ladi [4]. O‘zbekiston sharoitida mazkur yo‘nalishda bir qator ijobiy omillar kuzatilmoqda: davlat dasturlari va ilmiy-ta’lim institutlari tomonidan dual ta’lim modeli joriy etilishi kadrlar salohiyatini oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi [3].

Mazkur tadqiqot shularni ko‘rsatdiki: ilmiy-ta’lim integratsiyasi asosida kadrlar salohatini rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda muhim omiildir. O‘zbekiston sharoitida bu yo‘nalishda quyidagi ustuvor choralarni tavsiya etamiz:

- Ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish.
- Ta’lim dasturlarini bozor va ishlab chiqarish talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, dual ta’lim, stajirovka, amaliy loyihalarni joriy qilish.
- Kadrlarning kasbiy va ilmiy salohiyatini oshirish uchun qayta tayyorlash tizimini tashkil etish, raqamli va texnologik muhitga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kendjaeva D.K., Normo‘minov A.A., Abdiraimova Z.G., Muxtorova Z.Z., Pazilova D.H. O‘zbekistonda oliy ta’limga sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash: jihatlari, muammolari va rivojlanish yo‘llari., IMRAS 8(5), 51–55. 2025. https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/2277

2. Ismoilova F.K. The Development and Integration Process of Uzbekistan’s Educational Services Market with the Labour Market. International Journal of Artificial Intelligence, 1(5), 2326–2329. 2025. https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/123090

3. TASI ikki tomonlama ta’lim modelini joriy etadi va ilmiy salohiyat eksportini rag‘batlantiradi. UzDaily.uz, 04/07/2025. https://www.uzdaily.uz/en/tasi-to-implement-dual-education-model-and-promote-export-of-scientific-potential/

4. Umarova K.U Oliy ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari: hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ijtimoiy fanlar tadqiqotlari va sharhlari jurnali, 5(8). 2025.

5. Ergasheva M.A. O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish. Ta’lim faoliyatida innovatsion rivojlanish, 4(1), 234-238. 2025. https://zenodo.org/records/14837115

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ – ДРАЙВЕР НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АРХИТЕКТУРЫ

Абдуллаев Темурбек Маруфжонович
Узбекистан, Ферганский государственный технический университет, PhD, доцент кафедры “Компьютерный инжиниринг и искусственный интеллект”
Хасанова Мадина Уткирбек кизи
Узбекистан, Ферганский государственный технический университет, магистр 1-курса направления “Искусственный интеллект”

Аннотация. В статье рассматривается роль искусственного интеллекта (ИИ) как ключевого драйвера трансформации современной экономической архитектуры. Анализируются новые модели управления, цифровые экосистемы, влияние ИИ на производительность и рынок труда, а также формирование интеллектуальной инфраструктуры экономики. Представлены схемы, диаграммы и таблицы, отражающие влияние ИИ на макро- и микроэкономические процессы.

Ключевые слова: искусственный интеллект; экономическая архитектура; цифровые экосистем; автоматизация; интеллектуальные системы управления; цифровая; инновационное развитие; государственное управление; технологические драйверы; цифровая экономика.

Abstract. The article examines the role of artificial intelligence (AI) as a key driver of the transformation of the modern economic architecture. It analyzes new management models, digital ecosystems, the impact of AI on productivity and the labor market, as well as the formation of an intelligent economic infrastructure. The work includes diagrams, charts, and tables illustrating the effects of AI on macro- and microeconomic processes.

Keywords: artificial intelligence; economic architecture; digital ecosystems; automation; intelligent management systems; digital transformation; innovative development; public administration; technological drivers; digital economy.

Annotatsiya. Maqolada sun’iy intellektning (SI) zamonaviy iqtisodiy arxitekturaning transformatsiyasidagi asosiy drayver sifatidagi roli ko‘rib chiqiladi. Unda boshqaruvning yangi modellari, raqamli ekotizimlar, SIning mehnat bozori va unumdorlikka ta’siri hamda intellektual iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi tahlil qilinadi. Maqolada SIning makro va mikroiqtisodiy jarayonlarga ta’sirini aks

ettiruvchi sxemalar, diagrammalar va jadvallar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt; iqtisodiy arxitektura; raqamli ekotizimlar; avtomatlashtirish; intellektual boshqaruv tizimlari; raqamli transformatsiya; innovatsion rivojlanish; makroiqtisodiy effektlar; davlat boshqaruvi; texnologik drayverlar; raqamli iqtisodiyot.

Развитие искусственного интеллекта (ИИ) становится одним из ключевых факторов, определяющих направления цифровой трансформации современной экономики. Широкое распространение технологий машинного обучения, глубоких нейронных сетей и генеративных моделей формирует новую экономическую архитектуру, основанную на данных, интеллектуальной автоматизации и алгоритмическом управлении. ИИ обеспечивает повышение эффективности бизнес-процессов, оптимизацию производственных систем, снижение транзакционных издержек и создание инновационных цифровых сервисов, что способствует возникновению интеллектуальных предприятий, платформенных экосистем и автоматизированных логистических и финансовых решений. Параллельно меняется структура взаимодействия между государством, бизнесом и обществом, поскольку интеллектуальные технологии позволяют внедрять персонализированные сервисы, улучшать качество управления и повышать скорость обработки данных. В этих условиях возрастает необходимость комплексного анализа роли ИИ как стратегического драйвера новой экономической архитектуры и оценки его влияния на устойчивость, конкурентоспособность и динамику экономического развития.

Технологические драйверы новой экономической архитектуры.

Активное внедрение искусственного интеллекта приводит к переосмыслению принципов функционирования экономики и созданию новых моделей управления. ИИ трансформирует производственные процессы, финансовые операции, систему взаимодействия с потребителями и структуру предоставления государственных услуг. В условиях возрастающей роли интеллектуальной аналитики именно технологические решения на базе ИИ становятся основой формирования современной экономической архитектуры. В дальнейшем рассмотрены ключевые направления развития таких технологий и их влияние на цифровую трансформацию экономических систем.

Глубокие нейронные сети (Deep Neural Networks) являются фундаментом современных систем аналитики и прогнозирования. Их многослойная структура позволяет выявлять нелинейные закономерности в больших массивах данных, что невозможно для традиционных статистических методов.

Основные области применения глубоких нейронных сетей:

1. Прогнозирование спроса и динамики рынков. DNN-модели анализируют исторические данные, сезонность, макроэкономические

показатели и поведенческие паттерны пользователей, обеспечивая точность прогноза на 15–40% выше традиционных моделей ARIMA.

2. Анализ временных рядов. Сети LSTM и GRU применяются для прогнозирования валютных курсов, цен на энергоресурсы, инфляции, изменения производственных показателей и индексов деловой активности.

3. Оптимизация цепочек поставок (Supply Chain Optimization). DNN-модели позволяют:

- выявлять узкие места цепочек,
- прогнозировать задержки,
- оптимизировать маршруты и складские запасы,
- снижать логистические издержки до 25%.

4. Обнаружение аномалий в финансовых операциях. Сети Autoencoder, CNN и гибридные архитектуры выявляют нетипичные транзакции, снижают уровень мошенничества и обеспечивают интеллектуальный аудит.

В совокупности глубокие нейронные сети выступают вычислительным ядром экономики данных, повышая эффективность и качество принимаемых решений.

Генеративные модели (GAN, Diffusion models, LLM) создают новые данные на основе существующих, что открывает возможности для автоматизации аналитики, проектирования и планирования. Ключевыми направлениями применения генеративных моделей является:

1. Автоматизация документации. Модели LLM (Large Language Models) формируют деловые отчёты, экономические записки, аналитические обзоры и автоматизируют взаимодействие между организациями и государственными структурами.

2. Генерация управленческих и экономических отчётов. LLM и трансформерные архитектуры позволяют создавать прогнозы рынка, финансовые прогнозы, анализировать большие массивы текстовой информации и формировать аналитические выводы.

3. Моделирование экономических сценариев. GAN и диффузионные модели помогают:

- строить симуляции поведения рынков,
- моделировать влияние макроэкономических шоков,
- анализировать устойчивость предприятий,
- прогнозировать изменения в логистике и производстве.

4. Создание synthetic data (синтетических данных). Это позволяет:

- обучать модели без риска утечки личных данных,
- расширять выборки,
- улучшать качество прогнозов.

Генеративные модели становятся основой цифровых двойников (digital twins) предприятий, регионов и отраслей экономики.

Рекомендательные системы. Данные системы становятся важным элементом цифровой экономики, так как обеспечивают высокий уровень

персонализации. Анализируя поведение пользователей, они формируют индивидуальные предложения и тем самым влияют на спрос, маркетинг, логистику и финансовые услуги. Такие системы повышают эффективность электронной коммерции, помогают компаниям точнее прогнозировать предпочтения клиентов, увеличивать конверсию и оптимизировать рекламные затраты. В государственном управлении рекомендательные механизмы позволяют создавать более адаптивные цифровые услуги и повышать удовлетворённость граждан, а в финансовой сфере – подбирать персонализированные банковские продукты на основе истории операций и уровня риска. Таким образом, рекомендательные системы выступают одним из ключевых инструментов «умной экономики», где решения принимаются с учётом индивидуальных особенностей пользователей.

Архитектура интеллектуальной экономической системы

Современная экономическая архитектура всё больше ориентируется на использование интеллектуальных технологий, позволяющих автоматизировать процессы анализа, прогнозирования и принятия решений. Формирование такой архитектуры требует интеграции данных, вычислительных ресурсов и нейронных моделей в единую многоуровневую систему, обеспечивающую непрерывную обработку информации и поддержку управленческих решений в режиме реального времени. Интеллектуальная экономическая система включает несколько взаимосвязанных уровней, каждый из которых выполняет отдельные функции, но в совокупности формирует целостную цифровую инфраструктуру.

Рис.1. Концептуальная структура архитектуры

На верхнем уровне располагается **интеллектуальный слой**, в который входят алгоритмы прогнозирования, оптимизации, интеллектуального поиска

и анализа. Здесь применяются модели машинного обучения, глубокие нейронные сети, трансформеры, графовые нейросети и генеративные модели. Их задача – преобразование данных в управленческие решения, рекомендации, прогнозы и аналитические отчёты.

Ниже находится **модельный слой**, объединяющий различные типы моделей: нейронные сети, большие языковые модели, гибридные алгоритмы, эконометрические и статистические модели. Этот уровень обеспечивает математическую обработку данных, выбор оптимальных алгоритмов и построение вычислительных сценариев для решения экономических задач.

Следующий уровень – **данные и хранилища**, куда входят большие массивы структурированных и неструктурированных данных: транзакции, временные ряды, данные датчиков IoT, логистические параметры, финансовые показатели, данные госреестров. Используются Data Lake, Data Warehouse, stream-платформы и системы распределённого хранения. Качество данных на этом уровне определяет точность решений всей системы.

В основу структуры входит **инфраструктурный уровень**, обеспечивающий работу всех компонентов: облачные вычисления, серверы, GPU-кластеры, контейнерные платформы, edge-устройства. Этот слой отвечает за вычислительные мощности, масштабируемость и скорость обработки данных.

Переходя от описания архитектуры к её экономическому воздействию, важно отметить, что каждая из этих технологических составляющих напрямую влияет на макроэкономические показатели. Интеллектуальные модели, качественные данные и развитая инфраструктура обеспечивают рост производительности, ускоряют управленческие процессы, снижают издержки и стимулируют инновации. Ниже в таблице представлены ключевые направления влияния ИИ на экономику и соответствующие измеримые результаты, отражающие масштаб и значимость внедряемых технологий.

Таблица 1.

Экономические эффекты использования ИИ

Направление влияния	Показатель	Результат
Производительность	Рост выпуска	+15–35% в зависимости от отрасли
Трудовой рынок	Автоматизация процессов	Снижение затрат до 30%
Управление	Скорость принятия решений	Ускорение в 3–5 раз
Инновации	Новые продукты	Увеличение числа инноваций

Нейронные сети в моделировании экономических процессов.

После рассмотрения макроэкономических эффектов и архитектуры интеллектуальной экономической системы важным является анализ конкретных моделей искусственного интеллекта, обеспечивающих

вычислительные возможности новой экономической архитектуры. Особое место среди таких инструментов занимают нейронные сети, которые позволяют реализовывать сложные аналитические и прогностические задачи. В условиях экономики данных именно нейронные модели становятся ключевым механизмом построения интеллектуальных сервисов и принятия управленческих решений. В рамках моделирования экономических процессов наибольшее значение имеют различные архитектуры нейронных сетей, каждая из которых решает специализированные задачи. Сети типа LSTM и GRU используются для анализа временных рядов и прогнозирования цен, инфляции или финансовых индикаторов. Модели Transformer применяются для обработки финансовых текстов, аудита, анализа отчётности и прогнозирования макроэкономических показателей. Сверточные нейросети (CNN) обеспечивают обработку геоданных, используемых в мониторинге территорий и оценке экономической активности. Графовые нейронные сети (GNN) позволяют анализировать логистические цепочки, социально-экономические графы и сетевые структуры взаимосвязей. Автоэнкодеры используются для выявления аномалий и мошенничества, а также для сжатия больших объёмов данных без существенной потери информации.

Методика интеллектуальных вычислений

Интеллектуальные методы анализа данных являются основой современных экономических моделей, использующих нейронные сети для прогнозирования показателей и оценки динамики экономических процессов. Одними из наиболее эффективных инструментов анализа временных рядов являются рекуррентные модели, такие как LSTM. Их применение позволяет учитывать долгосрочные зависимости, сезонность и нелинейные закономерности, что обеспечивает высокую точность прогнозирования макроэкономических и финансовых индикаторов. Процесс вычисления прогнозируемого значения основан на использовании скрытых состояний сети и параметров, оптимизируемых в ходе обучения.

Ниже приведена обобщённая формула прогнозирования следующего значения экономического временного ряда с использованием рекуррентной нейронной сети:

$$\hat{y}_{t+1} = f(W_h h_t + W_x x_t + b)$$

где: h_t - скрытое состояние нейросети,

x_t - входные данные (экономический временной ряд),

f - функция активации.

W_h, W_x, b - параметры (веса и смещение), определяемые в процессе обучения

Данная формула демонстрирует, что прогноз формируется на основе совокупности текущего состояния системы и исторических данных, преобразованных нейросетью. Такой подход позволяет моделировать сложные экономические процессы, учитывать влияние множества факторов и получать предсказания, адаптируемые к изменениям во внешней среде.

Интеллектуальные вычисления, основанные на нейронных сетях, обеспечивают более глубокий анализ, чем традиционные статистические методы, и становятся ключевым инструментом в разработке современных систем поддержки принятия экономических решений.

В заключении отмечается, что искусственный интеллект становится важнейшим элементом современной экономической архитектуры, обеспечивая рост эффективности, ускорение принятия решений и повышение качества управления. Использование нейронных сетей и интеллектуальных методов анализа данных позволяет точнее прогнозировать экономические процессы, автоматизировать операции и создавать новые цифровые сервисы. Интеграция данных, моделей и вычислительной инфраструктуры формирует основу для развития «умной экономики», снижает издержки и повышает инновационный потенциал. Таким образом, внедрение ИИ выступает ключевым драйвером цифровой трансформации, усиливая конкурентоспособность государства и бизнеса.

Список использованной литературы:

1. Бурков А. Искусственный интеллект: путь от данных к решениям. - Москва: Альпина Паблишер, 2021. - 240 с.

2. Городецкий В. И., Сеннова Е. С. Интеллектуальные системы: методы и приложения. - Санкт-Петербург: Питер, 2020. - 368 с.

3. Мищенко В. В., Чугунов А. В. Цифровая трансформация экономики: концепции и инструменты. // Экономика и управление. - 2021. №3. -С. 45-58.

4. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. - 3rd ed. - Prentice Hall, 2020.

5. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. - MIT Press, 2016.

6. Vaswani A. et al. Attention Is All You Need. // Advances in Neural Information Processing Systems. - 2017. - P. 5998–6008.

7. OECD. Artificial Intelligence in Society. - OECD Publishing, 2019.

8. World Bank. Digital Economy Report 2022: Data for Development. - Washington, 2022.

9. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. - W.W. Norton & Company, 2016.

10. Davenport T., Ronanki R. Artificial Intelligence for the Real World. // Harvard Business Review. - 2018. - Vol. 96(1). - P. 108–116.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MARKETING 4.0 NING NAZARIY TAMOYILLARI

Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna
Farg‘ona Davlat Texnika universiteti, Menejment va marketing kafedrasi dotsenti, Iqtisodiyot fanlari doktori
Usmanova Alomatxon
Farg‘ona davlat texnika universiteti 1-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy marketing strategiyalarining o‘ziga xos jihatlari hamda marketing 4.0 konsepsiyasining nazariy va amaliy mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar ta’sirida marketing tizimining yangi bosqichga o‘tishi, iste’molchilar bilan interaktiv muloqot va hamkorlik shakllarining rivojlanishi, shuningdek, marketing 4.0 konsepsiyasining asosiy ilmiy yo‘nalishlari va xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: marketing strategiyasi, marketing 4.0, raqamli marketing, iste’molchi xatti-harakati; raqamli transformatsiya; sun’iy intellekt, brend imiji, mijoz bilan munosabatlarni boshqarish (CRM), bozor segmentatsiyasi

Аннотация. В статье анализируются особенности современных маркетинговых стратегий и теоретическое и практическое содержание концепции «Маркетинг 4.0». Рассматривается переход системы маркетинга на новый уровень под влиянием цифровых технологий, развитие интерактивных форм коммуникации и взаимодействия с потребителями, а также основные научные направления и особенности концепции «Маркетинг 4.0».

Ключевые слова: маркетинговая стратегия, маркетинг 4.0, цифровой маркетинг, поведение потребителей; цифровая трансформация; искусственный интеллект, имидж бренда, управление взаимоотношениями с клиентами (CRM), сегментация рынка.

Abstract. This article analyzes the specific aspects of modern marketing strategies and the theoretical and practical content of the Marketing 4.0 concept. The transition of the marketing system to a new level under the influence of digital technologies, the development of interactive communication and cooperation forms with consumers, as well as the main scientific directions and features of the Marketing 4.0 concept are highlighted.

Keywords: marketing strategy, marketing 4.0, digital marketing, consumer behavior; digital transformation; artificial intelligence, brand image, customer relationship management (CRM), market segmentation

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida marketing konsepsiyalari jadal sur’atlarda rivojlanib, yangi yondashuvlar tizimini shakllantirmoqda. An’anaviy marketingdan farqli ravishda, zamonaviy marketing strategiyalari iste’molchi xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish, ularning

qadriyatlari, ehtiyojlari va raqamli muhitdagi faoliyatini inobatga olishga asoslanadi. Raqamli kommunikatsiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va ijtimoiy tarmoqlar marketing faoliyatining asosiy vositalariga aylangan.

Marketing 4.0 konsepsiyasi ana shu jarayonlarning mantiqiy davomi bo‘lib, u Philip Kotler tomonidan ilgari surilgan marketing evolyutsiyasining yangi bosqichini ifodalaydi. Ushbu konsepsiya inson markazli yondashuv, raqamli va an’anaviy marketingning integratsiyasi, hamda iste’molchi bilan o‘zaro ishonchli hamkorlikni shakllantirish tamoyillariga tayanadi. Marketing 4.0 nafaqat mahsulotni sotishga, balki brend va iste’molchi o‘rtasida uzoq muddatli qiymat almashinuvini yaratishga qaratilgan.

Ilmiy-nazariy jihatdan marketing 4.0 konsepsiyasi kommunikatsiya nazariyasi, iste’molchi psixologiyasi, tarmoq iqtisodiyoti hamda raqamli innovatsiyalar asosida shakllanadi. Shu bois, uni o‘rganish zamonaviy korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlash, marketing faoliyatini strategik boshqarish va bozor munosabatlarida innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda kompaniya muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri mijozlarning ehtiyojlari, qadriyatlari va xatti-harakatlarini chuqur anglash, raqamli platformalarda ularning ishonchini qozonish hamda ularni faol brend hamkorlariga aylantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, Filipp Kotler tomonidan ilgari surilgan “Marketing 4.0” konsepsiyasi marketing nazariyasi va amaliyotining yangi bosqichini ifodalaydi. Mazkur yondashuv insoniy qadriyatlar bilan raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga, marketing faoliyatini iste’molchi shaxsiy tajribasi, hissiy kechinmalari va ijtimoiy faolligi bilan chambarchas bog‘lashga qaratilgan.

Marketing 4.0 konsepsiyasi mohiyat e’tibori bilan inson markaziga yo‘naltirilgan raqamli marketing modeli bo‘lib, unda brend va iste’molchi o‘rtasidagi munosabatlar faqat tijorat manfaatlariga emas, balki ijtimoiy, axloqiy va ekologik qadriyatlarni ilgari surishga ham xizmat qiladi. Bunday yondashuv kompaniyalarga ijobiy imidj yaratish, mijozlar sadoqatini oshirish hamda uzoq muddatli raqobat ustunligini ta’minlash imkonini beradi.

Hozirgi bozorda raqamli marketing, kontent marketingi, influencer (ta’sirchan) marketing, yashil marketing va omnichannel marketing kabi konseptual yo‘nalishlar ustunlik qilmoqda. Ular iste’molchi xatti-harakatlarini tahlil qilish, ularning ishonchini mustahkamlash va uzoq muddatli hamkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar faoliyatining kengayishi bilan bir qatorda, kompaniyalar uchun mijozlar bilan bevosita muloqot qilish, virtual hamjamiyatlar yaratish va iste’molchi fikrlarini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy marketingning asosiy turlari quyidagicha tavsiflanadi:

Raqamli marketing - elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari (SEO) va internet reklama vositalari orqali maqsadli auditoriyaga samarali tarzda yetib borish strategiyasi.

Kontent marketingi - iste’molchilar uchun dolzarb, foydali va qiziqarli axborotni yetkazish orqali brendga nisbatan ishonchni mustahkamlash tizimi.

Influencer marketing - ijtimoiy tarmoqlarda katta auditoriyaga ega bo‘lgan shaxslar (blogerlar, ommabop foydalanuvchilar) orqali brendni ilgari surish va uning ijobiy imidjini shakllantirish usuli.

Yashil marketing - ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat va atrof-muhitni muhofaza qilish g‘oyalariga asoslangan marketing yondashuvi.

Shu tarzda, zamonaviy marketing strategiyalari korxonalarga nafaqat mijozlar ehtiyojini aniqlash va qondirish, balki ularni brend bilan uzoq muddatli o‘zaro hamkorlikka jalb etish imkonini beradi.

Buning natijasida kompaniyalar o‘z strategiyalariga shaxsiy tajriba, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili (Big Data) va avtomatlashtirilgan kommunikatsiya tizimlarini integratsiyalashga intilmoqda. Bu esa marketing jarayonlarini raqamlashtirish, mijoz bilan real vaqt rejimida aloqani kuchaytirish va individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi.

Bugungi kunda samarali brend bo‘lish uchun faqatgina reklama, narx siyosati yoki mahsulot sifati yetarli emas. Kompaniyalar iste’molchilar bilan hissiy aloqa o‘rnatishi, ijtimoiy mas’uliyatni namoyon qilishi, innovatsion yechimlar yaratishi va ishonchni mustahkamlashi zarur. Aynan mana shu jihatlar Marketing 4.0 ning amaliy kuchini belgilaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ham ushbu konsepsiyaning ahamiyati ortib bormoqda. Mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, onlayn platformalarning kengayishi, yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish biznesni yangi marketing bosqichiga olib chiqmoqda. Mahalliy brendlar uchun Marketing 4.0 yondashuvini joriy etish - raqamli inqilob sharoitida raqobatbardoshlikni ta’minlashning muhim strategik yo‘nalishidir.

O‘zbekistonda Marketing 4.0 konsepsiyasini to‘liq joriy etish jarayoni bir qator amaliy, tashkiliy va tizimli muammolar bilan murakkablashmoqda. Raqamli iqtisodiyot bosqichma-bosqich shakllanayotgan bir paytda, marketingning yangi modeli - ya’ni texnologiya va insoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan yondashuv - hali to‘liq amalga oshmagan. Quyida ushbu jarayonga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar tahlil qilinadi.

Birinchidan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi marketing tashabbuslari samaradorligini cheklab qo‘ymoqda. Internet tarmog‘ining tezligi va qamrovi mintaqalar kesimida keskin farqlanadi. Ayniqsa, chekka hududlarda raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi natijasida onlayn marketing, elektron tijorat va interaktiv reklama kanallari yetarlicha ishlamayapti.

Ikkinchidan, raqamli marketing sohasida malakali mutaxassislar tanqisligi sezilmoqda. Korxona va tashkilotlarda zamonaviy texnologiyalar, ma’lumotlar tahlili (data analytics), sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish yoki avtomatlashtirilgan reklama tizimlarini boshqarish bo‘yicha tajribali kadrlar

yetishmaydi. Bu esa marketing jarayonlarining innovatsion va tahliliy jihatdan zaiflashishiga olib keladi.

Uchinchidan, ma’lumotlar bazasi va iste’molchi xatti-harakatlarini tahlil qilish tizimi hali shakllanish bosqichida. Ko‘pgina korxonalar o‘z marketing strategiyalarini empirik yondashuv - ya’ni tajriba va sezgi asosida - ishlab chiqadi. Natijada, marketing qarorlari ilmiy tahlil, statistik model yoki xulq-atvor iqtisodiyoti natijalariga emas, balki subyektiv omillarga tayanadi.

To‘rtinchidan, iste’molchilarning raqamli muhitga bo‘lgan ishonchi past darajada saqlanmoqda. Aholining muayyan qismi onlayn to‘lov tizimlaridan foydalanishda xavfsizlik bo‘yicha xavotirga ega bo‘lib, bu esa elektron savdo, mobil banking va onlayn xizmatlar rivojini sekinlashtiradi. Shu sababli marketing 4.0 uchun zarur bo‘lgan interaktiv va ishonchli kommunikatsiya muhiti to‘liq shakllanmagan.

Beshinchidan, integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari tizimining yo‘qligi korxonalarning brend va mijoz o‘rtasidagi hissiy aloqani mustahkamlash imkoniyatlarini cheklaydi. Ko‘pgina mahalliy firmalarda brend identifikatsiyasi va mijozlar bilan uzoq muddatli aloqani shakllantirish bo‘yicha yagona strategik yondashuv mavjud emas.

Umuman olganda, O‘zbekistonda Marketing 4.0 konsepsiyasini samarali tatbiq etish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish, ma’lumotlar tahlilini institutsional darajada joriy etish hamda iste’molchilarning raqamli madaniyatini oshirish zarur. Shu yo‘l bilan mamlakatda zamonaviy marketing texnologiyalari asosida ishlaydigan, inson qadriyatlariga tayanadigan innovatsion biznes modeli shakllanishi mumkin bo‘ladi.

Marketing 4.0 konsepsiyasining muvaffaqiyatli tatbiqi mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, inson kapitali sifati hamda axborot texnologiyalarining biznes jarayonlariga integratsiyalashuv darajasiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda Marketing 4.0 tamoyillarini amaliyotga joriy etish quyidagi yo‘nalishlarda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish va kengaytirish

Marketing 4.0 konsepsiyasining asosiy sharti - barqaror, yuqori tezlikdagi Internet va zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlaridir. Shu bois, mamlakatning barcha hududlarida keng polosali Internet tarmog‘ini kengaytirish, 5G texnologiyalarini joriy etish va raqamli xizmatlarga qulay kirish imkoniyatlarini yaratish zarur. Bu yo‘nalishdagi islohotlar bozor axboroti oqimini tezlashtiradi**,** onlayn savdo va interaktiv marketing imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek, mijozlar bilan real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi.

2. Raqamli marketing sohasida inson kapitalini rivojlantirish

O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli marketingni ilgari suruvchi asosiy resurs - bu malakali kadrlar hisoblanadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida “Raqamli marketing”, “Ma’lumotlar tahlili”, “Sun’iy intellekt asosida marketing boshqaruvi” kabi fanlarni chuqur o‘qitish, xalqaro sertifikatlash dasturlarini (Google Digital

Garage, Meta Blueprint, HubSpot Academy va boshqalar) joriy etish lozim. Shuningdek, amaliy laboratoriyalar, startap-inkubatorlar va raqamli texnoparklar negizida korxona–universitet–davlat hamkorligini yo‘lga qo‘yish Marketing 4.0 uchun zarur kompetensiyalarni shakllantiradi.

3. Integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari tizimini shakllantirish

Zamonaviy marketingda mijozlar bilan aloqa turli kanallar orqali amalga oshiriladi. Shu bois, O‘zbekistonda korxonalar uchun omnichannel (ko‘pkanalli) kommunikatsiya tizimlarini joriy etish muhim. Bunda onlayn va oflayn savdo tizimlari, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va mijozlarga xizmat ko‘rsatish markazlari yagona ekotizimda ishlashi kerak.
Bu yondashuv iste’molchi tajribasini yaxshilaydi**,** brendga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi va marketing 4.0 ning insoniy qadriyatga yo‘naltirilgan mohiyatini amalda namoyon etadi.

4. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish

Marketing 4.0 sharoitida raqobat ustunligi katta ma’lumotlar (Big Data) va analitik tizimlardan foydalanish bilan belgilanadi. Shu maqsadda, O‘zbekiston korxonalari darajasida yagona mijoz ma’lumotlar bazalari (CRM tizimlari)ni yaratish, iste’molchi xatti-harakatlarini prognozlovchi algoritmlar va sun’iy intellekt modellarini qo‘llash lozim. Bu nafaqat marketing qarorlarini ilmiy asoslash, balki mijozlarga individual yondashuv tamoyilini hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

5. Iste’molchilarning raqamli madaniyatini oshirish va ishonch muhitini shakllantirish

Marketing 4.0 muvaffaqiyatining muhim sharti - aholining raqamli muhitga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashdir. Shu bois, raqamli xavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, onlayn to‘lov tizimlari bo‘yicha ishonchli mexanizmlarni keng joriy etish zarur. Aholi o‘rtasida raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan axborot-ma’rifiy kampaniyalar**,** media-treninglar va onlayn xavfsizlik bo‘yicha o‘quv dasturlari ham Marketing 4.0 ni samarali qo‘llash uchun muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni.

2. Kotler, P., Kartajaya, H., Setiawan, I. (2021). Marketing 5.0: Technology for Humanity. Hoboken: John Wiley & Sons.

3. Armstrong, G., & Kotler, P. (2022). Principles of Marketing. 19th Edition. Pearson Education.

4. Karimov, B., & Abdullaeva, D. (2023). “Raqamli marketing strategiyalarining O‘zbekiston korxonalari faoliyatidagi o‘rni.” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, №4, 112–120-betlar.

5. Rust, R. T., & Huang, M.-H. (2021). “The Service Revolution and the Transformation of Marketing Science.” Marketing Science, 40(1), pp. 1–19.

УДК 0.330

РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В МОЛОЧНОЙ ОТРАСЛИ КЫРГЫЗСТАНА: ОПЫТ ОсОО «АЛАЙКУ ОРГАНИКС», КАК МОДЕЛЬ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА

Саматова Эльвира Эскендеровна,
кандидат экономических наук, доцент ВАК КР, Институт Экономики, бизнеса и менеджмента, Ошский государственный университет, Ош, Кыргызская Республика, e-mail: elviraeskenderovna@gmail.com
samatova@oshsu.kg
Ващенко Ирина Александровна, Коленко Алла Васильевна
преподаватели института Экономики, бизнеса и менеджмента, Ошский государственный университет

Аннотация: Мақолада Қирғиз Республикасининг сут саноатини инновацион иқтисодиётни шакллантириш, инсон капитали салоҳиятини ошириш ва ишлаб чиқаришнинг технологик модернизацияси шароитида прогрессив ривожлантириш йўналишлари кўриб чиқилган. «Алайку Органикс» МЧЖ мисолида илм-фан, таълим ва бизнес интеграциясининг тармоқнинг барқарор ўсиши ва ресурс самарадорлигини таъминлашдаги ўрни ёритилган. Агросаноат мажмуасининг рақобатбардошлиги, экспорт салоҳияти ва экологик барқарорлигига таъсир этувчи инновацион ривожланиш омиллари ва воситалари таҳлил қилинган. Давлат, бизнес ва таълим муассасаларининг самарали ҳамкорлик модели узоқ муддатли ўсишнинг асоси сифатида асослаб берилган.

Калит сўзлар: инсон капитали, инновациялар, ресурс самарадорлиги, фан ва ишлаб чиқариш интеграцияси, барқарор ривожланиш, сут саноати, Қирғизистон.

Аннотация: В статье рассматриваются направления прогрессивного развития молочной промышленности Кыргызской Республики в контексте формирования инновационной экономики, повышения человеческого капитала и технологической модернизации производства. На примере ОсОО «Алайку Органикс» показана роль интеграции науки, образования и бизнеса в обеспечении устойчивого роста и ресурсоэффективности отрасли. Проведён анализ факторов и инструментов инновационного развития, влияющих на конкурентоспособность, экспортный потенциал и экологическую устойчивость агропромышленного комплекса. Обоснована модель эффективного взаимодействия государства, бизнеса и образовательных институтов как основы долгосрочного роста.

Ключевые слова: человеческий капитал, инновации, ресурсоэффективность, интеграция науки и производства, устойчивое развитие, молочная отрасль, Кыргызстан.

Abstract: The article examines the directions of progressive development of the dairy industry of the Kyrgyz Republic in the context of building an innovative economy, strengthening human capital, and modernizing production technologies. Using the example of “Alayku Organics” LLC, the study highlights the role of integrating science, education, and business in ensuring sustainable growth and resource efficiency within the sector. The analysis identifies the key factors and instruments of innovative development that influence the competitiveness, export potential, and environmental sustainability of the agro-industrial complex. A model of effective interaction between the state, business, and educational institutions is substantiated as the foundation for long-term growth.

Keywords: human capital, innovation, resource efficiency, integration of science and production, sustainable development, dairy industry, Kyrgyzstan.

Введение. Современная экономика Кыргызстана переживает этап структурных изменений, в которых ключевыми факторами устойчивого роста становятся развитие человеческого капитала и технологические инновации [3]. В условиях климатических вызовов, ограниченности природных ресурсов и усиления конкуренции на мировом рынке особое значение приобретает формирование ресурсоэффективных и инновационно ориентированных производственных систем [4].

Теоретические основы интеграции науки, образования и производства. Интеграция науки, образования и производства (НОП) формирует треугольник инновационного развития, обеспечивающий подготовку кадров, ускорение трансфера технологий и повышение эффективности ресурсопользования [5]. В агропромышленном комплексе такая интеграция способствует решению климатических и экологических задач [6].

Тенденции и проблемы молочной отрасли Кыргызстана. По данным Национального статистического комитета Кыргызской Республики, объём производства молока в 2024 году составил 1,823 млн тонн, что на 2,6 % больше по сравнению с 2023 годом [7]. Несмотря на положительную динамику валового объёма, структура отрасли остаётся неравномерной: лишь около 25 % произведённого молока поступает на промышленную переработку, тогда как основная часть реализуется в сыром виде через частные хозяйства и мелких фермеров.

Ключевыми проблемами сектора являются низкий уровень механизации и автоматизации процессов, ограниченный доступ к современным технологиям охлаждения и хранения, а также недостаточная квалификация работников в сельских регионах. Слабо развита инфраструктура снабжения и логистики, что приводит к высоким потерям при транспортировке сырья и снижению качества продукции. Кроме того, наблюдается дефицит

инвестиций в перерабатывающие мощности и инновационные решения, особенно среди малых и средних предприятий.

В то же время в последние годы наметились позитивные тенденции - постепенная модернизация перерабатывающих предприятий, активное внедрение стандартов качества (HACCP, ISO 22000) и рост экспортного потенциала благодаря улучшению ветеринарного контроля и поддержке со стороны международных программ. Всё это формирует предпосылки для перехода отрасли к модели инновационного и устойчивого развития.

Практика ОсОО «Алайку Органикс». Опыт ОсОО «Алайку Органикс» представляет собой пример эффективного внедрения инновационных и экологически ответственных подходов в молочной промышленности Кыргызстана [8]. Предприятие успешно сочетает ресурсоэффективные технологии, модернизацию производственных линий и активное развитие человеческого капитала. Компания перерабатывает свыше 1500 тонн молока в год, при этом сотрудничает с более чем 1500 фермерскими хозяйствами в Ошской и Джалал-Абадской областях, обеспечивая устойчивые каналы сбыта и обучение поставщиков современным методам животноводства и контроля качества.

«Алайку Органикс» активно взаимодействует с отечественными вузами и научными центрами, реализуя совместные проекты по внедрению инновационных решений в области биотехнологий, переработки и упаковки молочной продукции. Кроме того, предприятие участвует в программах международных организаций (FAO, USAID), направленных на повышение экспортной конкурентоспособности и экологической устойчивости молочной отрасли. Таким образом, деятельность ОсОО «Алайку Органикс» демонстрирует пример успешной интеграции науки, образования и бизнеса, способствующей формированию модели устойчивого развития региональной агропромышленной системы и укреплению позиций Кыргызстана на рынке молочной продукции Центральной Азии.

Направления прогрессивного развития молочной отрасли Кыргызстана. Современные тенденции развития молочной отрасли Кыргызской Республики указывают на необходимость перехода к инновационно-ориентированной и ресурсоэффективной модели производства, где ключевую роль играют технологии, человеческий капитал и институциональные механизмы поддержки бизнеса. Одним из приоритетных направлений выступает модернизация производственно-технической базы, включающая внедрение систем автоматизации, цифрового мониторинга качества и энергоэффективного оборудования. Это позволит повысить производительность труда, снизить себестоимость продукции и минимизировать потери при переработке молока. Второе направление связано с развитием человеческого капитала и профессиональной подготовки кадров. Важно обеспечить системное взаимодействие между образовательными учреждениями, предприятиями и исследовательскими

центрами, чтобы формировать компетенции в области биотехнологий, пищевой инженерии, логистики и управления качеством. Подобные инициативы уже реализуются на базе сотрудничества предприятий, таких как ОсОО «Алайку Органикс», с вузами южных регионов Кыргызстана. Третьим важным вектором является расширение экспортного потенциала и продвижение бренда кыргызской молочной продукции на международных рынках. Для этого требуется дальнейшее внедрение международных стандартов качества (ISO 22000, HACCP, ISO 14001), развитие лабораторной и сертификационной инфраструктуры, а также государственная поддержка экспортоориентированных предприятий. Не менее значимым направлением остаётся экологизация производства и внедрение принципов «зелёной экономики» - рациональное использование водных и энергетических ресурсов, переработка отходов и сокращение углеродного следа предприятий. Эти меры способствуют укреплению устойчивости отрасли и формированию положительного имиджа отечественных производителей. Таким образом, прогрессивное развитие молочной промышленности Кыргызстана требует системного подхода, основанного на синергии государства, бизнеса, науки и образования. Только при таком взаимодействии возможно обеспечение устойчивого роста, продовольственной безопасности и конкурентоспособности национальной экономики.

Перспективы и рекомендации. Рекомендуется создание региональных инновационных кластеров, внедрение дуального обучения, развитие государственно-частного партнёрства и масштабирование опыта ОсОО «Алайку Органикс» [9]. Эти меры позволят ускорить переход к инновационной и ресурсоэффективной модели развития.

Заключение. Опыт ОсОО «Алайку Органикс» показывает, что сочетание технологических инноваций, кадрового развития и социальной ответственности создаёт устойчивую модель роста в условиях климатических ограничений. Переход к инновационной экономике требует интеграции науки, образования и бизнеса на всех уровнях.

Список литературы:

1. Национальный статистический комитет Кыргызской Республики. Отчет о развитии сельского хозяйства. – Бишкек, 2025.

2. Министерство сельского хозяйства Кыргызской Республики. Программа устойчивого развития агропромышленного комплекса. – Бишкек, 2024.

3. Продовольственная и сельскохозяйственная организация ООН (ФАО). Сектор молочной промышленности в Центральной Азии: тенденции и возможности. – Рим, 2024.

4. Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР). Показатели «зеленого» роста. – Париж, 2023.

5. Исмаилова Г.К. Интеграция науки, образования и производства: концепции и механизмы. – Бишкек: Изд-во КРСУ, 2022.
6. Назарова Э., Сеитова А. Инновации в аграрной сфере Кыргызстана // Вестник ОшГУ. – 2023. – № 2. – С. 45–52.
7. Национальный статистический комитет Кыргызской Республики. Сельскохозяйственные данные. – Бишкек, 2024.
8. Материалы предприятия ОсОО «Алайку Органикс». – Ош, 2025.
9. Агропродовольственная программа USAID в Кыргызстане. Отчет по развитию аграрного сектора. – Бишкек, 2024.

O‘RMON XO‘JALIGINI GEOEKOLOGIK MONITORING QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Nazarova Gulchexra Nurmuxanbetovna
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston, E-mail: nazarovagulchexra3@gmail.com
Boboqulov Abbos Dilshod o‘g‘li
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston, E-mail: abbosboboqulov0511@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada keng ko‘lamli biosfera jarayonlarini anglash masalasi qit’a biosferasining barqarorligini ta’minlovchi yetakchi omillardan biri bo‘lgan o‘rmon resurslarini saqlash va qayta tiklash muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir, mazkur maqolada iqlimning zamonaviy o‘zgarishlari bilan bog‘liq holda o‘rmonlarni geotizimli monitoring qilishning dasturiy qoidalari yoritilgan, geotizimli monitoring strategiyasining asosi prognozli topo-ekologik konsepsiyani tashkil etadi, global o‘zgarishlarning lokal mexanizmlarini anglash yo‘lidagi birinchi qadam sifatida “ekotizimlarning lokal darajasida mintaqaviy bioklimatik trendni empirik imitatsiya qilish” metodik konstruktsiyasi taklif etilgan, kompleks va ko‘p yo‘nalishli geoekologik monitoringni biogeografik ekotonlarda olib borish maqsadga muvofiq, chunki ular iqlim o‘zgarishlariga nisbatan yuqori sezuvchanlikka ega.*

Kalit so‘zlar: *globall iqlim o‘zgarishlari, o‘rmon ekotizimlari, geotizimli monitoring, prognozli topo-ekologik konsepsiya, diskret empiriko-statistik modellar, biogeografik ekotonlar, landshaft-ekologik prognozlash.*

Аннотация: *Проблема понимания крупномасштабных биосферных процессов тесно связана с вопросом сохранения и восстановления лесных ресурсов, являющихся одним из ведущих факторов, обеспечивающих устойчивость континентальной биосферы. В данной статье рассмотрены программные принципы геосистемного мониторинга лесов в условиях современных климатических изменений. Основу стратегии геосистемного*

мониторинга составляет прогностическая топо-экологическая концепция. В качестве первого шага на пути к пониманию локальных механизмов глобальных изменений предложена методическая конструкция «эмпирического имитационного моделирования регионального биоклиматического тренда на локальном уровне экосистем». Комплексный и многопрофильный геоэкологический мониторинг целесообразно проводить в пределах биогеографических экотонов, так как они отличаются высокой чувствительностью к климатическим колебаниям.

Ключевые слова: *глобальные климатические изменения, лесные экосистемы, геосистемный мониторинг, прогностическая топо-экологическая концепция, дискретные эмпирико-статистические модели, биогеографические экотоны, ландшафтно-экологическое прогнозирование.*

4. Сагынбаев Э., Исмаилова А. *Роль цифровых навыков в развитии предпринимательства Кыргызстана*. Бишкек, 2021.
5. UNESCO. *Digital Literacy and Economic Growth*. Paris, 2021.
6. Министерство цифрового развития Республики Казахстан. *Программа «Цифровой Казахстан»*. Астана, 2022.

УДК 0.330

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ПРОСЛЕЖИВАЕМОСТИ, КАК ИНСТРУМЕНТ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ И РЕСУРСОЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ КЫРГЫЗСТАНА

Саматова Эльвира Эскендеровна научный руководитель,
кандидат экономических наук, доцент ВАК КР, институт Экономики, бизнеса и менеджмента, Ошский государственный университет, Ош, Кыргызская Республика, e-mail: elviraeskenderovna@gmail.com
samatova@oshsu.kg

Абдрахманова Зинаида Куштаровна, Жарматова Регина Жомартбековна
студенты 3 курса института Экономики, бизнеса и менеджмента, Ошский государственный университет

Аннотация: Мақолада товарларни идентификация қилиш ва уларни кузатиб боришнинг рақамли технологиялари Қирғизистон корхоналарининг инновацион ривожланиши ҳамда ресурс самарадорлигини оширишнинг асосий воситаси сифатида ўрганилади. «TTM.KG» миллий товар маркировкаси тизими таҳлили ҳамда озиқ-овқат ва тўқимачилик соҳаси корхоналарининг амалиётлари асосида рақамли идентификация воситаларини жорий этиш ишлаб чиқариш жараёнларининг шаффофлигини оширишга, йўқотишларни камайтиришга ва маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг экспорт салоҳиятини кучайтиришга хизмат қилиши кўрсатилган. Шунингдек, ушбу технологияларни сифатни бошқариш тизими ва иқтисодиётнинг рақамли трансформациясига интеграция қилиш зарурлиги асослаб берилган.

Калит сўзлар: рақамли идентификация, кузатиб бориш, ресурс самарадорлиги, инновациялар, экспорт, Қирғизистон.

Аннотация: В статье исследуется роль цифровых технологий идентификации и прослеживаемости товаров как ключевого инструмента инновационного развития и повышения ресурсоэффективности предприятий Кыргызстана. На основе анализа национальной системы маркировки товаров «ТТМ.КГ» и практического опыта предприятий пищевой и текстильной отрасли показано, что внедрение средств цифровой идентификации способствует росту прозрачности производственных процессов, снижению потерь и повышению экспортного потенциала отечественных производителей. Обоснована необходимость интеграции данных технологий в систему управления качеством и цифровую трансформацию экономики Кыргызстана в условиях развития внутреннего и внешнего рынка.

Ключевые слова: цифровая идентификация, прослеживаемость, ресурсоэффективность, инновации, экспорт, Кыргызстан.

Abstract: The article examines the role of digital identification and traceability technologies as key tools for innovative development and improving resource efficiency of enterprises in Kyrgyzstan. Based on the analysis of the national product labeling system “TTM.KG” and the practical experience of food and textile enterprises, it is shown that the introduction of digital identification tools increases transparency of production processes, reduces losses, and enhances the export potential of domestic producers. The study substantiates the need to integrate these technologies into the quality management system and the digital transformation of Kyrgyzstan’s economy in the context of both domestic and international market development.

Keywords: digital identification, traceability, resource efficiency, innovation, export, Kyrgyzstan.

Введение. Современные вызовы глобального рынка требуют от предприятий не только выпуска конкурентоспособной продукции, но и обеспечения прозрачности её происхождения и движения по цепочке поставок.

Именно поэтому цифровые технологии идентификации и прослеживаемости становятся стратегическим инструментом инновационного развития и повышения ресурсоэффективности предприятий.

Как показывает практика, даже на уровне малых и средних предприятий Кыргызстана внедрение таких технологий даёт ощутимые экономические результаты.

Показательный пример - ОсОО «Алайку Органикс»: при первой попытке экспорта йогуртов в Казахстан партия продукции была задержана на границе из-за отсутствия системы прослеживаемости. После внедрения штрихового кодирования и автоматизированного учёта логистических партий подобных проблем больше не возникало, а компания сократила потери на 12 %.

Теоретические основы идентификации и прослеживаемости. Идентификация - это процесс присвоения объекту уникального цифрового кода, обеспечивающего его распознавание в информационной системе.

Прослеживаемость - возможность отследить путь товара от производства до конечного потребителя, фиксируя все этапы его движения.

Международные стандарты (в частности, система GS1) определяют единые правила кодирования и обмена данными между производителями, логистическими операторами и розничными сетями.

Применение таких систем обеспечивает не только прозрачность операций, но и способствует снижению издержек и предотвращению контрафакта.

Цифровизация идентификации в Кыргызстане: нормативная база и тенденции 2024–2025 гг. Кыргызстан активно формирует национальную экосистему маркировки и прослеживаемости товаров. Ключевым инструментом выступает национальная система «ТТМ.КГ», оператором которой является ГП «Госзнак».

За первые три месяца 2024 г. в стране выдано около 41 млн. кодов маркировки [1].

Из них:

• табачная продукция - 32,3 млн.;

• алкогольная - 8,2 млн.;

• текстиль - 404,6 тыс.;

• обувь - 27,7 тыс.;

• парфюмерия - 1,8 тыс.

С момента внедрения системы (2021–2025 гг.) выдано более 780 млн. кодов [1].

В июле 2025 г. Евразийская экономическая комиссия утвердила расширенный перечень товаров, подлежащих обязательной маркировке при ввозе в страны ЕАЭС, включающий велосипеды, косметику, масла и дезинфицирующие средства [2].

Также в 2025 г. в Кыргызстане утверждено Положение о маркировке товаров средствами идентификации [3], что закрепило правовые основы системы прослеживаемости.

Практические примеры внедрения в Кыргызской Республике

Предприятие	Регион	Технологии	Результаты
ОсОО «Алайку Органикс»	Ошская область	Штрих-кодирование и автоматизация учёта	Сокращение потерь на 12 %; исключение задержек при экспорте
ОсОО «Биомилк»	Чуйская область	2D-коды для контроля качества и сроков хранения	Улучшение внутреннего контроля и прослеживаемости партий
ОсОО «Коло Текстиль»	г. Бишкек	Международные коды GS1	Рост доверия со стороны иностранных партнёров и выход на рынок Казахстана

Данные кейсы демонстрируют, что даже при ограниченных ресурсах внедрение технологий идентификации позволяет добиться ощутимого эффекта: снижения потерь, повышения прозрачности цепочек поставок и укрепления конкурентоспособности.

Влияние цифровой идентификации на ресурсоэффективность предприятий.

Применение систем идентификации и прослеживаемости повышает ресурсоэффективность предприятий за счёт:

снижения избыточных складских запасов;

сокращения производственных потерь;

точного учёта сырья и готовой продукции;

оптимизации логистики и документооборота.

Кроме того, цифровая прослеживаемость повышает доверие потребителей, что особенно важно для экспортоориентированных компаний

Кыргызстана, участвующих в программах ЕАЭС и поставляющих продукцию в страны СНГ и ЕС.

Проблемы и перспективы развития.

Среди основных вызовов внедрения цифровых технологий идентификации можно выделить:

высокие начальные затраты для МСП;

нехватку квалифицированных кадров в области цифровых технологий;

дублирование требований разных надзорных органов;

недостаточную информированность производителей.

Перспективы развития связаны с:

стандартизацией процедур маркировки;

интеграцией системы «ТТМ.КГ» с международными базами данных (например, GS1);

цифровой трансформацией цепочек поставок;

обучением кадров в рамках программ «Цифровой Кыргызстан 2025».

Заключение. Цифровые технологии идентификации и прослеживаемости становятся неотъемлемой частью инновационного развития предприятий Кыргызстана.

Они способствуют росту прозрачности, снижению издержек и повышению доверия к национальной продукции на внешних рынках.

Расширение системы маркировки и прослеживаемости является важным шагом в направлении интеграции науки, образования и производства, обеспечивающим переход к инновационной и ресурсоэффективной экономике.

Каждый штрих-код - это шаг к качеству, прозрачности и устойчивому развитию.

Список литературы

1. K-News https://knews.kg/2024/04/17/v-kyrgyzstane-za-tri-mesyatsa-2024-goda-vydano-41-8-mln-kodov-markirovki/?utm_source=chatgpt.com)

2. Перечень товаров, подлежащих маркировке при ввозе в ЕАЭС – Sputnik Кыргызстан 09.07.2025) (https://ru.sputnik.kg/20250709/eaes-tovary-vvoz-markirovka-1095191659.html?utm_source=chatgpt.com)

3. Положение о маркировке товаров средствами идентификации в Кыргызстане – KyrTAG (https://kyrtag.kg/kg/news/utverzhdeno-polozhenie-o-markirovke-tovarov-sredstvami-identifikatsii-v-kyrgyzstane?utm_source=chatgpt.com)

4. Перечень маркируемых товаров Кыргызстана на 2024 год – Честный ЗНАК (https://xn--80ajghhoc2aj1c8b.xn--p1ai/info/news/rasshirenie-perechnya-markiruemykh-tovarov-odna-iz-glavnykh-zadach-kyrgyzstana-na-2024-god/?utm_source=chatgpt.com)

5. Единый стандарт Кыргызстана при перемещении товаров через границу ЕАЭС – Aqparat.info (13.03.2025)

6. (https://aqparat.info/news/2025/03/13/10761826-kakih_edinyh_standartov_dolzhen-priderzh.html?utm_source=chatgpt.com)

TIJORAT BANKLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINING INNOVATSION MEXANIZMLARI

A.Kadirov, FDTU dotsenti
M.Karimov, D.Rasuljonov FDTU, Menejment 4 kurs

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi, iqtisodiy inqirozlarning asosiy sabablari, inqirozlarga qarshi boshqaruv mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritilishida boshqaruvning innovatsion modellari, sun’iy intellekt, fintech va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish tajribalarning tahlillari asosida, bank tizimidagi raqamli valyutalar va global moliyaviy hamkorlikning inqirozlarni oldini olishdagi ahamiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, iqtisodiy inqiroz, moliyaviy tanglik, boshqaruvning innovatsion modellari, sun’iy intellekt, fintech, blokcheyn, raqamli valyutalar.

Аннотация: В статье анализируются вопросы устойчивого функционирования коммерческих банков, основные причины экономических кризисов и механизмы антикризисного управления. Также, на основе анализа опыта применения инновационных моделей управления, искусственного интеллекта, финтеха и блокчейн-технологий в обеспечении устойчивого функционирования коммерческих банков, представлена информация о значении цифровых валют в банковской системе и глобальном финансовом сотрудничестве в предотвращении кризисов.

Ключевые слова: коммерческие банки, экономический кризис, финансовый кризис, инновационные модели управления, искусственный интеллект, финтех, блокчейн, цифровые валюты.

Abstract: This article analyzes the sustainable operation of commercial banks, the main causes of economic crises, and anti-crisis management mechanisms. Also, based on the analysis of experiences in the use of innovative management models, artificial intelligence, fintech, and blockchain technologies in the sustainable operation of commercial banks, information is provided on the importance of digital currencies in the banking system and global financial cooperation in preventing crises.

Keywords: commercial banks, economic crisis, financial crisis, innovative management models, artificial intelligence, fintech, blockchain, digital currencies.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, moliyaviy bozorlar globallashuvi va mijozlar ehtiyojlarining keskin o‘zgarishi tijorat banklari oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bank tizimining barqarorligi nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga, balki

innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, samarali risk-menejment va transformatsiya mexanizmlariga ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishining innovatsion mexanizmlarini shakllantirish milliy bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Jahon moliya bozorida kuzatilayotgan beqarorlik, globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi bank tizimi oldida yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Mijozlar ehtiyojlarining diversifikatsiyalanishi, raqamli xizmatlar talabining oshishi, moliyaviy xavflarning murakkablashuvi banklar faoliyatining barqarorligini ta’minlashni dolzarb vazifaga aylantirdi. Shu sharoitda tijorat banklarining innovatsion mexanizmlardan samarali foydalanishi ularning raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va operatsion samaradorligini oshiradi. Innovatsion mexanizmlar bank faoliyatining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi: boshqaruv tizimi, risk-menejment, kreditlash texnologiyalari, to‘lov tizimlari, mijozlarga xizmat ko‘rsatish modeli, aktiv va passivlarni boshqarish, ichki nazorat hamda axborot xavfsizligi. Mazkur maqola O‘zbekiston tijorat banklarida barqarorlikni ta’minlashda innovatsion mexanizmlarning ilmiy asoslari va amaliy ahamiyatini tahlil qiladi.

Bank tizimining barqarorligi har qanday iqtisodiyotning rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. Bank inqirozlari iqtisodiy tanazzulning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, moliyaviy tizimlarning izdan chiqishiga va iqtisodiy o‘sishning sekinlashishiga olib keladi. Bank inqirozlariga qarshi kurashish va ularni boshqarish bo‘yicha zamonaviy innovatsion modellarni joriy etish bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. So‘nggi uch yil ichida bir qancha xorijiy tadqiqotchilar bank inqirozlariga qarshi boshqaruv modellarini ishlab chiqdilar, ularning ishlanmalari bu sohada katta e’tibor qozondi. Ushbu maqolada bank inqirozlariga qarshi innovatsion modellar bo‘yicha so‘nggi yillarda chop etilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi, xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilib, yangi yechimlar taklif etiladi.

Tijorat banklari barqarorligi bu bankning moliyaviy ko‘rsatkichlari, risklarga chidamliligi, kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, operatsion samaradorligi va bozor raqobatbardoshligini uzoq muddat davomida ta’minlay olish qobiliyatidir. Tijorat banklarining barqarorligiga ta’sir qiluvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- aktiv va passivlarni boshqarish sifatining yuksakligi;
- kredit portfeli diversifikatsiyalanganligi;
- risk-menejment tizimining samaradorligi;
- innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
- mijozlar bazasining kengligi va barqarorligi;
- bank xizmatlarining raqobatbardoshligi.

Tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritilishida innovatsion mexanizmlar banklarda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan raqamli, texnologik,

tashkiliy, boshqaruv va strategik yangiliklar majmui muhim hisoblanadi. Innovatsion mexanizmlar tijorat banklarining asosiy faoliyati bilan bir qatorda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish uchun, sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimi yanada yaxshilash uchun, blokcheyn asosida xavfsiz tranzaksiyalarni tashkil etilishini ta’minlanishida, kiberxavfsizlik infratuzilmasini kuchaytirish maqsadida, ESG tamoyillariga asoslangan barqaror bank menejmenti tashkil etilishida, masofaviy xizmat ko‘rsatish platformalarini joriy etilishida hamda open Banking va API-bank xizmatlarini joriy etilishini yanda yaxshidash mumkin. Mazkur mexanizmlar banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, risklarni kamaytirish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlar qoniqishini oshirishga xizmat qiladi.

Bank inqirozlariga qarshi innovatsion modellarni ishlab chiqishda so‘nggi uch yil ichida bir qancha tadqiqotchilar o‘z ishlanmalarini taqdim etishdi:

Johnson (2021) o‘z tadqiqotida bank tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning ahamiyatini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, raqamli tizimlar kredit xavfini aniq baholashga yordam beradi va bank inqirozlarining oldini olish imkonini yaratadi. Johnson inqirozga qarshi kurashish uchun moliyaviy big data’lardan foydalanishni muhim deb biladi va bu orqali kredit bozorlarida muammolarni oldindan bashorat qilish mumkinligini taъkidlaydi.

Kumar va Lee (2022) fintech kompaniyalarining bank sektoridagi roli va ularning inqirozlarga qarshi boshqaruvdagi innovatsion modellarini o‘rgangan. Ularning tadqiqotlari fintech texnologiyalarining bank xizmatlari samaradorligini oshirishga va inqirozlarni tezkor boshqarishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlari va avtomatlashtirilgan to‘lov tizimlari yordamida kredit xavflarini boshqarish va moliyaviy beqarorlik holatlariga tez javob qaytarish imkoniyati oshadi.

Garcia (2021) moliyaviy tizimda blokcheyn texnologiyasidan foydalanishni innovatsion yechim sifatida tavsiya etadi. Uning tadqiqotida blokcheyn texnologiyasi orqali tranzaksiyalarni shaffof qilish, ularga to‘liq kuzatuv va nazorat o‘rnatish bank tizimiga ishonchni oshiradi va inqirozlar paytida moliyaviy tizimni himoya qilishda yordam berishi ko‘rsatilgan.

Davis (2023) o‘z izlanishlarida bank inqirozlariga qarshi global moliyaviy integratsiyani kuchaytirishni taklif qiladi. Uning tadqiqoti global moliyaviy tizimlarni kooperatsiya va innovatsion texnologiyalar yordamida boshqarish orqali bank inqirozlarining oldini olish mumkinligini ko‘rsatadi. Banklar va moliyaviy institutlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayonini kuchaytirish va birgalikda raqamli platformalar yaratish inqiroz xavflarini kamaytiradi.

Lee (2021) esa moliyaviy siyosat va bank regulyatorlari o‘rtasida tezkor va moslashuvchan boshqaruv tizimlarini joriy etishni tavsiya qiladi. Uning tadqiqotlari moliyaviy regulyatsiya jarayonlarini real vaqtda monitoring qilish orqali bank inqirozlarining oldini olish va regulyatorlarning vaqtli qaror qabul qilish imkoniyatlarini oshirish muhimligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab bir qancha mamlakatlar bank inqirozlariga qarshi boshqaruvning innovatsion modellarini amaliyotga tatbiq etmoqda. Ularning tajribasi bu modellarni samarali joriy etishda muhim darslar beradi.

AQSh bank sektorida fintech va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash orqali inqirozlarga qarshi boshqaruv tizimini muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘ygan. 2020-yildagi pandemiya davrida AQSh banklari mijozlarning to‘lov qobiliyatini sun’iy intellekt yordamida bashorat qilish tizimlaridan foydalangan va bu kredit bozorida katta muvaffaqiyatga erishishga yordam bergan.

Yevropa Ittifoqi davlatlari, xususan, Germaniya va Frantsiyada blokcheyn texnologiyasi moliyaviy tranzaksiyalarni shaffof qilish va nazorat ostiga olish uchun keng qo‘llaniladi. Bu texnologiya orqali moliyaviy inqirozlarning oldini olish va bank tizimiga ishonchni oshirish mumkinligi isbotlangan.

Xitoy esa raqamli yuanni (CBDC - Central Bank Digital Currency) joriy qilish orqali bank inqirozlariga qarshi kurashishda innovatsion model yaratdi. Bu raqamli valyuta orqali Xitoy Markaziy banki iqtisodiy faollikni yaxshilashga va moliyaviy inqirozlarning oldini olishga muvaffaq bo‘lmoqda.

Singapur moliyaviy inqirozlarga qarshi boshqaruvda fintech kompaniyalari bilan yaqin hamkorlik o‘rnatib, bank xizmatlarining raqamli o‘zgarishi orqali moliyaviy barqarorlikka erishmoqda. Bu mamlakatdagi fintech ekotizimi moliyaviy operatsiyalarni tezkor amalga oshirish va xavflarni oldindan aniqlashga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, bank inqirozlariga qarshi innovatsion boshqaruv modellarining quyidagi jihatlari e’tiborga olinishi lozim:

Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tizimlaridan foydalanish – Kredit xavfini oldindan aniqlash va bank tizimining barqarorligini ta’minlashda bu texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Katta ma’lumotlar yordamida moliyaviy bozorlar va mijozlarning iqtisodiy faolligi real vaqtda kuzatilib, bank inqirozlarining oldi olinadi.

Blokcheyn texnologiyasi orqali moliyaviy tizimlarni shaffoflashtirish – Moliyaviy tranzaksiyalarni to‘liq nazoratga olish va bank tizimiga ishonchni oshirish uchun blokcheyn texnologiyasidan keng foydalanish zarur.

Kooperativ moliyaviy platformalarni yaratish – Banklar va moliyaviy institutlar o‘rtasida raqamli platformalar yordamida axborot almashinuvini kuchaytirish, integratsiyalashgan moliyaviy tizimlar yaratish orqali inqiroz xavflarini kamaytirish.

Raqamli valyutalarni joriy qilish – Markaziy banklarning raqamli valyutalarini iqtisodiyotga joriy etish, pul oqimlarini boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni saqlashda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Regulyatorlar uchun tezkor boshqaruv tizimlarini yaratish – Bank regulyatorlari inqirozlarni oldindan bashorat qilishi va moslashuvchan moliyaviy siyosat yuritishi zarur.

Shu asosda bank inqirozlariga qarshi boshqaruvning yangi modellarini ishlab chiqish taklif etiladi. Jumladan, integratsiyalangan sun’iy intellekt va raqamli

valyutalar platformasi, bu bank tizimi va markaziy banklar o‘rtasida real vaqtda axborot almashinuvini ta’minlaydi va kredit xavflarini boshqarishda yangi yondashuvlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azlarova. A. (2020). Covid-19 koronovirus pandemiyasi шароитида o‘zbekitonda банк soxasini transformatsiyalash jarayonini jadallashtirish // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. No 5, sentyabr oktyabr.

2. Gupta, R. (2021). Industry 4.0 adaption in Indian Banking Sector - A review and agenda for future research. MDI Sage. 27(1). DOI: https://doi.org/10.1177/0972262921996829.

3. Hamidi, H., & Nourani, M. (2020). Green Banking Practices: A Systematic Literature Review. Corporate Social Responsibility and Environmental Management, 27(1), 3-22c

“STEM” TA’LIM TIZIMINI INNOVATSION IQTISODIYOTGA O‘TISHNI JADALLASHTIRISH MAQSADIDA QO‘LLASH

Ermatov Akmaljon Akbaraliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, e-mail: akmaljon.ermatov@fstu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta’lim tizimini innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonida qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unda yuqori texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantirish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda STEM yondashuvining o‘rni tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar asosida ushbu tizimning iqtisodiy o‘sishga ta’siri, shuningdek, O‘zbekistonda STEM muhitining shakllanishi va ta’lim jarayoniga joriy etilayotgan ilg‘or amaliyotlar baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, STEM ta’limidan samarali foydalanish yoshlarning innovatsion fikrlashini kuchaytirib, mamlakatning texnologik va iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: STEM ta’limi, innovatsion iqtisodiyot, fanlararo integratsiya, zamonaviy texnologiyalar, iqtisodiy o‘sish, malakali kadrlar, startap loyihalar, raqobatbardoshlik, texnik bilimlar, ta’lim innovatsiyalari.

Аннотация. В данной статье рассматривается применение системы образования STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) в процессе перехода к инновационной экономике с теоретической и практической точек зрения. Оценено влияние подхода STEM на внедрение современных технологий, развитие научно-технического потенциала и подготовку конкурентоспособных кадров. На основе международного опыта

проанализировано влияние системы на экономический рост, а также формирование STEM-среды и внедрение передовой практики в образовательный процесс в Узбекистане. Результаты исследования показывают, что эффективное использование STEM-образования способствует развитию инновационного мышления у молодежи и ускоряет технологическое и экономическое развитие страны.

Ключевые слова: STEM образование, инновационная экономика, междисциплинарная интеграция, современные технологии, экономический рост, квалифицированные кадры, стартап-проекты, конкурентоспособность, технические знания, образовательные инновации.

Abstract. This article explores the application of the STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) education system in the transition to an innovation-driven economy from both theoretical and practical perspectives. The impact of the STEM approach on the implementation of modern technologies, the development of scientific and technical potential, and the preparation of competitive personnel is evaluated. Based on international experience, the article analyzes the influence of the system on economic growth, as well as the formation of a STEM environment and the implementation of advanced practices in the educational process in Uzbekistan. The results indicate that effective use of STEM education enhances innovative thinking among youth and accelerates the technological and economic development of the country.

Keywords: STEM education, innovation economy, interdisciplinary integration, modern technologies, economic growth, skilled workforce, startup projects, competitiveness, technical knowledge, educational innovations.

KIRISH

XXI asrda mamlakatlarning raqobatbardoshligi ularning ilmiy-texnik salohiyati, innovatsion rivojlanish darajasi va yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganligiga bevosita bog‘liq. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish muhim omillardan biridir. Ayniqsa, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta’lim tizimini joriy etish iqtisodiy o‘sish va modernizatsiya jarayonlarining tashabbuskori sifatida e’tirof etilmoqda [1, 12-b.].

STEM ta’limi nafaqat o‘quvchilarni ilmiy-texnik yo‘nalishlarga qiziqtiradi, balki ularda muammoli vaziyatlarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish va texnologik jarayonlarni chuqur tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bugungi kunda innovatsion iqtisodiyotning bosh omili - inson kapitali ekanligi hisobga olinsa, STEM ta’limi bu jarayonning strategik asoslaridan biri sanaladi.

1. STEM ta’lim tizimining mohiyati va nazariy asoslari

STEM ta’limi - fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarining integratsiyasiga asoslangan ta’lim modeli bo‘lib, ta’lim jarayonida amaliy tajriba, muammolarni yechish va loyihaviy faoliyatga urg‘u beradi [2, 45-b.].

STEMning asosiy tamoyillari:

1. Fanlararo integratsiya
2. Amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv
3. Muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish
4. Innovatsion fikrlash va kreativlikni rivojlantirish
5. Texnologik savodxonlik

Yevropa, AQSH, Koreya va Singapurda STEM dasturlari iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida qo‘llanilib, maktabdan boshlab mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlanmoqda [3, 72-b.].

2. Innovatsion iqtisodiyot: mohiyati va rivojlanish omillari

Innovatsion iqtisodiyot - ilmiy yutuqlar, yuqori texnologiyalar, startap ekotizimi va raqamli xizmatlar asosida shakllanadigan iqtisodiy modeldir.

Uning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan investitsiyalar miqdori;
- raqamli texnologiyalarni joriy etish sur’ati;
- mehnat unumdorligi;
- startaplar va texnoparklarning rivojlanish darajasi [4, 55-b.].

Bu jarayonlar rivojida STEM sohalarida bilim va ko‘nikmaga ega kadrlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ta’limdagi islohotlar iqtisodiy modernizatsiyaning boshlang‘ich nuqtasini belgilab beradi.

3. STEM ta’limining innovatsion iqtisodiyotga ta’siri

STEM ta’limi nafaqat o‘quv jarayonini modernizatsiya qiladi, balki iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

STEMning iqtisodiy ta’sir yo‘nalishlari:

Texnologik savodxonlikni oshiradi - bu ishlab chiqarish samaradorligini ko‘taradi.

Innovatsion fikrlashni shakllantiradi - yangi g‘oyalar asosida startaplar soni ortadi.

Malakali muhandislik kadrlarini yetishtiradi - sanoat modernizatsiyasiga xizmat qiladi.

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytiradi [5, 61-b.].

Janubiy Koreyada STEM dasturlarini joriy etish natijasida IT sohasiga kiruvchi mahsulotlar eksporti yillik 220 mlrd. dollardan oshdi va mamlakat innovatsion iqtisodiyot indeksida yuqori o‘rinlarni egallamoqda [6, 47-b.].

4. STEM ta’limida qo‘llanilayotgan innovatsion metodlar

1) Loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning)

O‘quvchilar real hayotiy muammolarni yechishga qaratilgan loyihalar ustida ishlaydi. Misol: maktab o‘quvchilarining “aqlli sug‘orish tizimi” yaratish loyihasi.

2) Robototexnika

Robot yig‘ish, dasturlash, mikroprotsessorlar bilan ishlash - yangi kasblar uchun tayyorlaydi [7, 88-b.].

3) 3D-modellashtirish

Muhandislikka kirishni yengillashtiradi.

4) Raqamli simulyatorlar va virtual laboratoriyalar

Xavfsiz, yuqori sifatli amaliyot imkoniyatini beradi.

5. Raqamli transformatsiya va STEM ta’limi

Bugungi kunda sun’iy intellekt, IoT, Big Data, robototexnika va kiberxavfsizlik kabi yo‘nalishlar bo‘yicha talab ortib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida STEM kadrlariga bo‘lgan ehtiyoj har yili 12–15% o‘smoqda [8, 102-b.].

Ayniqsa texnologik tarmoqlarda:

1. IT-parklar;
2. texnoparklar;
3. startap akseleratorlar;
4. raqamli platformalar STEM malakasiga ega yoshlar bilan to‘ldirilmoqda.

6. O‘zbekiston tajribasi: amaliy misollar

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda STEM ta’limiga katta e’tibor berilmoqda.

Tashabbuslar:

1. “Bir million dasturchi” loyihasi
2. IT-parklar tashkil etilishi
3. Prezident maktablarida ilg‘or laboratoriyalar o‘rnatilishi
4. “Future Skills” dasturi
5. Muhandislik va robototexnika to‘garaklari tashkil etilishi [9].

Amaliy natija. Toshkent shahridagi Prezident maktabida o‘quvchilar 3D-printerlardan foydalanib 150 dan ortiq amaliy loyihalar yaratdi. Natijada xalqaro robototexnika musobaqalarida o‘zbekistonlik o‘quvchilar 20 dan ortiq medalni qo‘lga kiritdi.

7. Xalqaro taqqoslashlar va muvaffaqiyat modellar

Singapurda STEM ta’limi davlat iqtisodiy strategiyasining asosiy qismi bo‘lib, har bir o‘quvchi muhandislik yo‘nalishida kamida bir loyiha bajaradi.

AQSHda esa STEM diplomiga ega yoshlarning o‘rtacha yillik daromadi STEM bo‘lmagan soha vakillaridan 53% yuqoriroq ekanligi aniqlangan [10].

8. STEM ta’limini samarali joriy etish bo‘yicha takliflar

- O‘qituvchilarning malakasini oshirish
- Maktablarni texnik jihozlash
- Fanlararo integratsiyani kuchaytirish
- Texnoparklar bilan hamkorlikni rivojlantirish
- Amaliy loyihalar uchun grantlar ajratish
- Xalqaro STEM dasturlarini tatbiq etish
- Hududlar kesimida STEM markazlarini ochish

Bu chora-tadbirlar innovatsion iqtisodiyotga o‘tishni sezilarli darajada tezlashtiradi.

XULOSA

STEM ta’lim tizimi innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning eng muhim omillaridan biri bo‘lib, ta’lim jarayonining zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilishini ta’minlaydi. U yoshlarning ilmiy-texnik fikrlashini rivojlantiradi, iqtisodiy o‘sish uchun zarur bo‘lgan yuqori malakali kadrlarni yetishtiradi.

O‘zbekiston sharoitida STEM ta’limining joriy etilishi innovatsion rivojlanishning barqaror sur’atda davom etishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2020.
2. Smith J. STEM Education Models. – New York, 2018.
3. Porter M. Innovation Economy. – London, 2019.
4. Lee K. Global STEM Strategies. – Seoul, 2021.
5. Hasanov M. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2019.
6. Brown T. Digital Transformation. – Washington, 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hisobotlari, 2022.
8. Chen L. Asian STEM Practices. – Singapore, 2020.
9. IT-Park Uzbekistan. Rasmiy hisobotlar, 2023.
10. OECD Science & Education Report, 2021.

FAN VA TA’LIM DAVLATNI RIVOJLANISHGA YETAKLOVCHI ASOSIY KUCH SIFATIDA

Axunova Ma’rifat Xakimovna, Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi, katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi hamda samaradorligiga erishish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi tarmoqlarni yaratish, aholi turmush darajasi, ilm-fan va ta’lim tizimlarini sifat jihatidan yuksaltirib borish bilan bog‘liq muammolarning yechimini ta’minlash masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Fan va texnika, ilm-fan va ta’lim, integratsiya jarayoni.

Аннотация: В статье рассматриваются приоритетные направления развития науки и технологий в Узбекистане, включая достижение конкурентоспособности и эффективности национальной экономики, повышение производительности труда, создание новых производств, повышение уровня жизни населения, а также решение задач, связанных с качественным совершенствованием систем науки и образования.

Ключевые слова: Наука и технологии, наука и образование, интеграционные процессы.

Abstract: The article discusses the priority areas of science and technology development in Uzbekistan, including achieving competitiveness and efficiency of the national economy, increasing labor productivity, creating new industries, improving the living standards of the population, and ensuring solutions to problems related to the qualitative improvement of science and education systems.

Keywords: Science and technology, science and education, integration process.

Fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko‘plab ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differensiallashuvini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”da 2026 yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish, Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish, davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta’lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish, davlat oliy ta’lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash, 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash, oliy ta’lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish, salohiyati va o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha 5 yilga mo‘ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash kabi vazifalarni amalga oshirish belgilab qo‘yilgan.[4] Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Bugungi kunda fan va ta’lim tobora kuchliroq tarzda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanmoqda. Sababi oxirgi yillarda ilmiy hamjamiyatning inson kapitali nazariyasiga bo‘lgan qiziqishi kuchaydi. Buning boisi raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish uning avvalo har bir mamlakat o‘zida ta’lim, shu jumladan oliy ta’lim sifatini oshirishi lozim.

Asosiy muammolardan yana biri - bu ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yetarli emasligi, bu ko‘pincha talabalarning nazariy tayyorgarligi va mehnat bozorining haqiqiy talablari o‘rtasidagi nomutanosiblikka olib keladi. Bu bo‘shliqni nazariya va amaliyot o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydigan ta’lim modellarini ishlab chiqish va joriy etish orqali bartaraf etish mumkin, shu bilan talabalarga nafaqat kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish, balki tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish va muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvni ta’minlash imkonini beradi.

Fan va ta’lim har qanday davlatning qudrati ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy resursi hisoblanadi. Faqat eng yangi zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish hamda yuqori darajada ilm talab mahsulot yaratibgina iqtisodiyotni yuksaltirishga erishish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarida oliy ta’limga ega bo‘lgan insonlar ulushi - 40 foizga yaqinlashib qoldi, masalan, Rossiya, Kanada, Yaponiya va Janubiy Koreyada - 55 foizdan oshdi. Ta’limni raqamlashtirish mazkur jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Yaqin 50-100 yilda butun dunyoda navbatdagi ta’limni rivojlantirish drayveri bo‘lib qanaqa g‘oya maydonga kelishi kun tartibida turibdi. Masalan, o‘rta asrlarda texnologiyalarning almashinuvi 100 yilda bir marta ro‘y bergan bo‘lsa, keyinchalik texnologiyalar va bilimlarning yangilanish davri(sikli) 50-20 yilga tushdi, bugungi kunda esa 3-5 yilni, ba’zi tarmoqlarda esa undan ham qisqa. Natijada bugun o‘qishga kirgan talabaning olgan bilimlari biturgunga qadar o‘z qiymatini yo‘qotishi mumkin. Insoniyatning, jamiyatning oliy ta’limga bo‘lgan ehtiyoji o‘zgarish dinamikasi quyidagicha: - antik jamiyat-0,01%; - industrialgacha jamiyat-0,05%; - industrial jamiyat-3%; - postindustrial jamiyat-20%; - bilimlar iqtisodiyoti-60%. Bozorlar globazatsiyasi texnologiya va innovatsiyalarning tezlashgan kengayishini keltirib chiqarmoqda. Yangi kasblar eskilarining o‘rniga kelmoqda. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida fan sig‘imli jarayonlarning o‘sishi bilan har bir kasbdagi kasbiy ko‘nikmalar va bilimlarga bo‘lgan talablar oshib bormoqda. Yevropa mamlakatlarida qilingan hisob-kitoblar ko‘rsatishicha, o‘quv kunlarining 1 foizga ortishi mehnat unumdorligining 3 foizga o‘sishiga, bunda mehnat unumdorligining 16 foiz atrofida o‘sishi ta’lim hisobiga ta’minlanadi.[3]

Bugungi globallashuv sharoitida yangi O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatiga samarali integrallashuvi uning noyob kapitali – fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga bevosita bog‘liq.

Ayniqsa, bugun dunyoda ta’lim muvaffaqiyati endi ma’lum hajmdagi bilimlarni o‘zlashtirishda emas, balki bu bilimlarni kengaytirish va uni yangi vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini egallash tendensiyalari ilgari surilmoqda. Oddiy qilib aytganda, dunyo endi odamlarni bilimga ega bo‘lgani uchun mukofotlamaydi – qidiruv tizimlari hamma narsani biladi – ular bu bilimlarni qanday tasarruf etishi, dunyoda o‘zini qanday tutishi va unga qanday moslashishi muhim. Chunki bu holat davrimizning o‘ziga xos sifati: bugungi kunda ta’limning

mohiyati – ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muloqot qilish va hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirish, bilim, tushuncha va yangi texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyatining dolzarbligida, shuningdek, eng muhimi, shaxsiy fazilatlarda, buning natijasida odamlar o‘zlarini amalga oshirishlari va insoniyatning barqaror rivojlanishi uchun hamkorlikda ishlashlari mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ilm-fan muammolari iqtisodiy o‘sishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga, ijtimoiy sohaning dolzarb muammolarini hal qilishga bevosita ta’sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

2. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi - Toshkent. // Xalq so‘zi, 2022 yil 20 dekabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida"gi, PF-158-sonli Farmoni.

5. A.S. Zikriyoev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o‘zingizni kashf qiling, Navro‘z, Toshkent 2020 y.ISBN.9789943659285.

ROTATSIYA AMALIYOTINING DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA KORRUPSIYA XAVFINI KAMAYTIRISHDAGI O‘RNI

Latipov Abror Umarovich, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligining Navoiy viloyati filiali inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘limi bosh inspektori

Annotatsiya: maqolada davlat kadrlar siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri – xodimlar rotatsiyasi va uning korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat fuqarolik xizmatchilarining shaxsiy va kasbga oid sifatlarini rivojlantirish, davlat xizmatida tashkiliy va korporativ madaniyatni yaratish, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilib, rotatsiya amaliyotining davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Rotatsiya, davlat xizmati, davlat fuqarolik xizmatchisi, korrupsiya, kadrlar zaxirasi, kasbiy tayyorgarlik darajasi, kadrlar salohiyati, samaradorlik, motivatsiya.

Abstract: The article reveals one of the important directions in state personnel policy – employee rotation – and its significance in combating

corruption, developing the personal and professional qualities of public servants, forming an organizational and corporate culture in public administration, as well as in creating a reserve of managerial personnel. The role and importance of the rotation practice in enhancing the efficiency of state bodies and organizations are examined.

Key words: rotation, public service, public civil servant, corruption, personnel reserve, level of professional training, personnel potential, efficiency, motivation.

Аннотация. В статье раскрывается одно из важных направлений государственной кадровой политики – ротация сотрудников – и её значение в борьбе с коррупцией, развитии личностных и профессиональных качеств государственных служащих, формировании организационной и корпоративной культуры в государственном управлении, а также в создании резерва руководящих кадров. Рассмотрена роль и значение практики ротации для повышения эффективности деятельности государственных органов и организаций.

Ключевые слова: ротация, государственная служба, государственный гражданский служащий, коррупция, кадровый резерв, уровень профессиональной подготовки, кадровый потенциал, эффективность, мотивация.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish - davlat boshqaruvining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, malakali inson resurslarini shakllantirmasdan va korrupsiyaga qarshi kurashmasdan turib mazkur dolzarb vazifalarni amalga oshirib bo‘lmaydi. Xorijiy mamlakatlarda va yirik kompaniyalarda xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, korrupsiya va xizmat mavqeini suiste’mol qilish holatlarining oldini olish maqsadida xodimlarni rotatsiya qilish usulidan keng foydalaniladi.

Davlat xizmatida xodimlar rotatsiyasi hududlararo va davlat xizmati alohida soha va tarmoqlararo ham amalga oshirilib, bugungi kunda ushbu mexanizm dunyoning ko‘plab mamlakatlarida qo‘llanib kelinmoqda.

Birinchi holatda davlat xizmatchilari ko‘proq rivojlangan hududdan nisbatan kam rivojlangan hududlarga yuboriladi.

Ikkinchi holatda esa xizmatchilari davlat tashkilotining boshqa tarkibiy qismlariga rotatsiya qilinib ularning yangi kasbiy tajriba va ko‘nikmalarni egallashi nazarda tutiladi.

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasida Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasiga doir talablar belgilangan bo‘lib, Davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi uning shaxsiy va kasbga oid sifatlarini rivojlantirish, faoliyatining samaradorligini oshirish, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida amalga oshirilishi mustahkamlab qo‘yilgan.[1] Bundan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, davlat kadrlar siyosatini samarali yo‘lga qo‘yish, shu jumladan, uning

asosiy elementlaridan biri hisoblanadigan rotatsiya institutini davlat xizmatida samarali qo‘llanilishi - kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish, ularni tayyorlash va joy-joyiga qo‘yish masalasini optimal hal qilish imkonini beradi. Binobarin, davlat faoliyatining bu sohasi, ayniqsa, yangi O‘zbekistonni barpo etishda o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, istiqboldagi vazifalarni, kelgusida rejalashtirilgan islohotlarni amalga oshirish, eng avvalo, davlat va hukumat idoralarida mas’ul lavozimda xizmat qilayotgan davlat xizmatchilari zimmasiga tushadi. Qolaversa, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish sohasi doimiy va izchil rivojlanadigan, o‘z-o‘zini tartibga soladigan mexanizm bo‘lmog‘i kerak.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o‘zgarishi yuz bermaydi”. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu mavzuning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” Strategiyasida davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish alohida vazifa sifatida belgilanganligi;

ikkinchidan, davlat boshqaruvida samarali rotatsiya institutini qo‘llashda tashkiliy-huquqiy muammolarning saqlanib qolayotganligi;

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “...hozirgi vaqtda davlat va hokimiyat idoralarida ko‘p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish, ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo‘lga qo‘yilmagani sezilmoqda. Eng yomoni, bu holat ishimizga xalaqit bermoqda. Bir idorani qarasangiz, yuzlab odam nomiga ishlab o‘tiribdi. Boshqa idorani qarasangiz, ish ko‘p, vazifa ko‘p, lekin ishlaydigan odam, kadr yetishmaydi”. [2, 25 b.];

Har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi muhim rol o‘ynaydi. Davlat boshqaruvi tizimining to‘laqonli samara bilan ishlashini ta’minlashda esa rotatsiya institutini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat boshqaruvida mazkur mexanizmlarni joriy etish, uni mamlakatimiz davlat fuqarolik xizmati tizimida muvaffaqiyatli qo‘llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsaddir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, rotatsiya davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasining o‘sishi, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshishi, korrupsiyaviy risklarni oldini olish, davlat xizmatida rahbar kadrlar zahirasini shakllantirish, singari dolzarb vazifalarni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Rotatsiyaning ijobiy jihatlari xususida quyidagilarni qayd etishimiz mumkin.

Rotatsiya jamoani yig‘ishga yordam beradi. Qoida tariqasida, hamkasblar o‘z bo‘limi ichida muloqot qilishadi va shu bilan o‘zlarini boshqa xodimlar va

bo‘limlardan amalda ajratib turadilar. Boshqa bo‘limlarga o‘tishda xodimlar boshqa odamlar bilan muloqot qilishni o‘rganadilar, yangi jamoada ular hamkorlik va murosaga kelishadi. Bo‘limlar o‘rtasida ham o‘zaro aloqa yo‘lga qo‘yiladi.

Tashkilotda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olinib, universal davlat xizmatchilarini tayyorlashga yordam beradi.

Xodimlarning rotatsiyasi mehnat nizolarining oldini olish va hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Agar nizoli vaziyat tomonlardan biri boshqa bo‘linmaga rotatsiya qilinsa ehtimol vaziyat oldi olinadi.

Rotatsiya xodim motivasisini kuchaytirib ma’lum bir bo‘lim ishiga yangi g‘oyalarni kiritishga yordam beradi. Bir lavozimda qolgan xodimlar o‘z vazifalarini "odatdagidek" bajarib, yangiliklardan juda ehtiyot bo‘lishadi. Bunday holda, "aniq" ko‘rinishga ega bo‘lgan xodim bo‘lim ishiga yangi konsepsiyani olib kirishi, uni boshqa tomondan ko‘rishi va ehtimol, tashkilot, jamoa faoliyat samaradorligini oshirishi mumkin.

Xodimlarni rotatsiya qilishning ayrim salbiy xususiyatlari ham borki, davlat fuqarolik xizmatida ularni albatta inobatga olish zarur.

- ma’lum bir rahbarlik lavozimlari rotatsiya tartibida markazdan yuboriladigan xizmatchilar uchun band qilinishi joylardagi xizmatchilarning kasbiy o‘sishida ma’lum muammolarni keltirib chiqarishi;

- ko‘chirilgan ishchilarning moslashuvi, ularning yangi lavozimlarga, hamkasblarga, mehnat sharoitlariga ko‘nikish davrida mehnat unumdorligining pasayishi;

- ko‘chirilganlarni o‘qitish va ko‘chirish tizimi ish beruvchilarda xarajatlarini o‘z zimmasiga olish zaruratini keltirib chiqarishi;

- xodimlarning oldingi lavozimlarini tark etishni istamasligi;

- ko‘chirish zarurati (yashash joyini o‘zgartirish, iqlim sharoiti) yoki ish joyiga borish uchun vaqt talab etilishi).

Ish beruvchi yoki rahbar xodimlar rotatsiya to‘g‘risida qaror qabul qilayotganda, ushbu qaror tashkilot yoki jamoa uchun qanchalik samarali ekanligini oldindan chuqur o‘ylab ko‘rishi lozim.

Xodimlar rotatsiyasi ko‘p hollarda ish beruvchi tashabbusi bilan ba’zi hollarda esa xodim o‘z ishida biror narsani o‘zgartirish kerakligini his qilganda uning tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Agar rotatsiya qilish taklifi xodim tomonidan bildirilsa, bu quyidagi sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin:

В целом, торгово-экономические отношения Узбекистана и Кыргызстана имеют большой потенциал для дальнейшего развития. Обе страны заинтересованы в расширении сотрудничества в различных сферах экономики.

По мнению замдиректора Центра экономических исследований и реформ Мухсинжона Холмухамедова, «Кыргызстан входит в первую десятку главных торгово-экономических партнёров Узбекистана и занимает 6-е место по товарообороту и 5-е место по экспорту товаров из РУз. На Кыргызстан приходится 2,5% общего внешнеторгового оборота и 5% общего экспорта Узбекистана».

Основные направления сотрудничества двух стран. Основными направлениями сотрудничества Узбекистана и Кыргызстана в торгово-экономической сфере являются:

- Торговля. Узбекистан и Кыргызстан являются важными торговыми партнёрами друг для друга. Узбекистан экспортирует в Кыргызстан хлопковое волокно, текстильные изделия, стройматериалы, сельскохозяйственную продукцию. Кыргызстан экспортирует в Узбекистан нефтепродукты, химикаты, машины и оборудование, продовольственные товары.

- Инвестиции. Две страны активно взаимодействуют в финансовой сфере. В 2023 году объём взаимных инвестиций между двумя странами составил $2,2 млрд (данные Нацстаткома КР). Узбекистан инвестировал в Кыргызстан в основном в инфраструктурные проекты, а Кыргызстан - в сельское хозяйство и промышленность Узбекистана.

- Промышленное сотрудничество. Узбекистан и Кыргызстан сотрудничают в сфере промышленности в таких областях, как машиностроение, лёгкая промышленность, сельское хозяйство. В частности, кыргызско-узбекский завод по производству автомобилей заработает в 2024 году, в ближайшее время появится и завод по выпуску сельскохозяйственной техники. В планах создание и совместного узбекско-кыргызской текстильной фабрики.

- Сельское хозяйство. Ташкент и Бишкек являются торговыми партнёрами и в сфере сельского хозяйства в таких областях, как: производство зерна, овощей, фруктов, животноводство. В частности, стороны сотрудничают в строительстве сельскохозяйственных объектов, в семеноводстве и племенном животноводстве.

- Транспортное и логистическое сотрудничество. Кыргызстан и Узбекистан взаимодействуют в сфере транспортного и логистического сотрудничества. Это - строительство автомобильных и железных дорог, развитие авиасообщения. Так, стороны реализуют проект железной дороги «Китай – Кыргызстан - Узбекистан».

Перспективы развития. Торгово-экономические отношения Узбекистана и Кыргызстана имеют большой потенциал для дальнейшего развития. Обе страны заинтересованы в расширении сотрудничества в различных сферах экономики.

1. Узбекская сторона заявила о готовности в содействии участию Кыргызстана в проекте «Международный торговый центр «Термез», являющийся одновременно торговым комплексом и зоной свободной торговли. Благодаря своему расположению Международный центр Термез предоставляет возможности увеличить объёмы и интенсивность внешней торговли Кыргызстана не только с Узбекистаном, но и с другими странами Центральной и Южной Азии (Туркменистан, Афганистан, Пакистан, Индия, Иран) с выходом на морские порты

2. Узбекистан и Кыргызстан заявили о возможности реализации совместного проекта по организации сборки автомобильной и коммерческой техники в Кыргызстане.

Реализация данного проекта была поддержана на высоком уровне, доказательством чего может служить подписанное Соглашение между Правительствами двух стран, в рамках государственного визита Президента РУз в КР в январе 2023 г.

3. Между странами также достигнута договорённость о поставке в КР тестовой партии тракторов (ТАТ 90), произведённых в РУз.

4. Минэкономкоммерции КР и Ассоциация «Узтекстильпром» рассмотрели возможность создания совместных текстильных кластеров по производству готовой продукции с высокой добавленной стоимостью и ее дальнейшего экспорта на рынки третьих стран.

Нынешнее состояние двусторонних отношений отличается открытостью и динамичностью. Важно отметить, что у лидеров двух стран есть твердая воля к укреплению добрососедских отношений и отсутствуют политические разногласия.

В самый сложный, кризисный период Кыргызстан ощутил весомую и практическую поддержку, что особенно проявилось во время пандемии COVID-19. Для соседей тесное экономическое сотрудничество является необходимым условием сосуществования.

27 января 2023 года Кыргызстан и Узбекистан подписали декларацию о стратегическом партнерстве. Президенты двух стран выразили уверенность, что реализация положений декларации будет способствовать дальнейшему укреплению стратегического партнерства двух стран [10].

Исходя из вышеизложенного, можно сделать следующие выводы:

Политическое взаимодействие:

- кыргызско-узбекские отношения основаны на высоком политическом доверии и долгосрочном стратегическом взаимодействии глав двух государств;
- положительная динамика межпарламентского сотрудничества;
- стороны подтвердили готовность проводить регулярные консультации по международным и региональным проблемам;
- стороны уверены, что будут способствовать укреплению стабильности, безопасности и совместного процветания двух стран;
- подтвердили намерение продолжать оказывать взаимную поддержку международным инициативам друг друга в рамках ООН, ШОС, СНГ, ТМУ, ОБСЕ и других многосторонних институтов;
- стабилизировать ситуацию в соседнем Афганистане, предпринять совместные усилия для восстановления экономики страны для обеспечения мира и безопасности в Центральной Азии;
- поддерживаются прямые контакты между государственными органами, юридическими и частными лицами двух стран.

Стороны взаимодействия по вопросам безопасности:

- принимает совместные меры по борьбе с международным терроризмом, идеологией экстремизма, незаконным оборотом наркотиков, транснациональной организованной преступностью, незаконной миграцией и другими угрозами;

- выступает против распространения идеологии экстремизма и насилия среди молодежи;

- укрепляет сотрудничество по вопросам международной информационной безопасности и кибербезопасности;

- продолжит развивать сотрудничество в военной и военно-технической сферах, совершенствовать соответствующую договорно-правовую базу.

Стороны торгово-экономического взаимодействия:

- намерена углублять инвестиционное сотрудничество, увеличивать объемы взаимной торговли, развивать производственную кооперацию, поддерживать предпринимателей двух стран, реализовывать совместные проекты в промышленности, сельском хозяйстве, перерабатывающей отрасли и других отраслях экономики;

- укрепляет практическое взаимодействие бизнес-структур и деловых кругов двух стран;

- отмечает начало работы Узбекско-Кыргызского фонда развития и продолжает активизировать работу фонда;

- прилагает усилия в области производства и переработки сельскохозяйственной продукции, безопасности пищевых продуктов, обеспечения населения доступными и качественными продуктами питания, экспорта в третьи страны;

- направлена на дальнейшее укрепление сотрудничества в сфере таможенного дела, использование новых технических средств.

Стороны взаимодействия в области воды и энергетики:

- комплексное использование водно-энергетических ресурсов;

- свидетельствует о готовности закупать, поставлять и транзитировать природный газ и электроэнергию на взаимовыгодных условиях.

Стороны транспортно-коммуникационного сотрудничества:

- продолжит прилагать совместные усилия для дальнейшего улучшения условий для постоянного увеличения пассажиро-, грузо-, транзитно-туристических потоков между странами;

- принимает меры по скорейшей реализации проекта строительства железной дороги Китай-Кыргызстан-Узбекистан;

- Увеличение грузоперевозок между странами по международному мультимодальному маршруту Ташкент - Андижан - Ош - Эркеч-Там - Кашкар;

- выступает за расширение географии и увеличение количества рейсов между странами.

Стороны межрегионального сотрудничества:

- отметил успешную работу полпредов двух стран в приграничных регионах;

- выразил готовность к поэтапному открытию дополнительных пунктов пропуска, что будет способствовать дальнейшему развитию приграничной торговли между двумя странами, расширению межрегиональных связей и туризма.

Стороны культурно-гуманитарного сотрудничества:

- создает благоприятные условия для развития сотрудничества в сферах образования и науки, культуры и искусства, туризма и спорта, сохранения родного языка, национальной культуры, традиций;

- в рамках празднования 30-летия установления дипломатических отношений Узбекистан в 2023 году проведет Дни культуры Кыргызстана и Дни культуры Узбекистана в Кыргызстане;

- выступает за тесное взаимодействие в сфере туризма, в том числе паломнического туризма;

- намерена углублять отношения в области здравоохранения, фармацевтики, медицинского образования и науки;

Поддерживает связь между университетами, обмен опытом, совместную реализацию научных проектов, организацию совместных научно-практических конференций и образовательных мероприятий.

Таким образом, стратегическое и перспективное укрепление партнерства между Кыргызстаном и Узбекистаном имеют большие перспективы и возможности развития. Нынешнее руководство двух государств способствуют улучшению дружественных добрососедских отношений в политико-экономическом и социально-культурном аспекте.

Список использованных источников:

1. Официальная страница Посольства Узбекистане в Кыргызской Республики. -

2. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.uzbekistan.kg/page/4062. Официальная страница Посольства Кыргызской Республики в Республике Узбекистан. - [Электронный ресурс]. - Режим доступа:

https://mfa.gov.kg/ru/dm/uzbekistan-ra/TenyH-inostrannoe/--uslugi/dogovorno-pravovaya-baza/ogovorno-pravovaya-baza-5c205e25be72e

3. Культурно-гуманитарное сотрудничество. Официальная страница Посольства Узбекистана в Кыргызстане. - [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.uzbekistan.kg/page/407

4. Национальный состав населения. Официальная страница Национального статистического комитета КР. - [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.stat.kg/ru/opendata/category/312/.

5. Узбекский национально-культурный центр Киргизской Республики. - [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://ru.wikipedia.org/wiki

6. Только 216 школ в Кыргызстане с русским языком обучения. - [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://24.kg/obschestvo/77108_tolko_216_shkol_vkyirgyizstane_srusskim_yazyikom_obuc heni ya_/

7. Официальная страница Кыргызско-Узбекского университета им. Батыралы Сыды-кова. - [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://www.kuu.kg

8. Принята Концепция этнической политики и консолидации обществ. - [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://rus.azattyk.Org/a/24239070.html

9. Князев А.А. Пресс-конференция 24.06.2010 г. - [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http s://lenta.ru/conf/knyaz ev.

10. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://kg.kab ar .kg/news/

11. Даниярова, Г. М. Кыргыз Республикасынын Борбордук Азия мамлекеттери менен болгон интеграциялык процесстери / Г. М. Даниярова, К. А. Азизбек // Вестник Ошского государственного университета. - 2020. - No. 1-3. - P. 325-329. - EDN: OSPFHY.

TURIZM BIZNESNI BOShQARIShNING ASOSIY TAMOYILLARI

Rustamova Maxfuza Maxmudovna- Farg‘ona davlat texnika universiteti? Menejment va marketing kafedrasi katta o‘qituvshisi
Salijonova Xumorabonu Botirjon qizi - Farg‘ona davlat texnika universiteti magistranti/ (90) 580 77 75

O‘zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning kelgusidagi bosqishida turistik korxonalarning institutsional asosini barqarorlashtirish va ularga iqtisodiy dastaklarni yanada kengaytirish hamda korxonalar raqobatbardoshligini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali turistlar sonini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. 2026-yilgasha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520ming nafarga yetkazish, turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasinirivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yisha davlat dasturini qabul qilish vazifalari belgilab berildi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda turistik korxonalar faoliyatini rivojlanishida mavjud turistik resurs komronentlaridan maqsadli foydalanish, turistik korxonalarning hududiy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’sir etuvshi faoliyat samaradorligini oshirish, turistik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish shoralarini ko‘rish bilan bog‘liq mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi.

Turizm sektorini boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini shakllantirishda davlat idoralari va turli darajadagi korxonalarning ta’siri hal qiluvshi ahamiyat kasb etadi. Turizmni davlat-xususiy hamkorligi asosida tartibga

solish bilan bog‘liq o‘ziga xos vazifalardan turizmni rivojlantirish sohasida tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni ishlab shiqish bo‘yisha qarorlar, shuningdek, bunday rivojlanish rejasini tayyorlash va qabul qilish maqsadga muvofiq. Hududlarda aholining ijtimoiy noshor qatlamlari manfaatlarini inobatga olib, ijtimoiy va maqsadli turizmni yo‘lga qo‘yish bo‘yisha davlat va xususiy sektorni rivojlantirish dasturlarini ishlab shiqish, DXSh mexanizmiga samarali investitsiyalarni jalb etish zarur. Iqtisodiyotni rivojlantirishda, jamiyatning ijtimoiy hayotida uning istiqbollarini hisobga olgan holda turizmni rivojlantirish jarayoni va yo‘nalishi ustidan doimiy nazoratni ta’minlash zaruriyatiga aylanmoqda (1-rasm). Bunda turistik faoliyatda davlat-xususiy tartibga solishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

– fuqarolarning dam olish, hordiq shiqarishi, harakatlanish erkinligi va sayohatlarni amalga oshirishdagi boshqa huquqlarini ta’minlash;

– istalgan bir turistik hudud tabiati, atrof-muhitini asrash;

– turistlarni sog‘lomlashtirish, ta’lim va tarbiyaga yo‘naltirilgan faoliyat ushun sharoitlar yaratish;

– sayohatlarni amalga oshirishda fuqarolar ehtiyojlarini ta’minlaydigan turizm sanoatini rivojlantirish;

– yangi ish o‘rinlari yaratish orqali davlat va fuqarolar daromadlarini oshirish;

– xalqaro aloqalarni rivojlantirish;

– turistik namoyish ob’ektlarini asrash, tabiiy va madaniy merosdan oqilona foydalanish vaziflari belgilangan.



1-rasm. Turizm sohasini boshqaruv tamoyillari

Turistik biznesda boshьiaruv tamoyillarini qo‘llashning ahamiyati shundaki, tadbirkorlik faoliyatining asosiy omillari sanalgan mulk, infratuzilma, rekreasiya ob’ektlari asosan xususiy sektorda bo‘lsa, turistik yo‘nalishlarning jozibadorligini

belgilaydigan tarixiy va madaniy meros ob’ektlariga davlat egalik qiladi. Aynan turizm sohasida iqtisodiyotning tijorat va notijorat sohalari manfaatlari o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.

Tuzim tarmoqlarini boshqaruvida hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, biologik va madaniy turli-tumanlikni saqlashga qaratilgan boshqaruv asosida turizmni rivojlantirish tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– hududlardagi qadimdan kelayotgan yoki yo‘qolib ketgan an’anaviy hunarmandshilik, ishlab shiqarishni tiklash va saqlab qolishga asoslangan holda mahalliy aholi, tadbirkorlik jamoalarini qo‘llab-quvvatlash va faollashtirish evaziga yangi ish o‘rinlari va qo‘shimsha daromad manbalarini yaratish;

– landshaftlarni, tarixiy, tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish hamda saqlash;

– turizmni rivojlantirish ushun mavjud mahalliy resurslardan oqilona foydalanish hisobiga mehmonxona iqtisodiyoti, turistik xizmatlari, mahalliy mahsulotlar ishlab shiqarilishini rivojlantirish;

– shet davlatlar hamda resrublikamizning viloyat va shaharlari, tumanlari aholisi o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish;

– joylarda mahalliy jamoalarning o‘z madaniy va ijtimoiy o‘ziga xosligi, yashash sharoitlarini yaxshilash;

– hududga tashrif buyuruvshi turistlarga axborotlarni tarqatish hamda mintaqaning muammolari, mahalliy tashabbuslari, voqealar, tashkilotlar va boshqalar to‘g‘risida batafsil axborot berish imkoniyatlarini yaratish;

– mamlakat mintaqalaraida saqlanib qolgan tarixiy-madaniy meros va tabiiy hududlarga tashrif buyurish;

– tarixiy joylarda harakatlanishning qoidalariga rioya qilish;

– istalgan bir hududga ekskursiyalarni to‘laqonli rejalashtirish, ularni ishlab shiqish va joriy etishga komrleks yondashuv;

– tabiiy muhofaza qilinadigan va alohida turistik hududlarda imkon qadar elektromobillardan, atmosferaga gaz shiqindilarini shiqarmaydigan transrort vositalaridan foydalanish, rekreasion, srort, ekologik turizmni targ‘ib qilish;

– turistlarning harakatlanishlarida shaxsiy transrort vositalari o‘rniga ekologik toza velosiredda yoki jamoat transrortlarida yurish ushun sharoit yaratish hamda faol turmush tarzini yaratish, salomatlikni yaxshilash yo‘lida xavfsizlikni kushaytirish.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida resrublikamiz nisbatan katta turistik imkoniyatlarga va salohiyatga, yuqori darajadagi raqobatbardosh, turizmni yanada rivojlantirish ushun ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lgan mamlakat bo‘lib hisoblanadi. Xalqaro eksrertlar va dunyo tajribasiga ko‘ra, turizmni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama samarali bo‘lib, uni tashkil etish arzonga tushadi va yuqori foyda beradi, sarflanadigan mablag‘lar tez vaqt ishida o‘zini qorlanadi. Shu boisdan ham, boshqaruv asosida turistik salohiyatni oshirishning mamlakat fuqarolariga ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, hududlarni jadal rivojlantirish, valyuta tushumlarini ko‘raytirish, aholi daromadlari

va turmush darajasini oshirish kabi muammolarni istiqbolda hal qilish ushun keng salohiyatga ega bo‘lgan turizm sohasini takomillashtirishning o‘rni katta. Tadqiqotlar davomida amalga oshirgan tahlillarga ko‘ra, turistik salohiyatni oshirishni boshqarishda turistik mahsulotni sotish ushun uni bozorga kiritishning samarali tizimini yaratish kerak, xususan, turistik mahsulotlar bozorini shuqur tadqiq qilish. Har qanday turizm sohasida faoliyat yurituvshi sub’ekt o‘z bozori va uning segmentlari rivojlanish ko‘rsatkishlari to‘g‘risida, bozorning hududiy shegaralari va sig‘imini baholashi, iste’mol talabining turi va raqobat intensivligi, baho tendensiyalari, iste’molshilar xulq-atvorlari kabi axborotlarga ega bo‘lishi kerak. Bozorning Bozorning rivojlanishidagi tendensiyalarni aniqlamasdan turib, bozor jarayonlarini tartibga solinishi va unga turistik firma faoliyatining moslashishi qiyin.

Maqsadli iste’molshilarni yaratish va tadqiq qilish. Rotensial iste’molshilar va iste’molshilar guruhlarini turizm xizmatlariga bo‘lgan talablarini to‘liq ta’minlash nuqtai nazaridan, turistik mahsulotni ilgari surish ushun istiqbolli turlar aniqlanadi. Bu yo‘nalishda asosan tadqiqotlar va tahlillar demografik, ijtimoiyiqtisodiy va rsixologik xususiyatlarni (turmush tarzi, qarashlar, fikr-mulohazalar, niyatlar, motivlar, xulq-atvor) o‘z ishiga oluvshi salohiyatli mijozlar bo‘yisha dastlabki ma’lumotlarni to‘rlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari turizm xizmatlarini bozorlarga harakatlantirish ushun eng samarali usul va vositalarni yaratish, reklama vositalarini tanlash, xabarlarning mazmuni va boshqalarni yaratish jarayoniga ko‘rroq ob’ektiv yondashish imkonini beradi.

Turistik mahsulotni tahlili va uning raqobatbardoshligini baholash. Mazkur bosqishda asosiy e’tibor bozorga taqdim qilinayotgan turmahsulotning raqobatbardoshligi, iste’mol xususiyatlarini baholashga qaratiladi. Tahlil natijalari bizga turistik mahsulotning iste’molshilar e’tiborini jalb qilish imkon beradigan o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga, shuningdek, uning yaxshilanishi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash bo‘yisha shora-tadbirlar rejasini ishlab shiqishga imkon beradi.

Sotuv tarmog‘i ishtirokshilari turistik mahsulotlar sotuvini amalga oshirishga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan shaxslar, davlat organlari, jamoat tashkilotlari bilan aloqlarni o‘rnatish va tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlil natijalari turistik mahsulotlarni birgalikda sotishni tashkil larni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi, amalga oshirilayotgan reklama tizimini qamrab olish va kushini oshirish imkonini beradi.

Iste’molshilarning va boshqa manfaatdor tomonlarning muayyan e’tiboriga erishishni ta’minlaydigan harakatlantirish maqsadini belgilash. Maqsadlar aniq shakllantirilishi, etarlisha to‘liq bo‘lishi, ularni o‘lshash va erishish darajasini baholash imkoniyati bo‘lishi kerak. Maqsadlarning xarakteri tanlov turini, usullarini, reklama kanallarini va boshqalarni tanlashni belgilaydi.

Rivojlanish usullari, vositalari va kanallarini yaratish. Qabul qilingan qarorlar turistik mahsulot turini, maqsadli bozor xususiyatlarini, vositashilar, etkazib beruvshilar va boshqa manfaatdor tomonlarni qo‘llab-quvvatlash kabi omillarga

ta’sir qiladi. Reklama targ‘iboti usulini tanlashda reklama murojaatlari ishlab shiqiladi. Reklama usullaridan foydalanilmaganda, turistik mahsulotni harakatlantirishning boshqa bir dastaklarini tanlash orqali amalga oshiriladi.

Taqdimot rejasini ishlab shiqish. Turistik mahsulotlarni reklama qilish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan aniq tadbirlarni ishlab shiqish, mas’ul shaxslarni va ijroshilarni belgilash, tadbirlarni o‘tkazish, targ‘ib qilish muddatini va intensivligini ta’minlash tushuniladi.

Taraqqiyot byudjetining shakllanishi. Umumiy byudjet targ‘ib qilish usullari, bozor segmentlari, turizm xizmatlarining turlari, sotilish muddatlari bilan taqsimlanadi.

Rivojlanish dasturini amalga oshirish. Ushbu bosqishda erishilgan natijalar monitoring qilinadi, aniqlangan shetlanishlar, komraniya tashqi va ishki muhitidagi o‘zgarishlar hisobga olinadi.

Davlat tomonidan xususiy tartibga solishni global miqyosda ikkita asosiy umumlashtirilgan yo‘nalish bo‘yisha amalga oshirish taklif qilinadi.

Birinshi yo‘nalish bozor va o‘zini o‘zi boshqarishning ko‘rlab muhim mahsulot turlari ushun talab-taklif tizimidagi mavjud munosabatlarning o‘z-o‘zidan raydo bo‘lishini hisobga olgan holda rejalar va davlat dasturlarini tuzish yo‘li orqali tartibga solinishi bilan bog‘liq.

Ikkinshi yo‘nalish ijtimoiy dasturlarning amalga oshirilishini va bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘nalishini ta’minlaydi. Hukumatning tegishli aralashuvisiz bozorning o‘z-o‘zini tartibga solishi monoroliyalar oshishiga, daromadlari bo‘yisha aholining tabaqalashuvi kushayishiga, ijtimoiy sohalarni (fan, madaniyat, san’at, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqalar) qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Ppezidentining 2019 yil 5 yanvapdagi «Turizm tapmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chopa-tadbirlap to‘g‘picida»gi PQ-4095-conli Qapopi,

2. O‘zbekiston Respublikasi Ppezidentining 2019 yil 13 avguctdagi «O‘zbekiston Respublikasida turizm cohacini yanada rivojlantirish chopa-tadbirlap to‘g‘picida»gi PF-5611-conli Qapopi.

3. Митрофанова Е.С. Совершенствование механизма взаимодействия Органов государственной власти и частного бизнеса в регулировании туристской политики/ Вестник Националной академии туризма №1 (8) январ-март 2010. - СПб.: ООО «Премиум Пресс». – 2010, С. 1 4-16.

4. Бабажанова Л.Ш.Актуалные аспекты устойчивого развития территорий Республики Узбекистан.https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-aspekty-ustoychivogo-razvitiya-territoriyrespubliki-uzbekistan

5. Кадырова З.А., Мусаева Р.А. Анализ стратегии маркетинга и продвижения туристического продукта Турции // Universum: экономика и юриспруденция : электрон. научн. журн. 2020. № 8 (73).

MODERNIZATSIYALASHGAN IQTISODIYOT SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Akramova Zuhraxon Baxtiyorjon qizi - Farg‘ona davlat texnika universtiteti ICHB fakulteti “Iqtisodiyot”yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya . Ushbu maqolada modernizatsiyalashgan iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonlarini samarali boshqarishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Integratsiyaning nazariy asoslari, uning innovatsion iqtisodiy rivojlanishga ta’siri hamda boshqaruv mexanizmlarining amaliy jihatlari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya, klasterlashuv va texnologik hamkorlikning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Maqola yakunida O‘zbekiston sanoatini modernizatsiya qilishga doir amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, ishlab chiqarish integratsiyasi, innovatsion yondashuv, innovatsion iqtisodiyot, modernizatsiya, raqamli transformatsiya, klasterlashuv, boshqaruv mexanizmi, texnologik hamkorlik, samaradorlik.

Аннотация .В данной статье анализируются инновационные подходы к эффективному управлению процессами производственной интеграции в условиях модернизированной экономики. Раскрыты теоретические основы интеграции, ее влияние на инновационное экономическое развитие, а также практические механизмы управления интеграционными процессами. Особое внимание уделено цифровой трансформации, кластеризации и технологическому сотрудничеству, повышающим эффективность производства. В заключение представлены практические предложения по модернизации промышленного сектора Узбекистана.

Ключевые слова: интеграция, производственная интеграция, инновационный подход, инновационная экономика, модернизация, цифровая трансформация, кластеризация, управленческий механизм, технологическое сотрудничество, эффективность.

Annotation. This article analyzes innovative approaches to the effective management of production integration processes in the context of a modernized economy. The theoretical fundamentals of integration, its impact on innovative economic development, and practical management mechanisms are examined. Special attention is given to digital transformation, clustering, and technological cooperation, which enhance production efficiency. The article concludes with practical recommendations for the modernization of Uzbekistan’s industrial sector.

Keywords: integration, production integration, innovative approach, innovative economy, modernization, digital transformation, clustering, management mechanism, technological cooperation, efficiency.

Modernizatsiyalashgan iqtisodiyotda ishlab chiqarish integratsiyasi korxonalar o‘rtasidagi texnologik, tashkiliy va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Integratsiya jarayonlari raqobatbardoshlikni ta’minlash, tannarxni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsion faoliyatni kuchaytirishda beqiyos ahamiyatga ega ekanligi xalqaro tajribalar bilan tasdiqlangan [1].

Ishlab chiqarish integratsiyasi mohiyatan korxonalar, ishlab chiqarish bosqichlari va texnologik jarayonlarning yagona qiymat zanjiriga birlashtirilishi orqali samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Integratsiyaning vertikal, gorizontal, texnologik va klasterlashuv shakllari mavjud bo‘lib, ular korxonalarning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytiradi va raqobat ustunliklarini shakllantiradi [2].

1-jadval.

Ishlab chiqarish integratsiyasining asosiy turlari va ularning afzalliklari

Integratsiya turi	Mazmuni	Asosiy afzalliklari
Vertikal integratsiya	Xomashyo → qayta ishlash → tayyor mahsulot jarayonlarini birlashtirish	Xarajatlarni optimallashtiradi; sifat nazorati kuchayadi
Gorizontal integratsiya	O‘xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar qo‘shilishi	Bozor ulushini kengaytiradi; raqobatbardoshlik oshadi
Texnologik integratsiya	Texnologiya va axborot tizimlarining uyg‘unligi	Innovatsion jarayonlarni tezlashtiradi
Klasterlashuv	Hududiy korxonalar tizimli birlashuvi	Resurslardan samarali foydalanish; eksport salohiyati ortadi

Ishlab chiqarish integratsiyasi strategik ahamiyatga ega bo‘lishining asosiy sababi - u tarmoqlar o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, resurslarni yagona tizimda boshqarish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va innovatsion mahsulot yaratish imkoniyatlarini kengaytirishidir. Integratsiya tufayli korxonalar ilmiy markazlar, OTMlar, IT sektori va boshqa sanoat subyektlari bilan hamkorlik qilish imkoniga ega bo‘ladi, bu esa yangi bilimlarning tezkor amaliyotga tatbiq etilishiga xizmat qiladi.Shuningdek, ishlab chiqarish integratsiyasi raqobatbardoshlikni ta’minlashning eng muhim omillaridan biridir. Integratsiya jarayonlari natijasida mahsulot sifati oshadi, tannarx kamayadi, innovatsion ishlab chiqarish jarayonlari joriy etiladi, bozor talablariga mos, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar yaratiladi. Bu esa milliy iqtisodiyotning global bozorlardagi pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi.

Texnologik rivojlanish bilan bog‘liq jihatdan, integratsiya ilmiy-texnik yutuqlarning ishlab chiqarishga tatbiqini tezlashtiradi, sanoatning raqamli

transformatsiyasini jadallashtiradi va korxonalar faoliyatini zamonaviy innovatsion modelga moslashtiradi. Smart-texnologiyalar, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari va raqamli logistika kabi yechimlar integratsiya natijasida samarali joriy etiladi.

Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish integratsiyasini samarali boshqarish innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning hal qiluvchi omili bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, raqobatbardoshlikni oshirish va texnologik yangilanishni ta’minlash uchun zarur strategik yo‘nalish sifatida baholanadi.

Ishlab chiqarish integratsiyasi zamonaviy iqtisodiyotning raqobatbardosh va innovatsion rivojlanishida muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Integratsiya - bu korxonalar, tarmoqlar yoki ishlab chiqarish bosqichlarining yagona tizimda o‘zaro bog‘lanishi, hamkorlikda ishlashi va resurslardan birgalikda foydalanishni nazarda tutadi. Uning asosiy maqsadi - ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni amaliyotga tez joriy qilish, xarajatlarni optimallashtirish va bozor talablari asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratishdir.Ishlab chiqarish integratsiyasining bir nechta asosiy turlari mavjud bo‘lib, ular quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

Vertikal integratsiya

Vertikal integratsiya ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini - xomashyo yetkazib berishdan tortib tayyor mahsulotni iste’molchiga yetkazishgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona tizimga birlashtirishni anglatadi. Ya’ni korxona xomashyoni yetkazib beruvchilar, yarim tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar, logistika, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini o‘z boshqaruviga oladi. Buning afzalligi - mahsulot sifati ustidan to‘liq nazorat, xarajatlarning kamayishi va ta’minot zanjiri barqarorligining oshishi.

Gorizontal integratsiya

Gorizontal integratsiya bir xil yoki o‘xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni bildiradi. Bu turdagi integratsiya korxonalarning birlashishi, qo‘shilish, qo‘shma ishlab chiqarish yoki resurslar almashinuvi shaklida sodir bo‘lishi mumkin. Natija - ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, bozor ulushining kengayishi, bir xil texnologiyalar asosida mahsulot diversifikatsiyasining kuchayishi.

Tarmoqlararo integratsiya

Tarmoqlararo integratsiya sanoat, axborot texnologiyalari, logistika, ilmiy tadqiqot muassasalari kabi turli sohalarning o‘zaro birlashuvini anglatadi. Masalan, IT texnologiyalarining sanoatga joriy etilishi, logistika tizimlarining raqamlashtirilishi yoki ilmiy markazlar bilan qo‘shma innovatsion loyihalar yuritilishi buning yaqqol misolidir.Uning ustunligi - innovatsion mahsulotlar yaratish imkoniyatlarining kengayishi va yangi texnologiyalarni joriy etish tezligining oshishi.

Klasterlashuv jarayoni

Klasterlashuv - geografik jihatdan yaqin joylashgan korxonalar, OTMlar, ilmiy markazlar, texnoparklar va xizmat ko‘rsatish subyektlarining yagona

innovatsion infratuzilma doirasida birlashuvi demakdir. Bunda tarmoqlar yuqori darajada kooperatsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Klasterlarning afzalligi - bilimlar almashinuvi, texnologiya transferi, raqobatning sog‘lomlashuvi, qo‘shma loyihalar va startaplar uchun qulay sharoit yaratilishi.

Integratsiya jarayonlari innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki integratsiya korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta’lim muassasalari va IT sektori o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kengaytiradi, texnologik modernizatsiyani tezlashtiradi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Ushbu jarayonlar iqtisodiyotning innovatsion modelga o‘tishida uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, integratsiya texnologik modernizatsiyani jadallashtiradi. Korxonalar o‘zaro hamkorlikda resurslarni birlashtirishi, yangi texnologiyalarni jadal o‘zlashtirishi va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishi natijasida texnologik yangilanish sur’atlari sezilarli ortadi. Xususan, kooperatsiya asosida ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida energiya tejamkor texnologiyalar, robotlashtirish, avtomatlashtirilgan tizimlar va smena boshqaruvning raqamli modellari keng qo‘llaniladi. Bu esa mahsulot sifati, ishlab chiqarish tezligi va raqobatbardoshlik darajasining oshishiga olib keladi.

Ikkinchidan, integratsiya fan-texnika yutuqlarining ishlab chiqarishga tezroq tatbiq etilishiga xizmat qiladi. Ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik innovatsion ishlanmalarni real sektorga tez o‘tkazish uchun qulay sharoit yaratadi. Tajriba-sinov laboratoriyalari, texnologiya transferi markazlari va universitet huzuridagi startap inkubatorlari ilmiy natijalarni tijoratlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Natijada iqtisodiyotda ilmiy asoslangan yangi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar ulushi ortadi.

Integratsiya jarayonlarining samaradorligi katta darajada innovatsion boshqaruv yondashuvlariga bog‘liq. Bunda raqamli transformatsiya jarayonlari muhim o‘rin tutadi. ERP, MES, CRM kabi raqamli tizimlar korxonalar o‘rtasida real vaqt ma’lumot almashinuvi, ishlab chiqarish jarayonlarini aniq rejalashtirish va monitoring qilish imkonini beradi [3]. Bunday tizimlarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini o‘rtacha 20–30% ga oshirishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [4].

Shuningdek, klasterlashuv va texnologik hamkorlik ham integratsiyaning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Klasterlar korxonalar, ilmiy markazlar va infratuzilmalarni yagona ekotizimga birlashtirib, resurs almashinuvi va innovatsion faoliyatni kuchaytiradi [5].

Quyidagi jadval innovatsion boshqaruvning integratsiyaga ta’sirini umumlashtirib beradi.

O‘zbekiston sanoatida integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Eng asosiylaridan biri raqamli boshqaruv tizimlarining korxonalar faoliyatiga yetarli darajada joriy etilmaganidir. Aksariyat korxonalar hali ham an’anaviy boshqaruv usullaridan foydalanadi, bu esa jarayonlarning

shaffofligini pasaytiradi va xatolar ko‘payishiga sabab bo‘ladi [6]. Shuningdek, ko‘plab korxonalarda texnologik eskirish sezilarli darajada bo‘lib, ilm-fan bilan sanoat o‘rtasidagi hamkorlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan [7].

2-jadval

Innovatsion boshqaruv mexanizmlarining integratsiya jarayonlariga ta’siri

Innovatsion mexanizm	Ta’sir mazmuni	Kutiladigan natija
ERP, MES tizimlari	Jarayonlarni avtomatlashtirish	Samaradorlikning oshishi
Klasterlashuv	Resurs va bilim almashinuvi	Raqobatbardoshlikning ortishi
Texnologik platformalar	Texnologiyalar uyg‘unligi	Innovatsiyalar tez joriy etiladi
R&D hamkorligi	Ilmiy ishlanmalar ishlab chiqarishga ulanadi	Yangi mahsulotlar yaratiladi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish uchun modernizatsiyani jadallashtirish, raqamli platformalarni keng joriy etish, klaster tizimini kengaytirish, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rag‘batlantirish zarur [8]. Bu yo‘nalishlardagi o‘zgarishlar sanoatning raqobatbardoshligini oshiradi, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtiradi hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.Respublikadagi korxonalarning sezilarli qismi hali ham an’anaviy boshqaruv usullaridan foydalanmoqda, natijada real vaqt ma’lumotlarini qayta ishlash, jarayonlarni aniq rejalashtirish va tizimli monitoring qilish imkoniyatlari cheklangan. Bu holat korxonalarning raqobatbardoshligini pasaytiradi, ishlab chiqarish tannarxining yuqoriligiga olib keladi, mahsulot sifatining barqarorligini pasaytiradi. Bunga qo‘shimcha ravishda, ba’zi sohalarda texnik va texnologik eskirish darajasi yuqori bo‘lib, bu innovatsiyalarni tez joriy etish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi.

Yana bir muhim jihat shuki, tahlillar sanoat klasterlarining to‘liq faoliyat yuritmasligi integratsiya samaradorligini cheklab qo‘yayotganini ko‘rsatmoqda. Hududiy korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi, logistika va infratuzilmaning yetarli emasligi, ilmiy-amaliy markazlarning hududiy klasterlarga to‘liq ulanmaganligi klaster modelining imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishga yo‘l qo‘ymayapti. Natijada klaster ichidagi resurs almashinuvi, bilim transferi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonlari sekin kechmoqda[9].

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Porter M. Competitive Advantage. – Boston, 1985. [1]
2. Kotler P. Marketing Management. – New York, 2016.[2]
3. Hasanov O. Innovatsion iqtisodiyot asoslari. – Toshkent, 2020.[3]

4. OECD Digital Industry Report, 2021. [4]
5. Tursunov B. Sanoat integratsiyasi va klasterlashuv. – Toshkent, 2019.[5]
6. O‘zbekiston sanoatida raqamli transformatsiya holati, Iqtisodiy tadqiqotlar [6] markazi, 2023.
7. Oliy ta’lim va sanoat hamkorligi bo‘yicha tahliliy hisobot, 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish strategiyasi, 2019–2025.
9 .Jahon banki. Industrial Modernization Review, 2022. [9]

SANOAT KORXONALARIDA KORPORATIV RISK BOSHQARUVINI RIVOJLANTIRISHNING KOMPLEKS NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

Maxmudova Nodiraxon Jumaboy qizi - O‘zbekiston, Farg‘ona davlat texnika universiteti, PhD katta o‘qituvchi, e-mail: maxmudovanodira@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston sanoat korxonalarida korporativ risk boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Xalqaro ISO 31000, COSO ERM, FERMA va Basel III metodologiyalari solishtirilib, ularning sanoat sharoitiga moslashuvi, ustunliklari va cheklovlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda global xavf omillari, raqamli transformatsiya, logistika va energetika bozori noaniqliklari hamda texnologik eskirish xavflari yoritilgan. Shuningdek, AI, Big Data, IoT va raqamli monitoring vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston korxonalarida risk indikatorlari tizimini yaratish, real vaqt rejimida kuzatish, ssenariy modellashtirish va risk madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: risk-menejment, korporativ boshqaruv, sanoat korxonalari, integratsiyalashgan risk tizimi, ISO 31000, COSO ERM, FERMA, Basel III, iqtisodiy barqarorlik, raqamli risk tahlili, ehtimollik modellar, strategik boshqaruv, innovatsion texnologiyalar, Big Data, sun’iy intellekt, ssenariy modellashtirish, xavf indikatorlari.

Аннотация: В данной научной статье анализируются теоретические и практические основы модернизации системы корпоративного риск-менеджмента на промышленных предприятиях Узбекистана. Сравниваются международные методологии ISO 31000, COSO ERM, FERMA и Basel III, рассматриваются их преимущества, ограничения и возможности адаптации к отраслевым условиям. Исследуются глобальные факторы риска, цифровая трансформация, логистические и энергетические кризисы, а также технологическое старение. Дополнительно анализируется применение AI, Big Data, IoT и цифрового мониторинга в управлении рисками. На основе узбекской практики разработаны рекомендации по формированию системы риск-индикаторов, мониторингу рисков в режиме реального времени, внедрению сценарного моделирования и развитию риск-культуры.

Ключевые слова: риск-менеджмент, корпоративное управление, промышленные предприятия, интегрированная система рисков, ISO 31000, COSO ERM, FERMA, Basel III, экономическая устойчивость, цифровой анализ рисков, вероятностные модели, стратегическое управление, инновационные технологии, Big Data, искусственный интеллект, сценарное моделирование, индикаторы рисков.

Annotation. This scientific article analyzes the theoretical and practical foundations of modernizing corporate risk management systems in industrial enterprises of Uzbekistan. International methodologies-ISO 31000, COSO ERM, FERMA, and Basel III-are compared, highlighting their advantages, limitations, and adaptability to industrial conditions. The study examines global risk factors, digital transformation, logistics and energy market instability, and technological obsolescence. It also explores the application of AI, Big Data, IoT, and digital monitoring tools in risk management. Based on practical experience of Uzbek enterprises, recommendations are provided for developing risk indicator systems, real-time risk monitoring, implementing scenario modeling, and strengthening risk culture.

Keywords: risk management, corporate governance, industrial enterprises, integrated risk system, ISO 31000, COSO ERM, FERMA, Basel III, economic stability, digital risk analysis, probabilistic models, strategic management, innovative technologies, Big Data, artificial intelligence, scenario modeling, risk indicators.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi tobora murakkablashib borayotgan tashqi muhit sharoitlariga bevosita bog‘liqdir. Xomashyo narxlarining tez-tez o‘zgarishi, energiya resurslariga bo‘lgan talab va taklif muvozanatining buzilishi, transport-logistika bozoridagi uzilishlar, global siyosiy vaziyat va valyuta kursi beqarorligi korxonalarni yuqori xavf ostida qoldiradi. Shu sababli risklarni boshqarish tizimi sanoat korxonalari uchun strategik ahamiyat kasb etib, boshqaruv jarayonlarining ajralmas qismiga aylanmoqda [1, 17-b.]. Riskni boshqarishning asosiy maqsadi uni yo‘qotish emas, balki aniqlash, baholash, nazorat qilish va oqibatlarini yumshatish orqali xavfni boshqariladigan darajaga olib chiqishdan iboratdir.

F.X.Nayt tomonidan risk “ehtimoli o‘lchanadigan noaniqlik” sifatida ta’riflangan bo‘lib, zamonaviy boshqaruvda risk korxona faoliyati uchun tahdid bo‘lishi bilan birga, imkoniyatlar manbai sifatida ham ko‘riladi [1, 54-b.]. Bu yondashuv riskning yangi paradigmasi sifatida dunyo bo‘yicha keng qo‘llanilmoqda.

Xalqaro tajribada risklarni boshqarishning bir qator metodologiyalari mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: ISO 31000, COSO ERM, FERMA va Basel III. Ularning har biri o‘ziga xos tamoyillar, yondashuvlar va metodik asoslarni taklif etadi. ISO 31000 jarayonlilik va takomillashuv sikliga urg‘u beradi. COSO ERM korporativ boshqaruv bilan integratsiyani ta’minlaydi [2, 33-b.]. FERMA

manfaatdor tomonlar bilan axborot almashinuviga katta e’tibor qaratadi. Basel III esa risklarni kvantitativ modellar asosida o‘lchashga imkon yaratuvchi keng qamrovli mexanizmlarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa bank tizimi uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularning ko‘plab talablari sanoat korxonalariga ham moslashtirilishi mumkin [3, 46-b.].

Quyidagi jadval ushbu metodologiyalarning asosiy jihatlarini solishtiradi (1-jadval).

1-jadval.

Xalqaro risk boshqaruvi modellari taqqoslanishi[4]

Model	Asosiy yondashuv	Ustunliklar	Qo‘llanilish sohasi
ISO 31000	Jarayonli, siklik	Moslashuvchanlik, universallik	Har qanday soha
COSO ERM	Korporativ integratsiya	Strategik boshqaruv bilan uyg‘unlik	Yirik korporatsiyalar
FERMA	Kommunikatsion	Manfaatdor tomonlar bilan faol axborot almashuvi	Yevropa korxonalari
Basel III	Kvantitativ	Aniq o‘lchovlar, stress-testlar	Bank va moliya sektori

Mazkur modellarning solishtirilishi shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalari uchun yagona optimal model mavjud emas. Har bir korxonaning texnologik imkoniyatlari, ishlab chiqarish quvvatlari, boshqaruv tizimi, riskga moyilligi va strategiyasi turlicha bo‘lgani sababli kombinatsiyalashgan yondashuv eng maqbul variant hisoblanadi [4, 22-b.].

O‘zbekiston sanoat korxonalarida risklarni boshqarish tizimi bo‘yicha so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. “O‘zmetkombinat”, “Navoiy MMC”, “O‘zbekneftgaz” kabi yirik korporatsiyalarda risk-menejment bo‘limlari tashkil qilingan bo‘lsa-da, ularning faoliyati ko‘pincha risklarni aniqlash bilan cheklanib qolmoqda. Risklarni tahlil qilish, ustuvorligini aniqlash, boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish va monitoring jarayonlari to‘liq avtomatlashtirilmagan. Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi past, statistik va ehtimollik modellari esa yetarli darajada tatbiq etilmagan.

Zamonaviy sanoat korxonalarida sun’iy intellekt va raqamli tahlil vositalari risklarni prognozlashda muhim rol o‘ynaydi. AI asosida ishlab chiqilgan algoritmlar sensor ma’lumotlarini qayta ishlaydi, ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosozliklarni oldindan aniqlaydi, logistika zanjiridagi xavf belgilarini ko‘rsatib beradi va real vaqt rejimida ogohlantirish signallarini shakllantiradi. Big Data tahlili orqali bozor narxlari o‘zgarishining algoritmik tendensiyalari, energiya sarfi dinamikasi, ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari va moliyaviy oqimlar bo‘yicha risklar chuqur tahlil qilinadi [5, 78-b.].

[4] Adabiyotlarni tahlil qilish asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ssenariy modellashtirish, Monte-Karlo simulyatsiyasi va “What-if” tahlili sanoat korxonalarining noaniqlik sharoitida optimal qarorlar qabul qilishiga yordam beradi. Bunday usullar ishlab chiqarish liniyasining to‘xtab qolishi, xomashyo yetishmovchiligi, narxlarning keskin o‘zgarishi kabi negativ ssenariylarning iqtisodiy oqibatlarini oldindan hisoblash imkonini beradi.

Risk-menejment madaniyatini shakllantirish ham korxonalar uchun strategik ahamiyatga ega. Xodimlarning riskga nisbatan mas’uliyatli munosabati, rahbariyatning risklarni boshqarishga faol jalb qilinishi, ichki audit tizimining kuchaytirilishi va risk bo‘yicha muntazam hisobotlarning yuritilishi korxona barqarorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston sanoat korxonalarida risk boshqaruvi tizimini takomillashtirish iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, korxona samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va global bozor talablari bilan uyg‘unlashishning muhim shartidir. Xalqaro tajribada sinovdan o‘tgan ISO, COSO, FERMA va Basel metodologiyalarining kombinatsion qo‘llanishi milliy sanoat uchun eng maqbul boshqaruv modelini shakllantirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar, probabilistik modellar va integratsiyalashgan risk-portfel tizimi yordamida sanoat korxonalari risklarni nafaqat kamaytiradi, balki ular orqali yangi rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Sanoat korxonalarida risklarni boshqarish jarayonining yana bir muhim jihati – integratsiyalashgan strategik rejalashtirish tizimini shakllantirishdir. Amaldagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab korxonalarda risklar strategik rejalar bilan yetarlicha uyg‘unlashtirilmaydi. Natijada ishlab chiqarish modernizatsiyasi, eksportni kengaytirish yoki investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlarida kutilmagan to‘siqlar yuzaga keladi. Kompleks yondashuv esa risklarni korporativ strategiya bilan bog‘lashni talab qiladi: har bir strategik maqsad uchun alohida risk xaritalari tuzilishi, asosiy ko‘rsatkichlar (KPI) risk indikatorlari (KRI) bilan uyg‘un holda belgilanishi va monitoring qilish jarayoni avtomatlashtirilgan platformalar orqali olib borilishi zarur.

Bundan tashqari, sanoat korxonalarida ekologik va ijtimoiy risklar ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Atrof-muhitga ta’sir, chiqindi boshqaruvi, suv iste’moli, karbon izini kamaytirish kabi yo‘nalishlar xalqaro standartlar bo‘yicha korporativ risk boshqaruvi tarkibiga kiritilishi lozim. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga asoslangan risklar bozor talabining o‘zgarishi, xalqaro investorlarning talablari va eksport bozorlari bilan integratsiyani ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [6, 32-b.]. Shu bois korxonalar ekologik xavflarni aniqlash, monitoring qilish va yumshatish bo‘yicha raqamli vositalarni keng tatbiq etishga intilmoqda.

Shuningdek, inson kapitaliga oid risklar – malakali kadrlar yetishmovchiligi, texnik xodimlarning migratsiyasi va yosh mutaxassislarning sanoat sohasiga qiziqishi pasayishi – ishlab chiqarish barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu problemalarni samarali boshqarish uchun korxonalar o‘qitish markazlari tashkil etishi, ichki malaka oshirish dasturlarini joriy qilishi, raqamli ko‘nikmalarni

shakllantirish bo‘yicha treninglar o‘tkazishi lozim. Inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan risk boshqaruvi yondashuvi korxonalarga uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Knight F. H. Risk, Uncertainty and Profit. - Boston: Houghton Mifflin, 1921. - 17,54-betlar.
2. International Organization for Standardization. ISO 31000:2018. Risk management – Guidelines. - Geneva: ISO, 2018. - 33 b.
3. COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission). Enterprise Risk Management – Integrating with Strategy and Performance. - New York: COSO, 2017. - 46 b.
4. FERMA (Federation of European Risk Management Associations). Risk Management Standard. - Brussels: FERMA Publishing, 2015. - 22 b.
5. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. - Basel: Bank for International Settlements, 2011. - 78 b.
6. Kaplan R. S., Mikes A. Managing Risks: A New Framework // Harvard Business Review. - 2012. – 32-b.

ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH INNOVATSION IQTISODIYOTGA O‘TISH OMILI SIFATIDA

Qodirov Sardorbek Isroiljon o‘g‘li - FDTU “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori
Vohobjonova Mushtariybonu Dilshodjon qizi - FDTU “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqola ishlab chiqarish integratsiyasini samarali boshqarishning innovatsion iqtisodiyotga o‘tishdagi o‘rni tahlil qilingan. Integratsiyaning asosiy turlari, boshqaruv strategiyalari, texnologiyalar transferi, raqamli boshqaruv tizimlari, kadrlar salohiyati va klasterlashuv jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri yoritilgan. Tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarning integratsiya jarayonlariga ta’siri asoslangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston va rivojlangan davlatlar tajribasi solishtirib o‘rganilgan, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ishlab chiqarish integratsiyasi**,** innovatsion iqtisodiyot**,** raqamli boshqaruv**,** klasterlashuv**,** texnologiyalar transferi**,** kadrlar salohiyati**,** raqobatbardoshlik**,** investitsiya oqimi**.**

Аннотация.В данной статье анализируется роль эффективного управления производственной интеграцией в процессе перехода к инновационной экономике. Рассмотрены основные виды интеграции,

стратегические направления управления, механизмы технологического трансфера, цифровые системы управления, развитие кадрового потенциала и кластеризация. Обосновано влияние организационных, экономических и правовых механизмов на интеграционные процессы. Проведён сравнительный анализ опыта Узбекистана и развитых стран, выделены существующие проблемы и предложены практические рекомендации по их решению.

Ключевые слова: производственная интеграция, инновационная экономика, цифровое управление, кластеризация, трансфер технологий, кадровый потенциал, конкурентоспособность, инвестиционные потоки.

Annotation. This article analyzes the role of effective management of production integration in the transition to an innovation-driven economy. It examines the main types of integration, strategic management approaches, technology transfer mechanisms, digital management systems, human capital development, and cluster formation processes. The study substantiates the impact of organizational, economic, and regulatory mechanisms on integration. A comparative analysis of the experiences of Uzbekistan and developed countries is presented, along with key challenges and practical recommendations.

Keywords: production integration, innovation economy, digital management, cluster development, technology transfer, human capital, competitiveness, investment flows.

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan bir paytda mamlakatlar o‘z iqtisodiyotini innovatsion yo‘l bilan modernizatsiya qilishga intilmoqda. Innovatsion iqtisodiyotning asosiy talablari - yuqori texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish, tezkor texnologik yangilanish, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytirishdan iborat. Ushbu jarayonlarda ishlab chiqarish integratsiyasi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.[1,12]Ishlab chiqarish integratsiyasi strategik ahamiyatga ega bo‘lishining asosiy sababi - u tarmoqlar o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, resurslarni yagona tizimda boshqarish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va innovatsion mahsulot yaratish imkoniyatlarini kengaytirishidir. Integratsiya tufayli korxonalar ilmiy markazlar, OTMlar, IT sektori va boshqa sanoat subyektlari bilan hamkorlik qilish imkoniga ega bo‘ladi, bu esa yangi bilimlarning tezkor amaliyotga tatbiq etilishiga xizmat qiladi.Shuningdek, ishlab chiqarish integratsiyasi raqobatbardoshlikni ta’minlashning eng muhim omillaridan biridir. Integratsiya jarayonlari natijasida mahsulot sifati oshadi, tannarx kamayadi, innovatsion ishlab chiqarish jarayonlari joriy etiladi, bozor talablariga mos, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar yaratiladi. Bu esa milliy iqtisodiyotning global bozorlardagi pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi. [2, 33-bet]**.**

Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish integratsiyasini samarali boshqarish innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning hal qiluvchi omili bo‘lib, iqtisodiyotning

barqaror o‘sishi, raqobatbardoshlikni oshirish va texnologik yangilanishni ta’minlash uchun zarur strategik yo‘nalish sifatida baholanadi.

Ishlab chiqarish integratsiyasi zamonaviy iqtisodiyotning raqobatbardosh va innovatsion rivojlanishida muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Integratsiya - bu korxonalar, tarmoqlar yoki ishlab chiqarish bosqichlarining yagona tizimda o‘zaro bog‘lanishi, hamkorlikda ishlashi va resurslardan birgalikda foydalanishni nazarda tutadi. Uning asosiy maqsadi - ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni amaliyotga tez joriy qilish, xarajatlarni optimallashtirish va bozor talablari asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratishdir.

Klasterlashuv - geografik jihatdan yaqin joylashgan korxonalar, OTMlar, ilmiy markazlar, texnoparklar va xizmat ko‘rsatish subyektlarining yagona innovatsion infratuzilma doirasida birlashuvi demakdir. Bunda tarmoqlar yuqori darajada kooperatsiyalashgan holda faoliyat yuritadi.[3,45-bet]**.**

Umuman olganda, integratsiya jarayonlari innovatsion iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo‘lib, texnologik yangilanish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish, yangi mahsulotlar yaratish va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtiradi. Natijada korxonalar raqobatbardoshligi oshadi, milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati mustahkamlanadi va global bozorlarda faol ishtirok etish imkoniyati kengayadi

Integratsiyani samarali boshqarishning asosiy strategiyalari va ularning mazmuni

Strategik yo‘nalish	**Mazmuni**	**Asosiy vositalar / elementlar**	**Kutiladigan natija**
Raqamli boshqaruv strategiyasi	Ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish va jarayonlarni avtomatlashtirish	ERP, MES, CRM tizimlari; Sun’iy intellekt; Raqamli logistika; Smart-manufacturing	Jarayonlar optimallashtiriladi, inson xatolari qisqaradi, ishlab chiqarish tezligi ortadi
Innovatsion klasterlar yaratish strategiyasi	Ilm-fan, ta’lim va sanoatni yagona ekotizimga birlashtirish	Korxona–OTM–ilmiy institut hamkorligi; Texnoparklar; Industrial zonalar	Texnologiya transferi kuchayadi, yangi mahsulot va startaplar paydo bo‘ladi
Kadrlar salohiyatini integratsion rivojlantirish	Bozor talabiga mos malakali mutaxassislarni tayyorlash	Universitet-korxona hamkorligi; Dual ta’lim; Innovatsion kompetensiyalar	Amaliy ko‘nikmaga ega kadrlar tayyorlanadi, innovatsion salohiyat oshadi
Texnologiyalar transferi strategiyasi	Ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga tez joriy etish	Patentlar; Litsenziyalar; Spin-off kompaniyalar; Transfer markazlari	Ilmiy natijalar tijoratlashtiriladi, innovatsion mahsulotlar ulushi oshadi

Integratsiyani samarali boshqarishning strategik yo‘nalishlari bo‘yicha tuzilgan jadvalda asosiy to‘rt yo‘nalishning mazmuni, ulardan foydalanishda

qo‘llaniladigan vositalar va kutilayotgan natijalar tizimli ravishda yoritilgan. Jadvalning birinchi qatori raqamli boshqaruv strategiyasiga bag‘ishlanib, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda ERP, MES, CRM kabi korporativ axborot tizimlarining ahamiyati, shuningdek sun’iy intellekt, smart-manufacturing va raqamli logistika texnologiyalarining qo‘llanishi ko‘rsatilgan. Ushbu vositalar ishlab chiqarish jarayonlarida real vaqt monitoringini ta’minlaydi, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi hamda tannarxning pasayishiga va samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi strategik yo‘nalish sifatida innovatsion klasterlar yaratish ko‘rsatilgan. Jadvalda korxonalar, ilmiy institutlar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik texnologiya transferi va ilmiy natijalarni amaliyotga tezkor tatbiq etishda muhim rol o‘ynashi bayon etilgan. Texnoparklar va industrial zonalar ushbu hamkorlikning infratuzilmaviy asosi sifatida ko‘rib chiqilib, ular yangi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish, startaplar faoliyatini rivojlantirish va innovatsion ekotizimni mustahkamlashga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Jadvalning uchinchi qatorida kadrlar salohiyatini integratsion rivojlantirish strategiyasi yoritilgan bo‘lib, bunda korxona–universitet hamkorligi, dual ta’lim tizimi va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonlarining ahamiyati keng izohlangan. Ushbu mexanizm bozor talabiga mos, innovatsion fikrlovchi va zamonaviy texnik ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlanishini ta’minlaydi. Natijada ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion kompetensiyalarni qo‘llay oladigan malakali kadrlar ulushi ortadi.

To‘rtinchi strategik yo‘nalish texnologiyalar transferi strategiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etishning turli vositalari - patentlar, litsenziyalar, spin-off kompaniyalar va texnologiya transferi markazlari yoritilgan. Bu vositalar ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni tezlashtiradi, ishlab chiqarishda innovatsion mahsulotlar ulushini oshiradi va korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan strategik yo‘nalishlar integratsiya jarayonlarining samarali boshqaruvi uchun muhim bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishlarning to‘g‘ri tanlanishi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi korxonalar unumdorligi, innovatsion salohiyati va raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Ishlab chiqarish integratsiyasini samarali boshqarish uch asosiy mexanizmga tayanadi: tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy-me’yoriy mexanizmlar. Ushbu mexanizmlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, integratsiya jarayonlarining barqaror va samarali rivojlanishini ta’minlaydi.

Ushbu mexanizmlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, integratsiya jarayonlarining barqaror va samarali rivojlanishini ta’minlaydi.

1. Tashkiliy mexanizmlar: Konsorsiumlar, qo‘shma loyihalar, texnoparklar, biznes-inkubatorlar kabi tuzilmalar korxonalar va ilmiy-ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Bu mexanizm innovatsion ekotizimning

shakllanishi va yangi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish uchun zarur infratuzilmani yaratadi.

2. Iqtisodiy mexanizmlar: Investitsiyalar oqimi, venchur kapital fondlari, soliq imtiyozlari va davlat grantlari integratsiya jarayonlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Bu mexanizm korxonalarni innovatsion faoliyatni kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etishga rag‘batlantiradi.

3. Huquqiy va me’yoriy mexanizmlar: Innovatsion faoliyatga doir qonunchilik, raqobat siyosati, davlat tomonidan beriladigan me’yoriy-huquqiy kafolatlar integratsiya jarayonlarining barqarorligini ta’minlaydi. Bu mexanizm hamkorlikni tartibga soluvchi huquqiy asosni yaratadi.

Integratsiya jarayonlarining samaradorligi ishlab chiqarish faoliyatida bir qator muhim ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi. Avvalo, integratsiya resurslardan foydalanishni optimallashtirgani sababli mahsulot tannarxi kamayadi va ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi. Bu jarayon natijasida korxonalar mahsulot sifatini oshirish, texnologik yangilanishlarni joriy etish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish orqali raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shuningdek, integratsiya iqtisodiy muhitni jadal rivojlantiradi: hamkorlikdagi loyihalar va klaster tizimlari orqali korxonalarga investitsiya oqimi ko‘payadi, yangi texnologiyalarni joriy etish uchun moliyaviy imkoniyatlar kengayadi. Ilmiy markazlar bilan hamkorlik kuchaygani sari fan-texnika ishlanmalari ishlab chiqarishga tez tatbiq etiladi, bu esa innovatsion salohiyatni oshiradiShu bilan birga, korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya va resurslar almashinuvi natijasida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish ta’minlanadi.Umuman olganda, ushbu ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi integratsiyaning iqtisodiy va innovatsion samaradorligini oshiradi hamda iqtisodiyotning innovatsion bosqichga o‘tishini jadallashtiradi.

Dunyo amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, sanoat integratsiyasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSH va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarish klasterlari, ilmiy markazlar, korxonalar va universitetlar o‘rtasidagi uzviy hamkorlik innovatsion mahsulotlar yaratish va texnologik modernizatsiyani jadallashtirgan.

O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Xususan, sanoat klasterlari, texnoparklar, IT-parklar, erkin iqtisodiy zonalar va “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi hamkorlik ishlab chiqarish integratsiyasining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu tashabbuslar yangi texnologiyalarni joriy etish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash va eksport salohiyatini oshirish uchun muhim zamin yaratmoqda.

Integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Eng avvalo, korxonalarning texnologik eskirgan quvvatlari, malakali kadrlar yetishmovchiligi, korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi va raqamli transformatsiya jarayonlarining sekinligi integratsiya salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tarmoq klasterlarini rivojlantirish, ilmiy va sanoat korxonalari o‘rtasida konsorsiumlar tashkil etish, venchur fondlari

va innovatsion investitsiya manbalarini kengaytirish zarur. Shuningdek, texnologiya transferi markazlarini yaratish va OTM–korxona hamkorligini kuchaytirish orqali ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish samaradorligini oshirish mumkin.Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish integratsiyasi innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishida asosiy drayverlardan biri hisoblanadi. Integratsiya jarayonlarining samarali boshqarilishi korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi va yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Integratsiyani boshqarish strategik yondashuvni talab etadi. Raqamlashtirish, malakali kadrlar salohiyatini rivojlantirish va texnologiyalar transferini jadallashtirish integratsion tizimning muvaffaqiyatli ishlashida hal qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayoni korxonalar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. [5,102-bet]**.**

Umuman olganda, integratsiya jarayonlarining puxta va tizimli boshqarilishi iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, innovatsion faoliyatni kengaytiradi va milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.[6,132-bet]Shu sababli, ishlab chiqarish integratsiyasiga oid strategiyalarni takomillashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharifxo‘jayev M., Mamatqulov O. “Innovatsion iqtisodiyot asoslari”. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.
2. OECD. “Oslo Manual: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data”. OECD Publishing, 2019.
3. Sharifxo‘jayev M., Mamatqulov O.*Innovatsion iqtisodiyot asoslari.*Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
4. Porter M.*Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance.* Harvard Business School Press, 2014.
5. Porter M.*Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance.*
6. *Oslo Manual: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data.*OECD Publishing, 2019.

RAQAMLI INTEGRATSIYA ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI PASAYTIRISH MEXANIZMLARI

Xashimova Zuhraxon Kahramonovna
Farg‘ona Davlat Texnika Universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Hozirda dunyo iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi orqali sanoat korxonalarida ishlab

chiqarish xarajatlarini pasaytirish mexanizmlari keng tahlil qilinmoqda. Raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish natijasida mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi va boshqaruv shaffofligi oshishi qayd etilgan. Tadqiqot natijalari asosida sanoat tarmoqlarida xarajatlarni kamaytirishning raqamli integratsiya asosidagi taklif va tavsiyalari ishlab chiqilyapti.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, integratsiya, innovatsion iqtisodiyot, sanoat, xarajatlarni kamaytirish.

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы снижения производственных затрат на промышленных предприятиях посредством интеграции науки, образования и производства в условиях цифровизации экономики. Отмечается, что внедрение цифровых технологий способствует повышению производительности труда, эффективности использования ресурсов и прозрачности управления. В конце представлены предложения по снижению затрат на основе цифровой интеграции.

Ключевые слова: цифровизация, интеграция, инновационная экономика, промышленность, снижение издержек.

Abstract. The article analyzes mechanisms for reducing production costs in industrial enterprises through the integration of science, education, and production under the conditions of economic digitalization. It is emphasized that the implementation of digital technologies increases labor productivity, resource efficiency, and management transparency. Based on the findings, recommendations for cost reduction through digital integration are proposed.

Keywords: digitalization, integration, innovative economy, industry, cost reduction.

Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini integratsiyalashuvida muhim o‘rin tutadi. Yangi iqtisodiyotda raqamli tarmoq va aloqa infratuzilmasi unga korxona va tashkilotlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beruvchi global platformani taqdim etadi. Bundan tashqari, ular hamkorlik, iqtisodiy aloqa va axborot almashinuvi va samaradorligini ta’minlaydi. Hozirda raqamli texnologiyalarga o‘tish ishlari davom etmoqda. Ommaviy axborot vositalaridan tortib avtomobillar, turizm, qishloq xo‘jaligi va sog‘liqni saqlash sohalarigacha butun iqtisodiy tizimni raqamlashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. [3. 272-b]

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish, ta’lim va boshqaruv sohalariga joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, resurslarni tejash hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyati yaratilmoqda.

1-rasm. O`zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarish hajmining yillar davomida o`zgarishi (mlrd.so`m) [1]

O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirayotgan say-harakatlari, xalqaro tajribaga asoslangan holda, milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega

Integratsiya – bu uchta asosiy tizim: ilmiy tadqiqot, o‘quv jarayoni va amaliy ishlab chiqarishning o‘zaro uzviy bog‘lanishidir. Raqamli integratsiya esa bu tizimlar o‘rtasidagi hamkorlikni axborot texnologiyalari asosida yangi bosqichga olib chiqadi. [4]

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda sanoat ishlab chiqarish hajmining 2024-yilgi hajmi 2023-yilga nisbatan sezilarli darajada o`sgan bo`lib, bu o`sish 6,2 foizni tashkil qilganini ko`rishimiz mumkin. [1-rasm] Ushbu o‘sish ko‘rsatkichlari sanoat tarmoqlarida innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligining oshgani bilan izohlanadi. Jumladan, ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirilgan tizimlar, ma’lumotlarni raqamli platformalarda boshqarish, shuningdek, ishlab chiqarish zanjirlarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali resurslardan samarali foydalanish darajasi sezilarli darajada yaxshilangan.

2024-yilda O‘zbekiston sanoat sektorida yalpi qo‘shilgan qiymat (YQV) hajmi sezilarli o‘sish ko‘rsatmoqda.[2-rasm] Ushbu ko‘rsatkich, asosan, sanoat tarmoqlarining raqamli texnologiyalarni joriy etishi, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va mehnat unumdorligini oshirish bilan izohlanadi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, tarmoqlar o‘rtasida eng yuqori YQV hajmi ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatida kuzatilgan, bu esa ushbu sektorning mamlakat iqtisodiyotidagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, energiya, metallurgiya va kimyo sanoati tarmoqlarida ham barqaror o‘sish tendensiyasi saqlanmoqda.



2-rasm. O`zbekiston Respublikasida sanoatning yalpi qo`shilgan qiymat hajmining yillar davomida o`zgarishi (mlrd.so`m) .[2]

Sanoatning yalpi qo‘shilgan qiymatining o‘sishi, iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga, davlat investitsiyaviy siyosatini yanada samarali amalga oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli integratsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali korxonalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki mahsulot sifatini yaxshilash va eksport salohiyatini kuchaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, sanoatning YQV hajmi tahlili mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini baholash va strategik rejalashtirishda muhim indikator sifatida xizmat qiladi.

Raqamli integratsiya asosida quyidagi mexanizmlar xarajatlarni kamaytirishda samarali hisoblanadi:

ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;

raqamli monitoring va tahlil tizimlari;

energiya samaradorligini oshirish texnologiyalari;

bulutli platformalar orqali boshqaruv xarajatlarini kamaytirish.

Mazkur yo`nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo`ladi:

1. Korxonalarda raqamli integratsiyani yo‘lga qo‘yish uchun ta’lim muassasalari bilan amaliy hamkorlik tizimini kengaytirish.

2. Raqamli iqtisodiy tahlil markazlarini tashkil etish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini real vaqt rejimida monitoring qilish.

3. Davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini (soliq imtiyozlari, grantlar) kengaytirish orqali raqamli texnologiyalarga o‘tishni tezlashtirish.

Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi raqamli transformatsiyaning asosi bo‘lib, sanoat korxonalarida xarajatlarni kamaytirishning innovatsion yo‘lini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, 2024-yil yakunlari. – https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry [1]

2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar. – https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot [2]

3. Rahmonqulova G. “Raqamlashtirish – barqaror iqtisodiy o‘sish omili sifatida.” Innovatsion Texnologiyalar Jurnali, 2023. [3]

4. Farmonov I. “RAQAMLI IQTISODIYOTNI IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI” Yangi O`zbekiston-yangi tadqiqotlar jurnali. Vol. 1 No. 3 (2024)

SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLARI

Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna
Farg‘ona Davlat Texnika universiteti, Menejment va marketing kafedrasi dotsenti, Iqtisodiyot fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada sanoat korxonalarini innovatsion rivojlanishini baholash masalalari yoritilgan. Innovatsiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog‘liq muammolar keltirilib, ularga yechimlar berilgan. Sanoat korxonalarining samaradorligi va innovatsion rivojlanishi darajasini baholash uchun turli ko‘rsatkichlar to‘plami tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, faoliyat, ta’sir, xususiyatlar, samaradorlik, ko‘rsatkichlar, rivojlanish, sanoat korxonasi, strategik boshqaruv.

Abstract. The article discusses the issues of assessing the innovative development of industrial enterprises. Problems related to the development and implementation of innovations are presented and solutions are given to them. A set of various indicators is described to assess the level of efficiency and innovative development of industrial enterprises.

Keywords: innovation, activity, impact, characteristics, efficiency, indicators, development, industrial enterprise, strategic management.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы оценки инновационного развития промышленных предприятий. Представлены проблемы, связанные с разработкой и внедрением инноваций, и предложены пути их решения. Описан комплекс различных показателей для оценки уровня эффективности и инновационного развития промышленных предприятий.

Ключевые слова: инновации, деятельность, воздействие, характеристики, эффективность, показатели, развитие, промышленное предприятие, стратегическое управление.

Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini baholash usullari ko‘plab ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi, ularning har biri innovatsion faoliyat samaradorligini tavsiflovchi ma’lum ta’sir turlarini hisobga oladi. Sanoat korxonasining innovatsion faoliyatini tahlil qilish va boshqaruv samaradorligi haqida gapirganda, "samaradorlik" tushunchasini aniqlash kerak. Umumiy ma’noda "samaradorlik" - bu foydali natijalar va xarajatlar nisbatidir. Korxonaning innovatsion rivojlanishi samaradorligini tahlil qilish haqida gap ketganda, biz barcha sarflangan moliyaviy, moddiy, texnik, intellektual, mehnat resurslari va korxonaning innovatsion faoliyati natijalarining ushbu faoliyatning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar orqali ifodalangan nisbatini tushunamiz. Ko‘rsatkichlarning qiymatlari sanoat korxonasi tomonidan innovatsion faoliyatni amalga oshirishdan kutilayotgan samarani tavsiflaydi. Amalda, 1-jadvalda keltirilgan olti turdagi ta’sir ko‘rsatkichlari alohida ta’kidlanadi.

1-jadvalda keltirilgan ta’sir turlari orasida ijtimoiy yoki atrof-muhit ta’siriga har doim ham erishib bo‘lmaydi. Aksincha, bu turdagi ta’sirlar potensialdir. Ya’ni, ular iqtisodiy samaraning hosilasidir. Masalan, foyda olish orqali - iqtisodiy samara – korxona rivojlanadi va xodimlarning farovonligini oshiradi. Atmosferaga, suvga, tuproqqa zararli moddalarni chiqarish darajasini minimallashtirish orqali ekologik tizimni saqlash va inson hayotiga salbiy ta’sirni kamaytirish mumkin [1].

1-jadval

Sanoat korxonasi faoliyatiga ta’sir turlari [muallif ishlanmasi]

Natija turi	Ushbu ta’sirni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar
1) iqtisodiy	Daromad. Ko‘rsatkichlar pul ko‘rinishida innovatsiyalarni amalga oshirishdan olingan daromad va xarajatlarning barcha turlarini hisobga oladi
2) ilmiy-texnik	Patentlar, litsenziyalar, yangi uskunalar, ishlab chiqarish quvvatlarining mavjudligi bilan ifodalangan yangilik
3) moliyaviy	Ko‘rsatkichlarni hisoblash moliyaviy ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Investitsiyalar miqdori
4) resurs	Ko‘rsatkichlar joriy etilayotgan innovatsiyalarga qarab zarur resurslarni iste’mol qilishning zarur hajmini, masalan, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moddiy resurslar darajasini aks ettiradi.
5) ijtimoiy	Ko‘rsatkichlar innovatsiyalarni amalga oshirishning ijtimoiy natijalari, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga jalb qilingan xodimlar va boshqalarni hisobga oladi.
6) ekologik	Ko‘rsatkichlar innovatsiyalarning atrof-muhitga ta’sirini hisobga oladi. Ular orasida: shovqin, elektromagnit maydon, yorug‘lik (vizual qulaylik), tebranish bo‘lishi mumkin

Ko‘pgina hollarda, innovatsiyalarni joriy etishning haqiqiy yoki real samarasi moliyaviy komponentning ko‘payishi bilan bog‘liq ta’sirlar, masalan, foyda yoki

bozor ulushi bilan belgilanadi. Iqtisodchi olim A.A.Chulok o‘zining empirik tadqiqotida, u korxonalar tomonidan innovatsion faoliyatni amalga oshirish ta’sirini baholash bo‘yicha bir qator xorijiy ishlarni tahlil qilgan.

Ko‘plab innovator - amaliyotchilar, investorlar foyda innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun eng muhim rag‘bat deb hisoblashadi. Shunga qaramay, nazariy tadqiqotlar va amaliy natijalarni tahlil qilish natijasida korxonalarning rentabelligi va innovatsiyalar o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlik aniqlanmadi.

Biroq, tadqiqotchilar yangi innovatsion mahsulotni ishlab chiqarish va bozorga chiqarish korxonaga vaqtinchalik monopol hokimiyatni ta’minlashini aniqladilar, bu J.A. Shumpeterning innovatsiyalar bo‘yicha nazariy ishlanmalarida tasdiqlangan. Ushbu vaqtinchalik monopol ustunlik bozor ulushining oshishi yoki xaridorlarning narxga sezgirligining pasayishi sifatida ifodalanishi mumkin [2].

Shunday qilib, innovatsiyalar korxona samaradorligiga turli xil ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda korxona erishishi mumkin bo‘lgan barcha turdagi samaralarni hisobga olish va uning innovatsion rivojlanish darajasining o‘zgarishiga ta’sir qilish uchun biz barcha turdagi natijalarni aks ettiruvchi bir nechta ko‘rsatkichlar tizimini taklif qilamiz.

Sanoat korxonalarining ilmiy, texnik va innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi hisobot shakllarini tahlil qilish asosida, ko‘rsatkichlar shaklida baholangan afzalliklar va kamchiliklarni hisobga olgan holda, biz innovatsion faoliyatni to‘liq va obyektiv tavsiflaydigan standartlashtirilgan ko‘rsatkichlar guruhini shakllantirishni taklif qilamiz. Tanlangan ko‘rsatkichlar soddalashtirilgan, ammo to‘liq tizimni ifodalashi kerak, bu korxona amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatdan olishi mumkin bo‘lgan barcha turdagi ta’sirlarni aks ettiradi va jami holda ushbu faoliyat samaradorligini baholashga imkon beradi. Biz ko‘rsatkichlarni tanlash uchun quyidagi mezonlardan foydalanishni taklif qilamiz:

1) optimal va yetarli bo‘lishi, ya’ni korxona tomonidan innovatsion faoliyatni amalga oshirishning barcha mumkin bo‘lgan ta’sir turlarini aks ettirish va korxonaning innovatsion rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan barcha potensial imkoniyatlarini qamrab olish;

2) ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun ma’lumotlar mavjud bo‘lishi kerak va ularni hisoblashda faqat ma’lum talablar va standartlarga javob beradigan va yiliga kamida bir marta yangilanadigan tasdiqlangan ishonchli ma’lumotlarga tayanish kerak.

3) ko‘rsatkichlarni hisoblash usuli korxona tomonidan moliyaviy va buxgalteriya hisobi sharoitida oson qo‘llanilishi kerak;

4) taklif etilayotgan ko‘rsatkichlar retrospektiv tahlil qilish imkoniyatini berishi kerak;

5) ko‘rsatkichlar umuman korxona faoliyatini boshqa tashkilotlarga nisbatan innovatsion faoliyatda raqobatbardoshligi nuqtai nazaridan tavsiflashi kerak;

6) ko‘rsatkichlar korxonaning tegishli yo‘nalishdagi o‘zgarish va rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi ulush yoki foizlarda ko‘rsatilishi kerak;

7) ko‘rsatkichlar yuqori darajadagi aniqlik va ta’sir qiluvchi subyektiv omillarning minimal soniga ega bo‘lishi kerak;



1-rasm. Sanoat korxonasining innovatsion rivojlanishini baholash ko‘rsatkichlari [muallif ishlanmasi]

Sanoat korxonasining innovatsion rivojlanishini baholash uchun biz 1-rasmda optimallik shartlariga javob beradigan, innovatsion faoliyatni amalga oshirishdan barcha mumkin bo‘lgan ta’sir turlarini aks ettiruvchi va rasmiy buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalaniladigan oltita ko‘rsatkichdan foydalanishni taklif qilamiz.

Yuqorida taklif qilingan ko‘rsatkichlar tadqiqot doirasida sanoat korxonasining innovatsion rivojlanishiga yetarlicha obyektiv va to‘liq baho berishga imkon beradi. Tahlil qilinayotgan korxona qaysi sohaga tegishli ekanligiga qarab, ushbu ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun zarur bo‘lgan davr o‘zgaradi. Vaqt omilini va korxona joriy qilingan innovatsiyalardan oladigan natijani hisobga olish uchun taqdim etilgan ko‘rsatkichlarni bir necha yil davomida hisoblash kerak bo‘ladi. Shunday qilib, sanoat korxonasining innovatsion rivojlanishini baholash uchun taklif etilayotgan ko‘rsatkichlar tizimi barcha mumkin bo‘lgan ilmiy-texnikaviy, resurs, iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy samaralarni hisobga olgan holda innovatsion faoliyatni amalga oshirish natijalarini kompleks ekspertizadan o‘tkazish imkonini beradi.

Taqdim etilgan ko‘rsatkichlarning sanoat korxonasining innovatsion faoliyati samaradorligiga ta’sirining murakkabligini hisobga olgan holda, sanoat korxonasining innovatsion rivojlanishini baholash uchun integral ko‘rsatkichni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Korxonaning innovatsion rivojlanishini baholashning zamonaviy usullarini tahlil qilish bo‘yicha o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar yuqorida belgilangan mezonlarga javob beradigan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кокорина, А.В. Оценка эффективности инновационной деятельности промышленного предприятия [Электронный ресурс] / А.В. Кокорина // Материалы IV Международная студенческой электронной научной конференции «Студенческий научный форум». – Санкт-Петербург, 2012 год. –Режим доступа: http://www.rae.ru/forum2012/327/2777

2. Чулок, А.А. Анализ показателей эффективности инноваций на микро и макроуровне [Текст] / А.А. Чулок // Инновационная экономика, 2004. – № 5. – С. 27–35.

3. Yuldasheva Nilufar Abduvakhidovna Improving the information supply model in the development of innovation strategy in the management of industrial enterprises//sai. 2024. №Special Issue 24. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/improving-the-information-supply-model-in-the-development-of-innovation-strategy-in-the-management-of-industrial-enterprises.

4. Yuldasheva Nilufar Abduvakhidovna. Conceptual basis of innovation strategy implementation in industrial enterprises. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods.2024/2/20. 52-59 p.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ СТУДЕНТОВ В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: НЕОБХОДИМОСТЬ И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

Носиров Илхом Аббосович , доктор экономических наук, проф. каф. “Менеджмент и маркетинг” Ферганского государственного технического университета E-mail:nosirovilomzon@gmail.com Tel: +99894-398-47- 44

Аннотация. В эпоху стремительного развития цифровых технологий традиционные методы профессиональной ориентации студентов требуют глубокого обновления. В условиях модернизации системы образования Узбекистана особую значимость приобретает внедрение инновационных подходов, основанных на цифровых платформах, искусственном интеллекте, больших данных и интерактивных образовательных средах. Статья раскрывает необходимость цифровизации профориентационной работы, анализирует современные инструменты и технологии, применимые в узбекском контексте, и определяет перспективы их интеграции в национальную образовательную систему.

Ключевые слова. профессиональная ориентация; цифровые технологии; инновационные подходы; цифровая трансформация образования; Узбекистан; онлайн-платформы; искусственный интеллект;

цифровые компетенции; индивидуальные образовательные траектории; карьерное консультирование.

Annotatsiya. Maqolada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan raqamli strategiyalar iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini jadallashtirishning asosiy omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Ma’lumotlarni integratsiyalash, tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, raqamli vakolatlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishni ta’minlaydigan zamonaviy raqamli vositalar tahlil qilinmoqda. Platforma yechimlari, sun’iy intellekt texnologiyalari, bilimlarni boshqarish tizimlari va innovatsiyalarni yaratishning uzluksiz zanjirlarini shakllantirishga ko‘maklashuvchi raqamli ekotizimlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar. Raqamli strategiyalar; innovatsion rivojlanish; fan, ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro hamkorligi; raqamli transformatsiya; raqamli platformalar; bilimlarni boshqarish; sun’iy intellekt; innovatsion infratuzilma; sanoat; ta’lim.

Abstract. In the era of rapid development of digital technologies, traditional methods of vocational guidance for students require deep updating. In the context of the modernization of the education system of Uzbekistan, the introduction of innovative approaches based on digital platforms, artificial intelligence, big data and interactive educational environments is of particular importance. The article reveals the need for digitalization of career guidance work, analyzes modern tools and technologies applicable in the Uzbek context, and determines the prospects for their integration into the national educational system.

Keywords. professional orientation; digital technologies; innovative approaches; digital transformation of education; Uzbekistan; online platforms; artificial intelligence; digital competencies; individual educational trajectories; career counseling.

Профессиональная ориентация является важным элементом образования, поскольку она помогает студентам определить их карьерные интересы и способности, а также выбрать подходящую специальность. В условиях глобальных цифровых изменений на рынке труда возникает необходимость пересмотра традиционных подходов к профориентации, что особенно актуально для таких стран, как Узбекистан. Эта статья рассматривает современные подходы к профориентации студентов в условиях цифровизации, опираясь на статистические данные и примеры из практики.

Профессиональная ориентация - это системный процесс, помогающий учащимся выбрать профессию, соответствующую их интересам и запросам рынка труда. В условиях цифровизации профессиональная ориентация должна учитывать:

- Динамические изменения в потребностях рынка труда,
- Влияние новых технологий на профессии,
- Развитие навыков, необходимых для работы в цифровой экономике.

По информации, предоставленной Государственным комитетом по статистике Республики Узбекистан, уровень безработицы среди молодежи в возрасте до 24 лет составил 13% в 2021 году и немного снизился до 11% в 2022 году, что указывает на актуальность проблемы занятости молодых специалистов. Эти данные подчеркивают важность внедрения более эффективных подходов к профориентации, которые помогут молодым людям лучше ориентироваться в современных требованиях рынка труда и, соответственно, снизить уровень безработицы среди них. Эффективная профориентация может сыграть ключевую роль в формировании необходимых навыков и обеспечении молодежи знаниями о востребованных специальностях, способствуя их успешной интеграции в мир труда.

Цифровизация кардинально меняет структуру профессий и навыков, необходимых для успешной работы. В 2022 году по данным Всемирного банка, индекс цифровой экономик в Узбекистане вырос на 20%, что вызвало увеличение числа вакансий в области информационных технологий на 45% за последние два года [2, стр. 15]. Эти изменения требуют от студентов готовности адаптироваться к новым условиям и развивать соответствующие навыки.

Внедрение цифровых технологий в процесс профориентации значительно повышает его эффективность, предлагая студентам доступ к более широкому спектру информации и ресурсов. Онлайн-платформы, приложения и интерактивные тесты позволяют молодым людям лучше понять свои интересы и склонности, а также ознакомиться с актуальными требованиями и тенденциями на рынке труда. Использование виртуальных выставок и профессиональных сообществ в социальных сетях способствует непосредственному взаимодействию с работодателями и профессионалами в интересующих областях, что создает предпосылки для более осознанного выбора профессии. Таким образом, цифровизация делает процесс профориентации более персонализированным и доступным, что, в свою очередь, способствует укреплению связей между образованием и рынком труда. К основным средствам относятся:

- Онлайн-платформы: Платформы, такие как "Ijob" и "UzJobs", помогают студентам находить информацию о вакансиях и получать профессиональные тесты для определения интересов и склонностей.

- Виртуальные выставки профессий: Пространства, где студенты могут взаимодействовать с работодателями и получать информацию о необходимых навыках и требованиях.

- Онлайн-обучение и курсы: Современные онлайн-курсы, которые позволяют студентам развивать необходимые навыки (например, Coursera, Udemy) становятся крайне полезными для повышения конкурентоспособности.

Согласно исследованиям, 65% студентов в Узбекистане предпочитают получать информацию о профессиях через цифровые каналы, что

подчеркивает важность интеграции технологий в процесс профориентации [3, стр. 7].

Индивидуальный подход в профориентации является ключевым фактором, способствующим успешному выбору профессии, поскольку он учитывает уникальные особенности и предпочтения каждого человека. Понимание личных интересов, склонностей и возможностей позволяет создать персонализированную стратегию для карьерного роста, что значительно повышает мотивированность и удовлетворенность от выбранного пути. Такой подход включает в себя индивидуальные консультации, тестирование, а также использование современных технологий, которые помогают выявить сильные стороны и области для развития, что, в свою очередь, содействует более осознанному и целенаправленному выбору профессии. Индивидуализация профориентации способствует созданию условий для раскрытия потенциала каждого человека, что в конечном итоге ведет к более высокому уровню профессиональной удовлетворенности и успеха в карьере. Инструментами для этого могут быть:

- Карьерные тесты и консультации: Помогают студентам узнать о своих сильных и слабых сторонах, а также о профессиональных возможностях.

- Менторство: Привлечение профессионалов к процессу профориентации, когда опытные специалисты могут делиться своим опытом и знаниями с молодыми специалистами.

По данным опросов, проведенных среди студентов, 70% из них заявляют о необходимости персонализированного подхода в профориентации [4, стр. 12].

Современные вызовы, с которыми сталкивается рынок труда в Узбекистане, требуют от студентов новых навыков и умений. С 2020 года наблюдается:

- Увеличение числа вакансий в сферах информационных технологий на 45%.

- Рост потребности в специалистах с навыками работы с данными и аналитикой.

Согласно отчету Государственного комитета по статистике за 2022 год, 57% работодателей отмечают нехватку квалифицированных специалистов [1, стр. 10].

Процесс профориентации также связан с корректировкой образовательных программ. Необходимо вводить:

- Новейшие курсы: Актуальные программы обучения должны отражать тенденции цифровизации. В 2022/2023 учебном году около 25% учебных программ в высших учебных заведениях Узбекистана обновлены с учетом цифровых навыков [5, стр. 5].

- Проектные работы и стажировки: Интеграция практических заданий и стажировок с целью обеспечения студентов реальным опытом работы.

Различные инициативы в Узбекистане продемонстрировали успешные подходы к профориентации студентов:

1. Проект "Youth for Future". Проект "Youth for Future" направлен на поддержку молодежи через развитие мягких навыков (soft skills) и вовлечение студентов в реальный бизнес-процесс. Более 500 студентов прошли программу стажировки, что способствовало их трудоустройству в ключевых отраслях экономики.

2. Платформы карьерного ориентирования. Платформы, такие как "Iste’dod", предлагают студентам тестирование и карьерные консультации, включая возможность взаимодействия с профессорами и представителями профессий. Более 10,000 студентов воспользовались данной платформой, что подтвердило ее эффективность [6, стр. 8].

Государственные инициативы играют важную роль в формировании эффективной системы профориентации:

- Создание госпрограмм: Программы по повышению конкурентоспособности молодежи на рынке труда обеспечивают финансирование и разработку необходимой инфраструктуры.

- Сотрудничество с бизнесом: Партнерство между образовательными учреждениями и бизнесом позволяет создавать стажировки и проектное обучение, что обеспечивает студентов необходимыми навыками.

Современные подходы к профориентации студентов в условиях цифровых изменений требуют комплексного подхода, который включает использование новых технологий, индивидуальные стратегии и адаптацию образовательных программ к потребностям рынка труда. Для успешной реализации этих подходов важна активная роль как государственного сектора, так и бизнеса. Эффективная профориентация станет залогом успешной адаптации студентов к вызовам современного мира, что, в свою очередь, способствует экономическому развитию страны.

Список литературы

1. Государственный комитет по статистике Республики Узбекистан. (2022). Анализ состояния занятости. Ташкент.

2. Всемирный банк. (2021). Цифровая экономика в Узбекистане: вызовы и возможности. Вашингтон.

3. Сборник материалов конференции по образовательным технологиям. (2023). Развитие индивидуального подхода в профориентации. Ташкент.

4. Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. (2023). Обновление образовательных программ. Ташкент.

5. Платформа "Iste’dod". (2023). Отчет о результатах работы. Ташкент.

6. Yormatov I. Sifatli kadrlar tayyorlashdagi ayrim muammolar //Yevraziyskiy jurnal sotsialnыx nauk, filosofii i kulturы. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – S. 83-86.

7. Ёрматов И.Т. Вопросы качественной подготовки кадров //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – S. 39-43.

8. Носиров И. А. Мотивационные механизмы в высших учебных заведениях, их роль и значение“//Международнший журнал теоретических и практических исследований”Научнший журнал, ИССН 2181-2357 Том 2, Номер 11, ноябр 2022 й, 161-168-s.s.

9. Носиров И. А. Развитие креативности молодежи – ето пут возвишения креативного управления// Ферганский государственний университет, Научний вестник. 2021. № 2, 47-49- с.с.,

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА В ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Хонкелдиева Гузаль Шеровна
доктор экономических наук, профессор, Ферганский государственный университет, Email : honkeldieva@mail.ru
Рустамова Махфуза Махмудовна
Старший преподаватель, PhD кафедра “Менеджмент и маркетинг»
Ферганский государственный технический университет

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoatining innovatsion rivojlanishini tezlashtirishning asosiy omili sifatida fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiyalashning strategik mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Unda yagona "fan-ta’lim-ishlab chiqarish" ekotizimini shakllantirish sanoatning texnologik raqobatbardoshligini oshirishi, yuqori texnologiyali ishlanmalarni amalga oshirishni, inson kapitalini rivojlantirishni va mehnat unumdorligini oshirishni rag‘batlantirishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi; to‘qimachilik sanoati; innovatsion iqtisodiyot; strategik mexanizmlar; klaster modeli; ilmiy va ta’lim konsorsiumi; innovatsion platformalar; raqamlashtirish; texnologik modernizatsiya; inson kapitali

Аннотация: В статье рассматриваются стратегические механизмы интеграции науки, образования и производства как ключевого фактора ускоренного инновационного развития текстильной промышленности. Показано, что формирование единой экосистемы «наука – образование – производство» обеспечивает повышение технологической конкурентоспособности отрасли, стимулирует внедрение высокотехнологичных разработок, развитие человеческого капитала и рост производительности труда.

Ключевые слова: интеграция науки, образования и производства; текстильная промышленность; инновационная экономика; стратегические механизмы; кластерная модель; научно-образовательный консорциум;

инновационные платформы; цифровизация; технологическая модернизация; человеческий капитал

Abstract: This article examines strategic mechanisms for integrating science, education, and production as a key factor in accelerating the innovative development of the textile industry. It demonstrates that the formation of a unified "science-education-production" ecosystem enhances the industry’s technological competitiveness, stimulates the implementation of high-tech developments, human capital development, and increased labor productivity.

***Keywords**:* Integration of science, education, and production; textile industry; innovative economy; strategic mechanisms; cluster model; scientific and educational consortium; innovation platforms; digitalization; technological modernization; human capital

I. Вступление. Современное развитие текстильной промышленности характеризуется усилением глобальной конкуренции, ускорением технологических трансформаций и необходимостью адаптации к новым моделям экономического роста. В этих условиях ключевым фактором повышения эффективности отрасли становится способность предприятий оперативно внедрять научные достижения, развивать компетенции персонала и формировать устойчивые механизмы инновационного обновления производства. Одним из наиболее перспективных инструментов достижения этих целей выступает стратегическая интеграция науки, образования и промышленности, обеспечивающая создание единой экосистемы генерирования знаний, подготовки кадров и практического применения технологий [1].

Актуальность исследования определяется тем, что традиционные модели взаимодействия между научными организациями, образовательными учреждениями и текстильными предприятиями часто оказываются недостаточно эффективными для удовлетворения современных отраслевых потребностей. Технологическая модернизация, цифровизация производственных процессов, переход к «умным» фабрикам и повышение экологической устойчивости требуют качественно нового уровня координации между всеми участниками инновационной цепочки. Стратегические механизмы интеграции позволяют формировать долгосрочные партнерства, развивать научно-образовательные консорциумы, внедрять проектно-ориентированные формы подготовки кадров и повышать адаптивность производственных систем.

В мировой практике интеграционные платформы становятся ядром отраслевых кластеров, обеспечивая эффективное распределение ресурсов, ускорение трансфера технологий и повышение технологической независимости экономики. Для текстильной промышленности, выступающей одной из значимых составляющих промышленного комплекса многих стран, данные процессы приобретают особое значение: от уровня инновационной

активности предприятий напрямую зависит их конкурентоспособность на глобальном рынке [2].

Annotatsiya: Maqolada sanoat klasterlarini boshqarishda ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining innovatsion iqtisodiyotdagi roli tahlil qilinadi. Ushbu integratsiya korxonalarni raqobatbardosh qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Ta’lim va ilm-fan ishlab chiqarish bilan bog‘langanida, malakali kadrlar yetishtiriladi, ilmiy-tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etiladi va innovatsion mahsulotlar yaratiladi. Shu bilan birga, hududiy klasterlarda resurslarni samarali boshqarish, texnologik rivojlanishni tezlashtirish va bozor talablariga moslashish imkoniyati oshadi. Integratsiya korxona va davlat darajasida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: Sanoat klasterlari, ilm-fan, ta’lim, ishlab chiqarish, innovatsion iqtisodiyot, integratsiya, raqobatbardoshlik.

Аннотация: Статья посвящена анализу роли интеграции науки, образования и производства в управлении промышленными кластерами в условиях инновационной экономики. Такая интеграция повышает конкурентоспособность предприятий, способствует внедрению новых технологий и увеличению производительности труда. При взаимодействии образования и науки с производством формируются квалифицированные кадры, научные результаты применяются на практике, создаются инновационные продукты. Также интеграция обеспечивает эффективное управление ресурсами, ускоряет технологическое развитие и адаптацию к требованиям рынка. Она имеет стратегическое значение на уровне предприятий и государства, способствуя устойчивому развитию инновационной экономики.

Ключевые слова: Промышленные кластеры, наука, образование, производство, инновационная экономика, интеграция, конкурентоспособность.

Abstract: The article analyzes the role of integrating science, education, and production in managing industrial clusters within an innovative economy. This integration enhances enterprise competitiveness, facilitates the adoption of new technologies, and increases labor productivity. Linking education and science with production ensures the training of skilled personnel, practical application of research results, and the creation of innovative products. Furthermore, integration allows for efficient resource management, accelerates technological development, and improves adaptability to market demands. It holds strategic importance at both

enterprise and governmental levels, contributing to the sustainable development of the innovative economy.

Keywords: Industrial clusters, science, education, production, innovative economy, integration, competitivenessv.

Global iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va raqobatbardoshlikning oshishi sharoitida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi[1]. Sanoat klasterlari esa hududiy yoki sektor asosida birlashgan korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va ta’lim muassasalari orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi[2].

Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsion iqtisodiyot sharoitida klasterlar hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi[3].

Misol uchun, Farg‘ona viloyatidagi paxta-to‘qimachilik klasterlari integratsiyalashgan tizim orqali yangi ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarib, eksport imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu integratsiya nafaqat korxona darajasida, balki hududiy va milliy iqtisodiyot rivojida ham ahamiyatli.

Metodologiya: Tadqiqot sanoat klasterlarida ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining innovatsion iqtisodiyotdagi rolini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi usullar orqali amalga oshirildi:

Adabiyotlar tahlili: mavjud ilmiy maqolalar, hisobotlar va statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Komparativ tahlil: turli hududiy klasterlar va korxonalardagi integratsiya amaliyoti o‘rganildi.

Amaliy kuzatuv va intervyu: Farg‘ona viloyatidagi paxta-to‘qimachilik korxonalari va ularning ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik o‘rganildi.

Tahliliy usullar: olingan ma’lumotlar yordamida ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion loyihalar va kadrlar malakasi o‘rganildi.

Bu metodologiya tadqiqotning ilmiy asoslangan va uzviy bo‘lishini ta’minlaydi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sanoat klasterlarida integratsiya quyidagi jihatlarga ijobiy ta’sir qiladi:

1. Mahsulot sifati oshishi: yangi texnologiyalarni joriy etish natijasida mahsulot sifati o‘rtacha 15–20% ga oshgan.

2. Mehnat unumdorligi: talabalarning amaliyot va loyiha ishlari korxonalarga jalb qilinishi natijasida ish samaradorligi o‘rtacha 12–15% ga oshdi.

3. Raqobatbardoshlikning kuchayishi: yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo‘ldi.

4. Malakali kadrlar yetishmovchiligining kamayishi: talaba va yangi mutaxassislar ishlab chiqarishga jalb qilinishi natijasida yetishmovchilik sezilarli darajada kamaydi.

1-jadval

Sanoat klasterlarida integratsiya samaradorligi.

№	Ko‘rsatkich	Ilm-fan bilan integratsiya	Ta’lim bilan integratsiya	Natija / Samaradorlik oshishi
1	Mahsulot sifati	+18%	+12%	+15%
2	Ishlab chiqarish samaradorligi	+10%	+12%	+11%
3	Innovatsion loyihalar soni	+5	+3	+4
4	Malakali kadrlar soni	+8	+15	+11,5

1-Jadval Farg‘ona viloyatidagi paxta-to‘qimachilik klasterlari va ilmiy-tadqiqot institutlari hamkorligi asosida tuzilgan.

Muhokama: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi korxonalar samaradorligi va innovatsion rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalar mahsulot sifatini oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va klasterlarni bozorda raqobatbardosh qiladi [4].

Ta’lim tizimi bilan integratsiya malakali kadrlarni tayyorlashga yordam beradi. Talabalar va yangi mutaxassislarning ishlab chiqarishga jalb qilinishi mehnat unumdorligini oshiradi. Bu jarayon korxona va ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi [5].

Shuningdek, hududiy klasterlarda integratsiya resurslarni samarali boshqarish, texnologik rivojlanishni tezlashtirish va bozor talablariga moslashish imkoniyatini beradi. Misol uchun, Farg‘ona viloyatidagi paxta-to‘qimachilik klasterlarida ilm-fan va ta’lim integratsiyasi yangi ekologik toza mahsulotlarni yaratishga olib keldi, bu esa hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam berdi[6].

1-Jadval ilm-fan va ta’lim integratsiyasi darajasi bilan hududiy raqobatbardoshlik indeksining bog‘liqligini ko‘rsatadi. Yuqori darajadagi integratsiya raqobatbardoshlikni sezilarli oshiradi.

2-jadval

Grafik jadval: Hududiy klasterlarda raqobatbardoshlik

№	Hududiy klaster	Mahsulot raqobatbardoshligi indeksi (0–100)	Ilm-fan integratsiyasi darajasi	Ta’lim integratsiyasi darajas
1	Farg‘ona paxta-to‘qimachilik	78	Yuqori	O‘rta
2	Namangan paxta-to‘qimachilik	72	O‘rta	O‘rta
3	Andijon paxta-to‘qimachilik	70	O‘rta	Past

Umumiy ilmiy natija: Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, sanoat klasterlarini boshqarishda ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishida strategik ahamiyatga ega. Integratsiya mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va malakali kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

Natijalar: Ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish mahsulot sifatini va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Ta’lim tizimi bilan integratsiya kadrlar malakasini oshiradi va mehnat unumdorligini yaxshilaydi.

Hududiy klasterlarda integratsiya resurslarni samarali boshqarish va bozor talablariga moslashishni ta’minlaydi[7].

Xulosa va takliflar

Xulosa: Sanoat klasterlarida ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion mahsulotlar yaratish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Integratsiya strategik vosita sifatida innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Takliflar:

Davlat va hududiy boshqaruv organlari sanoat klasterlarida ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bilan hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirishi lozim.

Korxonalar ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish va talabalarni amaliyotga jalb etishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yishi kerak.

Innovatsion loyiha va texnologiyalarni moliyalashtirish uchun maxsus grantlar va investitsiya mexanizmlari joriy etilishi tavsiya etiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, sanoat klasterlarini boshqarishda ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishida strategik ahamiyatga ega. Integratsiya mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va malakali kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

Natijalar:

Ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish mahsulot sifatini va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Ta’lim tizimi bilan integratsiya kadrlar malakasini oshiradi va mehnat unumdorligini yaxshilaydi.

Hududiy klasterlarda integratsiya resurslarni samarali boshqarish va bozor talablariga moslashishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Porter, M. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 1998.

2. Ketels, C. Cluster Development and Policy in Emerging Economies, 2013.

3. Vahlne, J. & Johanson, J. The Internationalization Process of the Firm. Journal of International Business Studies, 1977.

4. Farg‘ona viloyati paxta-to‘qimachilik korxonalari hisobotlari, 2024.
5. Farg‘ona viloyati sanoat statistik ma’lumotlari, 2024.
6. Talabalar va mutaxassislar bilan o‘tkazilgan intervyular, 2024.
7. Mahmudov, A. Innovatsion iqtisodiyot va hududiy klasterlar, Toshkent, 2022.

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION STRATEGIYALARI

To‘ychiyeva Begoyim Vohidjon qizi - Farg‘ona davlat texnika universiteti
(94) 131 15 15 E-mail: begoyimtoychiyeva99@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatmizdagi oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag‘larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, oziq-ovqat tovarlarning eksport xajmini oshirish, eksport xajmiga ta’sir qiluvchi omillar, eksport salohiyatini oshirish mexanizmlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat sanoati; investitsiya jalb qilish; eksport hajmi; eksport omillari; eksport salohiyati; eksportni rivojlantirish mexanizmlari.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о развитии пищевой промышленности нашей страны, привлечении инвестиционных средств в отрасль, поддержке экспортной деятельности, увеличении объёма экспорта пищевых товаров, факторах, влияющих на объём экспорта, а также о механизмах повышения экспортного потенциала.

Ключевые слова: пищевая промышленность, привлечение инвестиций, экспортный потенциал, факторы экспорта, механизмы развития экспорта, внешняя торговля, модернизация промышленности.

Annotation: This article provides information on the development of the food industry in our country, the attraction of investment funds into the sector, support for export activities, increasing the export volume of food products, factors influencing export volume, and mechanisms for enhancing export potential

Keywords: food industry, investment attraction, export potential, export factors, export development mechanisms, foreign trade, industrial modernization.

Bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, sohada transformatsion jarayonlarni chuqurlashtirish orqali oziq-ovqat sanoati korxonalarini yanada rivojlantirish, korxonalar faoliyati samaradorligi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish va korxonalarning eksport qilish salohiyatini oshirishdir. Shuni ta’kidlash joizki, oziq-ovqat sanoati korxonalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishini ta’minlamasdan barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy soha muammolarini hal etish mumkin emas. Shunday ekan, mamlakatimizda oziv-ovqat sanoati korxonalari tomonidan aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash, sohada tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ularning trasformatsiyasini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Oxirgi yillarda

ushbu oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobat muhitini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida oziq-ovqat sanoati transformatsiyasida ijobiy siljishlar ro‘y bermoqda. Mazkur sohaga investitsiya jalb etgan holda, zamonaviy texnologiyalarni meva - sabzavot, go‘sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarishga joriy qilinishi, ishlab chiqarish texnologik bazasining yangilanishi evaziga ichki bozorni sifatli mahalliy oziqovqat mahsulotlari bilan ta’minlash imkoniyati yaratilib, sanoatda mazkur tarmoq ulushining tobora oshishiga zamin yaratdi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlardan biri iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada jadallashtirish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hisoblanadi. Zero, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi sanoat tarmoqlarni jadal rivojlanishi va sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligiga bevosita bog‘liq. Ayniqsa, O‘zbekistonni jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashib borishi, davom etayotgan jahon iqtisodiyotidagi inqiroz va jahon bozorlardagi beqaror kon’yunktura sharoitida korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish ahamiyati va dolzarbligi yanada oshib bormoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida so‘nggi yillarda respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag‘larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi. Shuningdek, oxirgi uch yilda import o‘rnini bosuvchi 75 turdagi 289,9 million AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta’minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi. [1]. Bugungi kunda istalgan oziq-ovqat mahsulotlari do‘koniga kirgningizda, uning peshtaxtasidan asosan mahalliy ishlab chiqarishga tegishli iste’mol tovarlari o‘rin olganiga guvoh bo‘lasiz. Bozorlarimizni ham o‘zimizda ishlab chiqarilgan nozne’matlar egallagan. Buni esa mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev boshchiligida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar samarasi sifatida e’tirof etish mumkin.[2] Aholi turmushi farovonligi, mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash hamda jahon bozorida raqobat muhiti shiddatli avj olayotgan sharoitda mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish orqali xaridorini topish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Har qanday korxona faoliyatini ma’lum bir iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi bilan aks ettirish imkoni bor, bunda o‘zaro uyg‘unlik va bog‘liqlik korxonaning bir holatdan boshqasiga o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Barcha ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi “ish tartibi” tushunchasi bilan tavsiflanadi. Korxonaning har bir ish tartibi belgilangan ko‘rsatkichlar tizimini izohlaydi, ularni o‘sish sur’ati bo‘yicha tasniflansa korxonaning me’yoriy ish tartibi, boshqacha

qilib aytganda ko‘rsatkichlarning me’yoriy tizimi (dinamik me’yor) yuzaga keladi. O‘zoq vaqt davomida bunday dinamik (qatorni) o‘sishni ushlab turish korxonaning optimal tartibda ishlashiga imkon beradi. Korxonani baholash korxonaning haqiqiy dinamik qatorini me’yoriy qator bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, sohada transformatsion jarayonlarni chuqurlashtirish orqali oziq-ovqat sanoati korxonalarini yanada rivojlantirish, korxonalar faoliyati samaradorligi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish va korxonalarning eksport qilish salohiyatini oshirishdir. Shuni ta’kidlash joizki, oziq-ovqat sanoati korxonalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishini ta’minlamasdan barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy soha muammolarini hal etish mumkin emas. Shunday ekan, mamlakatimizda oziv-ovqat sanoati korxonalari tomonidan aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash, sohada tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ularning trasformatsiyasini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Oxirgi yillarda ushbu oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobat muhitini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida oziq-ovqat sanoati transformatsiyasida ijobiy siljishlar ro‘y bermoqda. Mazkur sohaga investitsiya jalb etgan holda, zamonaviy texnologiyalarni meva - sabzavot, go‘sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarishga joriy qilinishi, ishlab chiqarish texnologik bazasining yangilanishi evaziga ichki bozorni sifatli mahalliy oziqovqat mahsulotlari bilan ta’minlash imkoniyati yaratilib, sanoatda mazkur tarmoq ulushining tobora oshishiga zamin yaratdi.

Oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashning strategik maqsadi - mamlakat aholisini yetarli hajmda xavfsiz, sifatli va arzon qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda hozirgi va istiqboldagi iste’mol ehtiyojlari va ratsion me’yorlari darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, shuningdek, aholi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanishni targ‘ib qilishdan iborat. Shu bilan birga, O‘zbekistonning turli xalqaro tashkilotlar va savdo kelishuvlariga a’zo bo‘lishida mamlakat aholisining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash hamda eksport salohiyatini oshirish zarurati hisobga olingan.

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va ichki iste’mol bozorida strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat (kartoshka, piyoz, sabzi, guruch, go‘sht, sut, shakar, o‘simlik yog‘i) mahsulotlari narxlari keskin oshishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida «balans-zaxira-intervensiya» tizimining erkin bozorga asoslangan samarali mexanizmlarini joriy etish. Bunda, uy xo‘jaliklarining oziq-ovqat zaxirasi va iste’moli bo‘yicha ma’lumotlarini har yili monografik tadqiqotlar olib borish orqali shakllantirish zaruriyatga aylangan. Milliy inqiroz yoki favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen ofatlar, iqtisodiy, sog‘liqni saqlash, tashqi siyosat barqarorligi buzilishi) yetarli miqdorda oziq-ovqat zaxiralarining mavjudligini ta’minlash maqsadida milliy strategik g‘alla va oziq-ovqat mahsulotlari zaxiralarini samarali boshqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Bunday mexanizmlar asosida oziq-ovqat mahsulotlari zaxiralarini yaratish va boshqarishda korrupsiya hamda siyosiy aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik

hamda barcha asosiy eksport bozorlarida hamda respublikamiz ichki bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlar dinamikasi, yetishtirish prognozlari, ularning o‘zgarishlari to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini shakllantirish zarur.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, oziq-ovqat sanoati mahsulotlari eksporti bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga yanada qulaylik yaratish maqsadida xorijda savdo uylari va omborlarini tashkil etish choralarini ko‘rish orqali, meva-sabzavot mahsulotlarini yig‘ish, birlamchi qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, tashish va eksport qilish uchun hududlarda agrologistika markazlari sonini oshirish, shuningdek, oziq-ovqat sanoati sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini baholash usulini takomillashtirishga nisbatan qo‘yidagi talablarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, oziq-ovqat sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini baholashni har bir tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, tarmoqlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlardan foydalangan holda amalga oshirish lozim. Chunki, har bir tarmoq korxonalariga tashqi va ichki omillar o‘ziga xos ta’sir etadi, bu esa, matematik hisob-kitobni amalga oshirishda noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar korxonalar faoliyatining natijasi hisoblangan daromad va foyda, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish (asosiy vositalar, aylanma mablag‘lar va mehnat resurslari) bilan bevosita bog‘langan.

Uchinchidan, oziq-ovqat sanoati Sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini baholashda iloji boricha ekspert baholash usulidan kamroq foydalanish lozim, bu birinchidan, so‘rov orqali amalga oshiriladigan ko‘rsatkichlardagi noaniqliklar bo‘lsa, ikkinchidan, tajribali ekspertlarni topish va tanlab olish imkoniyatining chegaralanganligi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2024 yildagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-sonli Farmoni,

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2024 yildagi “Oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 476-sonli qarori.

3. Kozin M.N. Dinamicheskaya model otsenki proizvodstvenno-ekonomicheskoy ustoychivosti oboronnogo predpriyatiya / M.N. Kozin // Audit i finansovыy analiz. – Moskva, 2017. - №4. – s. 24-31

4. Pleshkov S.Yu. Razrabotka mexanizma povыsheniya urovnya ekonomicheskoy ustoychivosti deyatelnosti stroitelnogo predpriyatiya / S.Yu. Pleshkov.: Avtoref. dis. ... kand. ekon. nauk. - Yekaterinburg, 2020. – s. 18

5. Yarullina, G. R. Dinamicheskaya model monitoringa ustoychivogo ekonomicheskogo razvitiya promыshlennogo predpriyatiya / G. R. Yarullina // Audit i finansovыy analiz. - 2022. - № 6. - s. 195-202.

6. Qurbanov Z.N., Isaev F.I. Sanoat korxonalarining eksport salohiyatini oshirish mexanizmlari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy yelektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil – 1-8 betlar.

XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Egamberdiyev Shoxbozbek Botirali o‘g‘li - Farg‘ona davlat texnika universiteti magistranti, (88) 076 66 65 E-mail: shoxbozbekegamberdiyev2000@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining iqtisodiy mohiyati, ularning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni hamda rivojlanish omillari tahlil qilinadi. Xizmatlar sektorining o‘sishi mamlakatning yalpi ichki mahsulotida tutgan ulushi, bandlikni oshirishdagi ahamiyati va innovatsion taraqqiyotga ta’siri misolida yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. xizmat ko‘rsatish, iqtisodiy tarmoqlar, xizmat bozori, innovatsiya, raqamlashtirish, iqtisodiy o‘sish, bandlik.

Аннотация. В статье анализируется экономическая сущность сферы услуг, ее роль в национальной экономике и факторы развития. Рост сферы услуг иллюстрируется на примере ее доли в валовом внутреннем продукте страны, ее значение в повышении занятости и влияние на инновационное развитие. Также обозначены основные направления модернизации сферы услуг в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: услуги, секторы экономики, рынок услуг, инновации, цифровизация, экономический рост, занятость

Annotation. This article analyzes the economic essence of the service sector, its role in the national economy, and development factors. The growth of the service sector is illustrated by its share in the country’s gross domestic product, its importance in increasing employment, and its impact on innovative development. The article also outlines the key areas for modernizing the service sector in Uzbekistan.

Keywords: services, economic sectors, services market, innovation, digitalization, economic growth, employment.

Bugungi kunda mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish va servis sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan mazkur soha YaIMning shakllantirish, aholi bandligini ta’minlash, odamlarning hayot farovonligini oshirishda etakchi o‘rin tutishni ko‘rsatmoqda.

Xizmatlar sohasi bugungi kunda murakkab, ko‘pqirrali mexanizm bo‘lib, lekin zamonaviy iqtisodiyotimizning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmog‘i hisoblanib, u o‘z ichiga savdodan tortib transport, aloqa va axborotlashtirish,

ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat, san’at, sport, maishiy va kommunal xizmatlar, texnik xizmatlar, bank-moliya, sug‘urta, turizm, auditorlik-konsalting xizmatlari, mehmonxonalar, dam olish uylari, televideniye, radio, kino teatrlar, muzeylar kabi keng faoliyatni oladi. Rivojlangan mamlakatlarning amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, ishlab chiqarishni murakkablashuvi va bozorni texnik jihatdan murakkab bo‘lgan tovarlar bilan to‘ldirilishi natijasida xizmatlarga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. Bizning mamlakatimizda ham xizmatlarni turli yangi hillari paydo bo‘lishi natijasida xizmatlar sohasi, ishlab chiqarish sohasiga nisbatan tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda.

Jahon amaliyotidan shuni ta’kidlash lozimki faqat YaIM ortishining o‘zi ta’lim darajasi rivojlanishi, odamlar salomatligi mustahkamlanishi, inson huquq va erkinliklari ta’minlanishiga olib kelmasligiga bir nechta misollar keltirish mumkin. Hatto daromadlarining o‘rtacha ko‘rsatkishlari deyarli bir xil bo‘lgan mamlakatlarda turmush sifati ko‘rsatkichlari bir biridan jiddiy ravishda farq qilishi mumkin.

Insonni rivojlantirish konsepsiyasida an’anavaiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, shu jumladan YaIM hajmi va aholi jon boshiga o‘rtacha daromad mavjud ijtimoiy resurslarni taqsimlashda yoki mamlakatlarni rivojlantirish darajasi bo‘yisha tasniflashda universal mezon vazifasini o‘ta olmaydi. Tobora ko‘proq miqdorda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish turmush darajasini oshirish hamda boshqa umummilliy vazifalarni eng oqilona hal etish vositasi ekanligi to‘g‘risidagi tasavvurlar muayyan darajada bir yoqlama yondashuvdir. Bunday qarashlar noiqtisodiy hisoblangan ko‘pgina boshqa rivojlantirish mezonlariga etarli darajada baho bermaslikka sabab bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari rasmiy jihatdan yuqori bo‘lganda ham odamlarning turmush darajasi nisbatan pastroq bo‘lishi mumkin. Buning aksi – iqtisodiy o‘sishdagi natijalar salmoqli bo‘lmaganda ham turmush darjasining nisbatan yuqoriligi ham kuzatiladi.

Jamiyatda sanoat rivojlanishi bosqichidan avval iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda tabiiy va mehnat resurslariga, sanoat rivojlanishi bosqishida moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo‘lsa, sanoat rivojlanishidan keyingi hozirgi bosqichda intellektual va axborot resurslarining roli birinchi o‘ringa chiqmoqda. Jahonning etakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi – bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, yangi texnologiyalar venchur biznesi iqtisodiyotini shakllantirishga olib keldi.

Hozirgi davrda innovatsion iqtisodiyotning asosini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil qiladi. Ya’ni inson tafakkuri ishlab shiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo‘lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Dastlab insonni rivojlantirish tushunchasining tarkibiy qismlari u qadar ko‘p bo‘lmasdan, tarbiya, ta’lim, bilim, salomatlikni qamrab olardi. Shu bilan birga uzoq vaqt davomida insonni rivojlantirishga iqtisodiy o‘sish nazariyasi nuqtai nazaridan tarraqiy etishning ijtimoiy, ya’ni chiqimli omili sifatida qaralardi. Tarbiya, ta’limga investitsiyalar noishlab chiqarish harajatlari hisoblanardi. XX-asr ikkinchi

yarmidan boshlab asta-sekin inson kapitali va ta’limga nisbatan munosabat tubdan o‘zgara boshladi.

Jahon amaliyotida xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘sishning “uchinchi sektori” sifatida e’tirof etilgan. Rivojlangan davlatlarda xizmatlar YaIMning 70–80 foizigacha, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 50–60 foizgacha ulushni egallaydi. O‘zbekistonda ham xizmatlar sektori ulushi 2024-yil yakunlariga ko‘ra 50 foizdan ortiqni tashkil etdi. Bu esa xizmatlar tarmog‘i mamlakat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu tarmoqlarni rivojlantirilishida, ya’ni xizmatlar sohasi quyidagi iqtisodiy funksiyalarni bajaradi:

Birinchidan, bandlikni ta’minlaydi hamda yangi ish o‘rinlarini yaratadi;

Ikkinchidan, daromad manbai oshirish asosida aholi uchun xizmat ko‘rsatishdan foyda olish imkonini beradi;

Uchinchidan, innovatsion rivojlanishni rag‘batlantiradi orqali IT va raqamli xizmatlar orqali iqtisodiyotda samaradorlikni oshiradi;

To‘rtinchidan, hududiy iqtisodiyotni rivojlantiradi. Bu esa mahalliy resurslardan foydalanishni kengaytiradi.

Ushbu funksiyalarni amalga oshirish borasida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish xususiyatlarini belgilash mumkin. Bular xizmatlar sektorining rivojlanish jarayoni bir qator ta’sir qiluvchi omillar orqali belgilash mumkin.

Texnologik omillar osasida raqamli transformatsiya, elektron to‘lovlar, sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar. Ijtimoiy omillar asosida aholining ehtiyojlari va daromad darajasining o‘sishi belgilash mumkin. Davlat siyosati bilan bog‘liq omillar orqali sohani qo‘llab-quvvatlovchi qonunlar va islohotlarni yaxshilash mumkin. Kadrlar bilan bog‘liq omillar orqali malakali mutaxassislar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Xalqaro omillar asosida xizmat eksporti va global integratsiya qilish mumkin. Bu omillar xizmatlar sifatini oshirish, raqobatni kuchaytirish va innovatsiyalarni joriy etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xizmatlar bozori ikki sababalarga ko‘ra boshqa bozorlarga umuman o‘hshamaydi. Birinchidan, xizmatlar to u ko‘rsatilmaguncha mavjud bo‘lmaydi. Bu esa uni ko‘rsatilmaguncha taqqoslashni va baholashni amalga oshirib bo‘lmasligini bildiradi. Faqat kutilayotgan foyda va haqiqatda olingan natijalarni taqqoslash mumkin.

Ikkinchidan, xizmatlarga yuqori darajadagi mavxumlik tegishlidir, bu esa mijozni noqulay xolatga tushuradi, xizmatni ko‘rsatuvchilar esa o‘z xizmatlarini bozorga yo‘naltirishda qiynaladi. Xizmatlar bozorini ushbu o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ularni ko‘rib bo‘lmaslik, ushlab bo‘lmaslik, saqlab bo‘lmasliq, sifatini tez-tez o‘zgarib turishi ishlab chiqarishni va iste’molni bir-biridan ajratib bo‘lmaslik xizmatlar marketingin o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab beradi.

Xulosa. Xulosa sifatida, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, barqarorligi va aholining farovonligini ta’minlovchi muhim sektor hisoblanadi. Xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan,

raqamlashtirish va elektron xizmatlar tizimini kengaytirish orqali. Xizmat eksportini rag‘batlantirish, ayniqsa IT va turizm sohasida islohotlarni yanada yaxshilash asosida. Hududiy servis markazlarini tashkil etish orqali yaxshilash mumkin. Xizmatlar sohasida kadrlar tayyorlashni soha ehtiyojlariga moslashtirish orqali xizmat ko‘rsatish tizimini sifat bosqichiga olib chiqiladi. Davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb etish asosida xizmat turlarini kengaytirish va rivojlantirish mumkin bo‘ladi. O‘zbekistonda xizmatlar sektorini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlari chuqurlashmoqda, yangi tarmoqlar shakllanmoqda va aholi bandligi kengaymoqda. Kelgusida xizmatlar tarmog‘ini modernizatsiya qilish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish sohani yanada yuqori bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Oreds and Sreeshes (2015) MTI For Your Information: Rrodustivity in the Servises Sestor. Nov 12.

2. Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J. va Rardayev O.M. (2014). Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”– 384 b.

3. Ерофеева Алла Петровна (2015). Модернизация системы управления персоналом на предприятиях сферы услуг - Санкт-Петербург, - 18 с.

4. Mustafoyev G‘olib Sultonmurodovich (2020). Xizmat ko‘rsatish va raqamli xizmatlar: rivojlanish bosqichlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. No 6, noyabr-dekabr.

5. Кузнецов Ф.А. Инновационные направления развития государственного и частного сектора на мировом рынке // Российский внешнеэкономический вестник №19, 2020, С. 85-99

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERTIFIKATLASHNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Mahamatova Maftuna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Mustaqil izlanuvchisi, Renessans ta’lim universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
maxamatova1998@gmail.com, ORCID 0009-0001-9518-3510

Annotatsiya. Ushbu maqolada oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlashda sertifikatlashtirish tizimi va uning talablari yoritib berilgan. Shuningdek, sertifikatlashtirishni joriy etish orqali iste’molchi uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mezonlari tadqiq etilgan va sertifikatlashtirish borasida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqatni sertifikatlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligi mezonlari, sertifikatlashtirish talablari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2024-yildagi “Respublikada

oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-36-sonli Farmonida “So‘nggi yillarda respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag‘larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksport hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi” ta’kidlab o‘tilgan [1].

O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta’minlashning 2030 yilgacha mo‘ljallangan Strategiyasida “*Oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashning strategik maqsadi* - mamlakat aholisini yetarli hajmda xavfsiz, sifatli va arzon qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda hozirgi va istiqboldagi iste’mol ehtiyojlari va ratsion me’yorlari darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, shuningdek, aholi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanishni targ‘ib qilishdan iborat” deb ta’riflab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi dolzarb muammolar yechimiga qaratilgan muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanadi [2].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonning 54-maqsadi “Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish” bo‘yicha quyidagi vazifalar ya’ni, “Qishloq xo‘jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish, agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish, mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug‘lik ta’minotini 50 foizga yetkazish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qayta ishlash ko‘rsatkichining 25 foizdan yuqori bo‘lishini ta’minlash” belgilab berildi [3].

Ushbu farmondan ko‘zlangan asosiy maqsad, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirsh hajmini oshirish orqali oziq-ovqat ta’minoti hajmini oshirishga qaratilgan.

Insoniyatni tashvishga solayotgan muammolardan biri bu oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdir. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi inson salomatligini saqlash va jamiyatning barqarorligini ta’minlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Globalizatsiya jarayoni, ishlab chiqarish texnologiyalarning murakkablashuvi, xalqaro savdo hajmining oshishi oziq-ovqat xavfsizligi masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Xususan, yildan-yilga iqlim o‘zgarishi ta’sirining ortishi, ekologik muvozanatning buzilishi, qishloq xo‘jaligida pestitsid va kimyoviy o‘g‘itlar qo‘llashning ko‘payishi, qadoqlash materiallaridagi xavfli moddalar hamda mikroorganizmlarning tez rivojlanishi oziq-ovqat orqali tarqaladigan xavflarni kuchaytirmoqda.



1-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda sertifikatlashni joriy etish va uning ta’siri[5]

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bergan manbalarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda 850 milliondan ortiq insonlar to‘yib ovqatlanish imkoniga ega emas. Bugungi kunda jahon aholisining deyarli har sakkiz nafaridan biri degan xulosani chiqarish mumkin. Bundan tashqari, Yer sayyorasida 30 foizdan ortiq insonlar to‘laqonli ratsion asosida ovqatlanmasligi, eng asosiy mikroelement va

[5] Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

vitaminlar yetishmaslik muammolarini boshidan kechirmoqda. Bu holat esa, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash naqadar dolzarb masala ekanligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Biroq, bugungi kundagi dolzarb masalalardan yana biri oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda sertifikatlashning rolini oshirishdir. Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini oshirilishi bevosita iste’molchi uchun xavfsizlikni ta’minlashning muhim omilidir. Darhaqiqat, aholi salomatligini muhofaza qilish, sanitariya talablariga rioya etish hamda iste’molchining huquqlarini himoya qilishda sertifikatlash tizimi katta ahamiyatga ega.

Sertifikatlashtirish – mahsulotning belgilangan standartlarga javob berishini tasdiqlovchi rasmiy hujjat bo‘lib, ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi o‘rtasida ishonch vazifasini o‘taydi.

Sertifikatlashtirish jarayoni mahsulotning xavfsizlik va sifat bo‘yicha me’yorlarga mosligini mustaqil ekspertiza orqali tasliqlashni nazarda tutadi. Oziq-ovqat sohasida bunday baholash alohida ahamiyatga ega, chunki mahsulot sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson sog‘ligiga ta’sir qiladi. Tekshiruvlar davomida mahsulot tarkibida zararli moddalar mavjud emasligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining sanitariya talablariga mosligi aniqlanadi.

Sertifikatlashtirish tizimi davlatning oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha siyosatni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Sertifikatlar orqali mahsulotlar ustidan uzluksiz monitoring o‘tkazish, korxonalar faoliyati doimiy nazorat ostida bo‘lishi ham muhim ahamiyatga ega. Bu tizim milliy standartlarni takomillashuviga xizmat qiladi (1-rasm).

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlashda sertifikatlashtirish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. shu jihatdan mahsulot sifatining kafolati, iste’molchi salomatligining muhim himoyachisi, ishlab chiqaruvchining raqobatbardoshligini oshiruvchi vosita va davlat nazoratining muhim tarkibiy qismidir. Shu bois, sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish, xalqaro standartlarni keng joriy etish hamda ishlab chiqarish jarayonlarida sifat nazoratini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri sifatida doimiy ravishda dolzarb masalalar sifatida ahamiyati ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2024 yildagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6802687
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.

4. FAO/WHO (2020). Codex Alimentarius: Food Hygiene – Basic Texts. Rome: FAO.
5. http://www.uzbekistan-geneva.ch/oziq-ovqat-xavfsizligini-ta-minlash-ustuvor-vazifa.html
6. The State of Food Security and Nutrition in the World 2023
7. https://knowledge4policy.ec.europa.eu/home_en
8. https://brmnnt.uz/files/news/96138/-19.pdf

TURIZM BIZNESINING BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA XORIJIY TAJRIBALAR

Salimova Mumtozbegim Jaxongir qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti magistranti
Tel: (88) 449 30 09

Annotatsiya. Maqolada turizm biznesining barqarorligini ta’minlash bo‘yicha Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi tahlil qilingan. Raqamlashtirish, ekologik standartlar, infratuzilma modernizatsiyasi, turistik oqimlarni boshqarish va madaniy merosni saqlashga qaratilgan barqaror turizm modellarining afzalliklari hamda muammolari o‘rganilgan. UNWTO va boshqa xalqaro tashkilotlar mezonlari asosida O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqilgan.

Kirish so’zlar: Barqaror turizm, turizm biznesi, xorijiy tajriba, ekologik standartlar, raqamlashtirish, innovatsion boshqaruv, turistik infratuzilma, ekoturizm, diversifikatsiya, madaniy merosni saqlash, UNWTO ko‘rsatkichlari, aqlli turizm, Yevropa modeli, Osiyo modeli, overtursim, ekologik monitoring, turistik oqimlarni boshqarish.

Аннотация. В статье проводится анализ зарубежного опыта обеспечения устойчивости туристического бизнеса, с акцентом на модели, применяемые в странах Европы и Азии. Рассматриваются современные подходы: цифровизация, экологические стандарты, развитие инфраструктуры, управление туристическими потоками и сохранение культурного наследия. Сопоставлены преимущества и проблемы устойчивых туристических моделей развитых государств. На основе международного опыта и рекомендаций ЮНВТО предлагаются практические меры по развитию устойчивого туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: Устойчивый туризм, туристический бизнес, зарубежный опыт, экологические стандарты, цифровизация, инновационное управление, туристическая инфраструктура, экотуризм, диверсификация, сохранение культурного наследия, показатели ЮНВТО, умный туризм, европейская модель, азиатская модель, овертуризм, экологический мониторинг, управление туристическими потоками.

Annotation. This article analyzes international experiences in ensuring the sustainability of the tourism industry, focusing on models applied in European and Asian countries. Modern approaches such as digitalization, ecological standards, infrastructure development, tourist flow management, and cultural heritage preservation are examined. The advantages and challenges of sustainable tourism models in developed countries are compared. Based on international practices and UNWTO guidelines, several recommendations are proposed for enhancing sustainable tourism development in Uzbekistan.

Keywords: sustainable tourism, tourism business, international experience, environmental standards, digitalization, innovative management, tourism infrastructure, ecotourism, diversification, cultural heritage preservation, UNWTO indicators, smart tourism, European model, Asian model, overtourism, environmental monitoring, tourist flow management.

Bugungi kunda turizm global iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, dunyo yalpi ichki mahsulotining 10 foizidan ortig‘ini tashkil qilmoqda. Raqobat keskin kuchayib borayotgan sharoitda turizm biznesining barqarorligi mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligi, valyuta tushumlari va bandlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Turizmning barqaror rivojlanishi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikning uzviy uyg‘unligi orqali ta’minlanishi, iqtisodiyotga sezilarli daraja ta’sir qilishi o‘z natijasini bermoqda. Shu bois rivojlangan davlatlar barqaror turizmni ta’minlash bo‘yicha zamonaviy strategiyalarni shakllantirib, raqamlashtirish, innovatsion boshqaruv, diversifikatsiya va ekologik muhofaza kabi yo‘nalishlarga e’tibor qaratilmoqda. Jahonda turizm sohasi barcha infratuzilmalarni rivojlantirishga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida gavdalanadi. Zamonaviy turizm transport, ijtimoiy va xizmat ko‘rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslangan bo‘lib, bu oxir-oqibat uni iqtisodiyotning yuqori rentabelli sohasiga aylantiradi.

Barqaror turizm nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik muhofaza, madaniy merosni saqlash va mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilishni ham o‘z ichiga oladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Jahon Turizm Tashkiloti (UN Tourism) tomonidan barqaror turizm konsepsiyasi qo‘llab-quvvatlanib, u turistik faoliyatning tabiiy va madaniy muhitga minimal salbiy ta’sir ko‘rsatishi, shu bilan birga mahalliy jamoalarga ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltirishini ta’minlashga qaratilgan.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turli mamlakatlarda turizmni barqaror rivojlantirish bo‘yicha samarali modellar ishlab chiqilgan. Masalan, Yevropada ekoturizm va “yashil mehmonxonalar” konsepsiyasi keng joriy etilmoqda. Skandinaviya davlatlari tabiatni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan innovatsion turistik yechimlarni tatbiq etmoqda. Osiyoda esa madaniy merosni asrab-avaylashga asoslangan barqaror turizm loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu modellarni tahlil qilish va ulardan samarali xulosalar chiqarish O‘zbekiston uchun

muhim saboqlar beradi.

Barqaror turizmning xalqaro amaliyoti keng tadqiqot ob’ektlaridan biri bo‘lib, har bir hudud uning rivojlanishi uchun o‘ziga xos yo‘llarni tanlagan. Yevropa Ittifoqi Yevropa qishloq xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi (EAFRD) va Yevropa mintaqaviy rivojlanish jamg‘armasi (ERDF) orqali turizmda barqaror rivojlanishni moliyalashtirishni yo‘lga qo‘ygan. Shuningdek, inklyuziv turizm siyosati asosida nogironlar, keksalar va maxsus ehtiyojga ega shaxslar uchun qulay turistik infratuzilma yaratishga e’tibor qaratilgan. Biroq, ayrim tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, Yevropa barqaror turizm modellari ba’zi hududlarda iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Barqaror turizm turistik resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash, mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish va iqtisodiy daromadni oshirishga qaratilgan strategik yondashuv сифатида қаралмоқда (1 расм).

1-расм. Туризм барқарорлиги tamoyillari

Xalqaro tashkilotlar (UNWTO, WTTC, OECD) turizm barqarorligi uchun ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqqan bo‘lib, ularda raqamlashtirish darajasi, xizmat sifati, ekologik monitoring, turistik oqimlarni boshqarish kabi omillar alohida o‘rin tutadi.

Xorijiy davlatlarda barqaror turizm mahalliy jamoalar ishtirokida rejalashtiriladi, bu esa uning ijtimoiy barqarorligini oshiradi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, karbon izini kamaytirish va tabiatni muhofaza qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ammo, ayrim tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, bu model yuqori xarajatlar talab qiladi va barcha mamlakatlar uni to‘liq o‘zlashtirishi qiyin bo‘lishi mumkin.

Turizmning barqaror rivojlanishi hozirgi global iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, rivojlangan mamlakatlar tajribalarini, ya’ni Yevropada, Osiyoning rivojlangan davlatlarida joriy etilgan barqaror turizm modellarini tahlil qilish mumkin. Har bir mintaqa o‘ziga xos yondashuvlar va

muammolarga ega. Yevropa davlatlarida asosan, barqaror rivojlanish siyosatlariga va turizmni tartibga solishga e’tibor qaratimoqda. Osiyo mamlakatlarida esa, transport va infratuzilmani rivojlantirish masalalari bilan duch kelmoqda, bu esa katta investitsiyalarni talab qilinmoqda. Ushbu rpivojlangan davlatlarda ekologik standartlarning qat’iy ijrosi va xalqaro barqarorlik mezonlarini (GSTC) keng joriy qilish bilan ajralib turadi.

Ispaniya dunyoda eng ko‘p sayyoh qabul qiluvchi davlatlardan biri bo‘lib, turizmning barqarorligini ta’minlash uchun “Smart Tourism Destinations” modelini joriy qilgan. Ushbu model infratuzilmani raqamlashtirish, mobil xizmatlarni kengaytirish, turist oqimini boshqarish, ekologik monitoringni kuchaytirishga asoslanadi. Mamlakatda havo ifloslanishiga qarshi qat’iy chegaralar, “yashil transport” tarmog‘i va plyajlarni ekologik standartlar asosida boshqarish tizimi mavjud.

Fransiyada madaniy meros obyektlarini saqlab qolish va ulardan barqaror foydalanish bo‘yicha mustahkam tizim shakllangan. Turistik hududlarda turistlar soni cheklov orqali nazorat qilinadi, mahalliy aholi daromadlarini oshirish uchun qo‘shimcha xizmatlar (gida bozorlari, hunarmandchilik mahsulotlari) rivojlantirilgan. Turizm diversifikatsiyasi – gastronomik, san’at, qishloq turizmi – asosiy ustuvor yo‘nalish sanaladi.

Shveysariya ekoturizm bo‘yicha yetakchi davlat bo‘lib, tog‘-chang‘i maskanlarida atrof-muhitni muhofaza qilishga katta e’tibor qaratadi. “Green destination” modeli asosida energiya tejovchi mehmonxonalar, chiqindisiz turizm zonalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari keng joriy etilgan.

Yevropa mamlakatlarida turizm bilan bog‘liq qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish uchun kompleks siyosat va boshqaruv mexanizmlari talab etiladi. Yevropa modeli O‘zbekiston uchun ham muhim tajriba bo‘lib, mamlakatimizda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va barqarorlik tamoyillarini joriy etishda foydali bo‘lishi mumkin. Yevropaning ko‘plab turistik yo‘nalishlari, ayniqsa, Ispaniya, Italiya, Chexiya va Portugaliya kabi davlatlar, turizm oqimining yuqori darajada o‘sishi natijasida turli ekologik va ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda: – aholining haddan tashqari ko‘pligi va “overturizm” – Barselona, Venesiya, Lissabon kabi shaharlarda ortiqcha turistik oqim mahalliy aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Turistlar oqimi juda yuqori bo‘lib, infratuzilmasi shaharlarning bunday yuklamani ortishida ma’lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, ekologik ta’sir va resurslarning tejamkor emasligi, chiqindilarning oshishi, havo va suv resurslarining ifloslanishi, tabiiy muhitga zarar yetkazish ortib bormoqda. Hududiy nomuvofiqlik yuzaga kelishi natijasida turistik oqimlar asosan yirik shaharlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, qishloq hududlari va kam rivojlangan mintaqalarda turizm sektoriga yetarlicha e’tibor berilmay qolmoqda.

Osiyo mamlakatlarida barqaror turizm modelini shakllantirishda eng katta muammolardan biri sifatida past darajadagi turistik infratuzilmadir. Transport, mehmonxona infratuzilmasini va servis takomillashtirish barqaror turizm

rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. Masalan, ko‘plab Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarida ichki va xalqaro turistlar uchun qulay transport tizimi mavjud emasligi sayyohlarning mamlakat ichida erkin harakatlanishini cheklaydi. Bu esa nafaqat turistik oqimlarning kamayishiga, balki iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanishiga ham olib keladi.

Osiyo mintaqasidagi rivjlangan davlatlardan Yaponiya turizmda raqamlashtirishning ilg‘or modelini qo‘llaydi. Sun’iy intellekt asosida yo‘lovchilar oqimini boshqarish tizimlari, robot xizmat ko‘rsatuvchilar, avtomatlashtirilgan mehmonxonalar keng qo‘llanadi. Shuningdek, “heritage tourism” dasturi orqali tarixiy yodgorliklarni saqlashda mahalliy aholining roli kuchaytirilgan.

Koreyada turizm marketingi to‘liq raqamlashtirilgan: virtual turlar, AR/VR xizmatlar, global reklama kampaniyalari keng yo‘lga qo‘yilgan. “Visit Korea” ekotizimi orqali barcha turistik xizmatlar yagona platformada birlashtirilgan.

Singapur barqaror turizm bo‘yicha dunyodagi eng samarali modellaridan biriga ega. “Singapore Green Plan 2030” doirasida karbon izini kamaytirish, ekologik transport, intelligent monitoring tizimlari joriy qilingan. Davlat–xususiy sektor sherikligi yuqori natija bergan.

Osiyoda barqaror turizm modelini shakllantirishda asosiy ustuvorliklar infratuzilmani yaxshilash, moliyaviy globallashuv imkoniyatlaridan foydalanish va madaniy merosni saqlash bilan bog‘liqdir. Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribalaridan farqli ravishda, bu mintaqada tarixiy va madaniy meros ob’ektlari turizm rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekiston uchun bu model muhim ahamiyatga ega, chunki mamlakatda ham tarixiy turizm ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, xalqaro investitsiyalar jalb qilinishi, tarixiy ob’ektlarni himoya qilish va infratuzilmani takomillashtirish kabi masalalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, barqaror turizm modellarini tahlil qilish Yevropa va Osiyo mamlakatlarida turizmni rivojlantirishning har xil yondashuvlari mavjudligini ko‘rsatmoqda. Yevropada ekologik standartlar qat’iy bo‘lsa-da, ommaviy turizm muammosi hal etilmagan. Osiyoda esa infratuzilma va investitsiya yetishmovchiligi mavjud, biroq xalqaro investitsiyalar bu sohani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa sifatida, o‘rganilgan xorijiy tajriba, egallangan nazariy bilimlar hamda bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish natijasida mahalliy turizmni rivojlantirish maqsadida mamlakat hududida harakatlanuvchi sayyohlarning harakatlanish tartibi, ularga yaratib beriladigan sharoitlar va imtiyozlar bo‘yicha alohida hujjat ishlab chiqilishi, turizm sohasida faoliyat yurituvchi gidlar malakasini oshirish, ularning ko‘nikma va bilimlarini baholash bo‘yicha maxsus dasturiy tizim yaratish, bunda gidlarni imtihonlardan o‘tkazish va malakasini oshirish ishlarida inson omili ishtirokini imkoni boricha cheklashga qaratilgan alohida loyiha ishlab chiqilishi, “Aqlli turizm” vositalaridan samarali foydalanilishi natijasida ba’zi bir kamchiliklarni bartaraf etish va bu yo‘lda rivojlangan xorijiy davlatlarning ijobiy tajribalaridan samarali foydalanish muhim

ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Broegaard, R. B., Bogason, Á., & Karlsdóttir, A. (2022). Planning for a more sustainable tourism? A Pan-Nordic analysis of regional tourism strategies for rural areas. In Tourism Planning and Development in Western Europe (pp. 127-141). GB: CABI.

2. Estol, J., & Font, X. (2016). European tourism policy: Its evolution and structure. Tourism Management, 52, 230-241.

3. N.Xaydarov. Turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi. Ochiq iqtisodiyot: sog‘lom raqobat, biznes muhiti investitsion muhit jozibadorligi / Xalqaro amaliy anjuman / TDIU

4. Кужеля Ю. Л. Туризм и гостеприимство. Учебник. М.: Издательство Юрайт, 2018. - 439 с.

2-SHO‘BA
UZOQ MUDDATLI BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING ROLI

HALOLLIK KONSEPSIYASI VA HAQQONIY AKS ETTIRISH TAMOYILINING UYG‘UNLIGI

Ismanov Ibroxim Nabiyevich,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor, e-mail: ibroxim.ismanov@fstu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada halollik konsepsiyasi va haqqoniy aks ettirish tamoyili orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, farqlanuvchi jihatlar va me’yoriy asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada mazkur tushunchalarning nazariy manbalari, buxgalteriya amaliyotidagi ahamiyati, moliyaviy axborotning ishonchliligini ta’minlashdagi roli hamda xalqaro standartlardagi huquqiy-metodologik jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: halol konsepsiyasi, haqqoniy aks ettirish, IFRS, Conceptual Framework, buxgalteriya hisobi, ishonchlilik, axborot sifat ko‘rsatkichlari.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ взаимосвязи, отличительных аспектов и нормативных основ между концепцией честности и принципом правдивого отражения. В статье освещены теоретические источники этих понятий, их значение в бухгалтерской практике, роль в обеспечении достоверности финансовой информации, а также правовые и методологические аспекты в международных стандартах.

Ключевые слова: концепция добросовестности, достоверное отражение, IFRS, Conceptual Framework, бухгалтерский учет, достоверность, показатели качества информации.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the interrelationship, differences, and regulatory framework between the concept of honesty and the principle of truthful reflection. The article highlights the theoretical sources of these concepts, their significance in accounting practice, their role in ensuring the reliability of financial information, and their legal and methodological aspects in international standards.

Keywords: fairness concept, fair reflection, IFRS, Conceptual Framework, accounting, reliability, information quality indicators.

Kirish. Bugungi global iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligi iqtisodiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Moliyaviy axborotning sifatini belgilaydigan tamoyillar orasida “haqqoniy aks ettirish” va buxgalteriya kasbining etik negizi bo‘lgan “halol konsepsiya”si muhim o‘rin tutadi.

MHXS Konseptual Asoslarida haqqoniy aks ettirish tamoyili markaziy sifat xususiyati sifatida belgilangan (IASB, 2018) [1]. Shu bilan birga, buxgalteriya axloq kodeksi bo‘yicha xalqaro standartlar (IESBA Code of Ethics, 2020) buxgalterdan yuqori darajadagi halollik va prinsipiallikni talab qiladi [2].

Shu nuqtai nazardan ushbu ikki kategoriya o‘rtasidagi munosabatni chuqur ilmiy asosda yoritish buxgalteriya fanida dolzarb masala hisoblanadi.

Asosiy qism. Halollik buxgalteriya kasbining etik negizi bo‘lib, u quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga oladi (IESBA, 2020):

Rostgo‘ylik (honesty)

Prinsipiallik (integrity)

Asliyatga sadoqat (uprightness)

Aldash, manipulyatsiya va ma’lumotni yoshirishga yo‘l qo‘ymaslik

Adabiyotlarda halollik buxgalterning shaxsiy etik pozitsiyasini ifodalovchi ichki kategoriya sifatida talqin qilinadi (Mautz & Sharaf, 1961; Shaub, 1997) [3].

Halollik - bu axborotni qanday tayyorlash emas, balki buxgalterning qaror qabul qilish jarayonidagi axloqiy yondashuvi, ya’ni haqiqatni buzmaslikka bo‘lgan ichki sadoqati hisoblanadi.

MHXSni konseptual asoslariga ko‘ra, moliyaviy axborot quyidagi tarzda haqqoniy aks ettirilgan bo‘lishi lozim:

1. Aniqlik (Completeness) – axborotda kerakli barcha ma’lumotlar to‘liq berilgan;
2. Neytrallik (Neutrality) – manfaatdor tomonlar foydasiga og‘dirilmagan;
3. Xatolardan xoli bo‘lish (Free from Error) – qasddan yoki beixtiyor xatolardan xoli.

Bu tamoyil buxgalterdan hisobotni haqiqiy holatni buzmasdan, manipulyatsiyasiz tayyorlashni talab qiladi (IASB, 2018) [4].

Mazkur tamoyillarning o‘xshash tomonlarini quyidagi jadvalda qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval

Halollik konsepsiyasi va haqqoniy aks ettirishning o‘zaro bog‘liqligi

Belgi	Halollik konsepsiya	Haqqoniy aks ettirish
Maqsad	Buxgalter faoliyatida axloqiy poklik va rostgo‘ylikni ta’minlash	Moliyaviy axborotni ishonchli va haqiqiy holatda berish
Yo‘nalish	Shaxsiy-etika yuzasidan yondashuv	Axborotning sifat ko‘rsatkichi
Mazmun	Aldashga qarshi ichki pozitsiya	Axborot neytralligi va aniqligini ta’minlash

Qiyosiy tahlildan qo‘rigandiki, kategoriyalar darajasi turlicha: halollik – axloqiy kategoriya, haqqoniy aks ettirish – konseptual metodologik kategoriya. Normativ asoslari turlicha: halollik - IESBA kodeksining talablari bo‘lsa, haqqoniy aks ettirish - MXHS konseptual asoslarini ko‘rsatmalari. O‘lchovchalik darajasi: halollikni reyting yoki formula bilan o‘lchash qiyin (subyektiv), haqqoniy aks

ettirishning mezonlari aniq: to‘liqlik, neytrallik, xatolarsizlik. Xulosa halollik - buxgalterning ichki fazilati, haqqoniy aks ettirish - uning amaliy natijasi.

Halolliksiz haqqoniy aks ettirish mumkin emas. Chunki axborotni neytral tayyorlash buxgalterning axloqiy pozitsiyasiga bog‘liq. Masalan: “Kreativ buxgalteriya” amaliyotida axborot texnik jihatdan xatosiz bo‘lsa-da, neytrallik buziladi haqqoniy aks ettirish tamoyili yo‘qoladi. Halol buxgalter esa aktivlarni sun’iy oshirish yoki majburiyatlarni kamaytirishdan voz kechadi haqqoniy aks ettirish ta’minlanadi.

Misol uchun zaxiralarni baholashda halollik va haqqoniylik uyg‘unligini ko‘radigan bo‘lsak korxona zaxiralarni FIFO usuli asosida baholagan, lekin narxni sun’iy ravishda oshirib ko‘rsatgan. Bunda halollik tamoyili buziladi, neytrallik yo‘qoladi, haqqoniy aks ettirish ta’minlanmaydi. Korxona tashqi qarzlar bo‘yicha risklarni buxgalteriya izohlarida ko‘rsatmaslik axborot to‘liq emasligiga, halollikka zid bo‘lishga va haqqoniy aks ettirish talabi buzilishiga olib keladi.

Xulosa. Xalol konsepsiyasi va haqqoniy aks ettirish tamoyili buxgalteriya nazariyasi va amaliyotida o‘zaro chambarchas bog‘langan, bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar hisoblanadi. Buxgalter yuqori darajadagi halollikka ega bo‘lmasa, haqqoniy aks ettirish tamoyilini amalda ta’minlashning iloji yo‘q. Shuning uchun xalqaro standartlarda buxgalteriya axboroti ahloqiy tamoyillar va konseptual asoslar birgalikda qaraladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, halollik va haqqoniy aks ettirish tamoyili tushunchalaridan amaliy foydalanish va rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Buxgalteriya ta’limi va malaka oshirish tizimini takomillashtirish. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha ta’lim dasturlariga axloqiy me’yorlar (halollik, haqqoniylik, prinsipiallik) bo‘yicha majburiy modullarni kiritish. O‘quv jarayonida real vaziyatlar (case studies) asosida axloqiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Jumladan, “Kreativ buxgalteriya hisobi” va uning oqibatlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

2. Korxonada ichki nazorat va audit tizimini kuchaytirish. Halollik va haqqoniy aks ettirishni baholash uchun ichki nazorat mexanizmlarini joriy etish. Moliyaviy hisobotni tayyorlashda to‘liqlik, betaraflik va xatolarning yo‘qligini tekshiruvchi standart tartib-qoidalarni ishlab chiqish. Masalan, har oy/chorak oxirida moliyaviy ma’lumotlarni tasdiqlovchi imzolar va izohlarni talab qilish.

3.Buxgalteriya kasbiy etikasini ommaviy targ‘ib qilish. Buxgalter kasbi nufuzini oshirish va jamoatchilik ishonchini mustahkamlash uchun ommaviy axborot vositalarida halollik mavzusida targ‘ibot ishlarini olib borish. Axloqiy qat’iylik va ishonchlilik mezonlariga asoslangan “Halol Buxgalter” sertifikatlari yoki mukofotlari tizimini joriy etish.

4. Ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish. Halollik va haqqoniy aks ettirishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish. Universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlarida ushbu sohadagi loyihalar, dissertatsiyalar va ilmiy ishlarni qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa qilib aytganda, halollik tushunchasi va faktlarni taqdim etishda haqqoniylik tamoyili nafaqat nazariyada, balki amaliyotda ham chambarchas bog‘liqdir. Ushbu taklif va tavsiyalar buxgalteriya faoliyatida ishonchlilik, shaffoflik va ma’naviy poklikni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin. Biroq, bu maqsadga erishish uchun ta’lim, qonunchilik, nazorat va korporativ madaniyat uyg‘unligi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mondal, U. (2021). Conceptual framework for financial reporting 2018: a critical review. International Journal of Critical Accounting, 12(5), 429-443.
2. Laptes, R. (2020). Ethics and integrity of the professional accountant. Bulletin of the Transilvania University of Brasov. Series V: Economic Sciences, 87-92.
3. Baranov, P. P., Shaposhnikov, A. A., Maksimova, G. V., & Fadeykina, N. V. (2017). Scientific basis of the audit theory. Journal of Advanced Research in Law and Economics, 8(4 (26)), 1073-1087.
4. Абекова, А. К. (2017). Аудиторские процедуры по выявлению искажений финансовой отчетности и фактов мошенничества: магистерская диссертация по направлению подготовки: 38.04. 08-Финансы и кредит.

УДК 657

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФАЛЬСИФИКАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ МСФО

Абдиев Мурат Журатович - доктор экономических наук, профессор, Ошский технологический университет имени М.М. Адышева, Кыргызстан, г.Ош, Ферганский государственный технический университет, Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий, Узбекистан, E: mail: mabdiev1977@mail.ru;

Курбанбаева Чолпонай- магистрант 2-курса по направлению «Экономика», Ошский технологический университет имени М.М.Адышева, Кыргызская Республика, г.Ош.

Аннотация. В предлагаемой научной статье рассмотрены теоретические основы фальсификации финансовой отчетности и ее проявление в современных условиях хозяйствования при применении (МСФО). Особое внимание в научной статье уделено изучению методик отечественных и зарубежных авторов, позволяющих выявить финансовой отчетности. В научной статье сделан вывод, что в связи со значительным отличием целей искажения финансовой отчетности в отечественной и зарубежной учетной практике, необходимо дифференцировать методики обнаружения в них признаков мошенничества.

Ключевые слова: МСФО, бухгалтерский учет, искажения, мошенничества, бухгалтерская (финансовая) отчетность, фальсификация, предоставление.

Abstract. This research article examines the theoretical foundations of financial statement fraud and its manifestations in modern economic conditions when applying IFRS. Particular attention is paid to the study of methods developed by domestic and international authors for identifying financial statement fraud. The scientific article concludes that, due to the significant difference in the purposes of distorting financial statements in domestic and foreign accounting practices, it is necessary to differentiate the methods for detecting signs of fraud in them.

Key words: IFRS, accounting, distortions, fraud, financial reporting, falsification, provision.

Одной из наиболее актуальных проблем в сфере бухгалтерского учета при переходе к международным стандартам финансовой отчетности (МСФО) является фальсификация финансовой отчетности. Фальсификация финансовой отчетности не является новой и актуальна в течение всего существования системы учета и в настоящее время приобретает все большее значение как для экономики отдельной страны, так и в мире в целом.

Международные стандарты финансовой отчетности сегодня получили широкое признание во всем мире и являются языком бизнеса, использующимся в развитых странах для расширения границ международного сотрудничества между предпринимателями. В Кыргызской Республике (КР) уже несколько лет проводится реформирования отечественной системы бухгалтерского учета и с 2002 года перешли на стандарты в соответствии с МСФО.

Переход КР на МСФО окажет положительное влияние на развитие частного бизнеса, что в конечном итоге скажется на развитии экономики страны в целом. Так, результаты деятельности отечественных компаний, отраженные в бухгалтерской (финансовой) отчетности, составленной в соответствии с требованиями МСФО, станут более привлекательными для иностранных инвесторов, что позволит расширить границы международного сотрудничества, а система кыргызского бухгалтерского учета выйдет на новый, более продвинутый уровень [1].

Однако, вопрос о повышении прозрачности бухгалтерской (финансовой) отчетности остается до сих пор не решенным, так как не всегда отчетность, составленная по МСФО, может гарантировать достоверность сведений, потому что не все стандарты дают четкие требования и регламенты ведения бухгалтерского учета. Это позволяет некоторым компаниям искажать отчетность.

Понятие “фальсификация” происходит от латинского слова “falsifacare”, которое означает «подделывать». В справочной литературе понятие “фальсификация” имеет следующее определение (табл. 1).

Таблица 1

Подходы к определению понятия “фальсификация” в справочной литературе

№ п/п	Источник	Определение
1.	Бухгалтерский словарь [6, с. 184]	Фальсификация бухгалтерских документов и записей – оформление заранее неправильных или сфальсифицированных документов бухгалтерского учета и записей в регистрах бухгалтерского учета
2.	Большой экономический словарь [3, с. 1136]	Фальсификация финансовой отчетности – это мошенническая запись в бухгалтерских счетах фирмы, сделанная с целью сокрытия разворовывания у фирмы товаров или денежных средств
3.	Сотникова Л.В. Мошенничество с финансовой отчетностью: выявление и предупреждение. – М.: Бухгалтерский учет, 2011. – 208 с.	Фальсификация – преднамеренное перекручивание тех или других явлений, событий, фактов, с определенной целью
4.	Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь [15, с.358]	Фальсификация – 1) Подделка чего-либо; 2) Преднамеренное искажение или неправильное толкование тех или других явлений, событий, фактов
5.	Борисов А.Б. Большой экономический словарь [4, с.794]	Фальсификация – искажение фактов, событий
7.	A.S. Horbny, E.V. Gatenby, H.Wakefield The Advanced Learners Dictionary of Current English [19, с. 356]	Фальсификация – изменение, сделанное с целью обмана

Источник: составлено на основе соответствующих источников [5,7,10,12]

Обобщая определения исследуемого понятия, приведенные в таблице 1, можно прийти к выводу, что основной чертой фальсификации является ее преднамеренный характер, то есть перекручивание, искажение данных с корыстной целью.

Фальсификация финансовой отчетности может существовать на любом предприятии, в любой отрасли и т.д. Однако цель, с которой осуществляется фальсификация финансовой отчетности, предопределяется сложившимися в обществе социально-экономическими условиями.

В рыночной экономике цель фальсификации обусловлена, прежде всего, условиями выживаемости предприятия. Целью фальсификации отчетности является достижение экономической ситуации, которая отвечала бы своекорыстным интересам субъектов хозяйствования. Как правило, такой подход направлен против государства и хозяйственных партнеров предприятия. Характер этих искажений определяется поставленными целями

и хозяйственными противоречиями, которые возникают в результате деловых расхождений между хозяйствующими субъектами.

Как правило, в условиях рыночных отношений фальсификация отчетности имеет место с целью привлечения инвестиций. Для этого завышаются доходы для подъема биржевой стоимости акций данного предприятия, либо искажаются данные финансовой отчетности, на основании которых рассчитываются показатели эффективности деятельности хозяйствующего субъекта.

К наиболее распространенным способам фальсификации финансовой отчетности доц. А.В. Рабошук относит:

- непрерывная оценка отдельных статей баланса. Например, завышена оценка актива и занижена оценка пассива позволяют искусственно увеличить размер прибыли и соответственно увеличить величину собственного капитала, и наоборот. Уменьшена оценка актива и завышена оценка пассива искусственно снижают прибыль и даже могут показать фиктивный убыток;
- некорректная переоценка объектов основных средств может применяться для искажения данных об имуществе предприятия как в сторону увеличения, так и в сторону уменьшения в зависимости от цели, которая преследуется (например, предоставление имущества под залог);
- невключение в баланс отдельных сумм. Например, неотображение в балансе расходов, понесенных в течение отчетного периода, но надлежащих к оплате в будущем;
- включение в актив баланса надлежащих к списанию (например, включение в состав активов товаров, срок хранения которых закончился);
- включение в баланс имущества, которое не принадлежит предприятию на правах собственности (например, имущества, полученного в операционную аренду или того, которое находится на ответственном хранении);
- занижение валюты баланса с целью укрывательства обеспеченности активами обязательств перед кредиторами, в том числе и банками, или завышение величины баланса для укрывательства своей неплатежеспособности [13].

Потеря доверия к финансовой отчетности со стороны ее пользователей, негативные последствия, вызванные банкротствами компаний как для отрасли, так экономики страны в целом, а также незащищенность работников и акционеров компаний является основными предпосылками осуществления борьбы с фальсификацией финансовой отчетности

В КР законодательстве непосредственно понятию «фальсификация финансовой отчетности» на настоящий момент времени определения не дано. Это можно объяснить тем, что фальсификация финансовой отчетности чаще всего осуществляется в рамках бухгалтерских стандартов и требований законодательства, а поэтому с правовой точки зрения может и не являться правонарушением.

Тем не менее, в зарубежных нормативно правовых документах термин фальсификация имеет довольно широкое применение.

Так, Ассоциация сертифицированных бухгалтеров определяет фальсификацию финансовой отчетности как преднамеренное, умышленное искажение или сокрытие существенных фактов хозяйственной деятельности или данных бухгалтерского учета, которое вводит пользователя отчетности в заблуждение, а в некоторых случаях побуждает изменить решение, принимаемое на основании финансовой отчетности. А национальная комиссия США по фальсификации финансовой отчетности (COSO) определяет фальсификацию финансовой отчетности как

«умышленное или неумышленное действие либо бездействие, которое приводит к существенному искажению показателей финансовой отчетности» [6].

Таким образом, в нашем исследовании под искажением бухгалтерской (финансовой) отчетности будет пониматься фальсификация, которая представляет собой умышленное искажение информации, неполное раскрытие данных или упущение определенных величин с целью сокрытия определенных операций и введения в заблуждение внутренних и внешних пользователей отчетной информации.

Проблема искажения финансовой отчетности всегда оставалась актуальной для всего мирового сообщества, ведь отчетность является основным информационным каналом бизнеса и общества и она до сих пор не совершенна.

Если обратиться к опыту США, то можно заметить, что своего пика искажения отчетности достигло в XX веке, в период развития фондовых рынков. Искажения возникали из-за того, что при делегировании принятия важных решений акционерами руководству компании происходил конфликт интересов, что приводило к увеличению управляемого бизнеса для удовлетворения личных благ. Неэффективный контроль над руководством компании со стороны акционеров приводил к искажению финансовой отчетности [4].

С переходом на МСФО риск искажения отчетной информации должен быть минимизирован. МСФО дают большую вольность компаниям, полагаясь на профессиональное суждение бухгалтера, которое не всегда является компетентным, что способствует искажению отчетности.

Рост риска искажения отчетности спровоцировал ученых и экономистов уделить особое внимание данной проблеме и заняться поиском возможных путей выявления и предотвращения мошенничества.

Анализ экономической литературы показал, что исследованием достоверности бухгалтерской (финансовой) отчетности и ее искажением занимались такие известные ученые, как Н. Р. Вейцман, И. Ф. Шер, Н. С. Аринушкин, И. Р. Николаев, М. Ю. Брюханов, Л. В. Сотникова, М. Д. Бениш, Г. Бенфорд и другие. В своих научных работах указанные авторы заложили

терминологические основы фальсификации финансовой отчетности, представили определение субъекта и объекта фальсификации, а также возможные проявления фальсификации. Кроме того, ученым удалось разработать универсальные финансовые индикаторы, помогающие выявить и предупредить искажение финансовой отчетности.

Так, Н.С. Аринушкин разделял понятия ясности (наглядности) и правдивости (истинности) баланса [2]. И.Р. Николаев, обращал внимание на возможность существования «двуединой истины» в отражении стоимости имущества вследствие различных подходов к оценке [8].

Н.Р. Вейцман, разделял понятия фальсификации и вуалирования и утверждал, что при вуалировании бухгалтерского баланса требования бухгалтерских стандартов не нарушаются [5]. И.Ф. Шер первым классифицировал и проанализировал основные методы искажения баланса, к которым отнес соединение разнородных имущественных ценностей, неправильное начисление амортизационных сумм, включение фиктивных дебиторов и кредиторов, манипуляции с переоценкой средств, создание фиктивных фондов и резервов [11].

Ф. Бенфордом был разработан закон, помогающий выявить ошибки и искажения в числовом массиве данных. Данный закон утверждает, что в искусственно созданном массиве данных последние распределяются по закону, отличному от действующего в автономных (без вмешательства со стороны) системах [4].

Особый вклад данную проблему был внесен американским профессором М. Бенишем который разработал карту нормативных отклонений, предполагающую расчет и оценку динамики определенных коэффициентов. Сущность системы состоит в том, что если темпы роста данных коэффициентов компании существенно отличаются от единицы, то следует заподозрить признаки фальсификации [9].

Кроме того, многие ученые предлагают применять методы вертикального корреляционного анализа, горизонтального анализа показателей финансовой отчетности, финансового анализа таких коэффициентов как ликвидность, оборачиваемость, платежеспособность и др.

Несмотря на разнообразие западных методик по выявлению искажений в бухгалтерской (финансовой) отчетности, в КР настоящий момент нет собственных и адаптированных методик, и существует острая необходимость их разработки и совершенствования, что еще раз подтверждает актуальность выбранной темы исследования. Кроме того, анализ вышеперечисленных методик показал, что их применение в нашей стране не дает достоверных результатов. В основном это связанно с различиями в отечественной и зарубежной системе учета, законодательства, экономического развития и положения государства на мировой арене.

При совершенствовании методов выявления мошенничества с бухгалтерской (финансовой) отчетностью у компаний, применяющих

МСФО, по нашему мнению, особое внимание следует уделить тому, что сами стандарты могут использоваться в целях искажения отчетной информации. Международные стандарты дают большую вольность компаниям, полагаясь на профессиональное суждение бухгалтера, которое не всегда является компетентным, что способствует фальсификации [3].

Таким образом, для создания качественных методик выявления мошенничества у кыргызских компаний, применяющих МСФО, в первую очередь необходимо определить круг тех стандартов, которые из-за неопределенности требований, трудностей перевода или неточности оценки могут использоваться для искажения отчетности. Затем, следует охарактеризовать принципы искажения данных и определить, на какие статьи баланса или финансовый результат они влияют. Эта информация поможет определить, какие методы финансового анализа следует использовать для оценки тех или иных данных на предмет искажений.

В заключении следует добавить, что на предприятии необходимо следовать всем требованиям международных стандартов и доверять профессиональному суждению бухгалтера, что приводит к увеличению риска мошенничества. Поэтому при составлении финансовой отчетности большая ответственность лежит на руководителях, которые контролируют процесс формирования отчетных данных, и на аудиторах, которые с помощью аналитических процедур и финансового анализа, направленных на потенциально опасные отчетные данные, смогут обнаружить и исправить возникшие искажения.

Список литератур:

1. Абдиев М.Ж. Представление финансовой отчетности коммерческих субъектов в соответствии с МСФО // Известия Ош ТУ,-Ош, 2009.-№2.-С. 125-128

2. Аринушкин Н.С. Балансоведение. Курс общий и элементарный. – Самара, 2014.-310с.

3. Белик Е.В. Возможность оценки мошенничества в бухгалтерской (финансовой) отчетности организаций с помощью аналитических методов // Современное состояние и перспективы развития бухгалтерского учета, экономического анализа и аудита: Материалы международной научно-практической конференции. – 2015. – С. 118– 122.

4. Брюханов М.Ю. Мошенничество в финансовой отчетности на развивающихся рынках // Рынок ценных бумаг. – 2016. – № 15. – С. 48–52.

5. Вейцман Н.Р. Курс балансоведения. – М.: Центросоюз, 2015. – 241 с.

6. Комитет спонсорских организаций США (COSO) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.coso.org (дата обращения: 18.11.2016).

7. Международный стандарт финансовой отчетности (IAS) 8 «Учетная политика, изменения в бухгалтерских оценках и ошибки» (ред. от 26.08.2016) // СПС «Консультант Плюс» [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_123287/.

8. Николаев И.Р. Проблема реальности баланса. – Санкт-Петербург: Экономическое образование, 2014. – С. 51.

9. Полисюк Г.Б., Корчагина Л.М. Бухгалтерская (финансовая) отчетность: проблемы выявления и искажения информации // Экономический анализ, теория и практика. – 2019. – № 46 (301).

10. Сотникова Л.В. Мошенничество с финансовой отчетностью: выявление и предупреждение. – М.: Бухгалтерский учет, 2021. – 208 с.

11. Шер И.Ф. Бухгалтерия и баланс. – М.: Экономическая жизнь, 2023. – 293 с.

12. Экономическая природа фальсификации финансовой отчетности [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.msfofm.ru/. (дата обращения: 15.11.2016).

13. Рабошук А.В. Профессиональное суждение бухгалтера: проблемы и решения // Вестник ДГТУ. Ч. I. – Житомир: ЖДТУ, 2018. – № 1. С.12-16.

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТГА ЎТИШ ШАРОИТЛАРИДА КОРПОРАТИВ МОЛИЯНИ ШАКЛЛАНИШИДА НОМОДДИЙ АКТИВЛАРНИНГ ЎРНИ

Нурматов Орифжон Толибжанович
Тошкент менежмент ва иқтисодиёт институти

Аннотация. The article analyzes the economic nature and content of intangible assets, their strategic importance in the formation of enterprise finance and their impact on financial stability, and their role in diversification of production. Based on the results of the research, practical proposals on the use of intangible assets as a source of increasing the company's financial resources and potential have been developed.

Калит сўзлар: номоддий активлар, интеллектуал мулк, инновациялар, стратегик молиявий ресурслар, диверсификация, молиявий салоҳият, молиявий барқарорлик.

Аннотация. В статье анализируются экономическая природа и содержание нематериальных активов, их стратегическое значение в формировании финансов предприятия и влияние на финансовую устойчивость, а также роль в диверсификации производства. По результатам исследования разработаны практические предложения по использованию нематериальных активов как источника увеличения финансовых ресурсов и потенциала предприятия.

Ключевые слова: нематериальные активы, интеллектуальная собственность, инновации, стратегические финансовые ресурсы, диверсификация, финансовый потенциал, финансовая устойчивость.

Abstract.

The article analyzes the economic nature and content of intangible assets,

their strategic importance in the formation of enterprise finance and their impact on financial stability, and their role in diversification of production. Based on the results of the research, practical proposals on the use of intangible assets as a source of increasing the company's financial resources and potential have been developed.

Keywords: intangible assets, intellectual property, innovation, strategic financial resources, diversification, financial potential, financial stability.

Кириш. Илм-фан, техника ва технологияларни тараққиёти, ахборот алмашувини тезлашуви, халқаро савдо ҳамда инвестиция муносабатларини кенгайиши дунё иқтисодиётини глобаллашувига, яъни, миллий иқтисодиётларни ўзаро интеграциялашуви, товарлар, капитал, ахборот ва меҳнат ресурсларини халқаро миқёсда эркин ҳаракатига сабаб бўлмоқда. Глобаллашув жараёнлари натижасида миллий корхоналар халқаро бозорларга чиқиш орқали экспорт имкониятини оширишга эришадилар, бу эса корхоналарда ишлаб чиқаришни диверсификация қилиш, инновацияларга алоҳида эътибор қаратиш, умуман олганда рақобатбардошликни ошириш заруратини келтириб чиқармоқда. Шу билан бирга хорижий инвестициялари орқали замонавий технологиялар, ноу-хаулар, саноат намуналари, брендлар ва бошқа интеллектуал мулк объектларини кириб келиши янги турдаги сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқарилиши орқали ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириб, харажатларни оптималлаштириш ҳамда камайтириш хизмат қилса, халқаро стандартларга асосланган молиявий ҳисоб ва ҳисоботлар, замонавий корпоратив бошқарув тизимлари, ишлаб чиқариш ҳамда бошқарув жараёнларини рақамлашуви бошқарувда самарли иқтисодий қарорларни қабул қилиш имкониятларини кенгайтиради.

Хозирги кунда юқори технологияли маҳсулотларни ишлаб чиқарувчи ёки хизматларни кўрсатувчи корхоналарда номоддий активларни узоқ муддатли активлардаги улуши 60-80 фоизни ташкил этмоқда. Активлар таркибида номоддий активлар улушини кўп бўлиши ўз навбатида корхонанинг иқтисодий ривожланиши ва бошқарувида бир қатор ижобий ва салбий оқибатлар келтириб чиариши мумкин. Бир томондан, номоддий активлар улушини кўплиги корхонада инновацион фаолиятда фаолликдан дарак бериб, инновацион ва бренд маҳсулотларни бозорга киритиш орқали рақобатбардошликка эришиш ҳамда мазкур активлар қийматини ошиши туфайли корхона капитализациясини ўсишига олиб келади. Иккинчи томондан, номоддий активлар кўринишидаги активларни ликвидлиги паст бўлиб, жорий тўлов қобилиятини паст бўлишига, уларни фаол бозори бўлмагани баҳолашни мураккаблигига ва молиявий ҳисоботларда активлар тўғрисидаги ахборотларни ноаниқлигига, технологияларни тез ривожланиши натижасида тез қадрсизланишига сабаб бўлади.

Иқтисодиётни глобаллашуви ва кучли рақобат шароитида корхоналар молиявий ресурсларини стратегик режалаштириш самарадорлиги уларнинг барқарор ривожланиши ҳамда бозордаги рақобатбардошлигини белгилаб

беради. Бизга маълумки, молиявий ресурсларни стратегик режалаштириш деганда корхона фаолияти нуқтаи назарида келиб чиқиб, молиявий манбаларни аниқлаш, уларни жалб этиш, тақсимлаш ва фойдаланиш йўналишларини узоқ муддатли прогнозларини белгилашни тушунамиз. Бу жараёнларни мақсади эса корхонанинг молиявий барқарорлиги, ликвидлиги ва инвестицион салоҳиятини таъминлаш ҳамда ошириш орқали уни рақобатбардошлигини оширишдан иборат.

Молиявий ресурсларни стратегик режалаштиришнинг асосий ва муҳим йўналишлари сифатида молиявий ресурслар манбаларини диверсификация қилиш, инвестиция ва кредитлардан ортимал фойдаланиш, акциядорлик капиталини кенгайтириш, молиявий оқимларни самарали бошқариш, яъни, операцион фаолият, модернизация ва инновацияларга йўналтирилган маблағларни тўғри тақсимлаш, харажатлар структурасини оптималлаштириш, лойиҳалар самарадорлигини баҳолаш, валюта курси, кредит, ликвидлик рискларини бошқариш, қарз ва ўзлик маблағлари нисбатини белгилаш, қарз юки ва фоиз харажатларини минималлаштириш, қисқа ва узоқ муддатли пул оқимларини прогнозлаштириш, номоддий активлар ва интеллектуал мулк объектларини капиталлаштириш стратегияси, солиқ имтиёзларидан самарали фойдаланиш орқали солиқ юкини минималлаштириш, молиявий назорат ва бюджетлаштириш тизимини жорий этиш каби масалаларни келтириш мумкин.

Илгари ишлаб чиқаришда моддий асосга эга асосий воситалар асосий ўринни эгаллаган бўлса, бугунги кунда иқтисодиётни барча соҳа ва тармоқларида юқори қўшилган қийматни яратилиши замонавий илм, инновациялар, патентлар, ноу-хаулар, лицензиялар, таниқли бренд ва технологияларга боғлиқ бўлиб қолмоқда. Шу боис корхоналар молиявий стратегиясини ишлаб чиқишда интеллектул мулк объектларидан иборат бўлган номоддий активларни экпулатация қилишдан келадиган пул оқимларини чуқур таҳлил қилиш долзарб вазифа ҳисобланади. Чунки бу активлар корхона фаолиятини самарали ташкил этиш ва олиб боришда, рақобатбардошликни барқарорлигини таъминлашда стратегик ахамиятга эга муҳим ресурс ҳисобланади.

Компанияни бозор қийматини шаклланиши ва ортишида номоддий активлар, хусусан, патентлар, лицензиялар, айрим товарлар ёки хизматлар учун мувофиқлик сертификатлари муҳим ахамият касб этмоқда. Жаҳонда таниқли брендлар эгаси бўлган компаниялар франциза ва роялтилардан оладиган даромадлари орқали ўзларини молиявий ресурсларини шакллантирадилар. Бизга маълумки франциза бренд эгасини бошқа бир субъектга мазкур бренд остида товар ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш ҳуқуқини бир ҳақ эвазига беришдир. Роялти эса франшиза шартномаси орқали олаётган даромаддан брент эгасига тўланадиган ойлик тўловдир.

Ривожланган давлатларда мамлакатларда бу амалиёт кенг тарқалган. Ишончли, риски паст тайёр бизнес давом эттириб кетиш тадбиркорлар учун

қулайдир. Чунки, бозорда таниқли товар ёки хизматларни реализацияси қулай ва улардан олинадиган фойда даражаси ҳам юқори бўлади. Шунингдек, тадбиркорликни бу шаклида фаолият олиб бораётганлар маркетинг тадқиқотлари, товарлар учун мувофиқлик сертификатлари ва бошқа айрим ташкилий харажатларга ортиқча сарф қилмайдилар.

Мамлакатимизда мазкур йўналишда даромад олиш мумкин бўлган бир қатор драйвер соҳалар бор. Қурилиш, қурилиш материаллари ишлаб чиқиш, тўқимачилик, трикотаж, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш, озиқ-овқат, шунингдек, таълим соҳасини шулар жумласига киритиш мумкин. Бу бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 7-августдаги “Саноат соҳасида нуфузли халқаро брендлар билан ҳамкорликни ривожлантириш ва миллий брендларни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида қарори” мавжуд. Бу қарорда миллий брендларни рўйхатини шаклантириш 2 босқичда амалга ошириш, яъни биринчи босқичда — Адлия вазирлиги ва Солиқ қўмитаси билан биргаликда саноат йўналишлари бўйича юқори ва ўрта барқарорлик рейтингига эга тадбиркорлик субъектларининг белгиланган тартибда рўйхатдан ўтказилган товар белгилари рўйхатини шакллантириш, иккинчи босқичда — рўйхатга киритилган товар белгилари бўйича миллий консалтинг компанияларининг тадқиқотлари, мазкур товар белгилари оммавий ахборот воситалари, интернет ва ижтимоий тармоқларда ёритилиши ҳолати ва улар тўғрисида сўровлар сони, аҳоли ўртасида ўтказилган ижтимоий сўровлар таҳлили натижалари асосида миллий брендлар рўйхатини шакллантиради ва эълон қилиши белгиланган.

BUXGALTERIYA HISOBINING INSTITUTSIONAL PARADIGMASI

Ismanov Ibroxim Nabiyevich,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor, e-mail: ibroxim.ismanov@fstu.uz

Annotatsiya. Maqolada buxgalteriya hisobiga institutsional yondashuvning nazariy-ilmiy asoslari yoritilgan. Buxgalteriya hisobi faqatgina iqtisodiy ma’lumotlarni yig‘ish va hisobot shakllantirish tizimi sifatida emas, balki iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida tahlil qilingan. Uning jamiyatdagi missiyasi - iqtisodiy barqarorlik, ishonch va shaffoflikni ta’minlashdagi roli asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, institutsional iqtisodiyot, ijtimoiy institut, iqtisodiy barqarorlik, axborot shaffofligi, ishonch.

Аннотация. В статье освещены теоретико-научные основы институционального подхода к бухгалтерскому учету. Бухгалтерский учет анализируется не только как система сбора экономических данных и формирования отчетности, но и как социально-экономический институт,

регулирующий экономические отношения. Обоснована его миссия в обществе - роль в обеспечении экономической стабильности, доверия и прозрачности.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, институциональная экономика, социальный институт, экономическая стабильность, прозрачность информации, доверие.

Abstract. The article covers the theoretical and scientific foundations of the institutional approach to accounting. Accounting is analyzed not only as a system for collecting economic data and generating reports, but also as a socio-economic institution regulating economic relations. Its mission in society - its role in ensuring economic stability, trust, and transparency - is substantiated.

Keywords: accounting, institutional economy, social institution, economic stability, information transparency, trust.

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida buxgalteriya hisobi faqatgina xo‘jalik operatsiyalarini qayd etuvchi texnik tizim sifatida emas, balki iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ishonch va shaffoflikni ta’minlovchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya hisobiga institutsional paradigma nuqtai nazaridan yondashish uning mohiyati va ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berish imkonini beradi.

Institutsional nazariyaga ko‘ra, har qanday iqtisodiy tizim faqat bozor mexanizmlari yoki iqtisodiy manfaatlar bilan emas, balki muayyan qoidalar, me’yorlar va an’analar tizimi orqali ham boshqariladi. Buxgalteriya hisobi aynan shunday tizim bo‘lib, u qonunchilik, milliy va xalqaro standartlar, kasbiy odob qoidalari hamda jamiyat ishonchiga asoslangan holda faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu tizim iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, resurslardan samarali foydalanish va axborotning ishonchliligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi global iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi vosita, balki iqtisodiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida qaralmoqda. Zamonaviy iqtisodiy tizimda shaffoflik, hisobdorlik va ishonchni ta’minlashda buxgalteriya hisobi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning institutsional tabiati yangi ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda [1].

U qonunchilik, milliy va xalqaro standartlar (IFRS, IPSAS), kasbiy axloq qoidalari va jamoatchilik ishonchiga asoslangan holda faoliyat yuritadi.

Buxgalteriya hisobi institut sifatida faqat hisobot tuzish bilan cheklanmay, balki manfaatdor tomonlar - davlat, investorlar, kreditorlar, jamiyat uchun ishonchli axborot platformasini shakllantiradi.

Institutsional paradigma buxgalteriya hisobiga faqat texnik yoki hisob-kitob tizimi sifatida emas, balki iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida qaraydi.

Bu paradigma doirasida buxgalteriya hisobi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida ishonchli, taqqoslanadigan axborotni shakllantirish;
2. iqtisodiy qarorlar qabul qilishda manfaatdor tomonlarga asos bo‘lish;
3. xo‘jalik faoliyatida hisobdorlik va javobgarlikni ta’minlash;
4. jamiyatda ishonch va shaffoflik muhitini yaratish.

Shu bilan buxgalteriya hisobi iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va iqtisodiy intizomni ta’minlovchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi [2].

Buxgalteriya hisobi tizimi mamlakatning huquqiy bazasi, davlat siyosati, bozor infratuzilmasi, ta’lim tizimi va kasbiy institutlar bilan chambarchas bog‘langan. Bu muhit uning rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi. Masalan, O‘zbekistonda “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun va Milliy buxgalteriya standartlari tizimi buxgalteriya hisobining institutsional asosini tashkil etadi. Shuningdek, xalqaro standartlarga moslashish jarayoni buxgalteriya hisobi institutining global iqtisodiyot bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi [3].

Institutsional yondashuv buxgalteriya hisobining missiyasini yangicha talqin etadi. Unga ko‘ra, buxgalteriya hisobi:

- iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi;
- jamiyatda ishonch va hisobdorlik madaniyatini shakllantiradi;
- davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladi;
- investitsion muhitni yaxshilash va korporativ boshqaruvni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Zamonaviy iqtisodiy tizimlarda kuzatilayotgan inqiroz holatlari, jumladan moliyaviy barqarorlikning izdan chiqishi, axborot shaffofligining yetishmasligi va iqtisodiy subyektlar o‘rtasida ishonchning pasayishi buxgalteriya hisobi institutining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini qayta baholashni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ilmiy gipoteza sifatida quyidagi fikr ilgari suriladi:

Agar buxgalteriya hisobi institutining institutsional vazifalari

- axborot shaffofligi, hisobdorlik, qonunchilikka muvofiqlik va jamoat ishonchini ta’minlash

- tizimli ravishda rivojlantirilsa, u holda iqtisodiy inqirozlarni bartaraf etish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish mumkin bo‘ladi.

Institutsional baza asosida buxgalteriya hisobini rivojlantirish amaliyoti an’anaviy hisob tizimini kengaytirish va uning funksiyalari, predmeti hamda obyektlari tushunchalarini boyitish imkonini berdi. Hisobning funksiyalari faqat nazorat va hisobot berish bilan cheklanmay, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, strategik tahlil va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan kompleks vazifalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, predmet va obyektlar doirasida nafaqat moliyaviy operatsiyalar, balki nematerial aktivlar, intellektual kapital va ijtimoiy hamda ekologik ko‘rsatkichlar ham hisobga olinadi.

Hisob metodologiyasi va modellashtirish yo‘nalishlarining rivojlanishi transaksion, institutsional va innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga olgan. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy jarayonlarning an’anaviy raqamlardan tashqari, tahlil va boshqaruv nuqtai nazaridan ko‘rish imkonini beradi. Injiniring va raqamli texnologiyalar orqali hisobning avtomatlashtirilgan modellari yaratilib, professional buxgalterlar uchun innovatsion instrumentlar taqdim etiladi.

Shu tarzda institutsional baza va ilmiy asoslangan metodologiya hisobni nafaqat moliyaviy ma’lumotlarni qayd etuvchi tizim, balki iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va samarali boshqarishning samarali vositasiga aylantirdi. Bu rivojlanishlar buxgalteriya hisobining iqtisodiy samaradorlik va shaffoflikni ta’minlashdagi ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligi iqtisodiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Moliyaviy axborotning sifatini belgilaydigan tamoyillar orasida “haqqoniy aks ettirish” (faithful representation) va buxgalteriya kasbining etik negizi bo‘lgan “halol konsepsiya”si (integrity) muhim o‘rin tutadi.

Halollik buxgalteriya kasbining etik negizi bo‘lib, u quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga oladi (IESBA, 2020):

- Rostgo‘ylik (honesty);
- Prinsipiallik (integrity);
- Asliyatga sadoqat (uprightness);
- Aldash, manipulyatsiya va ma’lumotni yashirishga yo‘l qo‘ymaslik;

Adabiyotlarda halollik buxgalterning shaxsiy etik pozitsiyasini ifodalovchi ichki kategoriya sifatida talqin qilinadi (Mautz & Sharaf, 1961; Shaub, 1997).

1-jadval

Halollik konsepsiyasi va haqqoniy aks ettirishning o‘zaro bog‘liqligi

Belgi	Halollik konsepsiya	Haqqoniy aks ettirish
Maqsad	Buxgalter faoliyatida axloqiy poklik va rostgo‘ylikni ta’minlash	Moliyaviy axborotni ishonchli va haqiqiy holatda berish
Yo‘nalish	Shaxsiy-etika yuzasidan yondashuv	Axborotning sifat ko‘rsatkichi
Mazmun	Aldashga qarshi ichki pozitsiya	Axborot neytralligi va aniqligini ta’minlash

Halollik - bu axborotni qanday tayyorlash emas, balki buxgalterning qaror qabul qilish jarayonidagi axloqiy yondashuvi, ya’ni xaqiqatni buzmaslikka bo‘lgan ichki sadoqati hisoblanadi.

IFRS Conceptual Framework’ga ko‘ra, moliyaviy axborot quyidagi tarzda xaqqoniy aks ettirilgan bo‘lishi lozim:

Aniqlik (Completeness) – axborotda kerakli barcha ma’lumotlar to‘liq berilgan;

Neytrallik (Neutrality) – manfaatdor tomonlar foydasiga og‘dirilmagan;

Xatolardan xoli bo‘lish (Free from Error) – qasddan yoki beixtiyor xatolardan xoli. Bu tamoyil buxgalterdan hisobotni haqiqiy holatni buzmasdan, manipulyatsiyasiz tayyorlashni talab qiladi (IASB, 2018) [4].

Mazkur tamoyillarning o‘xshash tomonlarini quyidagi jadvalda qiyosiy tahlili keltirilgan.

Halollik - buxgalterning ichki fazilati, haqqoniy aks ettirish - uning amaliy natijasi.

Buxgalteriya hisobi institutsional paradigmasi nuqtai nazaridan:

1 Haqqoniy aks ettirish - buxgalteriya institutining regulyativ asosi.

2 Halollik - buxgalteriya institutining etik va madaniy-kognitiv asosi.

3 Institutsional mexanizmlar faqat ikki ustun birgalikda ishlaganda samarali bo‘ladi.

4 Agar buxgalter halol bo‘lmasa - regulyativ standartlar samarasiz.

5 Agar standartlar kuchli bo‘lmasa - halollikni amalga oshirishni baholash mushkul.

Shu ma’noda ikki tamoyil buxgalteriya hisobi institutsional paradigmasiga fundamental - yadroviy darajada aloqador.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Одинцова, Т. М. (2021). Бухгалтерский учет: развитие и трансформация в контексте вызовов современности. Международный бухгалтерский учет, 24(10), 484.

2. Shkulipa, L. (2017). Research of the main advantages in social oriented accounting. Технологический аудит и резервы производства, 3(4 (35)), 14-19.

3. Jabbarov K.Y. Amaliy buxgalteriya. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Ma’rifat”, 2023. 220 bet.

4. Абекова, А. К. (2017). Аудиторские процедуры по выявлению искажений финансовой отчетности и фактов мошенничества: магистерская диссертация по направлению подготовки: 38.04. 08-Финансы и кредит.

BYUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR (ISH, XIZMATLAR)NI XARID QILISH JARAYONLARIDA IQTISODIY TAHLILDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

Xojaev Azizxon Saidaloxonovich
2. Ma’lumotlarni tozalash va moslashtirish moduli: Ma’lumotlar yaxlitligini tasdiqlaydi va nomutanosibliklarni aniqlaydi
3. Qarzdorliklarni tekshirish algoritmi: Avtomatik tarzda noreal yoki takroriy qarzdorliklarni aniqlaydi

4. Analitik panel: Real vaqt rejimida moliyaviy ko‘rsatkichlarni vizualizatsiya qiladi

5. Ogohlantirish tizimi: Foydalanuvchilarni muddati o‘tgan to‘lovlar va ma’lumotlar anomaliyalari haqida xabardor qiladi

Farg‘ona bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida o‘tkazilgan pilot tadqiqot sezilarli natijalar berdi. 1-jadvalda integratsiyagacha va integratsiyadan keyingi ko‘rsatkichlar taqqoslanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, integratsion modul hisobot tayyorlash vaqtini 6 soatdan 1 soatga qisqartirdi, bu 83,3% yaxshilanishni bildiradi. Inson xatolari oyiga 12 tadan 2 tagacha kamaydi va noreal qarzdorliklar butunlay yo‘q qilindi.

Tadqiqot doirasida pullik tibbiy xizmatlardan olingan tushum va ish haqi taqsimoti to‘g‘risidagi birlashtirilgan namunaviy blanka shakli ishlab chiqildi. Mazkur blanka uch bo‘limdan iborat:

- I-bo‘lim: Kunlik ma’lumotlar (bo‘lim bekasi tomonidan to‘ldiriladi)
- II-bo‘lim: Oylik solishtirma tahlili (kassir tomonidan to‘ldiriladi)
- III-bo‘lim: Ish haqi hisoblash (buxgalter tomonidan to‘ldiriladi)

Bu blanka quyidagi muammolarni hal qiladi:

6. Bo‘lim ma’lumotlari va to‘lov tizimi o‘rtasida tizimli solishtirish mexanizmini ta’minlaydi

7. Mukofot hisoblash jarayonida shaffoflikni oshiradi

8. Xodimlarning o‘z vaqtida mukofot olishini ta’minlaydi

Integratsion modulning iqtisodiy samaradorligi sezilarli. Pilot davr mobaynida tizim taxminan 168 million so‘m noreal qarzdorlikni aniqladi va oldini oldi. Hisobot tayyorlash vaqtining qisqarishi har chorakda 120 soat buxgalter mehnatini tejashga olib keldi, bu yiliga taxminan 14,4 million so‘m to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlarini tejashni anglatadi.

Foydalanuvchilar so‘rovi yuqori qoniqish darajasini ko‘rsatdi: 95% tizimni “foydalanish oson” deb topdi, 92% moliyaviy ma’lumotlar aniqligiga ishonchning oshganini bildirdi va 89% umumiy tizimdan mamnun bo‘ldi.

1-jadval.

Tizim integratsiyasi samaradorlik ko‘rsatkichlari (VBKTTM, 2024-2025)

Ko‘rsatkich	2024 (Oldin)	2025 (Keyin)	O‘zgarish (%)	Tahlil
Hisobot tayyorlash vaqti (soat)	6	1	-83,3	Avtomatlashtirish ta’siri
Inson xatosi (oyiga)	12	2	-83,3	Takroriy kiritishni yo‘q qilish
Noreal qarzdorliklar (oyiga)	5	0	-100	Real vaqt tekshiruvi
Muddati o‘tgan qarzdorliklar (%)	65	0	-100	Ogohlantirish tizimi ta’siri
Panel foydalanish (%)	0	98	+98	Foydalanuvchi qabul qilishi

Tadqiqot davlat tibbiyot muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida buxgalteriya hisobini takomillashtirish sezilarli samaradorlik va aniqlik yaxshilanishiga olib kelishini ko‘rsatdi. UzASBO va Invoice.UzASBO o‘rtasidagi integratsiya hisobot tayyorlash vaqtini 83,3% qisqartirdi, inson xatolarini 83,3% kamaytirdi va noreal qarzdorliklarni butunlay yo‘q qildi.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi uchun raqamli texnologiyalarni buxgalteriya hisobida qo‘llash IPSAS standartlariga o‘tishni osonlashtiradi va moliyaviy boshqaruv sifatini oshiradi. Ishlab chiqilgan echimlar boshqa davlat tibbiyot muassasalarida ham muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin.

Asosiy tavsiyalar:

- Milliy miqyosda joriy etish: Integratsion modulni barcha davlat tibbiyot muassasalarida bosqichma-bosqich joriy etish
- Kadrlar tayyorlash: Buxgalteriya xodimlari uchun raqamli texnologiyalar bo‘yicha o‘quv dasturlarini tashkil etish
- Doimiy yangilash: Tizimni muntazam yangilash va yangi funktsiyalar qo‘shish
- Standartlashtirish: Yagona me’yoriy hujjatlar va ko‘rsatmalar ishlab chiqish
- Kengaytirilgan integratsiya: Boshqa davlat axborot tizimlari bilan integratsiyani kengaytirish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaplan, R.S., & Anderson, S.R. (2004). Time-Driven Activity-Based Costing. Harvard Business Review, 82(11), 131-138.

2. Rissbacher, C., Rissbacher, C., & Roehlich, S. (2014). Public hospital accounting reform: The case of Austria. Journal of Public Health, 22, 197-210.

3. Ryabokon, N.A. (2009). Organizatsiya buxgalterskogo ucheta dokhodov i raskhodov v uchrejdeniyax zdravooxraneniya v usloviyax smeshannogo finansirovaniya [Kandidatlik dissertatsiyasi].

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-sonli Qarori. “2025-2030 yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi”. www.lex.uz

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA ICHKI NAZORAT TIZIMINING O‘RNI

Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD), e-mail: u.mehmonaliyev@ferpi.uz.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda davomida davlat va korxonalar darajasida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda ichki nazorat tizimining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda samarali ichki nazoratning moliyaviy resurslarni boshqarish, korrupsiya xavfini kamaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish,

soliq tushumlarini ko‘paytirish va makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatish kabi asosiy iqtisodiy samaralari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot so‘ngida muallif tomonidan mavjud muammolarni samarali hal etishga qaratilgan bir nechta amaliy takliflar taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: ichki nazorat, barqaror iqtisodiy o‘sish, moliyaviy boshqaruv, korrupsiya, investitsiya muhiti, soliq tushumlari, makroiqtisodiy barqarorlik.

Аннотация. В данном исследовании анализируется роль и значение системы внутреннего контроля в обеспечении устойчивого экономического роста на уровне государства и предприятий. В исследовании рассматриваются основные экономические преимущества эффективного внутреннего контроля, такие как управление финансовыми ресурсами, снижение коррупционных рисков, повышение инвестиционной привлекательности, увеличение налоговых поступлений и положительное влияние на макроэкономическую стабильность. В конце исследования автор представляет несколько практических предложений, направленных на эффективное решение существующих проблем.

Ключевые слова: внутренний контроль, устойчивый экономический рост, финансовое управление, коррупция, инвестиционный климат, налоговые поступления, макроэкономическая стабильность.

Abstract. This study analyzes the role and importance of the internal control system in ensuring sustainable economic growth at the state and enterprise levels. The study examines the main economic advantages of effective internal control, such as financial resource management, reduction of corruption risks, increased investment attractiveness, increased tax revenues and a positive impact on macroeconomic stability. At the end of the study, the author presents several practical proposals aimed at effectively solving existing problems.

Keywords: internal control, sustainable economic growth, financial management, corruption, investment climate, tax revenues, macroeconomic stability.

Kirish. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash ko‘plab mamlakatlar, shu jumladan, O‘zbekiston uchun ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga integratsiyalashuv kuchayib borayotgan va kompaniyalar faoliyatining shaffofligini, shuningdek, ularning investorlar uchun jozibadorligini oshirishga intilish sharoitida ichki nazorat tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ichki nazorat mexanizmlari iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, kompaniya resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini kafolatlaydi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan firibgarlik va xatolarning oldini oladi.

Kompaniyaning muvaffaqiyati, uning daromadliligini oshirish va aktivlarini ko‘paytirish ko‘p jihatdan boshqaruv tizimining samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, uning asosiy elementlaridan biri ichki nazoratdir. Ichki nazorat tizimi korxonaning

samarali va barqaror ishlashini ta’minlash uchun korxona rahbariyati tomonidan ishlab chiqilgan tashkiliy tuzilmalar, usullar va vositalar majmuasidir.

Ichki nazorat tizimining asosiy maqsadi kompaniya harakatlarining qonunchilik talablari, rejalar, standartlar va buyruqlarga muvofiqligini tekshirishdir. Ichki nazorat tizimining vazifasi ishdagi xato va noaniqliklarni tezkor aniqlash va oldini olishdir. Samarali ichki nazorat tizimini yaratish kompaniyaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shartdir [1].

Zamonaviy boshqaruvda ichki nazorat tizimi nafaqat moliyaviy intizomni saqlashda, balki strategik qarorlar qabul qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlashda ham muhim rol o‘ynaydi. U xavflarni baholash va ularni minimallashtirish choralarini ishlab chiqish imkonini beradi. Kompaniya bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, audit jarayonlarini avtomatlashtirish, monitoring platformalaridan foydalanish va ichki boshqaruv standartlarini joriy etish zarur [2]. Ichki nazorat tizimining asosiy elementi malakali xodimlarni tanlashdir. Xodimlar ichki nazorat tizimida muhim rol o‘ynaydi. Ichki nazorat tizimi samarali ishlashi uchun xodimlar ishini nazorat qilish, hisobotlarni muntazam ravishda tahlil qilish, vijdonsiz xodimlarni tezda aniqlash va yo‘q qilish, shuningdek, erishilgan yutuqlar uchun rag‘batlantirish va mukofotlash zarur. Bu ichki nazorat tizimining barqaror va to‘g‘ri ishlashiga xizmat qiladi.

Yuqori malaka va mas’uliyatga ega bo‘lgan xodimlar ishonchga sazovor bo‘lib, mehnatga haq to‘lash va rag‘batlantirish tizimidan mamnun bo‘ladi. Ular o‘z vazifalarini sifatli bajarishga rag‘batlantiriladi. Bu tizimda boshqa muammolar mavjud bo‘lsa ham, moliyaviy hisobotlarda xatolar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, ba’zi xodimlar vijdonsiz va axloqsiz harakat qilishi mumkin, bu esa ichki nazorat tizimining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu tizimdan xodimlarning shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan ichki nazoratning mavjud mexanizmlarini tahlil qilish va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholash zarur. Bu davlat darajasida iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va har bir tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Asosiy qism. Barqaror iqtisodiy o‘sish davlatning har qanday uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. U nafaqat aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlik garovi hamdir.

Biroq bunday o‘sishga erishish byudjet mablag‘lari, pul-kredit sohasi va investitsiya dasturlarini oqilona boshqarishni o‘z ichiga olgan murakkab makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishni taqozo etadi.

Bu jarayonda davlat moliyasini oqilona, samarali va shaffof boshqarish asosiy jihat hisoblanadi. Hozirgi kunda ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlar korrupsiya, byudjet mablag‘larining maqsadsiz sarflanishi, soliqlarning to‘liq undirilmasligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Bu omillar iqtisodiy o‘sish barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, barqaror rivojlanishga to‘siq bo‘ladi.

Ushbu muammolarni hal qilishning asosiy usullaridan biri davlat va xususiy sektorda samarali ichki nazorat tizimini ishlab chiqish va joriy etishdir. Ichki nazorat nafaqat xavflarni aniqlash va boshqarishga yordam beradi, balki qonunchilik va ichki tartib-qoidalarga rioya etilishini, shuningdek, ma’lumotlarning ishonchliligi va faoliyat samaradorligini ta’minlaydi.

Shu o‘rinda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda ichki nazorat tizimining o‘rnini batafsil ko‘rib chiqish zarur. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ichki nazorat tizimi davlat, korxona faoliyatning turli jihatlariga ta’sir ko‘rsatib, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, jumladan:

1. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish. Ichki nazorat tizimi byudjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minlaydi, bu esa infratuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadigan sohalarga sarmoya kiritish imkonini beradi. Masalan, loyihaviy moliyalashtirishda ichki auditni joriy etish loyiha xarajatlarini 10-15 foizga kamaytirishga olib kelishi mumkin.

2. Korrupsiya xavfini kamaytirish. Ichki nazorat “qog‘oz izi” va mustaqil tekshiruvlarni keltirib chiqaradi, bu esa poraxo‘rlik va byudjet mablag‘larining talon taroj qilinishini, o‘zlashtirish bilan bog‘liq jarayonlarni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Transparency International tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, korrupsiya indeksi yuqori bo‘lgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining barqaror o‘sishi va yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarni namoyish etmoqda [3].

3. Investitsiya muhitini yaxshilash. Investorlar moliyaviy hisobotlar ishonchli, aktivlar himoyalangan va boshqaruv shaffof bo‘lgan sharoitda ishlashni afzal ko‘radilar. Xorijiy va xalqaro investitsiyalarni jalb etishga ko‘maklashadigan samarali ichki nazorat tizimi aynan shunday ishonchli muhitni yaratadi.

4. Soliq tushumlarining o‘sishi. Soliq ma’muriyatchiligi sohasida ichki nazoratning joriy etilishi soliq to‘lovchilarning hisoboti va to‘lovlarini yanada shaffof va nazorat qilinadigan qiladi. Bu soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va soliq imtiyozlarini noto‘g‘ri qo‘llash holatlarini kamaytiradi. Natijada byudjetning daromad qismi ko‘payadi, bu esa davlatning iqtisodiyotni tartibga solish imkoniyatlarini kengaytiradi.

5. Makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sir. Moliyaviy hisobotning aniqligi makroiqtisodiy prognozlar va rejalarning aniqligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu davlatga narxlarning o‘sishi va byudjetdagi mablag‘larning yetishmasligi kabi muammolarni tezda aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, ularni bartaraf etishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari ichki nazorat tizimi buxgalteriya hisobi va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasi bilan cheklanib qolmasdan, balki davlatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy element ekanligini yaqqol namoyish etadi. Ichki nazorat tizimining iqtisodiyotga ta’siri ikki darajada namoyon bo‘ladi: bevosita, xarajatlarni optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlash orqali va bilvosita, ishonch va barqarorlik muhitini shakllantirish orqali.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirgan mamlakatlar o‘z davrida davlat sektorida ichki nazorat va audit tizimida chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirgan. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimi zaif bo‘lgan davlatlarda korrupsiya va mavhumlik tufayli katta miqdordagi investitsiyalar ham kutilgan natijani bermayapti.

Xulosa. Tadqiqot davomida samarali ichki nazorat tizimini joriy etish bilan bog‘liq qiyinchiliklar aniqlandi. Bu qo‘shimcha resurslarni, shu jumladan malakali mutaxassislarni talab qiladi va ma’muriyatning qarshiligini keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, ichki nazorat natijalari har doim ham darhol namoyon bo‘lmaydi, bu esa uni uzoq muddatli sarmoya kiritishni talab etadi. Biz tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy qadamlarni taklif qilish mumkin:

1. Qonunchilik bazasini mustahkamlash. Ichki nazoratni barcha davlat organlari va korxonalari uchun majburiy qiladigan qonunlar qabul qilinishi kerak.

2. Xalqaro standartlarni joriy etish. Ichki nazorat va audit sohasidagi xalqaro tajribaga asoslangan milliy standartlarni ishlab chiqish va joriy etish lozim (masalan, COSO, INTOSAI).

3. Ichki nazorat samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish. Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI):

- xatolar soni;
- mablag‘larni tejash;
- aniqlangan xavflar.

Tizimni baholash har yili ichki audit yordamida amalga oshiriladi. Jarayonlarni doimiy monitoring va tahlil qilish ham rejalashtiriladi.

Shunday qilib, fikrimizcha davlatning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasi doirasida barcha darajalarda ichki nazorat tizimini ishlab chiqish va joriy etishga alohida e’tibor qaratish zarur, bu uning asosiy maqsadga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fabiyanska, V. (2020). Internal control of the enterprise: essence, classification and main components. Norwegian Journal of development of the International Science, (41-2), 27-36.

2. Шоль, Ю. Н., Святкина, К. Н., & Ховятская, Е. А. (2024). Современные технологии в области аудита: цифровизация и автоматизация. Вестник академии знаний, (4 (63)), 412-416.

3. https://www.transparency.org/en/cpi/2023

UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O‘SISHDA BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNING O‘RNI

Uzakova Ma’muraxon Matkarimovna,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti, e-mail: mamuraxon.uzaqova@fstu.uz
G‘aniyeva Muxlisa Adxamjon qizi, Farg‘ona davlat texnika universiteti
75-24 BI guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda buxgalteriya hisobi va moliyaviy shaffoflikning o‘rni tahlil qilinadi. Moliyaviy ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi iqtisodiy qarorlar qabul qilish, sarmoyaviy muhitni yaxshilash hamda davlat byudjetini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobining zamonaviy tamoyillari, xalqaro standartlarga moslashuv jarayoni va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy shaffoflikning oshishi iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy shaffoflik, iqtisodiy barqarorlik, audit, raqamli texnologiyalar..

Аннотация. В статье анализируется роль бухгалтерского учета и финансовой прозрачности в обеспечении долгосрочного экономического роста. Точность и достоверность финансовой информации играют важную роль в принятии экономических решений, улучшении инвестиционного климата и эффективном управлении государственным бюджетом. Повышение финансовой прозрачности за счет внедрения современных принципов бухгалтерского учета, соответствующих международным стандартам и цифровым технологиям, способствует экономической стабильности.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, финансовая прозрачность, экономическая стабильность, аудит, цифровые технологии.

Abstract. This article analyzes the role of accounting and financial transparency in ensuring long-term economic growth. The accuracy and reliability of financial information play a crucial role in making economic decisions, improving the investment climate, and managing the state budget efficiently. Enhancing financial transparency through the implementation of modern accounting principles aligned with international standards and digital technologies contributes to economic stability.

Keywords: accounting, financial transparency, economic stability, audit, digital technologies.

Kirish. Uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish - bu nafaqat yalpi ichki mahsulotning doimiy o‘sishi, balki iqtisodiyotning tarkibiy barqarorligi, sarmoya oqimlarining uzluksizligi, ishlab chiqarish samaradorligi va moliyaviy tizimning shaffofligiga ham bevosita bog‘liq jarayondir. Har qanday iqtisodiy tizimda buxgalteriya hisobi

moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi markaziy boshqaruv mexanizmi sifatida qaraladi. Chunki hisob yuritish jarayoni korxona, tashkilot va davlat miqyosida resurslardan foydalanish, daromad va xarajatlarni nazorat qilish, moliyaviy oqimlarni tahlil qilish hamda qaror qabul qilish uchun asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda buxgalteriya hisobining vazifasi faqat raqamlarni qayd etish bilan chegaralanmaydi. U iqtisodiy siyosatni shakllantirishda, davlat byudjetining ijrosini tahlil qilishda va investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda asosiy axborot vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya axborotlari nafaqat iqtisodiy sub’yektlar, balki davlat boshqaruvi organlari, investorlar va xalqaro moliya institutlari uchun ham strategik ahamiyatga ega.

Moliyaviy shaffoflik - bu ishonch, barqarorlik va rivojlanish kafolatidir. Iqtisodiyotda shaffoflik darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarda korrupsion xavflar past bo‘ladi, soliq bazasi kengayadi, moliyaviy oqimlar samaraliroq boshqariladi. Shu sababli, buxgalteriya hisobi orqali yaratiladigan moliyaviy axborotning aniqligi va ishonchliligi uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning ajralmas omili sifatida qaraladi.

O‘zbekistonda bu yo‘nalishda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) bosqichma-bosqich o‘tish, “E-Hisob”, “my.soliq.uz” kabi raqamli platformalarni joriy etish, shuningdek, korxonalarning moliyaviy hisobotlarini elektron shaklda topshirish tizimi buxgalteriya hisobini shaffoflashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda buxgalteriya hisobi va moliyaviy shaffoflikning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimini yaratish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu yo‘nalishdagi muammolar, xalqaro tajriba va takomillashtirish istiqbollari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda buxgalteriya hisobi va moliyaviy shaffoflikning o‘zaro bog‘liqligi chuqur tahlilni talab etadi. Iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi ko‘p jihatdan iqtisodiy axborotlarning to‘liqligi, aniqligi va ishonchliligiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya hisobi faqat statistik yoki moliyaviy jarayonlarni qayd etuvchi tizim emas, balki iqtisodiy boshqaruvning markaziy asosi sifatida namoyon bo‘ladi.

1. Buxgalteriya hisobi - iqtisodiy axborotning asosiy manbai sifatida

Har qanday korxona yoki tashkilotning muvaffaqiyati u yuritayotgan hisob-kitob tizimining shaffofligi va aniqligiga bevosita bog‘liq. Buxgalteriya ma’lumotlari iqtisodiy tahlil, rejalashtirish va nazorat jarayonlari uchun zarur axborot manbai hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar amaliyotida buxgalteriya hisobi orqali olingan moliyaviy natijalar korxonaning strategik qarorlarini belgilashda asosiy indikator sifatida ishlatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida 2025-yilgacha barcha yirik korxonalar IFRS tizimiga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. Bu

islohotning maqsadi – hisobotlarni xalqaro talablar darajasiga olib chiqish va xorijiy investorlar uchun ishonchli ma’lumotlar bazasini yaratishdir.

2. Moliyaviy shaffoflik - barqaror o‘sishning ishonch omili

Moliyaviy shaffoflik iqtisodiy faoliyatda ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlaydi. Jahon bankining “Governance Indicators” hisobotiga ko‘ra, moliyaviy shaffoflik indeksi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari o‘rtacha 1,5 baravar yuqori bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, ochiq hisobot yuritish nafaqat ichki boshqaruv, balki xalqaro iqtisodiy hamkorlik uchun ham mustahkam poydevor yaratadi.

O‘zbekistonda ham bu borada sezilarli yutuqlar mavjud. “E-Hisob”, “E-qaror”, “Soliq mobil ilovasi”, “Davlat xaridlari portali” kabi platformalar moliyaviy ma’lumotlarning onlayn nazoratini yo‘lga qo‘ydi. Natijada korxonalar o‘rtasidagi hisob-kitoblar soddalashib, byudjet intizomi mustahkamlandi.

3. Buxgalteriya tizimining raqamlashtirilishi va innovatsion texnologiyalar

Raqamli texnologiyalarni joriy etish buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirish hamda tahlil tezligini oshirish imkonini bermoqda. Zamonaviy dasturlar – “1C”, “SAP ERP”, “QuickBooks”, “Oracle NetSuite” kabi tizimlar nafaqat hisob yuritishni, balki real vaqt rejimida tahliliy hisobotlar shakllantirishni ham ta’minlamoqda.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt (AI) asosidagi dasturlar yordamida korxona faoliyatining moliyaviy natijalari prognoz qilinmoqda. Misol uchun, IBM kompaniyasining “Watson Accounting” tizimi 2024-yilda AQSH korxonalarida audit jarayonlarining 37 foizini avtomatlashtirishga yordam berdi.

4. Moliyaviy shaffoflik va sarmoya muhitining yaxshilanishi

Investitsion jozibadorlik bevosita moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga bog‘liqdir. Xalqaro amaliyotda “Transparency International” indeksida yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar (Finlyandiya, Kanada, Yaponiya) doimiy ravishda sarmoya oqimini ko‘paytirib kelmoqda. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda ijobiy o‘zgarishlarni namoyon etmoqda – 2023-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 11,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi, bu esa 2018-yilga nisbatan 2,6 baravar ko‘pdir.

Bu natijalarga erishishda moliyaviy shaffoflik siyosatining kuchaytirilishi, soliq yukining optimallashtirilishi va elektron hisobot tizimlarining rivojlanishi muhim rol o‘ynadi.

5. Xalqaro tajriba va milliy modelning uyg‘unligi

Rivojlangan davlatlarda buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy javobgarlikni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, Yevropa Ittifoqida ESG (Environmental, Social, Governance) hisobotlari majburiylashtirilgan bo‘lib, korxonalar ekologik va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatkichlarini ham e’lon qiladi. Shu bilan birga, Yaponiyada “Integrated Reporting” tizimi joriy etilgan bo‘lib, u korxonaning moliyaviy va nolfafiy faoliyati haqida kompleks ma’lumot beradi.

O‘zbekiston sharoitida esa buxgalteriya hisobi tizimi hali to‘liq raqamlashtirilmagan, biroq so‘nggi yillardagi “Ochiq byudjet” platformasi,

“Hisobot.uz” tizimi va “Soliq-24” xizmatlari bu yo‘nalishda muhim bosqich bo‘ldi.

6. Kelajak istiqbollari

Uzoq muddatli istiqbolda O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini to‘liq raqamlashtirish, ma’lumotlarni yagona markazlashgan platformada saqlash, audit va nazorat tizimlarini integratsiya qilish orqali iqtisodiy shaffoflikni yangi bosqichga olib chiqish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy axborot almashinuvi standartlarini joriy etish orqali O‘zbekiston global iqtisodiy maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobi va moliyaviy shaffoflik uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi. Har qanday iqtisodiy tizimning barqarorligi va ishonchliligi, eng avvalo, moliyaviy axborotlarning haqqoniyligi, aniqligi va ochiqligiga bog‘liqdir. Buxgalteriya hisobi orqali shakllanadigan ma’lumotlar davlat siyosatini rejalashtirish, soliq bazasini kengaytirish va investitsion muhitni mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Moliyaviy shaffoflikning oshishi iqtisodiy muhitda ishonchni kuchaytiradi, korrupsion xavflarni kamaytiradi hamda kapital oqimini faollashtiradi. Bu esa makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlab, iqtisodiyotda raqobatbardosh muhitni yaratishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish, “E-Hisob” va “my.soliq.uz” kabi raqamli tizimlarning joriy etilishi korxonalar faoliyatini oshkora yuritish va davlat nazoratining samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining vazifasi yanada kengaymoqda - u nafaqat moliyaviy natijalarni qayd etish, balki tahliliy prognozlar, investitsion baholash va strategik qarorlarni qabul qilishda axborot manbai sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida buxgalteriya axborot tizimlarini avtomatlashtirish, sun’iy intellekt asosida ishlovchi tahliliy modellarni joriy etish va xalqaro axborot almashinuvi mexanizmlarini takomillashtirish muhim vazifalardan biridir.

Kelgusida O‘zbekistonda moliyaviy boshqaruv tizimini yanada isloh qilish, buxgalteriya hisobini to‘liq raqamlashtirish hamda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga to‘liq mosligini ta’minlash orqali iqtisodiy shaffoflikni oshirish va uzoq muddatli o‘sish uchun mustahkam zamin yaratish lozim.

Shu bois, buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish, ochiqlikni ta’minlaydigan qonunchilik asoslarini kuchaytirish, hamda axborot texnologiyalarini keng qo‘llash O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, A. (2023). Moliya va buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari. Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali, 4(2), 56–64.

2. Mamatov, B. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish. Buxgalteriya hisobi va audit jurnali, 2(3), 45–52.

3. OECD. (2022). Financial Transparency and Accountability Frameworks in Developing Economies. Paris: OECD Publishing.

4. World Bank. (2023). Governance and Economic Growth: Strengthening Transparency and Institutional Capacity. Washington, D.C.

5. Tohirov, M. (2022). Moliyaviy shaffoflikni oshirish orqali investitsion muhitni yaxshilash yo‘llari. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 3(1), 21–29.

6. Wong, Z. W. V., Chen, F., Law, S. H., & Ismail, N. W. (2022). The Effects of Financial Disclosure Quality on Economic Growth in Developing Countries. Bulletin of Monetary Economics and Banking, 25(3), 317–334.

7. International Federation of Accountants (IFAC). (2021). Enhancing Transparency and Accountability in Public Sector Accounting. New York.

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Uzakova Ma’muraxon Matkarimovna,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti, e-mail: mamuraxon.uzaqova@fstu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada audit tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari va ularning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilingan. Audit faoliyatining samaradorligi iqtisodiyotning ochiqligi, moliyaviy intizomning mustahkamlanishi va investitsion jozibadorlikning oshishiga bevosita ta’sir etadi. Maqolada ichki va tashqi audit tizimlari o‘rtasidagi integratsiya, raqamli audit texnologiyalari, xalqaro standartlarga moslashuv va milliy audit tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: audit, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy nazorat, raqamli texnologiya, shaffoflik, investitsion jozibadorlik, xalqaro standartlar.

Аннотация. В статье рассматриваются современные направления совершенствования системы аудита и их роль в обеспечении устойчивого экономического развития. Эффективность аудита напрямую влияет на прозрачность экономики, укрепление финансовой дисциплины и повышение инвестиционной привлекательности. В работе проанализированы интеграция внутреннего и внешнего аудита, внедрение цифровых технологий аудита, адаптация международных стандартов и меры по модернизации национальной системы аудита.

Ключевые слова: аудит, экономическое развитие, финансовый контроль, цифровые технологии, прозрачность, инвестиционная привлекательность, международные стандарты.

Abstract. This article examines the modern directions for improving the audit system and their significance in ensuring sustainable economic development. The

effectiveness of auditing directly influences economic transparency, financial discipline, and investment attractiveness. The study analyzes the integration of internal and external audit systems, the implementation of digital audit technologies, the adaptation of international standards, and proposals for modernizing the national audit framework.

Keywords: audit, economic development, financial control, digital technologies, transparency, investment attractiveness, international standards.

Kirish. Barqaror iqtisodiy rivojlanish - bu iqtisodiy tizimning uzoq muddatda samarali faoliyat yuritishi, makroiqtisodiy muvozanatni saqlab qolishi, resurslardan oqilona foydalanish hamda ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash jarayonidir. Bunday rivojlanishni ta’minlashda audit tizimi muhim nazorat mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Audit iqtisodiy sub’yektlarning moliyaviy faoliyatini baholash, resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish va moliyaviy intizomni mustahkamlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Audit tizimi iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismi bo‘lib, uning samarali faoliyati iqtisodiyotning ochiqligi, investitsion jozibadorligi va ishonch muhitining shakllanishiga xizmat qiladi. Jahon tajribasida, ayniqsa, Yevropa Ittifoqi, AQSH va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda audit tizimining shaffofligi iqtisodiy xavfsizlikning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida so‘nggi yillarda audit sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonunning qabul qilinishi, xalqaro sertifikatlash tizimlari (ACCA, CIPA, CIA)ni joriy etish, raqamli audit texnologiyalarini sinovdan o‘tkazish bu yo‘nalishda muhim bosqich bo‘ldi. Ayniqsa, davlat sektori va xususiy korxonalarda ichki audit tizimining kuchaytirilishi moliyaviy nazoratni mustahkamlab, korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu sababli, hozirgi sharoitda audit tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalasi dolzarbdir. Ushbu maqolada audit tizimining barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, zamonaviy yo‘nalishlari va xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish istiqbollari yoritiladi.

Asosiy qism.

1. Audit tizimining iqtisodiy barqarorlikdagi o‘rni

Auditning asosiy vazifasi – moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy intizomni kuchaytirishdir. Har bir iqtisodiy sub’yektning barqaror faoliyati moliyaviy oqimlarning to‘g‘ri yuritilishi va ularning tahliliy baholanishiga bog‘liq. Audit tizimi shu ma’noda iqtisodiy barqarorlikning “barometri” hisoblanadi.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, samarali audit tizimi mavjud davlatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari barqaror bo‘lib, byudjet defitsiti minimal darajada saqlanadi.

Masalan, Germaniyada mustaqil auditorlik organlari tomonidan yillik moliyaviy hisobotlarni majburiy tahlil qilish amaliyoti iqtisodiy ishonchni oshirgan.

2. Auditning turlari va ularning o‘zaro integratsiyasi

Audit tizimi ichki va tashqi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi.

Ichki audit – korxona ichidagi moliyaviy jarayonlarni nazorat qiladi, resurslardan foydalanish va risklarni baholash bilan shug‘ullanadi. Tashqi audit esa mustaqil tashkilotlar tomonidan olib boriladi va moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini baholashga qaratilgan.

Ushbu ikki yo‘nalishning integratsiyasi korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlaydi, firibgarlik holatlarini erta aniqlash imkonini beradi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ichki va tashqi audit o‘rtasidagi o‘zaro axborot almashinuvi natijasida byudjet mablag‘larining maqsadsiz sarflanishi 18% ga kamaygan.

3. Raqamli audit texnologiyalari va ularning samaradorligi

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar audit faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylandi. “ACL”, “CaseWare IDEA”, “AuditNet”, “SAP Audit Management” kabi dasturlar katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilib, moliyaviy nomuvofiqliklarni aniqlash imkonini bermoqda.

Sun’iy intellekt (AI) asosida ishlovchi tizimlar audit jarayonlarining 40% gacha qismini avtomatlashtirishi, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirishi mumkin. O‘zbekistonda ham “E-Audit” platformasini joriy etish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Ushbu tizim davlat sektori uchun moliyaviy jarayonlarni raqamli nazorat qilish, hisobotlarni onlayn tahlil qilish va audit natijalarini yagona bazada saqlash imkonini beradi.

4. Audit tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va xalqaro audit standartlari (ISA) asosida audit tizimini takomillashtirish O‘zbekiston uchun muhim yo‘nalishlardan biridir.

Auditning sifatini oshirish uchun professional sertifikatlash tizimlari (ACCA, CIPA, CIA) joriy etilmoqda. 2024-yilda mamlakatda 150 dan ortiq auditor xalqaro malaka sertifikatiga ega bo‘ldi, bu esa auditorlik faoliyatining sifat darajasini yangi bosqichga olib chiqdi.

5. Iqtisodiy samaradorlik va ishonch muhitini kuchaytirish

Samarali audit tizimi moliyaviy shaffoflikni oshiradi, investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi va davlat byudjeti mablag‘larining oqilona sarflanishini ta’minlaydi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, audit sifati yuqori bo‘lgan davlatlarda investitsion oqimlar hajmi o‘rtacha 25 foizga ortadi. Bu esa iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Audit tizimini takomillashtirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning eng muhim shartlaridan biridir. U iqtisodiy faoliyatning ochiqligini ta’minlaydi, moliyaviy intizomni kuchaytiradi va investitsion jozibadorlikni oshiradi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni audit jarayonlariga tatbiq etish orqali inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamayadi, tahlil aniqligi esa sezilarli darajada ortadi.

O‘zbekiston uchun xalqaro tajribani o‘rganish, milliy audit tizimini raqamlashtirish va mustaqil auditorlik institutlarini qo‘llab-quvvatlash bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ichki va tashqi audit o‘rtasidagi axborot integratsiyasi, “E-Audit” platformasining joriy etilishi va xalqaro standartlarga to‘liq o‘tish istiqbolda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bois, audit tizimining zamonaviy yo‘nalishlarini amaliyotga keng tatbiq etish, auditorlar malakasini oshirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kompleks yondashuv O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va shaffof rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov, R. (2024). Audit tizimini raqamlashtirish yo‘nalishlari va xalqaro tajriba. Moliyaviy nazorat jurnali, 3(1), 25–34.
2. International Federation of Accountants (IFAC). (2022). Digital Transformation in Auditing. New York.
3. European Court of Auditors. (2023). Annual Report on the Use of Digital Audit Tools in the EU. Brussels.
4. Tursunov, Q. (2023). O‘zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy nazorat va audit tizimining rivojlanish tendensiyalari. Iqtisodiy tahlil jurnali, 2(4), 47–55.
5. Wong, Z. W. V., Law, S. H., & Ismail, N. W. (2022). Audit Quality, Institutional Trust and Sustainable Growth. Journal of Financial Studies, 19(3), 88–104.

AUDITORLIK TEKSHIRUVI O‘TKAZISH JARAYONIDA AVTOMATLASHTIRILGAN DASTURIY TA’MINOTLARDAN FOYDALANISH

Ahmadjonov Azimjon Karimjon o‘g‘li,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD,
e-mail: akhmadjonov@tpp.uz

Annotatsiya. Tezisda auditorlik tekshiruvi o‘tkazish jarayonida avtomatlashtirilgan dasturiy ta’minotlardan foydalanishni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda xalqaro va milliy auditorlik amaliyotida qo‘llaniladigan zamonaviy dasturiy vositalarning funksional imkoniyatlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. “AuditNET”, “IT Audit: Auditor”, “AUDIT XP Kompleks Audit” va “EkspressAudit: PROF” kabi dasturlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tezisda auditorlik faoliyatini avtomatlashtirishda yuzaga keladigan texnik, texnologik va umumtarmoq omillari, shuningdek, dasturiy ta’minotdan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar batafsil ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: auditorlik dasturlari, avtomatlashtirish, dasturiy ta’minot, auditorlik tekshiruvi, AUDIT XP, IT Audit, EkspressAudit, AuditNET, funksional imkoniyatlar.

Аннотация. В тезисе рассмотрены вопросы совершенствования использования автоматизированного программного обеспечения в процессе проведения аудиторской проверки. В исследовании проанализированы функциональные возможности современных программных средств, используемых в международной и национальной аудиторской практике, их преимущества и недостатки. Проведен сравнительный анализ таких программ, как "AuditNET," "IT Audit: Auditor," "AUDIT XP Kompleks Audit" и "ExpressAudit: PROF." В тезисе подробно изложены технические, технологические и общеотраслевые факторы, возникающие при автоматизации аудиторской деятельности, а также риски, которые могут возникнуть при использовании программного обеспечения.

Ключевые слова: аудиторские программы, автоматизация, программное обеспечение, аудиторская проверка, AUDIT XP, IT Audit, ExpressAudit, AuditNET, функциональные возможности.

Abstract. The thesis examines the issues of improving the use of automated software in the audit process. The study analyzes the functional capabilities of modern software tools used in international and national audit practice, their advantages and disadvantages. A comparative analysis of such programs as "AuditNET," "IT Audit: Auditor," "AUDIT XP Complex Audit," and "ExpressAudit: PROF" was carried out. The thesis details the technical, technological, and industry-wide factors arising in the automation of audit activities, as well as the risks that may arise when using software.

Keywords: audit software, automation, software, audit, AUDIT XP, IT Audit, ExpressAudit, AuditNET, functionality.

Bugungi kunda har qanday auditorlik tashkiloti o‘z faoliyatini avtomatlashtirishga katta ehtiyoj sezmoqda. Zamonaviy auditorlik dasturlari ma’lumotlar bazasini yaratish va uning asosida turli murakkablikdagi auditorlik hisobotlarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek tekshiruvda xatoga yo‘l qo‘ymaslikka ish vaqtini tejash va zarur axborotni tezkor ravishda olishga yordam beradi.

2018-yil 19-sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3946-son qarorida auditorlik tashkilotlari hamda buxgalterlar va auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan o‘zaro elektron hamkorligiga mo‘ljallangan «Audit» dasturiy majmuasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan.

Unga muvofiq «Auditorlik tashkilotining shaxsiy kabineti» va «Auditorlar jamoat birlashmasining shaxsiy kabineti» veb-servisini yaratishni nazarda tutadigan «Audit» dasturiy majmuasi ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi. Bu auditorlik tashkilotlari faoliyatining shaffofligini ta’minlash va ularni davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligi sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni makrodarajadagi chora-tadbirlaridan sanaladi.

Avtomatlashtirish sifatini oshirishga formallashtirilgan buyruqlardan foydalanish yordamida erishish mumkin. Formallashtirish audit va nazoratni avtomatlashtirishning zarur sharti bo‘lib u dasturiy muhitni talqin qilishdagi nomuvofiqlikni bartaraf etadi hamda auditorlik va nazorat tartib-taomillarining hajmi miqyosi va aniq tavsifini ta’minlaydi.

Avtomatlashtirilgan kompyuter muhitda audit bu auditorlik tekshiruvini rejalashtirish o‘tkazish va yakunlash bosqichlarida kompyuter dasturlaridan foydalanish jarayoni. Ushbu dasturlardan foydalanish auditorlik faoliyatida ish vaqtining kamayishi va ish sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Xalqaro auditorlik standartlarida avtomatlashtirishga oid talablar.

Auditorlik tekshiruvida avtomatlashtirilgan dasturiy ta’minotdan foydalanish tartibi Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi huzuridagi Auditorlik amaliyoti xalqaro qo‘mitasining quyidagi hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Birinchidan «Kompyuter axborot muhitida audit o‘tkazish» nomli AXS qabul qilingan.

Ikkinchidan «Kompyuter axborot muhiti xususiyatlarini hisobga olgan holda ichki nazorat va auditorlik riskini baholash» nomli AXS ishlab chiqilgan. Uchinchidan «Kompyuterlashtirilgan audit usullari» nomli AXS amalga oshirilgan.

1-jadval

Xalqaro auditorlik amaliyotida qo‘llaniladigan dasturiy ta’minot turlari[8]

№	Dastur	Dastur maqsadi	Ishlab chiqaruvchi	Nashr yili
1.	“AuditNET”	Auditorlik faoliyatini avtomatlashtirish	“Новыйе эффективныйе технологии”	2009
2.	“IT AUDIT: Auditor”	Auditni kompleks hajmda avtomatlashtirish	“Master-soft” MCHJ (www.audit-soft.ru)	2005
3.	“AUDIT XP “Kompleks Audit”	Auditorlik faoliyatini avtomatlashtirish	“Goldberg-Soft” kompaniyasi (www.auditxp.ru)	2005
4.	“Ekspress audit: PROF”	Auditorlik tekshiruvini avtomatlashtirish majmuaviy tizimi	“Термика” Н.П Барышников konsalting guruhi (www.termika.ru)	2004
O‘zbekistonda yaratilgan dasturiy ta’minot turlari				
5.	“AUDITSOFT”	Tijorat banklari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar ichki audit xizmatlari va auditorlik kompaniyalarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan	O‘zbekiston auditorlar palatasi (Karimov N.F.)	2007
6.	“Audit Sampling”	Tijorat banklari kredit faoliyati va Markaziy bank filiallari faoliyati auditi uchun mo‘ljallangan	Saxobov O.U., A.A.Bubnov	2008
7.	“First-Audit”	Tijorat banklari va yirik ishlab chiqarish korxonalarida ichki auditorlik tekshiruvi o‘tkazishga mo‘ljallangan	Karimov J.F., Karimov X.X.	2010

[8] Muallif tomonidan tayyorlangan.

Hozirgi jahon auditorlik amaliyotida ofis dasturlari me’yoriy-huquqiy axborot tizimlari buxgalteriya dasturiy ta’minotlari moliyaviy tahlil dasturiy ta’minotlari bilan birgalikda auditga oid maxsus dasturiy ta’minot turlaridan keng foydalanilmoqda.

Izlanishlar natijasida hozirgi paytda Rossiya va rivojlangan Yevropa davlatlari auditorlik amaliyotida «AuditNET», «IT AUDIT: Auditor», «AUDIT XP Kompleks Audit» va «Ekspress audit: PROF» singari eng professional dasturiy vositalar orqali qisqa muddat va tartiblar asosida tekshiruvlarning sifatli o‘tkazilishiga erishilganligi aniqlandi.

O‘zbekistonda yaratilgan dasturlar ichida “AUDITSOFT” dasturi tijorat banklari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar ichki audit xizmatlari va auditorlik kompaniyalarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan. “Audit Sampling” dasturi tijorat banklari kredit faoliyati va Markaziy bank filiallari faoliyati auditi uchun ishlab chiqilgan. “First-Audit” dasturi tijorat banklari va yirik ishlab chiqarish korxonalarida ichki auditorlik tekshiruvi o‘tkazishga mo‘ljallangan.

Auditorlik tekshiruvlari jarayonida auditorlik dasturlaridan foydalanish auditorga quyidagi vazifalarni sifatli va qisqa muddatda amalga oshirish imkonini beradi. Birinchidan mijoz-korxonada amalga oshirilgan muomalalar va bank hisob raqamlari bo‘yicha qoldiqlarni kompyuter ma’lumotlar bazasi orqali tekshirish imkoni yaratiladi.

Ikkinchidan kompyuterning ma’lumotlar bazasida mulk va mablag‘larning hujjatdagi va amaldagi farqlarini aniqlash uchun tahliliy amallarni bajarish imkoniyati mavjud. Uchinchidan tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektning ma’lumotlar bazasini tekshirish amalga oshiriladi. To‘rtinchidan tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatida qo‘llaniladigan texnik matematik va axborot-dasturiy ta’minotlarini sinovdan o‘tkazish imkoniyati ta’minlanadi.

Respublikamiz auditorlik amaliyotida yuqorida keltirilgan dasturlar quyidagi omillar sababli samarali va maqsadli qo‘llanilmayapti. Umumtarmoq omillarga auditorlik faoliyati rivojining dastlabki bosqichida mazkur bozorning past darajada rivojlanganligi kiradi.

Auditorlik tekshiruvi jarayonini to‘liq hujjatlashtirish imkoniyatining cheklanganligi va kasbiy fikrni shakllantirish kerakligi muhim masala hisoblanadi. Auditorlar kompyuter savodxonligining talab darajasida emasligi audit jarayonining murakkab shakllanganligi va auditorlik faoliyatining me’yoriy-huquqiy bazasi juda murakkab va katta hajmli ekanligi qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi.

Texnologik omillarga audit o‘tkazilayotgan korxona tomonidan turli xil buxgalteriya dasturiy ta’minotlarining qo‘llanilishi kiradi. Auditorlik xizmatining mijoz-korxona obyektlariga borgan holda amalga oshirilish ko‘chma xususiyati mavjud. Auditorlik firmalari mijozlarining turli tarmoqlarga ixtisoslashganligi qonunchilik talablarining o‘zgarishi sharoitida avtomatlashtirilgan audit dasturlarini turli audit obyektlarining faoliyat xususiyatlariga moslashtirish imkonini bermaydi.

2-jadval.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida xalqaro audit standartlari asosida ishchi va yakuniy hujjatlarini shakllantirishda “MHXSni tashkilotga tatbiq etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi” [9]

Omil (sabab)lar turi	Omil (sabab)larning mazmuni
Umumtarmoq	auditorlik faoliyati rivojining dastlabki bosqichida mazkur bozorning past darajada rivojlanganligi; auditorlik tekshiruvi jarayonini to‘liq hujjatlashtirish imkoniyatining cheklanganligi va kasbiy fikrni shakllantirish kerakligi, shuningdek, talab qilinayotgan auditorlik faoliyatining o‘ziga xosligi; auditorlar kompyuter savodxonligining talab darajasida emasligi; audit jarayonining murakkab shakllanganligi; auditorlik faoliyatining me’yoriy-huquqiy bazasi juda murakkab va katta hajmli ekanligi; amaliyotda audit o‘tkazishda yagona yondashuvning yo‘qligi; tekshirish davrida turli xil natijalar olinishi; auditorlik xulosasini tayyorlashda ularni tizimlashtirish bilan bog‘liq turli murakkabliklarning mavjudligi; xalqaro standartlar talablari darajasida audit o‘tkazishga o‘tish natijasida sohaga oid auditorlik xizmatlari hajmining oshib borishi; taqdim etilayotgan auditorlik xizmatlari sifati ustidan ichki va tashqi nazoratning kuchayishi.
Texnologik	audit o‘tkazilayotgan korxona tomonidan turli xil buxgalteriya dasturiy ta’minotlarining qo‘llanilishi; auditorlik xizmatining mijoz-korxona obyektlariga borgan holda amalga oshirilish (ko‘chma) xususiyati; auditorlik firmalari mijozlarining turli tarmoqlarga ixtisoslashganligi, bu esa, qonunchilik talablarining o‘zgarishi sharoitida avtomatlashtirilgan audit dasturlarini turli audit obyektlarining faoliyat xususiyatlariga moslashtirish imkonini bermasligi; mijozlarda qo‘llaniladigan dasturiy ta’minot bazalarini o‘zlashtirish maqsadida auditorlarning turli dasturiy ta’minotni o‘rganish zarurati; auditorlik tekshiruvi natijalarining maxfiyligi va himoya qilish talablariga rioya qilish lozimligi; elektron raqamli imzodan foydalanish orqali tekshiruvning ishchi va yakuniy hujjatlarini elektron arxivlash imkoniyatining chegaralanganligi.

Ko‘pgina afzalliklarga qaramay auditning avtomatlashtirilgan dasturlari mahalliy bozorda keng tarqalishiga quyidagi omillar to‘sqinlik qilmoqda. Birinchidan yuqori xarid qiymati. Ikkinchidan o‘qitish va kuzatishning qimmatligi. Uchinchidan uzoq muddat yarim yil va undan ortiq vaqtda joriy etilishi. To‘rtinchidan professional dasturchi tomonidan foydalanuvchining aniq ehtiyojlariga moslashtirilishi va tuzatishlar kiritilishining talab etilishi.

[9] Muallif tomonidan tayyorlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946-son qarori. -- Toshkent: www.lex.uz
Kalit so‘zlar: Iqtisodiy tahlil, moliyaviy boshqaruv, audit, barqaror rivojlanish, investitsiya, optimal taqsimlash, shaffoflik, faollikni rag‘batlantirish, samaradorlik.

Аннотация: В этой статье рассмотрены, насколько необходимо комплексное взаимодействие финансового управления, экономического анализа и аудита для долгосрочного устойчивого роста. Экономический анализ позволяет оценить финансовое состояние предприятий и экономических систем, повысить эффективность и сформулировать стратегические решения. Аудит укрепляет экономическую стабильность, проверяя достоверность информации и предотвращая ошибки и злоупотребления в финансовых процессах. Таким образом, финансовое управление, интегрированное с экономическим анализом, обеспечивает долгосрочное устойчивое развитие и экономическую стабильность.

Ключевые слова: Экономический анализ, финансовое управление, аудит, устойчивое развитие, инвестиции, оптимальное распределение, прозрачность, стимулирование деятельности, эффективность.

Abstract: This article shows how important the integrated work of financial management, economic analysis and audit is for long-term sustainable growth. Economic analysis allows you to assess the financial condition of enterprises and economic systems, improve efficiency and formulate strategic decisions. Auditing strengthens economic stability by verifying the accuracy of information and preventing errors and abuse in financial processes. In this way, financial management integrated with economic analysis ensures long-term sustainable development and economic stability.

Keywords: Economic analysis, financial management, audit, sustainable development, investment, optimal distribution, transparency, incentive activity, efficiency.

Uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sish har bir mamlakat va korxona uchun eng asosiy maqsadlardan biridir. Barqaror rivojlanish nafaqat ishlab chiqarish hajmining yoki yalpi ichki mahsulotning oshishi bilan belgilanadi, balki moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, resurslarni optimal boshqarish, strategik qarorlarni tahlil asosida qabul qilish bilan ham bog‘liqdir [1]. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy tahlil va moliyaviy boshqaruv tizimi uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ajralmas vositasi hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning birinchi vazifasi - korxona va iqtisodiy tizimlarning moliyaviy holatini baholash, samaradorlikni o‘lchash va resurslarni samarali taqsimlash imkonini yaratishdir [2]. Bu jarayon orqali moliyaviy ko‘rsatkichlar, jumladan, rentabellik, likvidlilik, foyda va aktiv samaradorligi batafsil tahlil qilinadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi korxonalarida 2019–2023 yillarda o‘tkazilgan moliyaviy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, strategik qarorlar iqtisodiy tahlil asosida qabul qilinganda ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtacha 18–20% ga oshgan [3]. Shu ma’lumotlar iqtisodiy tahlilning barqaror o‘sish uchun qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Moliyaviy boshqaruv tizimi korxona va iqtisodiy tizimlarni uzoq muddatli rejalashtirish, byudjetni samarali taqsimlash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi [4]. Uzoq muddatli rivojlanishda moliyaviy boshqaruv orqali mablag‘larni ishlab chiqarish va investitsiya jarayonlariga yo‘naltirish, xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish mumkin. Masalan, logistika va transport tizimlarida moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish xarajatlarni 12–15% ga kamaytirib, barqaror daromad oqimlarini ta’minladi [5].

Barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan iqtisodiy tahlil va moliyaviy boshqaruvning roli bir qator asosiy jihatlar bilan izohlanadi. Birinchidan, iqtisodiy tahlil orqali strategik rejalashtirish ma’lumotga asoslanadi, bu esa xatolik ehtimolini kamaytiradi va korxona samaradorligini oshiradi. Ikkinchidan, moliyaviy boshqaruv tizimi orqali resurslarni optimal taqsimlash va investitsiya samaradorligini oshirish mumkin [6]. Uchinchidan, iqtisodiy tahlil zaif nuqtalarni aniqlab, ularni bartaraf etish mexanizmini yaratadi, bu esa uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlaydi [2].

Ushbu tizimning ijobiy tomonlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, iqtisodiy tahlil va moliyaviy boshqaruv integratsiyasi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Strategik qarorlarni ma’lumotga asoslash - rahbarlar real moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida qaror qabul qiladilar [7].

Resurslarni optimal taqsimlash - mablag‘lar eng samarali sohalarga yo‘naltiriladi, bu ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshiradi [4].

Xatolik va suiiste’molning oldini olish - audit tizimi moliyaviy jarayonlarda shaffoflikni ta’minlab, investorlar ishonchini mustahkamlaydi [5].

Investitsion faollikni rag‘batlantirish - moliyaviy barqarorlik orqali yangi loyihalar va investitsiyalar jalb qilinadi [8].

Statistik ma’lumotlar ham tizimning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, 2020–2023 yillarda O‘zbekiston korxonalarida integratsiyalashgan iqtisodiy tahlil va moliyaviy boshqaruv tizimini joriy etish natijasida moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha 22% ga oshgan, shuningdek, xarajatlar 10–12% ga kamaygan [9].

Uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sish har bir mamlakat va korxona uchun eng muhim maqsadlardan biridir. Barqaror rivojlanish nafaqat ishlab chiqarish hajmi yoki yalpi ichki mahsulotning oshishi bilan belgilanadi, balki moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, resurslarni optimal boshqarish, strategik qarorlarni tahlil asosida qabul qilish bilan ham bog‘liqdir [1]. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy tahlil va moliyaviy boshqaruv tizimi uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ajralmas vositasi sifatida xizmat qiladi.

Iqtisodiy tahlilning birinchi vazifasi - korxona va iqtisodiy tizimlarning moliyaviy holatini baholash, samaradorlikni o‘lchash va resurslarni samarali taqsimlash imkonini yaratishdir [2]. Bu jarayon orqali moliyaviy ko‘rsatkichlar, jumladan, rentabellik, likvidlilik, foyda va aktiv samaradorligi batafsil tahlil qilinadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi korxonalarida 2019–2023 yillarda o‘tkazilgan moliyaviy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, strategik qarorlar iqtisodiy tahlil asosida qabul qilinganda ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtacha 18–20% ga oshgan [3]. Shu ma’lumotlar iqtisodiy tahlilning barqaror o‘sish uchun qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Moliyaviy boshqaruv tizimi korxona va iqtisodiy tizimlarni uzoq muddatli rejalashtirish, byudjetni samarali taqsimlash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi [4]. Uzoq muddatli rivojlanishda moliyaviy boshqaruv orqali mablag‘larni ishlab chiqarish va investitsiya jarayonlariga yo‘naltirish, xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish mumkin. Masalan, logistika va transport tizimlarida moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish xarajatlarni 12–15% ga kamaytirib, barqaror daromad oqimlarini ta’minladi [5].

Barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan iqtisodiy tahlil va moliyaviy boshqaruvning roli bir qator asosiy jihatlar bilan izohlanadi. Birinchidan, iqtisodiy tahlil orqali strategik rejalashtirish ma’lumotga asoslanadi, bu esa xatolik ehtimolini kamaytiradi va korxona samaradorligini oshiradi. Ikkinchidan, moliyaviy boshqaruv tizimi orqali resurslarni optimal taqsimlash va investitsiya samaradorligini oshirish mumkin [6]. Uchinchidan, iqtisodiy tahlil zaif nuqtalarni aniqlab, ularni bartaraf etish mexanizmini yaratadi, bu esa uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlaydi [2].

Moliyaviy boshqaruvning barqaror rivojlanishdagi to‘liq roli esa keng qamrovli. U strategik rejalashtirishni ma’lumotga asoslashga yordam beradi, moliyaviy oqimlarni tartibga soladi va resurslarni eng samarali sohalarga yo‘naltirish imkoniyatini yaratadi [1]. Audit tizimi bilan birlashtirilgan iqtisodiy tahlil moliyaviy jarayonlarda shaffoflikni ta’minlab, xatolik va suiiste’molni

kamaytiradi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi [2]. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida 2021–2023 yillarda amalga oshirilgan ichki va tashqi auditlar natijasida korxona moliyaviy holatining haqqoniyligi 95% darajada aniqlangan [3], bu esa investitsion faollikni sezilarli darajada rag‘batlantirgan.

Taklif va mulohazalarga kelsak, uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

Iqtisodiy tahlil vositalarini kengaytirish, strategik rejalashtirishni yanada mustahkamlash [1][4][8].

Audit tizimini takomillashtirish va ichki nazorat mexanizmlarini rivojlantirish [5][2].

Elektron moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali real vaqt rejimida moliyaviy oqimlarni monitoring qilish [4].

Korxona va tizimlarda kadrlar malakasini oshirish, iqtisodiy tahlil bo‘yicha treninglar tashkil etish [7].

Barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish va ularni moliyaviy boshqaruv bilan integratsiyalash [6][9].

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy tahlil bilan integratsiyalashgan moliyaviy boshqaruv tizimi uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. U strategik qarorlar qabul qilish, resurslarni optimal taqsimlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va investitsion faollikni oshirish orqali iqtisodiy tizimning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, audit tizimi iqtisodiy jarayonlarda shaffoflikni ta’minlab, xatolik va suiiste’molning oldini oladi. Ushbu elementlarning integratsiyasi uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, S. *Iqtisodiy tahlilning zamonaviy vositalari.* Toshkent, 2018.
2. Raximova, M. *Moliyaviy boshqaruv tizimining barqaror rivojlanishga ta’siri.* Toshkent, 2019.
3. Toshboev, B. *Moliyaviy boshqaruv va iqtisodiy barqarorlik.* Samarqand, 2021.
4. Xolboyeva, N. *Iqtisodiy tahlil va strategik rejalashtirish.* Toshkent, 2020.
5. lex.uz - “Moliyaviy boshqaruv va iqtisodiy tahlil to‘g‘risida”gi qonun, 2022.
6. lex.uz - “Audit faoliyati to‘g‘risidagi qonun”, 2021.
7. stat.uz - “Korxona moliyaviy faoliyati tahlili”, O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi, 2023.
8. stat.uz - “Korxonalarda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari”, 2023.
9. O‘zbekiston Respublikasi Audit palatasi. *Ichki va tashqi auditning roli*, Toshkent, 2021.

XUSUSIY PENSIYA JAMG‘ARMALARI: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

Xojaev Azizxon Saidaloxonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Azimoma Munisabonu Akmalovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish va xususiy pensiya jamg‘armalarini joriy etish masalalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mamlakatning hozirgi pensiya tizimi holati, xalqaro tajriba, xususiy jamg‘armalarning afzalliklari va kamchiliklari hamda ularni bartaraf etish yo‘llari o‘rganildi. Maqolada demografik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar tahlili asosida O‘zbekiston sharoitiga mos pensiya islohoti modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: pensiya tizimi, pensiya jamg‘armasi, pensiya islohotlari, ijtimoiy ta’minot, davlat pensiyasi, xususiy jamg‘arma, demografik o‘zgarishlar, investitsion strategiya.

Аннотация. В данной статье проведен комплексный анализ вопросов реформирования системы пенсионного обеспечения и внедрения частных пенсионных фондов в Республике Узбекистан. В ходе исследования были изучены текущее состояние пенсионной системы страны, международный опыт, преимущества и недостатки частных фондов, а также пути их устранения. В статье на основе анализа демографических, экономических и социальных факторов предложена модель пенсионной реформы, адаптированная к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: пенсионная система, пенсионный фонд, пенсионные реформы, социальное обеспечение, государственная пенсия, частный фонд, демографические изменения, инвестиционная стратегия.

Abstract. This article comprehensively analyzes the issues of reforming the pension system and introducing private pension funds in the Republic of Uzbekistan. During the study, the current state of the country’s pension system, international experience, advantages and disadvantages of private funds, and ways to eliminate them were studied. The article proposes a model of pension reform adapted to the conditions of Uzbekistan based on the analysis of demographic, economic, and social factors.

Keywords: pension system, pension fund, pension reforms, social security, state pension, private fund, demographic changes, investment strategy.

Hozirgi globallashuv davrida dunyoning bir qancha mamlakatlari pensiya tizimiga katta e’tibor qaratishmoqda. Buning asosiy sababi sifatida demografik o‘zgarishlar, aholi qarishi va davlat byudjetlariga ortib borayotgan yukni ko‘rsatish

mumkin [1-3]. Davlatimiz ham bu jarayonan chetta qolmadi va bu boradagi islohotlarni izchil amalga oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda. 2025-yil holatiga ko‘ra respublikada 3,7 milliondan ortiq pensioner mavjud bo‘lib, bu umumiy aholi sonining 10,3% ni tashkil etadi va bu ko‘rsatkich 2050-yilga kelib 18,5% gacha oshishi mumkin [4].

Hozirda pensiya tizimidagi ayrim muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: pensiyalarning past darajasi, demografik yukning ortib borayotganligi, byudjet xarajatlarining ko‘payishini keltirish mumkin. O‘zbekistonning bugungi holatidagi kamchiliklarni ko‘rib chiqaylik. Bu borada birqancha muammolar mavjud:

- aholining qarishi bilan bir qatorda davlat pensiya tizimiga yukni oshib borayotganligi;
- past almashtirish koeffitsienti - o‘rtacha pensiya o‘rtacha ish haqining 30-35% ini tashkil etishi;
- moliyaviy savodxonlikning pastligi - aholi pensiyani rejalashtirish muhimligini yetarlicha anglamaganligi.

Bu masalaga ijobiy hal qilishda xususiy pensiya jamg‘armalarini joriy etish samarali yechim bo‘la oladi [5]. Iqtisodiyotning liberallashtirishi xususiy sektorning rivojlanishi va o‘rta sinfning kengayishi xususiy pensiya fondlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Jumladan:

- yuqori daromadli fuqarolar qo‘shimcha pensiya jamg‘armalari yaratishga qiziqishi;
- yirik kompaniyalar xodimlarni jalb qilish uchun korporativ pensiya dasturlarini joriy etish imkoniyati;
- moliya bozorlari rivojlanishi bilan bir qatorda pensiya jamg‘armalarini investitsiya qilish uchun kengaygan imkoniyatlarining oshishi.

Yuqoridagi muammolarga xususiy pensiya jamg‘armasi yechim bo‘la olishini yuqorida ham ta’kidlab o‘tdik holda bu borada xalqaro amaliyotdla pensiya fondlarining qanday turlari borligini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.Xalqaro amaliyotda xususiy pensiya fondlari asosan uchta yo‘nalishda guruhlanadi:

1. Korporativ fondlar – ish beruvchi tashabbusi bilan tashkil qilinadi.
2. Individual fondlar – shaxsiy ixtiyoriy to‘plash shaklida namoyon bo‘ladi.
3. Kasbiy fondlar – soha bo‘yicha uyushmalar orqali tashkil qilinadi.

Xalqaro amaliyotida xususiy pensiya fondlari turlari sirasiga:

1. Kafolatlangan (Defined Benefit – DB) fondlarning o‘ziga xos jihatlari:
- pensiya miqdori oldindan belgilanadi;
- risk ish beruvchi yoki fond zimmasiga yuklanadi;
- pensiya staj va ish haqiga bog‘liq.

2. Kafolatlanmagan (Defined Contribution – DC) fondlarining o‘ziga xos jihatlariga:
- pensiya to‘plangan mablag‘ va investisiya daromadiga bog‘liqligi;
- risk asosan ishtirokchi zimmisida ekanligi;
- xalqaro amaliyotda eng keng tarqalgan turi sanalishi bilan ajralib turadi.

3. Korporativ xususiy pensiya fondlari esa
- ish beruvchilar xodimlari uchun tashkil etiladi;
- to‘lovlar ish beruvchi yoki ikki tomonlama amalga oshiriladi;
- ushbu tizim asosan AQSH, Yevropa, Yaponiyada keng ommalashgan.
4. Individual (Shaxsiy) xususiy pensiya fondlari esa:
- fuqarolar ixtiyoriy ravishda pensiya jamg‘armasiga a’zolik qiladi;
- soliq imtiyozlari bilan rag‘batlantiriladi.
5. Sug‘urta kompaniyalari orqali pensiya jamg‘armalari esa:
- pensiya to‘plovi sug‘urta kompaniyalari tomonidan yuritiladi. Ushbu tizim Fransiya, Yaponiyada keng qo‘llaniladi.
6. Gibrid pensiya modellari sirasiga:
- ikki tizim aralash holda qo‘llaniladi. Kanada, Niderlandiya va Shvesiyada ommalashgan.
7. Kasbiy pensiya fondlari sirasiga:
- ma’lum bir kasb vakillari uchun mo‘ljallangan.
- o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, harbiylar va boshqalar uchun.

Yuqoridagilarni o‘rganib chiqqan holda mamlakatimizda xususiy pensiya fondlarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tavsiya va takliflar berib o‘tiladi:

1. Xususiy pensiya fondlarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun mustahkam huquqiy asos zarur. Buning uchun xususiy pensiya jamg‘armasiga oid alohida qonunchilik tizimini ishlab chiqish, amaliy holatda ham yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq;

2. Pensiya fondlari aktivlarini samarali boshqarish uchun muvozanatli investitsiya siyosatini amalga oshirishi kerak bo‘ladi;

3. Aholining pensiya rejalashtirish bo‘yicha bilim darajasini oshirish muhim omil hisoblanadi. Buning uchun o‘rta maktablarda, oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy yo‘nalishlaridan tashqari ta’lim yo‘nalishlarida moliyaviy savodxonlik kurslari tashkil etilishi zarur bo‘ladi. Bu ishlar orqali aholining moliyaviy savodxonligi oshadi, ular bu masalaga yuzaki emas, aksincha o‘z pozitsiyalari bilan qarashni boshlaydi.

Xususiy pensiya jamg‘armalari kapitalizatsiya prinsipi asosida ishlashini hisobga olsak. Har bir ishtirokchi o‘z shaxsiy hisobvaraqida mablag‘ to‘playdi va bu mablag‘ investitsiya qilinadi. Murakkab foiz effektida esa bu ko‘rsatkich: 25 yoshli ishchi 40 yil davomida oyiga 600 000 so‘m jamg‘arib, 9% yillik daromad bilan 2,37 milliard so‘m to‘plashi mumkin bo‘lali. Bu oyiga 14,8 million so‘m pensiya olishini anglatadi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatda moliya bozorining rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston uchun pensiya jamg‘armalari tizimi nafaqat ijtimoiy, balki katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Bu tizim moliya bozorlarini rivojlantiradi, uzoq muddatli investitsiyalar uchun manbalar yaratadi va iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi. Albatta bu islohotlarni ehtiyotkorlik bilan, bosqichma-bosqich va fuqarolar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedov A. (2024). O‘zbekistonda pensiya tizimini isloh qilish: zarurligi va istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2024(2), 45-58.
2. Akhmetova E., Nurseitov K. (2024). 25 Years of Pension Reform in Kazakhstan: Lessons and Outcomes. Central Asian Economic Review, 5(1), 112-128.
3. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (2025). Mehnat bozorii statistikasi. Toshkent.
4. Barr N., Diamond P. (2008). Reforming Pensions: Principles and Policy Choices. Oxford University Press.
5. Barr N., Diamond P. (2016). Reforming Pensions in Chile. Politica y gobierno, 23(1), 9-37.

BANK TIZIMINING INSON KAPITALI VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDAGI ROLI

Xojaev Azizxon Saidaloxonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Azizjonov Shohruxbek Shuxratjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti, talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank sohasi tajribasi misolida inson kapitalini rivojlantirish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish, iqlim o‘zgarishlariga moslashish hamda resurslardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Maqolada inson kapitalining iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni, raqamli texnologiyalar va “yashil moliya” dasturlarining ahamiyati, shuningdek, bank tizimining barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, inson kapitali va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotda uzoq muddatli barqaror o‘sishga erishish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, texnologik innovatsiyalar, bank sohasi, iqlim o‘zgarishi, resurslar samaradorligi, barqaror iqtisodiy o‘sish.

Аннотация. В данной статье на примере опыта банковского сектора рассматриваются вопросы развития человеческого капитала, внедрения технологических инноваций, адаптации к изменению климата и эффективного использования ресурсов. В статье анализируется роль человеческого капитала в экономическом росте, значение цифровых технологий и программ “зеленых финансов,“ а также роль банковской системы в устойчивом экономическом развитии. По результатам исследования обоснована возможность достижения долгосрочного устойчивого роста экономики за счет развития человеческого капитала и инноваций.

Ключевые слова: человеческий капитал, технологические инновации, банковский сектор, изменение климата, эффективность использования ресурсов, устойчивый экономический рост.

Abstract. This article highlights the development of human capital, the introduction of technological innovations, adaptation to climate change, and the efficient use of resources using the example of the banking industry. The article analyzes the role of human capital in economic growth, the importance of digital technologies and “green finance” programs, as well as the role of the banking system in sustainable economic development. According to the research results, the possibility of achieving long-term sustainable economic growth through the development of human capital and innovation is substantiated.

Keywords: human capital, technological innovation, banking sector, climate change, resource efficiency, sustainable economic growth.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo iqtisodiyotida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Endilikda milliy boylikni belgilovchi asosiy omil tabiiy resurslar emas, balki inson kapitali va ilmiy-texnologik salohiyat darajasiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Inson kapitaliga sarmoya kiritish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish, iqlim o‘zgarishlariga moslashish hamda resurslardan samarali foydalanish - barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda faol siyosat yuritmoqda. Mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish, ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish, yoshlar uchun imkoniyatlar yaratish bilan birga, moliya va bank sektorining innovatsion iqtisodiyotga o‘tishdagi roli tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, bank tizimi inson kapitalini rivojlantirish va ekologik loyihalarni moliyalashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Asosiy qism.

1. Inson kapitali - barqaror o‘sishning poydevori

Inson kapitali deganda, har bir shaxsning bilim, ko‘nikma, tajriba, salomatlik va mehnat unumdorligini belgilovchi omillar tushuniladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri bu insonning o‘zi - ya’ni uning intellektual va kasbiy salohiyatidir.

O‘zbekiston sharoitida ham bu yo‘nalishda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim sifatini oshirish, professional kadrlar tayyorlash, yoshlarni innovatsion fikrlashga o‘rgatish orqali inson kapitali yuksaltirilmoqda.

Bank sohasi bu jarayonda bevosita ishtirok etmoqda. Masalan, ta’lim kreditlari tizimi joriy etilishi natijasida minglab talabalar oliy ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Shu bilan birga, banklar tomonidan yosh tadbirkorlarga startap kreditlari ajratilib, ularning g‘oyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki yangi bilimli avlodni shakllantiradi.

Inson kapitaliga sarmoya - bu eng yuqori rentabelli investitsiyadir. Chunki bilimli, malakali insonlar yangi texnologiyalarni yaratadi, ishlab chiqarishni samarali tashkil etadi va resurslardan oqilona foydalanadi.

2. Texnologik innovatsiyalar va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi

Texnologik innovatsiyalar hozirgi zamon iqtisodiyotining yuragi hisoblanadi. Har bir mamlakat raqobatbardosh bo‘lishi uchun yangi texnologiyalarni joriy etishi, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishi va raqamlashtirishi zarur.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, sun’iy intellekt, “blockchain” texnologiyasi, “fintech” xizmatlari va avtomatlashtirilgan to‘lov tizimlari mamlakatlar iqtisodiyotiga tub o‘zgarishlar olib kirmoqda.

O‘zbekistonda ham oxirgi yillarda raqamli bank xizmatlari jadal rivojlanmoqda. Mobil ilovalar orqali hisob yuritish, onlayn kreditlash, to‘lov tizimlari, raqamli valyuta operatsiyalari - bularning barchasi bank sektorining texnologik innovatsiyalarni faol tatbiq etayotganini ko‘rsatadi.

Bu jarayon bir tomondan bank faoliyatini qulaylashtirsa, ikkinchi tomondan iqtisodiyotning umumiy samaradorligini oshiradi. Innovatsiyalar orqali moliyaviy xizmatlarga kirish osonlashadi, tadbirkorlik rivojlanadi va investitsion muhit yaxshilanadi.

Bundan tashqari, texnologik yangiliklar bank xavfsizligini oshirish, firibgarlikni kamaytirish va xalqaro tranzaksiyalarni soddalashtirishga ham xizmat qilmoqda.

3. Iqlim o‘zgarishi muammolari va yashil iqtisodiyotga o‘tish

XXI asrda iqlim o‘zgarishi insoniyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qoldi. Haroratning ortishi, suv tanqisligi, cho‘llanish va ekologik muvozanatning buzilishi iqtisodiy xavfsizlikka bevosita ta’sir qilmoqda. Shu bois, barqaror iqtisodiyot modeli ekologik yondashuvlar asosida qurilishi zarur.

O‘zbekiston iqlimga sezgir mintaqada joylashgani sababli, ekologik siyosatni kuchaytirish dolzarb masalalardan biridir. Bu borada bank sektorining “yashil moliya” dasturlari muhim rol o‘ynamoqda.

Masalan, ayrim tijorat banklari tomonidan quyosh panellari, shamol turbinalari, chiqindilarni qayta ishlash loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Bunday kreditlar nafaqat ekologiyani yaxshilaydi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratadi va iqtisodiy faoliyatni kengaytiradi.

Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari - Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki - O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan “yashil energiya” loyihalarini qo‘llab-quvvatlamoqda.

Shu tarzda bank tizimi iqtisodiyotning iqlim o‘zgarishlariga bardosh bera oladigan yangi modelini shakllantirishda ishtirok etmoqda.

4. Resurslar samaradorligi - uzoq muddatli barqarorlik kafolati

Iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli barqarorligi resurslardan oqilona foydalanishga bog‘liq. Energiya, suv, xomashyo va mehnat resurslari cheklangan sharoitda ularni tejash, qayta tiklash va samarali taqsimlash strategik ahamiyat kasb etadi.

Bank sektori bu borada ham faol ishtirok etmoqda. Moliyaviy tashkilotlar tomonidan energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etuvchi korxonalarga past

foizli kreditlar ajratilishi, ekologik talablarga mos ishlab chiqarish loyihalariga ustuvorlik berilishi - bu resurslar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, davlat bilan hamkorlikda ishlab chiqilayotgan “Yashil obligatsiyalar” tizimi ekologik va ijtimoiy loyihalarga investitsiya kiritishning zamonaviy mexanizmini yaratmoqda.

Resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlabgina qolmay, mamlakatning xalqaro miqyosdagi ekologik imidjini ham mustahkamlaydi.

5. Bank tizimi - iqtisodiy o‘sishning moliyaviy asosi

Har qanday iqtisodiy rivojlanish jarayonining asosi moliyaviy resurslardir. Banklar iqtisodiyotning “qon tomiri” sifatida nafaqat kapital aylanishini ta’minlaydi, balki uni to‘g‘ri yo‘naltiradi.

Bank tizimi inson kapitaliga, ilmiy tadqiqotlarga, innovatsion startaplarga va ekologik loyihalarga yo‘naltirilgan sarmoyalar orqali iqtisodiy tizimni jonlantiradi. Shu jihatdan, zamonaviy banklar faqat kredit beruvchi emas, balki iqtisodiy taraqqiyotning faol ishtirokchisiga aylanmoqda.

Raqamli bank xizmatlari, mikrofinans tizimlari va xalqaro hamkorlik loyihalari mamlakat iqtisodiyotining yangi bosqichga ko‘tarilishida muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyot strategiyasi–2030” doirasida banklarning ishtiroki iqtisodiy o‘sish bilan ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtirishda asosiy vosita bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, inson kapitalini rivojlantirish, texnologik innovatsiyalarni qo‘llash, iqlim o‘zgarishlariga moslashish va resurslardan samarali foydalanish - bularning barchasi uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishning ustun yo‘nalishlaridir.

Bu jarayonda bank sohasi iqtisodiy tizimning markazida turadi. Banklar orqali inson kapitaliga sarmoya yo‘naltirish, innovatsion g‘oyalarni moliyalashtirish, ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy taraqqiyotga turtki beradi.

Kelajak iqtisodiyoti inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatga asoslanadi. Shuning uchun har bir mamlakat, xususan O‘zbekiston, inson kapitalini rivojlantirish va bank-moliya tizimi imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali barqaror va raqobatbardosh iqtisodiy modelni yaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Rasmiy veb-sayt: https://www.cbu.uz

3. Jahon banki. World Development Report 2023: Investing in People for a Resilient Future. Washington, 2023.

4. Osiyo taraqqiyot banki. Green Finance in Central Asia: Trends and Opportunities. Manila, 2022.

5. Karimov B. “Bank tizimi va inson kapitali o‘zaro aloqadorligi.” – Moliyaviy tahlil jurnali, №4, 2022.

6. Qodirov A. “Barqaror iqtisodiy o‘sish va innovatsion taraqqiyot.” – Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2023.

7. OECD Report. Human Capital and Sustainable Growth Policies. Paris, 2021.

8. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish milliy konsepsiyasi.” – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023-yil.

BYUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR (ISH, XIZMATLAR)NI XARID QILISH JARAYONLARIDA IQTISODIY TAHLILDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

Xojaev Azizxon Saidaloxonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Rajabaliyev Abbosxon Baxrom o‘g‘li,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz byudjet tashkilotlarida tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini tahlil qilish jarayonini optimallashtirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Tadqiqot doirasida xarajatlarni optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va risklarni boshqarish vazifalariga asoslangan "zarurat hisoboti"ni joriy etish taklif etiladi. Shuningdek, "Egalik qilishning umumiy qiymati" (TCO) modeli va "pul uchun qiymat" tamoyilidan foydalanish taklif etiladi. Ushbu usullar byudjet mablag‘laridan yanada samarali foydalanish, xaridlar sifatini oshirish va jarayonni yanada shaffof qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: davlat xaridlari, iqtisodiy tahlil, byudjet tashkiloti, tovarlar, ishlar, xizmatlar, xarid samaradorligi, xarajatlarni optimallashtirish, xarid qilish narxi.

Аннотация. В данной статье мы рассмотрим возможности оптимизации процесса анализа закупок товаров, работ и услуг в бюджетных организациях. В рамках исследования предлагается внедрить "отчет о необходимости," основанный на задачах оптимизации затрат, повышения эффективности и управления рисками. Также предлагается использовать модель "Общая стоимость владения" (TCO) и принцип "стоимость за деньги." Эти методы позволят более эффективно использовать бюджетные средства, повысить качество закупок и сделать процесс более прозрачным.

Ключевые слова: государственные закупки, экономический анализ, бюджетная организация, товары, работы, услуги, эффективность закупок, оптимизация расходов, закупочная цена.

Abstract. In this article, we will consider the possibilities of optimizing the process of analyzing the procurement of goods, works, and services in budget

organizations. Within the framework of the study, it is proposed to introduce a "report of necessity," based on the tasks of cost optimization, increasing efficiency, and risk management. It is also proposed to use the "Total Value of Ownership" (TCO) model and the "value for money" principle. These methods will allow for more efficient use of budget funds, improve the quality of purchases, and make the process more transparent.

Keywords: public procurement, economic analysis, budget organization, goods, works, services, procurement efficiency, cost optimization, purchase price.

Kirish. Dinamik o‘zgarib borayotgan iqtisodiy konyunktura sharoitida davlat xususan byudjet tashkilotining tovarlar, ishlar, xizmatlarni xaridlar tizimini kompleks isloh qilish zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu o‘zgarishlar ochiqlik va halol raqobatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Davlat xaridlari byudjet tashkilotlari faoliyatining muhim elementi bo‘lib, davlat mablag‘larini sarflashning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, xususan, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga [1] muvofiq, byudjet tashkilotlari tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirishda shaffoflik, raqobatbardoshlik va samaradorlik tamoyillariga amal qilishlari shart. Biroq, amaliyotda xaridlarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini yetarlicha tahlil qilmaslik bilan bog‘liq muammolar tez-tez uchrab turadi. Bu esa byudjet mablag‘laridan samarasiz foydalanishga va xarajatlar natijadorligining pasayishiga olib keladi.

O‘zbekistonda davlat xaridlari sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayon ishtirokchilaridan nafaqat ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishni, balki xarid faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur tushunishni ham talab qiladi. Bu korrupsiyaning ehtimoliy xatarlarini aniqlash, tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish natijalari ustidan nazoratni kuchaytirish imkonini beradi. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash asosida quriladigan yagona axborot tizimining tahliliy imkoniyatlarini takomillashtirish zarur. Bu bozorlarni boshqarish sohasida puxta o‘ylangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Iqtisodiyotning davlat sektori tashkilotlari faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan ular o‘z faoliyatini amalga oshiradigan tizilar ishining sifati bilan belgilanadi [2]. Shu munosabat bilan tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini iqtisodiy tahlil qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Bunday tahlil o‘tkazilayotgan xaridlarning natijadorligini baholash, xarid qilinayotgan tovarlar, ishlar va xizmatlar sifatini tahlil qilish, shuningdek, yetkazib beruvchini tanlashda raqobat darajasini aniqlash imkonini beradi. Ushbu vazifalarni hal qilish uchun xaridlar sohasida asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradigan ma’lumotlarni hisobga olish va tahlil qilishning yangi usullarini ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, modellashtirish va korrelyatsion-regression tahlil usullarini faolroq qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Shu sababli ushbu mavzu dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism

Davlatning iqtisodiy rivojlanishining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish tizimining samaradorligi bilan belgilanadi. Xarid qilish faoliyatining samaradorligi xaridlarni kompleks baholash uchun foydalaniladigan bir qator ko‘rsatkichlarga, shuningdek, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xaridlar tizimining rivojlanishi va amal qilishini tushunish uchun ularning vujudga kelish sabablari va rivojlanish istiqbollarini milliy va xalqaro miqyosda o‘rganish zarur.

Hozirgi vaqtda maktablar, kasalxonalar va boshqalar kabi davlat tashkilotlari iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarining ishlashini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘z faoliyati va rivojlanishiga katta mablag‘ sarflaydilar [3]. Biroq, ushbu resurslardan samarali va oqilona foydalanish davlat va jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish jarayonining iqtisodiy tahlili alohida ahamiyatga ega. Bu nafaqat byudjet xarajatlarini kamaytirishga, balki xaridlar sifati va samaradorligini oshirishga ham yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda aytishimiz mumkinki, byudjet tashkilotlarida xaridlarni iqtisodiy tahlil qilish moliya, strategiya va taktika nuqtai nazaridan xaridlar faoliyatining barcha bosqichlarini baholash, prognozlash va optimallashtirishga qaratilgan murakkab jarayondir. Bu shuni anglatadiki xaridlarni iqtisodiy tahlil qilishda ma’lum vazifalar amalga oshirilishi darkor, bizningcha asosiy vazifalar quyidagilardan tashkil topadi:

1. Xarajatlarni optimallashtirish. Yetkazib beruvchilar va tovar turlarining turli takliflarini qiyosiy tahlil qilish orqali belgilangan talablarga javob beradigan yeng tejamkor xarid variantini tanlash.

2. Samaradorlikni oshirish. Sotib olingan mahsulot yoki xizmatdan olingan narx-foyda nisbatini baholash. Bu uskunaning energiya samaradorligi va uning xizmat qilish muddatini tahlil qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

3. Xatarlarni boshqarish. Narxlarning o‘zgarishi, ta’minot zanjirining uzilishi va sifat muammolari kabi potensial tahdidlarni kutish va minimallashtirish.

4. Samaradorlikni oshirish: sotib olingan mahsulot yoki xizmat tannarxi va kutilayotgan foyda nisbati tahlili. Masalan, siz uskunaning energiya samaradorligini va uning ishlash muddatini baholashingiz mumkin.

Shu bilan birgalikda dastlabki bosqichda ya’ni sotib olishdan oldin, to‘liq tahlil qilish va dastlabki ehtiyojni asoslash kerak. Har bir xarid haqiqiy va asosli ehtiyoj bilan shartlanishi kerak [4]. Tahlil sotib olingan mahsulot tashkilotning asosiy faoliyatiga qay darajada mos kelishini, mavjud resurslarni almashtirish zarurligini yoki yangi funksiyalarni yaratishga imkon berishini ko‘rsatishi kerak.

Keyingi bosqichda tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymatining tahlili amalga oshiriladi. Bu tahlilning eng keng tarqalgan turlaridan biri bo‘lib, u quyidagi yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

1. Bir xil tovar yoki xizmatga turli yetkazib beruvchilarning narxlarini taqqoslash.

2. Sotib olinayotgan obyektning butun foydalanish muddati davomidagi qiymatini baholash, shu jumladan boshlang‘ich narx, foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash, elektr energiyasi va utilizatsiya xarajatlari. Bu tahlil, ayniqsa, qimmatbaho uskunalar va transport vositalarini sotib olishda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy tahlilning keyingi bosqichi ta’minotchilarni baholash va tanlashdir. Moliyaviy barqarorlik, ishlab chiqarish imkoniyatlari, narx strategiyasi va sifat nazorati tizimi kabi muhim jihatlar xaridlarning iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ishonchli va uzoq muddatli hamkorni tanlash arzonroq, ammo ishonchsiz yetkazib beruvchi bilan hamkorlik qilishdan ko‘ra qisqa muddatda sezilarli foyda keltirishi mumkin.

Shuningdek yana bir muhim jihatlardan biri shuki yirik davlat xaridlari mintaqa iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Iqtisodiy tadqiqotlarda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag‘batlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish kabi jihatlar har doim ham hisobga olinmasa-da, ular ustuvor strategik vazifalar sifatida qaralishi kerak.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni komil ishonch bilan aytish mumkinki, davlat muassasalarida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishda o‘tkaziladigan muntazam iqtisodiy tahlillar nafaqat davlat mablag‘larini tejash, balki xaridlar sifatini yaxshilash, ularning ochiqligini ta’minlash va qabul qilinayotgan qarorlarning iqtisodiy asoslanganligini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalar asosida belgilangan vazifalar (xarajatlarni optimallashtirish, samaradorlikni oshirish, xatarlarni boshqarish) va amaliy muammolarni (tahlilning yetarli emasligi, samarasizlik) inobatga olgan holda, quyidagi takliflar shakllantirildi:

1. Byudjetdan moliyalashtiriladigan barcha xaridlar uchun "zarurat hisoboti"ni majburiy rasmiylashtirish amaliyotini joriy etishni taklif qilamiz. Ushbu hujjatda nima uchun sotib olinadigan aktivni mavjud resurslar bilan almashtirish mumkin emasligini batafsil tushuntirish, shuningdek, yangi funksiyalarni joriy etish uchun uning ahamiyatini va tashkilot faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga muvofiqligini asoslash kerak bo‘ladi. Hisobot ham miqdoriy, ham sifatli dalillarni o‘z ichiga olishi kerak.

2. Qimmatbaho uskunalar, transport vositalari va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olishda "Egalik qilishning umumiy qiymati" (Total Cost of Ownership, TCO) modeliga asoslangan yondashuvdan foydalanish zarur. Ushbu yondashuv nafaqat dastlabki xarajatlarni, balki aktivni sotib olish, ishlatish, texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash va utilizatsiya qilish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni ham hisobga oladi.

3. Davlat xaridlari sohasida nafaqat qiymatni, balki narx va sifat nisbati, shuningdek, resurslardan foydalanish samaradorligi (Value for Money) kabi ko‘rsatkichlarni hisobga oladigan tenderlarni o‘tkazish zarur. Bu tender

ishtirokchilarini baholashda ularning nafaqat moliyaviy imkoniyatlari, balki texnik salohiyati, mahsulot sifatini nazorat qilish tizimi, shuningdek, energiya samaradorligi ham inobatga olish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ilmiy takliflar byudjet tashkilotining tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilishning iqtisodiy tahlilini ishlab chiqish uchun aniq, amaliy va ilmiy asoslangan vositalardir. Ular byudjet mablag‘laridan samarali, oqilona va shaffof foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu mexanizmlarni qo‘llash nafaqat tejash imkonini beradi, balki umuman davlat xaridlari tizimining sifati va ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 22.04.2021 yildagi O‘RQ-684-son. https://lex.uz/uz/docs/-5382974

2. Герсонская, И. В. (2020). Эффективность функционирования государственного сектора экономики. Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки, (3), 219-221.

3. Abidovna, X. D. (2023). DAVLAT VA XUSUSIY IXTISOSLASHGAN MAKTABLARI VA ULARDA TA’LIM JARAYONINI BOSHQARISH. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 4, pp. 105-110).

4. De Keere, K. (2025). Justifying employee gatekeeping: A video-elicitation and comparative study on resolving the moral unease of hiring. Organization, 32(1), 80-100.

DAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA XARAJATLARNI HISOBGA OLISH MASALALARI

Tashpulatov Aybek,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsent, DSc, e-mail: aybek.tashpulatov@fstu.uz
Mo‘ydinova Guljahon Xayrullo qizi,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, M32-25 BH guruh magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlar hisobini yuritish tizimi bilan bog‘liq asosiy jihatlar va dolzarb muammolarni tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqotning asosiy maqsadi davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlar hisobini yuritishda moliyaviy hisobotlarning qonunchilik talablari va buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiqligini o‘rganishdan iborat. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, asosiy qiyinchiliklar uchta asosiy yo‘nalishda yuzaga keladi: byudjet mablag‘larini hisobga olish, aktivlarni baholash va amortizatsiya qilish, shuningdek, ilmiy loyihalarga xarajatlarni taqsimlash, bu masalalar tadqiqotda markaziy o‘rinni egallaydi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, xarajatlarni hisobga olish, moliyaviy nazorat, byudjet mablag‘lari, buxgalteriya hisobi, xarajatlarni tartibga solish, moliyaviy hisobot, davlat muassasasi.

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию основных аспектов и актуальных проблем, связанных с системой учета расходов в государственных высших учебных заведениях, основной целью исследования является изучение соответствия финансовой отчетности законодательным требованиям и стандартам бухгалтерского учета при ведении учета расходов в государственных высших учебных заведениях. Результаты анализа показывают, что основные трудности возникают в трех основных направлениях: учет бюджетных средств, оценка и амортизация активов, а также распределение расходов на научные проекты, эти вопросы занимают центральное место в исследовании.

Ключевые слова: высшее образование, учет расходов, финансовый контроль, бюджетные средства, бухгалтерский учет, регулирование расходов, финансовая отчетность, государственное учреждение.

Abstract. This article is devoted to the study of the main aspects and current problems related to the system of cost accounting in state higher educational institutions, and the main goal of the research is to study the compliance of financial statements with legislative requirements and accounting standards when maintaining cost accounting in state higher educational institutions. The results of the analysis show that the main difficulties arise in three main areas: accounting for budget funds, asset valuation and depreciation, as well as the distribution of expenditures on scientific projects, which occupy a central place in the research.

Keywords: higher education, cost accounting, financial control, budget funds, accounting, cost regulation, financial reporting, state institution.

Kirish. Zamonaviy dunyoda ta’lim jamiyat hayotining turli sohalariga yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishga ko‘maklashuvchi asosiy vositalardan biridir. U aholining raqobatbardoshligi va turmush darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’limning ahamiyati ortib borayotgan bir sharoitda har bir mamlakat milliy siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga mos keladigan uni rivojlantirish strategiyani ishlab chiqishi lozim. Ushbu strategiya ta’lim sifatini oshirish va undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Jumladan, O‘zbekistonda ham 2023-yil 11-sentyabrda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini [1] qabul qilinishi va unda aholi ehtiyojlari va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimini yaratish g‘oyasi ilgari surilganligi mazkur hujjatning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Ko‘p yillik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatdagi ta’lim tizimining rivojlanish darajasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir [2]. Bu shuni anglatadiki ta’limga kiritilgan investitsiyalar nafaqat inson kapitalini shakllantiradi, balki bilvosita mamlakatning texnologik taraqqiyotiga va

ishlab chiqarishdagi innovatsiyalarga tez moslashish qobiliyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun ta’lim tizimining barcha jihatlariga, jumladan, uning shakli, sifati va samaradorligiga e’tibor qaratish zarur.

Ta’limning turli darajalariga ajratiladigan mablag‘ miqdori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va keyingi rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ta’lim salohiyatini shakllantiradi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim xizmatlari sifatini va ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida oliy ta’lim tizimi faol modernizatsiya qilinmoqda. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish choralari ko‘rilmoqda.

Shu munosabat bilan davlat oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy menejmentga, jumladan, xarajatlar bo‘yicha hisob va hisobot tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi vaqtda davlat oliy ta’lim muassasalari byudjetdan moliyalashtiriladi, bu esa xarajatlarni hisobga olish jarayonida ma’muriy va byudjet tamoyillarining ustunligini belgilaydi [3]. Biroq, hozirgi zamonaviy talablar oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish, grantlar va xalqaro loyihalar ulushini kengaytirish, shuningdek, ularning faoliyatini tijoratlashtirish va individual to‘lov-kontrakt tizimini joriy etishni talab qilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar oliy o‘quv yurtlarini an’anaviy davlat byudjet muassasalaridan farq qiladigan murakkabroq moliyaviy subyektlarga aylantiradi.

Asosiy qism. Ta’lim iqtisodiyotga ham bevosita, ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki olingan bilimlar faoliyatning turli sohalariga, jumladan, sanoat, shaharlar, tumanlar va qishloqlarga, shuningdek, butun mamlakatga tarqaladi. Ta’limning jamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri ushbu sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu ta’sir qanchalik katta bo‘lsa, ta’limga davlat xarajatlari shunchalik samarali bo‘ladi.

Ta’lim jamiyatning strategik muhim resursi, davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Shuning uchun ta’lim tizimini boshqarishda davlat asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni hisobga olish bilan bog‘liq masalalarda quyidagi asosiy muammolar mavjud:

1. Ta’lim muassasalari faoliyatida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larni ajratishning murakkabligi. Ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida ushbu ikki turdagi moliyalashtirishning hisobi alohida yuritiladi, biroq amaliyotda ular ko‘pincha aralashtirib yuboriladi. Masalan, byudjet mablag‘lari hisobidan sotib olingan aktivlardan tijorat faoliyatida foydalanish xarajatlarni taqsimlash va hisobotlarni tuzishda xatoliklarga olib kelishi mumkin.

2. Asosiy vositalarni baholash muammosi va amortizatsiya masalalarida noaniqlik. Ko‘pgina eski binolar va uskunalar qoldiq qiymat bo‘yicha balansda bo‘lib, real bozor qiymatida hisobga olinmaydi. Amortizatsiya mezonlari, ayniqsa, ilmiy asbob-uskunalar uchun noaniq bo‘lib qolmoqda, bu esa haqiqiy xarajatlarni buzib ko‘rsatishi mumkin.

3. Ilmiy-tadqiqot va grant loyihalari xarajatlarini hisobga olishdagi qiyinchiliklar. Grant shartnomalari talablari va milliy byudjet qoidalari o‘rtasida, xususan, ish haqi va xarajatlar smetasi bo‘yicha qarama-qarshiliklar yuzaga keladi, bu esa xarajatlarni to‘g‘ri aks ettirishni qiyinlashtiradi. Loyihalar o‘rtasida bilvosita xarajatlarni taqsimlash, masalan, bilim sohasi xodimlarining ish haqi aniq mezonlarga ega emas.

4. Ma’lumotlarga tezkor kirish har doim ham ta’minlanmaydi. Buxgalteriya bo‘limi odatda oy yoki chorak oxirida yopiladi, bu esa rahbariyatga real vaqt rejimida dolzarb moliyaviy ma’lumotlarni olish imkonini bermaydi. Xarajatlar markazlari bo‘yicha ma’lumotlar ham to‘liq bo‘lmasligi mumkin.

Boshqa mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishda har bir mamlakat ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratadi.

Xavf-xatarga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash auditni yanada puxta va samarali o‘tkazish imkonini berdi. Natijada aniqroq xulosalar chiqarilgan va xatolar soni ancha kam bo‘lgan. Bu esa sifat nazorati darajasining oshganligidan dalolat beradi. Aniqlangan xavf-xatarlar tufayli audit rejasi qayta ko‘rib chiqildi. Eng xavfli jihatlarga e’tibor qaratildi, bu esa tekshiruv muddatini 35 ish kunigacha qisqartirish imkonini berdi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, riskka yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etish audit samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xatolarni tezroq aniqlash va audit davrini qisqartirish orqali kompaniya nafaqat xarajatlarni tejaydi, balki moliyaviy hisobotning ishonchliligini oshiradi, bu esa investorlarning ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Eng avvalo qaysi sohani auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishdan qat’iy nazar, shu tekshiruvni amalga oshirgan auditorning malakasi, professionallik darajasi asosiy omilardan biri hisoblanadi [4]. Audit bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis olingan boshqa ma’lumotlarga zid bo‘lgan ma’lumotlarni, shuningdek, hujjatlarning ishonchliligiga shubha tug‘diradigan va insofsizlikning mumkin bo‘lgan belgilarini ko‘rsatadigan ma’lumotlarni alohida

sinchkovlik bilan tahlil qilishi kerak. U to‘plangan barcha auditorlik dalillarini baholashga tanqidiy yondashishi lozim.

Har bir aniq auditorlik topshirig‘ini bajarish jarayonida mutaxassis o‘zining bilim, tajriba va ko‘nikmalaridan foydalanib, asoslangan qarorlar qabul qiladi. U barcha tegishli holatlarni hisobga oladi va olingan ma’lumotlarning ahamiyati to‘g‘risida hukm chiqaradi.

Xulosa. Xalqaro audit standartlari (AXS) auditorlik faoliyati jarayonini tartibga soluvchi asosiy qoidalardir. Har bir standart aniq belgilangan qo‘llash doirasi, kuchga kirish sanasi va hisobga olinishi kerak bo‘lgan cheklovlarga ega. Standartning to‘liq matni uning mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan kirish materiallari, atamalarning ta’riflari, maqsadlari, talablari, shuningdek, qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar va boshqa tushuntirish materiallarini o‘z ichiga oladi. Shundan kelib chiqan xolda biz ushbu tadqiqot doirasida o‘z o‘rganishlarimizni o‘tkazdik olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq audit tizimi samaradorligini oshirish uchun bir nechta muhim qadamlarni amalga oshirish zarur:

1. Audit tushunchasini qayta ko‘rib chiqish zarur. An’anaviy “qog‘ozli tekshiruv” o‘rniga tizimni chuqur tushunish va xatarlarni baholashga e’tibor qaratish lozim. Bu AXS 315 ga muvofiq audit o‘tkazishdan oldin risklarni muntazam baholashni va ushbu risklarni hisobga olgan holda audit rejasini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

2. Ichki auditning rolini kuchaytirish lozim. Ichki audit ichki qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish vositasi sifatida emas, balki korporativ boshqaruvning asosiy elementi sifatida qaralishi kerak. Ichki audit xizmati moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va tavakkalchiliklarni boshqarish sohasidagi malakali mutaxassislardan iborat bo‘lishi kerak.

3. Audit texnologiyalarini qo‘llash: Zaxiralar aylanmasi, mijozlarning qarzdorligi va xarajatlar dinamikasini doimiy monitoring qilish uchun katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish (Data Analytics) vositalaridan foydalanish ushbu ko‘rsatkichlarni an’anaviy usullarga qaraganda samaraliroq nazorat qilish imkonini beradi.

Audit texnologiyalarini qo‘llash va auditorlarni doimiy ravishda o‘qitish va xalqaro sertifikatlarni olishga rag‘batlantirish jamoaning professionalligini va o‘tkazilayotgan tekshiruvlar sifatini oshirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, zaxiralar aylanmasi, mijozlarning qarzdorligi va xarajatlar dinamikasini yanada samarali nazorat qilish, shuningdek, investorlarning ishonchini mustahkamlash va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishga yordam beradi. Shunindek, to‘qimachilik korxonalari faoliyatiga xalqaro standartlarni joriy etish nafaqat talab, balki audit tizimini takomillashtirish va korporativ boshqaruv darajasini oshirish imkoniyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son. https://lex.uz/docs/-4746047
2. Кемаева, С. А., Жильцова, Ю. В., & Козменкова, С. В. (2017). Международные стандарты аудита: характеристика и применение профессиональными аудиторами. Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях, (4 (412)), 28-37.
3. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining “Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i, 24.10.2022 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3394. https://lex.uz/uz/docs/-6251620
4. Hamdamov B.Q. Auditning xalqaro standartlari. Darslik. -T.: Toshkent moliya instituti, 2021 yil. 248 bet.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF PRODUCT COST FORMATION IN CARPET MANUFACTURING ENTERPRISES

Ilhomjon Shokiraliyevich Ghanibayev,
Fergana State Technical University, Senior Lecturer of the "Finance and Accounting" Department
Teshaboyeva Mohigul Eldorjon qizi
Master’s Student, Fergana State Technical University

Abstract. This paper examines the principles of cost formation in the carpet manufacturing industry, focusing on strategies to enhance cost calculation methods in production enterprises. It highlights the importance of accurate cost classification, the impact of cost price on competitiveness, and the role of digital technologies in expense management. Using Evaks Fabric LLC as a case study, the research analyzes how production costs are tracked, calculated, and optimized. It also outlines government policies aimed at supporting carpet manufacturing in Uzbekistan, along with practical solutions to reduce production costs and improve profitability.

Keywords: carpet, production costs, cost price, cost optimization, digital systems, expense classification, manufacturing efficiency.

Annotatsiya. Ushbu maqolada gilam ishlab chiqarish sanoatida mahsulot tannarxini shakllantirish tamoyillari o‘rganilgan bo‘lib, ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni hisoblash metodikasini takomillashtirish strategiyalari yoritilgan. Maqolada xarajatlarni to‘g‘ri tasniflashning ahamiyati, tannarxning raqobatbardoshlikka ta’siri hamda xarajatlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarning o‘rni tahlil qilingan. “Evaks Fabric” MChJ misolida ishlab chiqarish xarajatlarini kuzatish, hisoblash va optimallashtirish jarayonlari o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda gilam ishlab chiqarishni qo‘llab-

quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatlari va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda foydalilikni oshirish bo‘yicha amaliy yechimlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: gilam, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, xarajatlarni optimallashtirish, raqamli tizimlar, xarajatlar tasnifi, ishlab chiqarish samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются принципы формирования себестоимости в ковровой промышленности, уделяется внимание стратегиям совершенствования методов расчёта затрат на производственных предприятиях. Отмечается важность правильной классификации расходов, влияние себестоимости на конкурентоспособность, а также роль цифровых технологий в управлении затратами. На примере ООО «Evaks Fabric» проанализированы процессы учёта, расчёта и оптимизации производственных расходов. Также изложены государственные меры поддержки коврового производства в Узбекистане и представлены практические решения по снижению производственных затрат и повышению рентабельности.

Ключевые слова: ковер, производственные расходы, себестоимость, оптимизация затрат, цифровые системы, классификация расходов, эффективность производства.

Introduction

Carpets are textile-based products primarily used for floor coverings, insulation, soundproofing, and interior decoration. These products can be handwoven or machine-made using materials such as wool, cotton, silk, or synthetic yarns. Carpet weaving, a tradition rooted in Uzbekistan’s cultural heritage, continues to be a significant sector within the country’s manufacturing industry.

To develop this sector, the government of Uzbekistan has introduced several legal frameworks and policy measures. [1, 10-b.]

- Presidential Decree No. PQ-4759 dated June 26, 2020, titled “On Measures for the Development of the Handmade Carpet Industry in the Republic.”
- Presidential Decree No. PQ-181 dated May 20, 2024, “On Measures to Take the Leather-Footwear, Silk, and Carpet Industries to a New Stage of Development.”
- Presidential Decree No. PQ-284 dated August 6, 2024, which introduced amendments to PQ-181.

As a result of these efforts, in the first half of 2024, large enterprises in Uzbekistan produced approximately 16.5 million square meters of carpets, reflecting a 12.4% increase compared to the same period in 2023. [2, 24-b.]

The Significance of Cost Price in Manufacturing

Cost price, or production cost, plays a fundamental role in pricing strategies. If cost price is inaccurately high, it can significantly reduce a product’s market competitiveness. Therefore, transparent and precise cost management is essential

to ensure profitability and sustainable growth. Companies operating in the carpet industry must continuously assess and adjust their cost structures to remain competitive, both domestically and internationally. [3, 33-b.]

Digital Cost Management Tools

At Evaks Fabric LLC, cost management is conducted through integrated ERP platforms such as 1C: Accounting. These systems allow real-time tracking of production expenses and provide the following benefits:

- accurate calculation of cost price per product type
- Identification of resource overuse (materials, electricity, labor hours)
- opportunities to optimize technological processes and reduce wastage

The use of such systems enhances overall financial transparency and improves decision-making based on real-time data. [4]

Reducing Raw Material Costs

One of the most direct ways to lower the overall cost of carpet production is to reduce raw material expenses. At Evaks Fabric LLC, this is achieved through the following strategies:

- sourcing from local suppliers through direct contractual agreements, which minimizes logistics and customs costs.
- utilizing government customs exemptions on imported raw materials like synthetic latex or specific yarn types. [5, 77-b.]

This approach not only cuts down procurement costs but also fosters collaboration with domestic industries.

1. By Purpose

Type	Description
Production Costs	Directly related to carpet manufacturing processes
Non-Production Costs	Administrative, marketing, and distribution expenses

Only production costs are included in the cost price of carpets.

2. By Structure

Type	Description
Direct Costs	Costs linked to a specific product (e.g., yarn, labor)
Indirect Costs	Shared production costs (e.g., electricity, maintenance)

3. By Behavior

Type	Description
Fixed Costs	Remain constant regardless of output volume (e.g., rent)
Variable Costs	Fluctuate based on production volume (e.g., raw materials)

Correct classification enables effective budgeting, cost tracking, and supports pricing strategies aligned with market conditions. [6, 102-b.]; [3, 10-b.]

Main Components of Carpet Production Cost (Case Study: Evaks Fabric LLC)

The cost price per square meter of carpet at Evaks Fabric is structured as follows:

Cost Component	Amount (UZS)	Share (%)
Raw materials and supplies	35,000	58%
Labor and social payments	10,000	17%
Energy consumption	6,000	10%
Depreciation of equipment	3,000	5%
Auxiliary materials	2,500	4%
Other production expenses	3,000	5%
Total Cost Price	**59,500**	**100%**

The product is generally sold for approximately 75,000 UZS, resulting in a gross profit margin of 15,500 UZS, excluding taxes and VAT. [8]; [9, 66-b.]

Expenses Excluded from Cost Price

According to national accounting standards, certain expenses are excluded from product cost but still affect the net financial results of the company. These include:

Expense Category	Description
Advertising & marketing	Branding, promotions, banners, social media ads
Administrative overhead	Office rent, supplies, equipment
Loan interest	Borrowing costs for machinery and infrastructure
Social benefits	Employee meals, uniforms, gifts
Financial losses	Damaged goods, undelivered shipments

These costs are reported separately as period or administrative expenses and do not directly influence the cost price but do reduce the net profit.

Incorporating Modern Technologies in Cost Management

The rapid advancement of digital technologies, including Industry 4.0 solutions, Internet of Things (IoT), and artificial intelligence (AI), is revolutionizing cost management in manufacturing sectors worldwide, including carpet production. Automated data collection and real-time monitoring of production processes enable companies to optimize resource utilization and reduce waste.

For example, IoT sensors can monitor energy consumption and machinery efficiency, alerting managers to inefficiencies or maintenance needs before costly breakdowns occur. Moreover, AI-powered analytics can forecast material

requirements and labor allocation more accurately, allowing for precise budgeting and inventory control. Implementing such technologies not only enhances cost transparency but also supports proactive decision-making, leading to increased productivity and lower overall production costs.

References

1. Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2021). Resolution No. 87 dated February 18, “On the Procedure for Calculating and Planning Production Costs.”
2. Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. (2020). National Accounting Standard (BHMS No. 4): “Inventory”, registered on June 30, No. 3259.
3. Ergashev, N. (2021). “Factors in Reducing Cost in Carpet Production”, Journal of Economic Research, No. 3, pp. 45–51.
4. Internal financial and production reports of Evaks Fabric LLC (2022–2024). [Used with permission for academic research]
5. Recommended References for Further Study
6. Horngren, C. T., Datar, S. M., & Rajan, M. V. (2015). Cost Accounting: A Managerial Emphasis. Pearson Education. A comprehensive textbook covering cost accounting principles, cost behavior, and cost management strategies.
7. Kaplan, R. S., & Atkinson, A. A. (2014). Advanced Management Accounting. Pearson. Discusses advanced techniques in cost analysis and managerial decision-making, including cost allocation and activity-based costing.
8. Heizer, J., & Render, B. (2020). Operations Management: Sustainability and Supply Chain Management. Pearson. Offers insight into production efficiency, supply chain optimization, and sustainable operations.
9. International Federation of Accountants (IFAC). (2019). International Good Practice Guidance on Implementing Sustainability in Business. Guidelines on integrating sustainability into corporate financial and operational practices.

BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING UZOQ MUDDATLI IQTISODIY FAROVONLIK VA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDAGI MUHIM TA’SIRI

Jo‘rayev Asadbek Anvarjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti, e-mail asaddjuraev00@gmail.com, (ORCID:0009-0009-1146-5093)

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning uzoq muddatli iqtisodiy farovonlikni ta’minlashdagi o‘rni yoritiladi. Korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda barqaror rivojlanishni

qo‘llab-quvvatlashda ushbu tizimlarning o‘zaro bog‘liqligi va ahamiyati ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so‘zlar. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit, moliyaviy barqarorlik, farovonlik, investitsiya, resurslardan foydalanish, iqtisodiy boshqaruv, shaffoflik, nazorat, tahliliy baholash, samaradorlik, barqaror rivojlanish, risklarni boshqarish, korxona boshqaruvi, strategik rejalashtirish, moliyaviy hisobot.

Аннотация. В данной работе раскрыта важная роль бухгалтерского учета, экономического анализа и аудита в обеспечении долгосрочного экономического благополучия и устойчивого развития. Рассматривается их влияние на укрепление финансовой дисциплины, эффективное использование ресурсов, повышение инвестиционной привлекательности и поддержку стабильного роста, а также их взаимосвязь в системе экономического управления.

Ключевые слова. Бухгалтерский учет, экономический анализ, аудит, финансовая стабильность, благополучие, инвестиции, эффективность ресурсов, экономическое управление, прозрачность, контроль, аналитическая оценка, эффективность, устойчивое развитие, управление рисками, корпоративное управление, стратегическое планирование, финансовая отчетность.

Annotation. This paper highlights the crucial role of accounting, economic analysis, and auditing in ensuring long-term economic prosperity and sustainable development. It examines how these systems strengthen financial discipline, improve resource efficiency, enhance investment attractiveness, and support sustainable growth. Their interrelation and impact on effective economic management are presented in a scientifically grounded manner.

Keywords. Accounting, economic analysis, audit, financial stability, prosperity, investment, resource efficiency, economic management, transparency, control, analytical assessment, effectiveness, sustainable development, risk management, corporate governance, strategic planning, financial reporting.

Kirish. 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 02.12.2022 yildagi PQ-436-son qarorida bergilangan. Davlat ishtirokidagi korxonalarni “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda peshqadamlarga aylantirish. Korxonalarning yillik hisobotlarida, korxonaning nomoliyaviy hisobotlarida, jumladan yirik sanoat korxonalarida energo auditni joriy qilish, ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlarini

davriy e’lon qilib borishni nazarda tutuvchi boshqaruv siyosatini tasdiqlash va uni joriy etish[11].

1-jadval

Buxgalteriya hisobining tarkibiy qismlari va ularning mazmuni[12]

№	Buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi	Mazmuni
1	Moliyaviy hisob	Tashkilotning umumiy moliyaviy holatini, aktivlar, majburiyatlar va kapitalni aks ettiradi. Hisobotlar – balans, foyda va zarar to‘g‘risidagi hisobot.
2	Boshqaruv (ichki) hisob	Rahbariyat qaror qabul qilishi uchun ichki ma’lumotlarni tayyorlaydi: ishlab chiqarish tannarxi, rejalashtirish, byudjetlashtirish.
3	Soliq hisobi	Soliqqa tortish maqsadida daromad, foyda, xarajat va imtiyozlarni hisoblaydi.
4	Statistik hisob	Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish, davlat statistikasiga ma’lumot taqdim etish uchun yuritiladi.
5	Operativ (tezkor) hisob	Kundalik xo‘jalik jarayonlarini tezda kuzatish va boshqarish uchun ishlatiladi (ombor, ishlab chiqarish, logistika).

Asosiy qism. Buxgalteriya hisobi tizimi o‘z ichiga moliyaviy, boshqaruv, soliq, statistika va operativ hisob turlarini oladi. Har biri o‘z funksiyasiga ega bo‘lib, bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda yagona ma’lumotlar bazasini tashkil etadi. Masalan, operativ hisob kundalik ma’lumotlarni taqdim etsa, boshqaruv hisobi ushbu ma’lumotlarga tayangan holda ichki qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Moliyaviy hisob esa korxonaning umumiy moliyaviy holatini ifodalab, tashqi foydalanuvchilar - investorlar, kreditorlar, soliq idoralari va davlat organlari uchun asosiy axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi faqat ichki nazorat vositasi emas, balki davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki buxgalteriya hisobotlari asosida ishlab chiqilgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarish hajmi, soliq tushumlari, eksport-import balansi va boshqalar) mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy indikatorlari hisoblanadi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, iqtisodiy tahlil va audit mexanizmi bu korxona yoki tashkilotning moliyaviy, ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyatini baholash, nazorat qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks tizimdir. Ushbu mexanizm orqali xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, ichki imkoniyatlarni safarbar

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son https://lex.uz/uz/docs/-6303230
[12] Muallif ishlanmasi

etadi hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Mexanizmning asosiy mohiyati shundan iboratki, u iqtisodiy tahlilning analitik yondashuvi va auditorlik nazoratining huquqiy aniqligini o‘zaro uyg‘unlashtirib, korxonaning real holatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

2-jadval

Iqtisodiy tahlil va audit mexanizmining asosiy tarkibiy elementlari va ularning mazmuni[13]

№	Tarkibiy element	Asosiy mazmuni
1	Axborot bazasi	Buxgalteriya hisobi, statistik ma’lumotlar, soliq hisobotlari, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari va tashqi iqtisodiy ma’lumotlardan iborat.
2	Tahliliy bosqich	Moliyaviy natijalar, rentabellik, likvidlik, tannarx, ishlab chiqarish samaradorligi va xarajat tuzilmasini o‘rganish.
3	Auditorlik nazorati	Ichki va tashqi audit orqali hisob ma’lumotlarining to‘g‘riligi, qonuniyligi va shaffofligi tekshiriladi.
4	Baholash va xulosa chiqarish	Tahlil va audit natijalariga ko‘ra kuchli va zaif tomonlar, moliyaviy xavflar aniqlanadi.
5	Tavsiya va boshqaruv qarorlari	Samaradorlikni oshirish, isrofgarchilikni kamaytirish, foydalilikni ko‘paytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.
6	Monitoring va takroriy nazorat	Qarorlar ijrosini doimiy nazorat qilish va tahlil mexanizmini takomillashtirish.

Mazkur mexanizm olti asosiy tarkibiy elementdan iborat: Axborot bazasi – buxgalteriya, moliyaviy, statistika va ishlab chiqarish ma’lumotlari jamlanmasi bo‘lib, u tahlil va audit uchun dastlabki axborot manbai hisoblanadi. Tahliliy bosqich – bu jarayonda korxonaning moliyaviy natijalari, rentabellik, likvidlik, xarajatlar tuzilmasi, ishlab chiqarish samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Auditorlik nazorati – ichki va tashqi audit orqali buxgalteriya hisobotlarining to‘g‘riligi, qonuniyligi hamda shaffofligi tekshiriladi. Baholash va xulosa chiqarish – tahlil natijalari asosida korxonaning iqtisodiy barqarorligi baholanadi, moliyaviy xavflar va imkoniyatlar aniqlanadi. Tavsiya va boshqaruv qarorlari – aniqlangan muammolarni bartaraf etish, isrofgarchilikni kamaytirish, foydalilikni oshirish va samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Monitoring va takroriy nazorat – qabul qilingan qarorlar ijrosini doimiy nazorat qilish, natijalarni baholash va tizimni takomillashtirish bosqichidir.

Mazkur mexanizmning ishlashi doimiy aylanish jarayonini tashkil etadi. Ya’ni, dastlabki ma’lumotlar yig‘iladi, ular asosida tahlil o‘tkaziladi, audit orqali aniqlik kiritiladi, natijalar baholanadi, takliflar ishlab chiqiladi va yakunda monitoring amalga oshiriladi. Bu jarayon uzluksiz takrorlanib boradi va korxona boshqaruvining sifatini oshiradi.

Tadqiqot auditorlarning fikrlariga hukumatlarning siyosiy va iqtisodiy ta’siri ta’sir qiladimi yoki yo‘qligini o‘rganadi. Biz Xitoydagi mahalliy hukumatlarning bunday ta’sirini aniqlash uchun auditorlik hududidan (mahalliy yoki mahalliy

[13] Muallif ishlanmasi

bo‘lmagan) foydalanamiz. 1996-2002 yillardagi Xitoy fond bozorlari ma’lumotlariga asoslanib, biz mahalliy mijozlarga ko‘proq iqtisodiy bog‘liqlikga ega bo‘lgan va mahalliy bo‘lmagan auditorlarga qaraganda mahalliy hukumatlarning ko‘proq siyosiy ta’siriga duchor bo‘lgan mahalliy auditorlar, ehtimoliy iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish uchun mahalliy hukumatga qarashli kompaniyalar haqida ijobiy hisobot berishga moyil ekanliklarini aniqladik. Bundan tashqari, malakali fikrga ega kompaniyalar malakasiz fikrga ega kompaniyalarga qaraganda mahalliy bo‘lmagan auditordan mahalliy auditorga o‘tish ehtimoli ko‘proq. Avvalgi ba’zi tadqiqotlardan farqli o‘laroq, biz Xitoyning siyosiy muhitida malakali fikrni olgandan keyin mahalliy bo‘lmagan auditordan mahalliy auditorga o‘tgan mahalliy hukumatga qarashli kompaniyalar fikr sotib olishda muvaffaqiyat qozonishlari mumkinligini aniqladik.[1]

Globallashuv va raqobatning kuchayishi tufayli bizneslar iqtisodiy xavfsizlikka qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rishga ko‘proq vaqt va pul sarflashga majbur bo‘ldilar. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit iqtisodiy xavfsizlik xarajatlarini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular boshqaruv tizimini yanada samaraliroq, ishonchli va asosli qiladi. Shuning uchun, bu masala hozirda alohida qiziqish uyg‘otadi va uni talqin qilish kerak. Tadqiqot davomida iqtisodiy xavfsizlik xarajatlarini boshqarishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditni takomillashtirishning hozirgi holati, muammolari va kelajakdagi yo‘nalishlarini o‘rganilgan.[2]

Tadqiqotning xalqaro iqtisodiy reytinglardagi darajasini oshirish maqsadida korxona boshqaruv tizimida o‘zgarishlar kiritish zarurligini asoslash asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishda buxgalteriya hisobi, tahlil va auditning nazariy va metodologik tamoyillarini o‘zgartirishning kompleks modeli ishlab chiqildi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimida qabul qilinadigan qarorlarning differentsiatsiyasini hisobga olgan holda, korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini buxgalteriya hisobi, tahlil va audit tamoyillarini shakllantirishga yondashuv tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish samaradorligini oshirish uchun xo‘jalik yurituvchi subyekt muhitidan foydalanish imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy faoliyat operatsiyalarini buxgalteriya hisobi tizimini o‘zgartirishning taklif qilingan modelida auditning nazariy va metodologik tamoyillari asos bo‘lib, u tashqi iqtisodiy operatsiyalar turlarining turli jarayonlarini shakllantiruvchi vazifalar, usul elementlari va buxgalteriya hisobi obyektlaridan iborat bo‘lib, korxonaning ichki va tashqi muhitining ta’sirini hisobga olgan holda buxgalteriya axborot ta’minotining ishonchliligini oshirishni ta’minlaydi.[3]

Xulosa. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit tizimlari korxonalarning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli iqtisodiy farovonligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu tizimlar orqali moliyaviy axborotning shaffofligi ta’minlanadi, resurslardan oqilona foydalanish rag‘batlantiriladi va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish imkoniyati yaratiladi. Iqtisodiy tahlil korxona faoliyatidagi kuchli va zaif jihatlarni aniqlashga xizmat qilib, barqaror rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga yordam beradi. Audit esa moliyaviy intizomni

mustahkamlab, xatolik va risklarning oldini olish, investorlarga ishonchni kuchaytirish orqali iqtisodiy tizimning barqarorligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, buxgalteriya hisobi, tahlil va auditning integratsiyalashgan ishlashi korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini samarali amalga oshirishga zamin yaratadi hamda mamlakat miqyosida iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Chan, K. H., Lin, K. Z., & Mo, P. L. L. (2006). A political–economic analysis of auditor reporting and auditor switches. Review of Accounting Studies, 11(1), 21-48.

2.Deriy, V., & Melnychuk, I. (2019). Accounting, analysis and audit in management of economic security expenditures. Herald of Economics, (1 (91)), 197-208.

3.Nazarova, K., Zaremba, O., Nezhyva, M., Hordopolov, V., Harbar, V., & Gorovyj, V. (2021). Business analysis and audit of foreign economic activity of the enterprise. Studies of applied economics, 39(5).

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA IJARA MUNOSABATLARINING O‘RNI

Qudbiyev Nodir Tohirovich,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti, e-mail: nodir.qudbiyev@fstu.uz.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda ijara munosabatlarining barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Muallif samarali ijara munosabatlari tadbirkorlik tashabbusini rag‘batlantirish, mehnat resurslarining harakatchanligini oshirish va mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishi e’tirof etadi. Olib borilgan tadqiqotlar asosida ijara shartnomalarini soddalashtirish, huquqlarni himoya qilish, lizing bozorini rivojlantirish va sifatli uy-joy ijarasini kengaytirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: ijara munosabatlari, barqaror iqtisodiy o‘sish, lizing, operatsion ijara, resurslarni taqsimlash, samaradorlik, rivojlanish.

Аннотация. В данном исследовании рассматривается роль арендных отношений в обеспечении устойчивого экономического роста. Автор утверждает, что эффективные арендные отношения способствуют экономическому росту за счет стимулирования предпринимательской инициативы, повышения мобильности трудовых ресурсов и рационального использования имеющихся ресурсов. На основе проведенных исследований внесены предложения по упрощению договоров аренды, укреплению защиты прав, развитию рынка лизинга и расширению качественного жилищного аренды.

Ключевые слова: арендные отношения, устойчивый экономический рост, лизинг, операционная аренда, распределение ресурсов, эффективность, развитие.

Abstract. This study examines the role of rental relations in ensuring sustainable economic growth. The author argues that effective rental relations contribute to economic growth by stimulating entrepreneurial initiative, increasing labor mobility and rational use of available resources. Based on the conducted research, proposals have been made to simplify lease agreements, strengthen the protection of rights, develop the leasing market and expand high-quality housing rentals.

Keywords: lease relations, sustainable economic growth, leasing, operating lease, resource allocation, efficiency, development.

Kirish. Milliy iqtisodiyotlarning asosiy vazifalaridan biri barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdan iborat bo‘lib, bu real yalpi ichki mahsulotning uzoq muddatli o‘sishi, shuningdek, innovatsion texnologik taraqqiyotni ta’minlash, yaxshilash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy klassik an’analarga ko‘ra, investitsiyalar, inson kapitali va texnologik taraqqiyot kabi o‘sish omillariga e’tibor qaratiladi. Biroq, ko‘pincha ishlab chiqarish aktivlaridan foydalanishni ta’minlaydigan institutsional mexanizmlar e’tibordan chetda qoladi, shunday mexanizmlardan biri bu ijara munosabatlari hisoblanadi.

Lizing yoki ijara munosabatlari iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos turi bo‘lib, bunda mulk ma’lum haq to‘lash asosida vaqtincha o‘zga shaxsga shartnomaga asosida foydalanishga beriladi [1] .

Ushbu munosabatlari doirasida quyidagi bir necha turlarini ajratish mumkin:

1. Moliyaviy lizing o‘z mohiyatiga ko‘ra asosiy vositalarni sotib olish uchun kredit berishdir.

2. Operatsion lizing - mulk huquqini o‘tkazmasdan qisqa muddatli ijaraga berish.

3. Tijorat ko‘chmas mulk ijarasi.

Ijara obyektlari sifatida foydalanish jarayonida o‘zining tabiiy xususiyatlarini yo‘qotmaydigan yer uchastkalari, korxonalar, binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, transport vositalari va boshqalarni o‘z ichiga oluvchi ko‘char va ko‘chmas mulklar bo‘lishi mumkin [2]. Bunday buyumlar iste’mol qilinmaydigan buyumlar deb ataladi.

Ijara shartnomasida ijaraga beriladigan mol-mulk aniq belgilanishi kerak. Bu shuni anglatadiki, hujjatda ijara obyektini identifikatsiya qilish imkonini beradigan barcha ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak.

Chet el qonunchiligida nafaqat ashyolarni, balki mulkiy qiymatga ega bo‘lgan huquqlarni, shuningdek, qimmatli qog‘ozlarni, masalan, aksiyalarni, savdo shirkatlaridagi ulushlarni ijaraga berishga yo‘l qo‘yiladi.

Asosiy qism. Mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, kooperatsiya va aksiyalashtirishning faol rivojlanishi sharoitida ijara istiqbolli yo‘nalishlardan biriga aylanadi. U nafaqat iqtisodiy resurslarni cheklanmaydi, balki ulardan yanada samaraliroq foydalanish imkonini beradi hamda bu orqali barqaror iqtisodiy o‘sish, rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki ijara mol-mulk egalariga uni boshqa shaxslarga foydalanish uchun topshirishdan daromad olish imkonini beradi. Bu xo‘jalik faoliyatiga aylanmadagi yer uchastkalari va boshqa ko‘chmas mulk obyektlari sonining ko‘payishiga yordam beradi.

Shu o‘rinda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda ijara munosabatlarining o‘rnini batafsil ko‘rib chiqish zarur. Tahlillar ijara munosabatlarining iqtisodiy o‘sishga ta’sirining uchta asosiy yo‘nalishga ajratish mumkinligini ko‘rsatmoqda, bular quyidagilardan iborat:

1. Bozorga chiqishdagi to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish

Yangi biznesni boshlash uchun asosiy to‘siqlardan biri boshlang‘ich kapitalning mavjudligi. Tijorat ko‘chmas mulki va uskunalarini sotib olish katta boshlang‘ich investitsiyalarni talab qiladi. Biroq, ushbu aktivlarni ijaraga berish tadbirkor uchun bir qator afzalliklarga ega:

1. Risklarni taqsimlash. Ijara doimiy xarajatlarni joriy daromadlar bilan bog‘lash imkonini beradi, bu esa noaniqlikni kamaytiradi.

2. Mablag‘larni bo‘shatish. Bu bo‘shayotgan kapitalni aylanma mablag‘lar, marketing va ilmiy-tadqiqot loyihalariga yo‘naltirish imkonini beradi, bu esa biznesni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Egiluvchanlik. Bozordagi o‘zgarishlarga qarab biznesni tezda kengaytirish imkoniyati.

Tijorat ijarasi tizimi yaxshi tashkil etilgan AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda kichik va o‘rta tadbirkorlikning YAIM va aholi bandligi tarkibidagi ulushi sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, ijara munosabatlari yangi korxonalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga yordam beradi.

2. Mehnat resurslari harakatchanligini oshirish

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun odamlarning eng istiqbolli soha va hududlarga erkin harakatlanishi zarur. Bunday harakatchanlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri - bu uy-joy ijarasi tizimining yaxshi rivojlanganligidir.

Ijara ishchilarga ish o‘rinlari va yuqori mehnat unumdorligi mavjud bo‘lgan iqtisodiy markazlarga tez va kam xarajatlar bilan ko‘chib o‘tish imkoniyatini beradi. Bu, o‘z navbatida, tarkibiy ishsizlikni kamaytirish va inson salohiyatidan yanada samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uy-joy ijarasi tizimi rivojlangan mamlakatlarda ichki migratsiya darajasi yuqori bo‘ladi.

3. Mavjud resurslar (kapitaldan) samarali foydalanish va lizing yordamida innovatsiyalarni rag‘batlantirish.

Lizing, ya’ni asbob-uskunalar va texnikani moliyaviy ijaraga olish ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning kuchli vositasidir. U kompaniyalarga, ayniqsa kichik va o‘rta korxonalarga zamonaviy va yuqori texnologiyali uskunalarni to‘liq to‘lovlarsiz sotib olish imkoniyatini beradi. Bu yangi texnologiyalarni tezroq joriy etish va iqtisodiyotda kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Lizing, shuningdek, kompaniyalarga uskunalarning hayotiylik davrini yanada moslashuvchan boshqarish, o‘z texnika parkini muntazam ravishda yangilab turish va uning ma’naviy eskirishining oldini olish imkonini beradi.

Leaseurope tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida lizing operatsiyalari hajmi va uskunalarga investitsiyalar dinamikasi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni ko‘rsatadi [3].

Ijara iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili ekanligini ilmiy tadqiqotlar ishonchli tarzda isbotlamoqda [4]. U iqtisodiyotni yanada moslashuvchan va samarali qiladi, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun xarajatlar va xatarlarni kamaytirishga yordam beradi.

Ijara samaradorligini ta’minlash uchun mulk huquqini himoya qiladigan, risklarni va ijara narxini pasaytiradigan tizimni yaratish va joriy etish zarur. Shuningdek, nizolarni tezda hal qila oladigan adolatli sud tizimi zarur. Firibgarlikning oldini olish va ma’lumotlarni qidirishni osonlashtirish uchun shaffoflikni ta’minlash va aniq standartlarni belgilash muhimdir.

Jamiyatda korrupsiya, byurokratiya va huquqiy noaniqlik hukm surgan sharoitda ijara bozori qonun doirasidan tashqarida qolishi mumkin. Bu esa odamlar pora berishga majbur bo‘lib, ogohlantirishsiz chiqarib yuborilishi mumkin bo‘lgan holatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Xulosa. Shunday qilib, ijara jamiyatning holatini ko‘rsatuvchi indikator bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Jamiyatning samarali ishlashi sharoitida ijara iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishi mumkin. Aks holda ijara muammolar va qo‘shimcha xarajatlar manbaiga aylanishi mumkin.

Ushbu tadqiqot tasdiqlashni talab qiladigan gipoteza hisoblanadi. Vaziyatni to‘liqroq tushunish uchun turli jihatlarni hisobga olgan holda ijaraning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini sinchkovlik bilan o‘rganib, qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarur.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sifatli, tushunarli va himoyalangan ijara munosabatlari iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Ular tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashadi, asosiy fondlarning harakatchanligi va yangilanishini ta’minlaydi.

Shu munosabat bilan davlat ijara munosabatlarini takomillashtirishga jiddiy e’tibor berishi, ularga umumiy iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qarashi lozim. Xususan, quyidagilar taklif etiladi:

- ijara shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ijro etish tartib-taomillarini soddalashtirish;

- ijaraga beruvchilar va ijarachilarning huquqlari himoya qilinishini ta’minlash;
- lizing bozorini, shu jumladan soliq mexanizmlarini qo‘llagan holda rivojlantirish;
- ko‘proq sifatli va arzon ijara uy-joylarini yaratish.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijara iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, odamlarga zarur resurslardan foydalanish imkoniyatini beradi va biznes yuritish yondashuvlarini o‘zgartirishga yordam beradi.

Kelajakda ijaraning davlatning umumiy daromadiga ta’sirini o‘rganish, shuningdek, dasturiy ta’minot ijarasi kabi ijara munosabatlarining yangi shakllarining kompaniyalar faoliyatiga va raqamli texnologiyalar sohasidagi innovatsion loyihalarga ta’sirini baholash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohirovich, Q. N. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR O‘RTASIDA IJARA (LIZING) MUNOSABATLARI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (6), 98-107.
2. Борисов, Д. А. (2017). НЕДВИЖИМОЕ ИМУЩЕСТВО КАК ОБЪЕКТ АРЕНДНЫХ ОТНОШЕНИЙ. Теория и практика современной науки, (8 (26)), 3-6.
3. Головенко, А. Д. (2021). Международный лизинг-современное состояние и проблемы развития. Скиф. Вопросы студенческой науки, (9 (61)), 56-63.
4. Wong, Z. W. V., Chen, F., Law, S. H., & Ismail, N. W. (2022). The Effects of Rent Seeking Activities on Economic Growth in Middle-Income Countries. Bulletin of Monetary Economics and Banking, 25(2), 215-234.

O‘ZBEKISTONDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ro‘zimatov Xojimuhammad Adhamjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti, magistranti
e-mail: xojimuhammadrozimatov7@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning hozirgi holati, uning rivojlanish tendensiyalari hamda bu jarayonda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimining o‘rni atroflicha tahlil qilingan. Tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv jarayonida hisob va hisobot tizimi ishonchli axborot manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois maqolada milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) bilan uyg‘unlashtirish yo‘lidagi islohotlarning mazmun-mohiyati, ularni amaliyotga

tatbiq etishdagi mavjud muammolar hamda ularning yechimlari ilmiy asosda yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Valyuta xavfini boshqarish, QQS, IFRS (Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari), valyuta operatsiyalari, valyuta kursi xavfi, xalqaro standartlar, jahon xo‘jaligi, moliyaviy tahlil, eksport va import

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализировано современное состояние внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан, тенденции её развития, а также роль бухгалтерского учёта и системы финансовой отчётности в этом процессе. Эффективная организация внешнеэкономической деятельности и интеграция в мировые рынки требуют надёжной информационной базы, в качестве которой выступает система бухгалтерского учёта и отчётности. В связи с этим в статье раскрыта сущность проводимых реформ по гармонизации национальных стандартов бухгалтерского учёта с Международными стандартами финансовой отчётности (МСФО), рассмотрены существующие проблемы их практического внедрения и предложены пути их решения на научной основе.

Ключевые слова: Управление валютным риском, НДС, МСФО (Международные стандарты финансовой отчётности), валютные операции, валютный курсовой риск, международные стандарты, мировое хозяйство, финансовый анализ, экспорт и импорт.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the current state of foreign economic activity in the Republic of Uzbekistan, its development trends, and the role of accounting and financial reporting systems in this process. The effective organization of foreign economic operations and integration into global markets require a reliable information base, which is ensured by the accounting and reporting system. Therefore, the article examines the essence of the ongoing reforms aimed at harmonizing national accounting standards with International Financial Reporting Standards (IFRS), identifies existing challenges in their practical implementation, and proposes scientifically grounded solutions.

Keywords: Currency risk management, VAT, IFRS (International Financial Reporting Standards), foreign exchange operations, exchange rate risk, international standards, world economy, financial analysis, export and import.

Eksport va import mahsulotlarini keyinchalik realizatsiya qilish maqsadida xarid qiluvchi korxonalar uchun buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi - tovarlarning mavjudligi, harakati va saqlanish jarayonlarini tizimli nazorat qilishdan iborat. Bu jarayonda transport-yo‘ldosh hujjatlarini to‘g‘ri rasmiylashtirish, tovarlarning o‘z vaqtida hisobga olinishi hamda ta’minotchilar va transport tashkilotlari bilan hisob-kitoblarda aniqlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yetkazib berish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamomad, sifat nuqsonlari yoki muddat buzilishi holatlarida tegishli da’volarni o‘z vaqtida rasmiylashtirish zarur. Buxgalteriya hisobi korxonaga portlar, chegara

stansiyalari, shuningdek O‘zbekiston va xorijdagi omborlarda mavjud tovar qoldiqlari to‘g‘risida aniq va ishonchli ma’lumotlarni olish imkonini beradi.

Global iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda davlatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi har bir mamlakat iqtisodiy siyosatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston ham tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash, eksport salohiyatini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo‘lida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Mazkur jarayonlarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimi muhim o‘rin egallaydi. Chunki aynan ushbu tizim tashqi iqtisodiy operatsiyalarni to‘g‘ri aks ettirish, ularning shaffofligini ta’minlash hamda iqtisodiy tahlilni samarali olib borish uchun zarur axborot bazasini yaratadi[1].

Tashqi iqtisodiy faoliyat va buxgalteriya hisobining o‘zaro bog‘liqligi

Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) - bu davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital, texnologiyalar va ishchi kuchi harakatini o‘z ichiga olgan murakkab iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Mazkur faoliyat eksport va import operatsiyalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xalqaro kredit bitimlari, hamkorlik va kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish kabi ko‘plab shakllarda namoyon bo‘ladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar nafaqat tijorat foydasini ta’minlash, balki mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, valyuta tushumlarini oshirish va tashqi savdo balansini muvozanatlashda ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur faoliyatning samarali yuritilishi bevosita puxta yo‘lga qo‘yilgan buxgalteriya hisobi tizimiga bog‘liqdir. Buxgalteriya hisobi tashqi iqtisodiy operatsiyalarni o‘z vaqtida va to‘liq aks ettirish, ularni amaldagi huquqiy hamda moliyaviy me’yorlarga muvofiq rasmiylashtirish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan statistik va tahliliy ma’lumotlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi [2].

Tashqi iqtisodiy faoliyat mohiyatan mamlakat hududida faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlarining xorijdagi tashkilotlar bilan amalga oshiradigan eksport, import, investitsiya, kredit va boshqa iqtisodiy bitimlarini o‘z ichiga oladi. Shu bois buxgalteriya hisobi ushbu jarayonlarda moliyaviy intizomni saqlash, operatsiyalar shaffofligini ta’minlash va xalqaro standartlarga mos axborot tizimini yaratishda asosiy nazorat vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.O‘zbekistonda buxgalteriya tizimini modernizatsiya qilish tendensiyalari

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘lida muhim institutsional va texnologik islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) bosqichma-bosqich joriy etish orqali milliy buxgalteriya tizimi xalqaro amaliyot bilan uyg‘unlashtirilmoqda. Bu jarayon moliyaviy axborotning ishonchliligi, taqqoslanishi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda [3].

Bundan tashqari, raqamli hisob-kitob tizimlari, xususan ERP dasturlari (1C, SAP va boshqalar) keng joriy etilib, xo‘jalik jarayonlarini avtomatlashtirish orqali

buxgalteriya amaliyotining samaradorligi oshirilmoqda. Elektron soliq va bojxona tizimlarining rivojlanishi esa tashqi savdo operatsiyalarini avtomatik qayd etish, ma’lumotlarni yagona bazada shakllantirish hamda nazoratni kuchaytirish imkonini bermoqda. Ushbu islohotlar nafaqat ichki boshqaruv tizimining takomillashuviga, balki xorijiy investorlar uchun ochiqlik va ishonch muhitining yaratilishiga ham xizmat qilmoqda [5].

Hisobot turlari va ularning tahliliy ahamiyati

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan korxonalar bir necha turdagi hisobotlarni tayyorlaydi, ular orasida:

1. Moliyaviy hisobotlar: balans, foyda va zararlar hisobi, pul oqimlari hisobotlari;
2. Statistik hisobotlar: eksport va import hajmi, valyuta tushumlari, tashqi savdo balansi ko‘rsatkichlari;
3. Bojxona va soliq hisobotlari: import bojxona deklaratsiyalari, QQS (qo‘shilgan qiymat solig‘i) qaytimi va boshqa majburiy hisobot shakllari

To‘g‘ri yuritilgan, raqamlashtirilgan va avtomatlashtirilgan hisobot tizimi menejmentga real vaqt rejimida tahliliy ma’lumotlar taqdim etadi. Natijada, korxona rahbariyati eksport strategiyasini ishlab chiqish, narx siyosatini shakllantirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va xalqaro bozordagi o‘z o‘rnini mustahkamlashda aniq ma’lumotlarga tayanadi [4].

Mavjud muammolar va istiqboldagi vazifalar

O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va uni samarali boshqarish jarayonida buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobot tizimini isloh qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda sezilarli islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, amaliyotda hali ham bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, ayrim xo‘jalik subyektlarida xalqaro standartlarga to‘liq moslashmagan buxgalteriya yuritish amaliyoti, elektron hisob-kitob tizimlarining yetarlicha joriy etilmagani, malakali kadrlar yetishmasligi va hisobot ma’lumotlarining bir xillik darajasi pastligi tashqi iqtisodiy operatsiyalarning to‘g‘ri aks ettirilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Bu kabi muammolar moliyaviy shaffoflikni cheklaydi, xalqaro hamkorlikdagi ishonch muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi hamda xorijiy investitsiyalar oqimini sekinlashtiradi. Shu sababli, buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida yagona yondashuvlarni joriy etish va raqamli transformatsiya jarayonini chuqurlashtirish muhim strategik vazifalar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori.
2. IFRS Foundation. “International Financial Reporting Standards.” www.ifrs.org
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

4. Karimov Z.Sh. “Tashqi iqtisodiy faoliyatda buxgalteriya hisobi”. – Toshkent, 2021.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 28.01.2022-yildagi PF-60-son.

ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ И ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Бименова Айгуль Альжановна
Казахстан, магистрант Карагандинского университета им. Е.А. Букетова
Научный руководитель: к.э.н., профессор **Раимбеков Б.Х.**

Yilmaz H. pul oqimlari koeffitsientlarini moliyaviy boshqaruvdagi o‘rnini o‘rgangan. [3] U moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot va pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotlardan yig‘ilgan ma’lumotlar asosida 28 ta pul oqimi koefitsentlarini hisoblab chiqqan. Hamda ularni moliyaviy tahlil, aylanma kapitalni boshqarish, kapital byudjetlashtirish, kapital tuzilmasi, baholash, moliyaviy leverej va dividend siyosati kabi moliyaviy boshqaruvning yetti yo‘nalishi bo‘yicha ajratib taqsimlagan. Majumdar A. and Majumdar D. lar ham pul oqimlari nisbatlarini tahliliy kuchini alohida e’tirof etganlar va ularning keng tarqalgan boshqa ananaviy nisbatlardan afzal bilishgan. [4] Ular o‘z maqolalarida investorlar va kreditorlarga pul oqimlari nisbatlaridan foydalanishni taklif etishgan.

Kajananthan R and Velnampy T lar Shri lanka telekommunikatsiya kompaniyalari faoliyatini har ikki turdagi ananaviy va pul oqimlari nisbatlari orqali tahlili natijasida pul oqimlari nisbatlari ananaviy nisbatlardan ko‘ra aniqroq natijalarni berganini aytib o‘tishgan. [5]

Asosiy qism. Pul oqimlari nisbatlari ananaviy koeffitsentlarga nisbatan ishonchliroq va moliyaviy o‘zgarishlarga tasirchanligi yuqoriroq hisoblanadi. Ularni to‘rt guruhga bo‘lgan holda hisoblash mumkin:

- Samaradorlik koeffitsentlari;

- Rentabellik koeffitsentlari;
- Likvidlik koeffitsentlari;
- Yetarlilik koeffitsentlari.

Samaradorlik koeffitsentlari. Samaradorlik koeffitsentlari debtorlik qarzlari sifatini baxolash va korxonaning resurslaridan foydalanish samaradorligini o‘lchash uchun ishlatiladi.

1-jadval.

Samaradorlikni o‘lchovchi koeffitsentlar

	Samaradorlik koeffitsentlari	
1.	Pulning asosiy vositalar bo‘yicha rentabelligi	Operatsion faoliyatidan pul oqimi/asosiy vositalar
2.	Pulning aktivlar bo‘yicha rentabelligi	Operatsion faoliyatidan pul oqimi /Jami aktivlar

Rentabellik koeffitsentlari. Rentabellik koeffitsentlari korxonaning moliyaviy natijalarini ya’ni foyda keltirish qobiliyatini baxolaydi.

2-jadval.

Rentabellikni o‘lchovchi koeffitsentlar

	Rentabellik koeffitsentlari	
1.	Naqt pullarni sotuvga nisbati	Operatsion faoliyatidan pul oqimi / Aylanma
2.	Naqt pullarni jalb etilgan kapitalga nisbati	Operatsion faoliyatidan pul oqimi /(Uzoq muddatli majburiyatlar+kapital)
3.	Naqt pullarni sof foydaga nisbati	Operatsion faoliyatidan pul oqimi /Sof foyda

Likvidlik koeffitsentlari. Likvidlik koeffitsentlari korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini to‘lay olish qobiliyatini o‘lchaydi.

3-jadval.

Llikvidlikni o‘lchovchi koeffitsentlar

	Likvidlik koeffitsentlari	
1.	Operatsion pul oqimi nisbati	Operatsion faoliyatidan pul oqimi /Qisqa muddatli majburiyatlar
2.	Zaruriy extiyojlarni qoplash koeffitsenti	(Operatsion faoliyatidan pul oqimi + to‘langan foizlar) / (To‘langan foizlar + Qisqa muddatli majburiyatlar + dividentlar)

Yetarlilik koeffitsentlari. Yetarlilik koeffitsentlari korxonaning asosiy majburiyatlarini bajarish uchun zaruriy mablag‘larni shakllantirish qobiliyatini baholaydi.

4-jadval.

Yetarlilikni o‘lchovchi koeffitsentlar

	Yetarlilik koeffitsentlari	
1.	Qarzlarni qoplash koeffitsenti	Jami qarzlar/ Operatsion faoliyatidan pul oqimi
2.	Dividend tolov koeffitsenti	To‘langan dividentlar/ Operatsion faoliyatidan pul oqimi
3.	Qarzlarni qaytarish koeffitsenti	Qaytarilgan qarzlar/ Operatsion faoliyatidan pul oqimi

Pul oqimlari koeffitsentlarining kamchiligi shundaki, nisbatlardagi barcha ma’lumotlar moliyaviy hisobotlardan olinganligi sababli, natijalarning aniqligi moliyaviy hisobotlar sifatiga uzviy bog‘liq. Albatta, buxgalterlar va auditorlarning o‘z vaqtida sifatli nazoratni yo‘lga qo‘yishlari bu muammoni bartaraf etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Likvidlikni ma’lum davrlarda pasayishi yohud pul oqimining barqarorligi bilan bog‘liq muammolar ko‘plab korxonalarda va hatto yirik korporatsiyalarda ham uchrab turadigan vaziyat. Moliyaviy hisobotlarning doimiy tahlili va pul oqimining kelajakda kutilayotgan miqdorlarini bashoratlash orqali samarali natijalarga erishishning iloji bo‘lsada, ular korxona faoliyatidagi kutilmagan burilishlarni inobatga olmaydi. Kutilmagan moliyaviy taqchillik korxonaning daromadiga Keskin salbiy ta’sir o‘tkazmasligi uchun korxona menejerlari darhol vaziyatni nazorat ostiga olishlari darkor. Quyida bir nechta usullarni ko‘rib chiqamiz:

.Investitsiyalarni jalb etish. Investitsiyalar korxonani nafaqat naqt pul oqimi bilan taminlaydi, balki ularni to‘g‘ri sarflash orqali kompaniyaning umumiy moliyaviy holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

.Rentabellikni oshirish yo‘llari. Bazan naqt pulning yetishmasligi korxonaning daromad darajasi pastligi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bunday hollarda, korxona daromadliligini oshirish yo‘llarini hamda past daromad sabablarini ko‘rib chiqishi kerak.

.Aktivlarni ijara yoki lizing shartnomasiga asosan olish. Yer, bino-inshootlar, yuk mashinalar kabi uzoq muddatli aktivlarni yaxlit to‘lov qilish orqali sotib olish, naqt pulning katta miqdordagi manfiy oqimini yuzaga keltiradi. Shu sababli, uzoq muddatli aktivlarni ijaraga olish yoki lizing asosida foydalanish naqt pul mablag‘lari hajmidagi keskin o‘zgarishlarni oldini oladi.

.Qayta moliyalashtirish. Qisqa va uzoq muddatli majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, korxonada pul oqimlari taqchilligini keltirib chiqarishi mumkin. Muvozanatni tiklash uchun vaqtinchalik pul oqimi tanqisligini qisqa muddatli qarzlar orqali qoplash va uzoq muddatli majburiyatlarni moliyalashtirishda ishlatish mumkin.

.Likvidatsiya. Aktivlarni sotish ko‘p hollarda likvidlik muammosini yechishning oxirgi etabdagi variant hisoblanadi. Biroq, foyda keltirmaydigan aktivlarni sotish ham likvidlikni tiklash usuli hisoblanadi va bu aksincha korxona moliyaviy holati yaxshiligida ham amalga oshirilishi zarur bo‘lgan amaliyotdir.

Kompaniyada pul harakatining tezligi korxona ko‘proq moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishiga hamda uning moliyaviy faoliyatidagi rentabellik va samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Qisqacha qilib aytganda, pul oqimi koeffitsientlari investorlar, menejerlar va boshqa manfaatdor tomonlarning moliyaviy qarorlarni qabul qilish jarayonida muhim o‘rin egallashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jooste L. (2005). An evaluation of the usefulness of the cash flow statement within south african companies by means of cash flow ratios, Doctoral Dissertation, Faculty of Economic and Management Sciences, University of Pretoria, South Africa.
2. Barua S. and Saha A.K. (2015). Traditional Ratios vs. Cash Flow based Ratios: Which One is Better Performance Indicator? Advances in Economics and Business, (3(6)), 232-251.
3. Yilmaz H. (2021). Utilization of Cash Flow Ratios in Financial Management. American Journal of Financial Management, (ISSN: 2641-4589).
4. Majumdar, A., & Majumdar, D. (2020). Cash Flow Ratios Under Growth Approach as an Indicator for Evaluation of Business Performance. Journal of Commerce and Accounting Research, 9 (1), 6-12. (ISSN 2277-2146).
5. Kajananthan R and T Velnampy (2014). Liquidity, Solvency and Profitability Analysis Using Cash Flow Ratios and Traditional Ratios: The Telecommunication Sector in Sri Lanka. Research Journal of Finance and Accounting, (5-(3)) ISSN (Paper)2222-1697 ISSN (Online)2222-2847

XALQARO OBLIGATSIYALAR BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI

Isroilova Sitorabonu Qodirjon qizi,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti, e-mail: sitorabonu.isroilova@fstu.uz.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda tijorat banklari loyihalarini yevroobligatsiyalar orqali moliyalashtirishning iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Yevroobligatsiyalar orqali jalb qilingan uzoq muddatli va nisbatan arzon resurslar banklarning investitsion salohiyatini kengaytiradi, yirik infratuzilma va real sektor loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi hamda moliyaviy bozorlarning integratsiyalashuvini kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari asosida yevroobligatsiyalar chiqarish jarayonini takomillashtirish, xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini yaxshilash, valyuta risklarini

boshqarish va jalb qilingan mablag‘lardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: obligatsiya, yevroobligatsiya, investitsiya, xalqaro reyting ko‘rsatkichlari, emitent, xalqaro kapital, valyuta riski.

Аннотация. В настоящем исследовании подчеркивается важность финансирования проектов коммерческих банков посредством еврооблигаций для обеспечения экономической стабильности. Долгосрочные и относительно недорогие ресурсы, привлекаемые посредством еврооблигаций, расширяют инвестиционный потенциал банков, способствуют поддержке крупных инфраструктурных проектов и проектов в реальном секторе экономики, а также усиливают интеграцию финансовых рынков. По результатам исследования разработаны практические предложения по совершенствованию процесса выпуска еврооблигаций, повышению международных рейтинговых показателей, управлению валютными рисками и эффективному использованию привлеченных средств.

Ключевые слова: облигация, еврооблигация, инвестиции, международные рейтинговые индикаторы, эмитент, международный капитал, валютный риск.

Abstract. This study highlights the importance of financing commercial bank projects through eurobonds in ensuring economic stability. Long-term and relatively cheap resources attracted through eurobonds expand the investment potential of banks, serve to support large infrastructure and real sector projects, and enhance the integration of financial markets. Based on the results of the study, practical proposals have been developed to improve the process of issuing eurobonds, improve international rating indicators, manage currency risks, and effectively use the funds attracted.

Keywords: bond, eurobond, investment, international rating indicators, issuer, international capital, currency risk.

Kirish. Yevroobligatsiyalar bozori hozirda dunyodagi eng yirik xalqaro qarz bozorlaridan biri sifatida shakllangan. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kungacha 130 dan ortiq davlatdan 12 mingdan ziyod yuridik shaxslar tomonidan umumiy qiymati 13,2 trillion yevrodan oshadigan yevroobligatsiyalar emissiya qilingan. Ushbu moliyaviy instrumentdan hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari hamda yirik korporatsiyalar foydalanadi. Yevroobligatsiyalarning asosiy afzalliklaridan biri shuki, ular Xalqaro Markaziy Depozitariylar (ICSDs) orqali keng ko‘lamli global investorlar bazasiga chiqish imkonini beradi[1].

Yevroobligatsiyalar (eurobond) - emitent mamlakatidan tashqarida qattiq valyutada joylashtiriladigan obligatsiyalar bo‘lib, hozirgi kunda ularni istalgan davlat chiqarishi mumkin. Ko‘pincha ushbu obligatsiyalar yevro yoki AQSH dollarida emissiya qilinadi. Masalan, yevrodollar yoki yevroiyen obligatsiyalari shular jumlasidandir. Emitentlarning turiga qarab, yevroobligatsiyalar suveren (davlat) va korporativ ko‘rinishga bo‘linadi. [2] Shu nuqtai nazardan qaralganda,

tijorat banklarini yevroobligatsiyalar orqali moliyalashtirish jarayoni ham o‘ziga xos afzalliklar, ham muayyan cheklov va qiyinchiliklarni o‘z ichiga oladi.

Yevroobligatsiya – bu chiqarilgan mamlakat yoki bozorning milliy valyutasidan boshqa valyutada denominatsiya qilingan qarz vositasi. Yevroobligatsiyalar ko‘pincha yevrodollar yoki yevro-iena obligatsiyalari kabi valyutaga ko‘ra birlashtiriladi. Yevroobligatsiyalar xorijiy valyutada chiqarilganligi sababli, ular ko‘pincha xorijiy obligatsiyalar deb ataladi.

Xalqaro obligatsiyalar - bu emitentlar (bu holda tijorat banklari) tomonidan xalqaro moliya bozorlariga chiqariladigan qarz hujjatlari. Ushbu obligatsiyalar turli xil valyutalarda nominal qiymatiga ega bo‘lishi va butun dunyo bo‘ylab investorlarga sotilishi mumkin.

Asosiy qism. Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, resurslar barqarorligini ta’minlash va aktivlar rentabelligini oshirish dolzarb masala hisobalanadi. Yevroobligatsiyalarni emissiya qilish jarayoni muayyan tayyorgarlik bosqichlarini hamda qo‘shimcha xarajatlarni talab etadi. Biroq, buning evaziga emitentlar uzoq muddatga mo‘ljallangan katta hajmdagi mablag‘larni nisbatan arzon foiz stavkalari orqali jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Odatda yevroobligatsiyalar kamida 3 yillik muddat bilan chiqariladi, eng ko‘p uchraydigan amal qilish muddati esa 5 yilni tashkil etadi. Yirik xalqaro korporatsiyalar emissiya qiladigan yevroobligatsiyalar esa odatda 15 yildan 30 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Yevrobondlar xalqaro moliya bozorida keng qo‘llaniladigan instrument bo‘lib, emitentlarga xorijdan investitsion mablag‘ jalb etish imkoniyatini yaratadi. Biroq, ushbu moliyaviy vositaning ham o‘ziga xos ustunliklari, ham ma’lum cheklovlari mavjud. 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, 2029, 2030 va 2031-yillarda so‘ndiriladigan suveren yevroobligatsiyalar daromadliligi 7 foiz atrofida bo‘lib, benchmark suveren yevroobligatsiyalariga nisbatan o‘rtacha 300 bazis banddan yuqori spred saqlanib qoldi.



1-rasm. Xorijiy valyutada joylashtirilgan O‘zbekiston suveren yevroobligatsiyalarning daromadliligi, % [3]



2-rasm. Xorijiy valyutada joylashtirilgan O‘zbekiston suveren yevroobligatsiyalar G-spredi*, bazis band [4]

G-spredi – obligatsiya va uning benchmark ya’ni AQSh g‘aznachiligi obligatsiyalari daromadliligi o‘rtasidagi farq. Ushbu farqning ortishi ushbu obligatsiyaning benchmark obligatsiyaga nisbatan xatarlilik darajasi oshganini ifodalaydi.

Xalqaro obligatsiyalar orqali moliyalashtirish bir nechta ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘lib, ularni amalga oshirishdan avval puxta tayyorgarlik talab etiladi. Tayyorlov jarayonida avvalo bank o‘z investitsion ehtiyojlarini tahlil qiladi, kerakli mablag‘ miqdorini aniqlaydi va emissiya bo‘yicha strategik reja ishlab chiqadi. Shuningdek, xalqaro moliya bozorlaridagi talab, foiz stavkalari va umumiy kon’yunktura baholanadi.

Obligatsiyalar emissiyasi jarayonida esa birinchi navbatda bankning faoliyati, loyihalari, risk omillari va obligatsiya shartlarini aks ettiruvchi prospekt tayyorlanadi. So‘ngra obligatsiyalarni bozorda muvaffaqiyatli joylashtirish maqsadida odatda investitsiya banklarining anderrayting xizmatlaridan foydalaniladi; ular investorlarni jalb qilish va emissiya jarayonini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Jalb qilingan kapitaldan foydalanish bosqichida esa bank auksiondan tushgan mablag‘larni oldindan belgilangan yo‘nalishlarga yo‘naltiradi - bu texnologik modernizatsiya, filiallar tarmog‘ini kengaytirish, yangi xizmatlarni joriy etish yoki bozor innovatsiyalariga investitsiya bo‘lishi mumkin.

Yevroobligatsiyalar yordamida moliyalashtirishning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:

– xalqaro kapitalga chiqish imkoniyati - xorijiy investorlar va yirik institutsional subyektlardan katta hajmdagi mablag‘ jalb etish imkonini yaratadi.

– uzoq muddatli moliyaviy resurslar - xalqaro obligatsiyalar odatda uzoq muddat bilan taqdim etilib, banklarga pul oqimlarini aniq rejalashtirish imkonini beradi.

– diversifikatsiya - xalqaro bozorlar orqali moliya jalb qilish mahalliy manbalarga qaramlikni kamaytirib, bozor tebranishlariga nisbatan barqarorlikni oshiradi.

– qulay shartlar - ayrim holatlarda xalqaro obligatsiyalar ichki bozorga nisbatan pastroq foiz stavkalari va yanada maqbul moliyalashtirish shartlarini taklif qilishi mumkin.

Xulosa, Xalqaro obligatsiyalar orqali tijorat banklari loyihalarini moliyalashtirish katta hajmdagi kapitalni jalb etish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Biroq bunday moliyalashtirish mexanizmidan foydalanish uchun banklar mavjud risk omillarini atroflicha baholab, pul oqimlarini boshqarishga doir aniq strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur. Xalqaro bozor kon’yunkturasini chuqur o‘rganish, xorijiy moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish va malakali anderrayterlar bilan ishlash esa emissiya jarayonining muvaffaqiyatli yakunlanishida muhim rol o‘ynaydi hamda jalb etilgan mablag‘larning samarali yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, yevroobligatsiyalar orqali moliyalashtirish banklarga uzoq muddatli resurslar bazasini shakllantirish, investitsion loyihalarni jadallashtirish va xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatini beradi. Bu esa moliyaviy institutlarning global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirib, milliy bank tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada, to‘g‘ri tanlangan emissiya strategiyasi, puxta risk-menejment yondashuvi va samarali kapital boshqaruvi tijorat banklariga xalqaro obligatsiyalar bozoridan maksimal darajada foydalanish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Euroclear: Understanding Eurobonds: A financial history journey (https://www.euroclear.com/).

2. S.Elmirzayev, F.Muxamedov, D.Abdikarimova, A.Karimov Moliya bozori va birja ishi: Darslik–T.: OOO«DIADEMA NUR SERVIS» 2023-yil, 520 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.

4. Karimov A. I. The experience of involving the population’s free money in the development of the securities market //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 6. – C. 18.

5. Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 20.

ZAMONAVIY VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI MHXSGA TRANSFORMATSIYA QILISH MASALLARI

Kurbonova Shaxrinoz Avazxonovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti, e-mail: kurbonovashaxrinoz84@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, ularni transformatsiya qilish zaruriyati va amaliy muammolar yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotida MHXS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari)ni joriy etishning afzalliklari hamda asosiy vositalar hisobi bo‘yicha milliy standartlardan farqlanuvchi jihatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: asosiy vositalar, MHXS, transformatsiya, mehnat bozori, amortizatsiya, aktiv, qimmatlash, hisob siyosati.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы необходимости адаптации учета основных средств к международным стандартам, их трансформации и практических проблем обеспечения современного и устойчивого экономического роста. Проанализированы преимущества внедрения МСФО (Международных стандартов финансовой отчетности) в экономике Узбекистана и отличия от национальных стандартов учета основных средств.

Ключевые слова: основные средства, МСФО, трансформация, рынок труда, амортизация, актив, оценка, учетная политика.

Abstract. The article discusses the need to adapt fixed assets accounting to international standards, their transformation, and practical problems in ensuring modern and sustainable economic growth. It also analyzes the advantages of introducing IFRS (International Financial Reporting Standards) in the Uzbek economy and the differences from national standards for fixed assets accounting.

Keywords. Fixed assets, IFRS, transformation, labor market, depreciation, asset, valuation, accounting policy.

Kirish. Bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi, korxona va tashkilotlarning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro talablarga moslashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligi, ularning moliyaviy shaffofligi va investitsion jozibadorligi ko‘p jihatdan asbob-uskunalar, bino-inshootlar, texnika vositalari kabi asosiy vositalar hisobining to‘g‘ri yuritilishiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-son qarorida 2021–2025-yillarda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o‘tkazish vazifasi belgilangan bo‘lib, bu jarayon korxonalarda

MHXS asosida transformatsiya qilish jarayonini jadallashtirmoqda. [1] Shu sababli hozirgi kunda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni MHXSlari asosida tashkil etuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalar hisobini yuritish “Asosiy vositalar” nomli 16-BHXS qoidalari asosida tashkil etiladi. Mazkur standartning maqsadi “moliyaviy hisobot foydalanuvchilari tashkilotning asosiy vositalarga qilgan kapital qo‘yilmalari va bunday kapital qo‘yilmalardagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishi uchun asosiy vositalarni hisobga olish tartibini belgilashdan iborat. Asosiy vositalar hisobining asosiy masalalari bo‘lib aktivlarni tan olish, ularning balans qiymatini hamda ular bilan bog‘liq holda tan olinadigan eskirish va qadrsizlanishdan zararlarni aniqlash hisoblanadi”. [1]

Asosiy qism. “Asosiy vositalar” nomli 16-BHXS asosiy vositalarni ta’riflari va ularni tan olishni, tan olish vaqtidagi baholash va keyingi sarflarni, kelgusidagi qayta baholash hamda hisobdan chiqarish tartiblarini belgilaydi.

Asosiy vositalar - bu ishlab chiqarish jarayonining moddiy asosi bo‘lib, u mehnat unumdorligini oshirish, bandlikni ta’minlash hamda yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynaydi.Mehnat bozorida zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar raqobat ustunligiga ega bo‘ladi. Shu sababli, bu aktivlarning haqiqiy qiymatini to‘g‘ri aks ettirish korxonaning iqtisodiy salohiyatini aniq ko‘rsatadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS 16 – “Asosiy vositalar”)ga binoan asosiy vositalar: [2]

dastlabki qiymat bo‘yicha tan olinadi (sotib olish narxi + o‘rnatish va yetkazish xarajatlari);

keyinchalik amortizatsiya va qayta baholash asosida qayd etiladi;

foydalanish muddati, qoldiq qiymati, va pasayish koeffitsienti aniq hisobga olinadi.

Zamonaviy mehnat bozori uchun MHXS asosidagi hisobning ahamiyati taraflari bor albatta. Binobarin MHXS asosida yuritilayotgan buxgalteriya hisobi quyidagi ustunliklarga ega.

- xalqaro investorlar uchun ishonchli axborot beradi;
- mehnat bozorida moliyaviy mutaxassislarning malakasini oshiradi;
- korxonalarda yangi ish o‘rinlari yaratish va texnologiyalarni joriy etish uchun sharoit yaratadi;
- shaffoflikni ta’minlaydi va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Asosiy vositalar hisobini MHXSlari asosida tashkil etish ularni tan olish mezonlarini qayta ko‘rib chiqishdan boshlanadi. Milliy standartda asosiy vosita sifatida tan olinmaydigan ba’zi aktivlar xalqaro standart talablariga ko‘ra, ya’ni foyda(iqtisodiy naf) keltirishi aniq bo‘lib, uning boshlang‘ich qiymatini ishonchli baholash imkoniyati bo‘lsa asosiy vosita sifatida tan olinishi mumkin. Lekin, shu bilan birga milliy standart (5-BHMS) bo‘yicha asosiy vosita bo‘lgan aktivlar xalqaro standartlar(16-BHXS, 40-BHXS, 41-BHXS) talablari bo‘yicha turli aktivlar sifatida tasniflanishi mumkin. [3]

Shuningdek, 16-BHXSga ko‘ra “Asosiy vositalar – bu quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlardir:

1. Mahsulotlarni ishlab chiqarish, yetkazib berish, xizmatlar ko‘rsatish, boshqa shaxslarga ijaraga berish va ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun saqlansa.

2. Bir davr (bir yil) dan ortiq muddat davomida foydalanilishi mumkin bo‘lsa.”

BHXSlarida asosiy vositalarga qiymat bo‘yicha mezon belgilanmagan. Chunki mazkur standart dunyoning turli mamlakatlarida qo‘llanilgani sababli asosiy vositalarni ma’lum bir qiymat doirasida tan olish mezonini qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

Asosiy vositalar 16-BHXS bo‘yicha quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- yer;
- yer va binolar;
- mashina va asbob-uskunalar;
- kemalar;
- samolyot;
- avtotransport vositalari;
- mebel va jihozlar;
- ofis jihozlari;
- hosildor o‘simliklar.

MHXSlari mezonlari bo‘yicha asosiy vosita kompaniyaning asosiy faoliyati, ya’ni ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish yoki ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita qatnashishi, savdo, boshqaruv jarayonlarida bilvosita qatnashishi, qiymati amortizatsiya ajratmasi sifatida mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga ma’lum bir davr (kamida1 yil) mobaynida kiritib borish orqali qoplanadigan aktivdir. [4]

Asosiy vositalarni hisobini MHXSlari asosida tashkil etishning keyingi bosqichi ularning dastlabki baholanishini MHXSlariga moslashtirishdir. Xalqaro standart talablariga ko‘ra asosiy vositaning dastlabki qiymatiga xarid qiymati, bevosita yetkazib berish, o‘rnatish va ishga tushirish hamda asosiy vositani ishlatishga tayyorlash xarajatlari kiradi. Asosiy vositalarni dastlabki tan olishda qo‘llaniladigan(hisobga olinadigan) qiymat mazkur asosiy vositaning ishga tushirilgunga qadar sarflangan haqiqiy xarajatlardan iborat bo‘ladi. Biz buni odatda boshlang‘ich qiymat deb ataymiz. Demak, boshlang‘ich (dastlabki) qiymat asosiy vositani ishchi holatga kelturigunga qadar sarflangan bevosita xarajatlardan iborat.

Asosiy vositalar dastlab qiymatini shakllantirish obyekt yetkazib keltirib o‘rnatilganda yoki ko‘zlangan maqsadga ko‘ra foydalanish mumkin bo‘lgan paytda to‘xtatiladi. Ya’ni asosiy vosita ishchi holatiga kelgan paytda xarajatlarni kapitalizatsiya qilish to‘xtatiladi. [5] Aktivlar asosiy vosita sifatida tan olingandan keyin ularga qilingan sarflarni tan olish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Asosiy vositalar qiymatini tan olish jarayonlarini ikki bosqichga bo‘lish mumkin:

1. Dastlabki sarflar, ya’ni dastlab ishga tushgunga qadar xarajatlar asosida;

2. Kelgusidagi xarajatlar, ya’ni asosiy vositani xususiyati va imkoniyatini kengaytirish qilingan sarflarni kapitallashtirish asosida.

Asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga quyidagi xarajatlarni kiritish mumkin:

1) Asosiy vositani sotib olish qiymati - yetkazib beruvchidan sotib olish narxi, import bo‘lsa, bojxona to‘lovlari va qoplanmaydigan soliqlar;

2) Transport xarajatlari - asosiy vositani ishlab chiqaruvchidan yoki sotuvchidan olib kelish, sug‘urta xizmatlar;

3) Montaj va o‘rnatish ishlari - maxsus fundamentlar tayyorlash, uskunani joylashtirish, o‘rnatish, elektr, suv, gaz va boshqa kommunikatsiya tizimlariga ulash;

4) Sinov va sozlash xarajatlari - texnik mutaxassislarni jalb qilish, uskunani ishga tushirish va tekshirish, laboratoriya, sinov va ishlab chiqarish testlari, sertifikatlash hamda litsenziyalash xarajatlari;

5) Kredit uchun foiz xarajatlari (faqat aktivni ishlab chiqarish, qurish yoki sotib olib ishga tushirish davrida mobaynida);

6) Agar aktivni foydalanish muddati oxirida uni chiqarib tashlash yoki atrof muhitni tiklash majburiyati bo‘lsa demontaj xarajatlari.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda asosiy vositalar hisobi bo‘yicha MHXS talablariga o‘tish bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida korxonalar faoliyatining barqarorligi, investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligini ta’minlash uchun ularning moliyaviy hisobotlari xalqaro mezonlarga mos bo‘lishi zarur. MHXS asosidagi hisob yuritish bu jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, korxonalar faoliyatida shaffoflik, aniqlik va ishonchlilikni ta’minlaydi. Transformatsiya jarayoni orqali korxonalar milliy hisob tizimida shakllangan ma’lumotlarni xalqaro talablarga moslashtiradi, bu esa xorijiy investorlar bilan o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Ayniqsa, asosiy vositalarni MHXS 16 talablariga muvofiq qayta baholash ularning haqiqiy bozor qiymatini aniqlash imkonini beradi, bu esa korxona aktivlarining moliyaviy holatini aniqroq ifodalaydi.Shu bilan birga, MHXS asosida hisob yuritish mehnat bozorida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunday tizimda ishlay oladigan yuqori malakali buxgalterlar, auditorlar va moliya mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa kasbiy raqobatni kuchaytiradi, mehnat bozorida yangi ish o‘rinlari yaratadi hamda buxgalteriya ta’lim tizimining modernizatsiyasini talab qiladi.

Bundan tashqari, MHXS talablari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar xalqaro moliya institutlari, investorlar va reyting agentliklari tomonidan ishonchli axborot manbai sifatida qabul qilinadi. Bu esa nafaqat alohida korxonalarning, balki butun mamlakat iqtisodiyotining investitsion jozibadorligini oshiradi.

O‘zbekiston sharoitida bu jarayon hali to‘liq yakunlanmagan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda muhim amaliy natijalarga erishilmoqda. MHXS

bo‘yicha milliy metodologiya, o‘quv dasturlari, hamda transformatsiya xaritalarining joriy etilishi bu jarayonni yanada tizimli qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4611-son qarori, 2020-yil 24-fevral, “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun, 2020-yil 13-aprel, O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.
3. Kurbonova Sh.A. (2024) “Iqtisodiy islohatlar davrida asosiy vositalarning roli va ularni hisobga olish masalalari” Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (7), 558-570.
4. MHXS 16 – “Asosiy vositalar”. IFRS Foundation, London, 2023.
5. MHXS 1 – “Moliyaviy hisobotni taqdim etish”, IFRS Foundation, 2023.

УДК 657

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФАЛЬСИФИКАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ

Курбанбаева Чолпонай - магистрант 2-курса по направлению «Экономика», Ошский технологический университет имени М.М.Адышева, Кыргызская Республика, г.Ош.

Аннотация. В условиях рыночной экономики экономические субъекты стараются составить свою финансовую отчетность таким образом, чтобы она полностью соответствовала определенным целям руководства. Для этого организации применяют различные методы фальсификации отчетности. Методы фальсификации бухгалтерской отчетности разнообразны и с каждым годом их становится все больше. В данной научной статье рассматриваются методы фальсификации бухгалтерской отчетности, которые распределены по нескольким критериям.

Ключевые слова: бухгалтерская финансовая отчетность, фальсификация, мошенничество, манипуляции, искажение, достоверность финансовой отчетности, методы фальсификации, классификация.

Abstract: In a market economy, economic entities strive to prepare their financial statements in a manner that fully meets management’s objectives. To achieve this, organizations employ various methods of falsifying financial statements. Methods of falsifying financial statements are varied and increasingly common each year. This research article examines methods of falsifying financial statements, categorizing them according to several criteria.

Key words: accounting financial statements, falsification, fraud, manipulation, distortion, reliability of financial statements, falsification methods, classification.

В настоящее время одним из распространенных видов мошенничества является фальсификация финансовой отчетности, то есть преднамеренное составление бухгалтерской финансовой отчетности, содержащей недостоверную информацию о состоянии активов, капитала и обязательств экономического субъекта. Фальсификация отчетности является серьезным нарушением законодательства и может привести к негативным последствиям для компании, ее руководства и инвесторов. Мошеннические действия с финансовой отчетностью приводят к крупным социальным потерям на микро- и макроуровнях: рост безработицы, рост цен продуктов организации, развитие нездоровой конкуренции среди субъектов рынка. Если говорить о фальсификации отчетности, то данная проблема влечет за собой риски для инвесторов, заемщиков и других пользователей отчетности.

Как нам известно, бухгалтерская финансовая отчетность имеет определяющее значение для деятельности организаций не только с точки зрения внутренних перспектив функционирования и построения стратегии дальнейшего развития, но и с позиций внешних пользователей, заинтересованных в получении той информации об организации, что позволит им сформировать свое отношение к ней как к бизнес-единице – аккумулятору финансово-производственного капитала и социально-трудового ресурса. Действительно, информация, необходимая для аналитики текущего и вероятного будущего – финансового состояния организации, является приоритетной для отражения в бухгалтерской финансовой отчетности.

Проблема достоверности бухгалтерской (финансовой) отчетности была актуальной во все времена. Оценка риска фальсификации данных финансовой отчетности является актуальной и сложной задачей. Несмотря на распространенную и понятную в повседневном употреблении сущность термина «фальсификация финансовой отчетности», научное понимание и нормативное определение данного понятия не столь однозначно.

Методами фальсификации финансовой отчетности выступают подходы, которые позволяют достичь цель проведения фальсификации. Среди них выделяют наиболее распространенные методы:

1. манипуляции, проводимые в отношении системы бухгалтерского учета;
2. фальсификация системы бухгалтерского учета;
3. действия за рамками системы бухгалтерского учета.

Манипуляции, осуществляемые в отношении системы бухгалтерского учета, основываются на:

манипулировании показателями отчетности;

умышленном создании временного разрыва между моментом поступления счетов на оплату от контрагентов и моментом фактического отражения указанного счета в системе бухгалтерского учета экономического субъекта.

Фальсификация системы бухгалтерского учета предполагает следующие умышленные действия – использование неверных и фиктивный сведений, которые искажают финансовую отчетность (фиктивные сделки, дебиторская задолженность, сформированная на основе поддельных документов).

Действия за рамками системы бухгалтерского учета предполагают:

непринятие во внимание принципов ведения бухгалтерского учета; финансовая отчетность не содержит в своих строках данных, реально возникших в деятельности экономического субъекта.

Манипулирование показателями отчетности может происходить, как в большую, так и в меньшую стороны для демонстрации финансового положения и результатов деятельности предприятия, в позиционировании которого заинтересованы лица, фальсифицирующие финансовую отчетность. Так, подобные действия часто осуществляются в отношении показателей:

- выручки;
- расходов;
- дебиторской задолженности;
- кредиторской задолженности;
- активов;
- нераспределенной прибыли;
- финансовых результатов;
- валюты бухгалтерского баланса.

В отношении выручки фальсификация происходит за счет увеличения в отчетности ее значения, об этом может сигнализировать повышение оборачиваемости присущей дебиторской задолженности или резкий рост без предпосылок для этого относительно сбытовой политики хозяйствующего субъекта.

Фальсификация показателя выручки в большую сторону может реализовываться, например, за счет:

досрочного признания в учете выручки;

увеличение уровня выручки без фактических оснований для этого (мнимость роста показателя).

В составе финансовой отчетности может фальсифицироваться показатель выручки и в направлении его занижения, в целях минимизации финансового результата для оптимизации уровня налоговых отчислений. Такое действие может осуществляться за счет применения ме- тода сокрытия реальных операций по реализации.

Для отражения выручки в том периоде, в котором это выгодно организации могут организовываться различные схемы. Например, предприятие может проводить операции по купле- продаже с контрагентами,

при этом товара может вообще не существовать либо товар не переместиться за пределы склада. Таким образом движение средств сопровождается фиктивными документам о перемещении товара [1].

Для досрочного признания выручки организации на границе отчетного периода могут признать выручку, например, в декабре, а расходы, связанные с ее получением в январе, данные действия позволяют завысить размер прибыли. Такими действиями нарушается принцип начисления выручки и расходов, связанных с ее получением. Выручка и расходы по ней должны отражаться в одном периоде [2].

В рамках фальсификации отчетности популярны действия по занижению уровня реальных расходов, в целях позиционирования высокого уровня финансовых результатов деятельности. Фальсификация отчетности за счет показателя расходов осуществляется за счет неполного отражения объема произведенных расходов за период или за счет их полного не отражения.

Занижение расходов, которые связанные с приобретением, производством или строительством актива, может достигаться за счет признания их в себестоимость актива, а расходы, не связанные с приобретением, производством или строительством увеличивают себестоимость актива только в той части, которая разрешена соответствующими нормативными документами [5].

Показатель расходов может фальсифицироваться в сторону увеличения за счет метода проведения расчетов через подставные фирмы. Такой метод фальсификации применяют для минимизации финансового результата деятельности экономического субъекта и как следствие для оптимизации уровня налоговых отчислений. Для того, чтобы осуществить такую схему, организации отражают доходы в собственном бухгалтерском учете, а некоторую часть расходов производит за счет других организаций, подконтрольных им [8].

Фальсификация показателя нераспределенной прибыли может осуществляться методом приписки данных, в целях повышения в итого объема совокупного капитала предприятия, в состоянии которого могут быть заинтересованы потенциальные инвесторы предприятия.

Показатели дебиторской и кредиторской задолженности накладывают отпечаток на финансовое состояние предприятия. Поэтому фальсификация в отношении данных показателей может быть реализована методом занижения данных за счет математического действия либо за счет не отражения в учетном процессе сумм приводящих к возникновению указанных видов задолженностей. Манипуляции с дебиторской и кредиторской задолженностью в основном проводят в целях наиболее выгодного позиционирования финансового состояния предприятия перед учреждениями банка, потенциальными инвесторами и контрагентами.

Самым распространенным методом фальсифицирования дебиторской задолженности является добавление в ее состав фиктивных задолженностей,

которые невозможно взыскать. Организации заключают фиктивные договора по продаже товаров или услуг, признают таким образом выручку, но не реального исполнения предмета договора не случается. Дебиторскую задолженность чаще могут признавать к концу отчетного года, так как отражение дебиторской задолженности и ее непогашение по истечении трехлетней давности приводит к списанию или к созданию резерва по сомнительным долгам [3].

Фальсификация финансовой отчетности за счет воздействия на финансовые результаты деятельности может носить двойственный характер. С одной стороны, фальсификация может быть направлена на увеличение итогового уровня прибыли, для демонстрации эффективного управленческого воздействия на бизнес-процессы предприятия. С другой стороны, возможно и занижение чистой прибыли, для введения в заблуждение собственников бизнеса и минимальной выплаты дохода в их пользу. Фальсификация указанных видов может быть реализована методом искажения реальных данных математическим путем.

Фальсификация в отношении валюты бухгалтерского баланса может быть реализована методом манипуляции показателей. Инициируется фальсификация такого вида желанием демонстрации успешности финансово-хозяйственной деятельности экономического субъекта.

Фальсификация в отношении активов может быть реализована методом изменения их характера, например, перевод текущих активов в долгосрочные и соответственно наоборот. Такой прием делается для фальсификации состояния платежеспособности предприятия, которая определяется по данным, зафиксированным в содержании бухгалтерского баланса.

Фальсификация финансовой отчетности за счет активов производится в рамках:

манипуляций с резервами;

процедурой оценки справедливой стоимости активов;

включением в состав активов, отражаемых в отчетности той их части, которая фактически была списана.

Зарубежный ученый И.Ф. Шер один из первых начал заниматься проблемой фальсификации отчетности еще в XX веке. Именно он проанализировал и классифицировал методы искажения бухгалтерского баланса [6].

И.Ф. Шер выделил следующие методы, которые применяются для фальсификации такой формы финансовой отчетности как баланс [9]:

1. соединение разнородных имущественных ценностей под одним названием;
2. неправильное начисление амортизационных сумм;
3. включение фиктивных дебиторов;
4. включение фиктивных кредиторов;
5. манипуляции в отношении переоценки средств;

6. формирование фиктивных фондов;
7. формирование фиктивных резервов.
8. Л.В. Сотникова в качестве методов осуществления фальсификации финансовой отчетности выделяет [9]:
9. внесение изменений в изначально верно сформированную финансовую отчетность;
10. неуказание показателей в составе финансовой отчетности;
11. проведение и отражение ничтожных и притворных сделок;
12. агрессивное применение бухгалтерских стандартов.

Можно проследить динамику по расширению методов фальсификации отчетности. Ученые XX века указывали на манипуляции с самими бухгалтерскими формами и их данными. Л.В. Сотникова внесла дополнение и выделят в качестве фальсификаций такой ряд мошенничества, как фиктивные сделки, фальшивые документы [9].

Методы фальсификации финансовой отчетности могут быть подразделены и по критерию субъекта, выступающего инициатором фальсификации финансовой отчетности. По указанному критерию методы фальсификации финансовой отчетности могут быть подразделены на следующие виды:

методы применяемые со стороны руководства экономического субъекта (например, генеральный директор, главный бухгалтер);

методы, применяемые со стороны работников (например, сотрудники, которые предоставляют или заносят данные в бухгалтерский учет).

Хочется отметить, что сотрудники могут не нанести существенного вреда на достоверность отчетности, поскольку неверные данные можно исправить на моменте проверки или со- ставления бухгалтерской (финансовой) отчетности со стороны руководства. Руководство несет высокую ответственность видя искажения и не исправляя их, руководствуясь определенной выгодой [4].

Методы фальсификации бухгалтерских записей, которые приводят к дальнейшей фальсификации финансовой отчетности представлены ниже:

- умышленное одновременное искажение сумм двух взаимосвязанных бухгалтерских записей;

- умышленное несоответствие суммы зафиксированной бухгалтерской проводки относительно операции, подтвержденной первичными документами.

В качестве примера к фальсификации бухгалтерский записей можно назвать умышленное искажение проводок бухгалтерского учета, например, операцию необходимо было провести, как по договору с поставщиком, а провели по договору с покупателем.

Исходя из цели проведения фальсификации финансовой отчетности, методы фальсификации могут быть подразделены на:

применяемые в отношении интересов предприятия;

применяемые против интересов предприятия.

Относительно объекта мошеннических действий, реализуемых за счет фальсификации финансовой отчетности, методы данной фальсификации могут быть подразделены на:

методы фальсификации в отношении содержания отчетности;

методы фальсификации со сделками и операциями на этапе первичного бухгалтерского учета.

Методы фальсификации финансовой отчетности могут порождаться за счет управленческих и неуправленческих действий. К числу методов фальсификации финансовой отчетности, которые вызываются управленческими действиями причисляют:

искажение содержания финансовой отчетности;

искажение данных относительно материальных ценностей экономического субъекта;

искажение данных относительно активов предприятия;

искажение данных относительно финансовых результатов;

сокрытие существенных фактов, возникших в деятельности предприятия;

умышленные неправомерные действия, идущие врозь положениям нормативно- правовых актов.

К числу методов фальсификации финансовой отчетности, которые вызываются неуправленческими действиями причисляют: умышленные неправомерные действия в ущерб предприятию и введение в заблуждение за счет искусственного создания обязательств предприятия.

Методы фальсификации финансовой отчетности могут быть ориентированы на:

показатели, отражаемые в составе финансовой отчетности;

систему формирования и последующей обработки бухгалтерской информации;

настройки системы автоматизированного ведения учета;

операционное окружение, которое образуется в рамках, реализуемых хозяйствующим субъектом бизнес-процессов;

аспекты системы внутреннего контроля, выстроенной в деятельности хозяйствующего субъекта.

В целом можно выделить, что, исходя из специфики того или иного метода фальсификации финансовой отчетности, возможны проявления следующих искажений [7]:

искажение активов, обязательств или капитала в бухгалтерском балансе;

искажение доходов и расходов в содержании отчета о финансовых результатах;

искажение величины налогооблагаемой прибыли (убытка);

ненадлежащие раскрытие данных в пояснениях к отчетности.

Можно выделить основные проблемы, которые вызывают возникновение методов фальсификации финансовой отчетности в деятельности экономического субъекта:

- фальсификация финансовой отчетности рассматривается как средство для решения масштабных проблем, возникших в деятельности экономического субъекта;

- фальсификация финансовой отчетности рассматривается как средство личной выгоды для лиц, инициирующих и реализующих методы фальсификации отчетности.

Методы фальсификации финансовой отчетности многочисленны и вариативны, они выступают инструментами, которые нарушают принцип достоверности и полноты в отношении содержания финансовой отчетности. На основе проведенного исследования методы фальсификации бухгалтерской (финансовой) отчетности были классифицированы по нескольким группам, определены показатели отчетности, которые наиболее часто фальсифицируются и определены цели для таких махинаций.

Подводя итоги, можно сделать вывод, что фальсификация финансовой отчетности – это серьезное нарушение интегритета финансового отчета и может иметь разрушительные последствия для компании и всех ее заинтересованных сторон, включая инвесторов, кредиторов и работников. Для предотвращения фальсификации финансовой отчетности необходимо соблюдать высокие стандарты честности и этики в рамках процесса подготовки финансовой отчетности, контролировать финансовые отчеты, четко определить правила и нормы поведения и наказывать за нарушение правил. Использование внешних аудиторов может помочь в оценке правильности финансовой отчетности и предоставлении объективной оценки компании. В целом, создание честной и прозрачной финансовой отчетности является фундаментом для успеха компании.

Список цитируемых источников:

1. Алексеева, Г. И. Бухгалтерский учет и отчетность (с практикумом): учебное пособие / Г. И. Алексеева. – Москва: КноРус, 2024. – 305 с.

2. Антипина, О. Н. Основные виды фальсификации финансовой отчетности / О. Н. Антипина // Актуальные вопросы публичного управления, экономики, права в условиях цифровизации: сборник научных статей Медународной научно-практической конференции, Курск, 11–12 мая 2023 года / Курская академия государственной и муниципальной службы. Том 1. – Курск: Б. и., 2023. – С. 83-86.

3. Богатырева, С. Н. Бухгалтерская (финансовая) отчетность: учебник / С. Н. Богатырева. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2023. – 515 с.

4. Бунь, А. В. Мошенничество в бухгалтерском учете и пути его предупреждения / А. В. Бунь // Бухгалтерский учет и анализ. – 2023. – № (316). – С. 32-37.

5. Гринавцева Е.В., Шарова Т.А. Ошибки и фальсификации в бухгалтерской (финансовой) отчет- ности: понятие и приемы их выявления // Е.В. Гринавцева, Т.А. Шарова // Социально-экономические явления и процессы. – №6. – 2017.

6. Ерофеева В.В. Фальсификация финансовой отчетности: понятие и классификация // Актуальные вопросы современной экономики. – №4. – 2020. – С. 374–381.

7. Кувалдина, А. А. Понятие и классификация фальсификации финансовой отчетности в период финансовой нестабильности / А. А. Кувалдина, Н. В. Москаленко, М. Н. Смагина // Ученые записки Тамбовского отделения РоСМУ. – 2023. – № 29. – С. 11-19.

8. Мельникова, А. А. Фальсификация финансовой отчетности: причины и пути повышения ее достоверности / А. А. Мельникова, Н. Э. Бурахович // Наукосфера. – 2023. – № 5-2. – С. 435-439.

9. Сотникова Л.В. Мошенничество в финансовой отчетности: обнаружение и предупреждение: учебник для подготовки студентов (магистров) по направлению 38.04.01 «Экономика». – Москва: Изд- во «Москва», 2019. – 395 с.

O‘ZBEKISTONDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Karabaev Muxtar Matmusayevich,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi. e-mail: muxtar.karabayev@ferpi.uz

Ro‘zimatov Xojimuhammad Adhamjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti, M22–24 BH magistranti
e-mail: xojimuhammadrozimatov7@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning hozirgi holati, uning rivojlanish tendensiyalari hamda bu jarayonda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimining o‘rni atroflicha tahlil qilingan. Tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv jarayonida hisob va hisobot tizimi ishonchli axborot manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois maqolada milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) bilan uyg‘unlashtirish yo‘lidagi islohotlarning mazmun-mohiyati, ularni amaliyotga tatbiq etishdagi mavjud muammolar hamda ularning yechimlari ilmiy asosda yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Valyuta xavfini boshqarish, QQS, IFRS (Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari), valyuta operatsiyalari, valyuta kursi xavfi, xalqaro standartlar, jahon xo‘jaligi, moliyaviy tahlil, eksport va import

– Kichik va o‘rta biznes (KO‘B) subyektlari uchun soddalashtirilgan IFRS standartiga o‘tishni rag‘batlantirish orqali 679 mingdan ortiq korxonalarning moliyaviy shaffofligini umumiy tarzda oshirish.

– Raqamli prognostik tizimlarni joriy etish orqali iqtisodiy tahlilni “Big Data” va sun’iy intellekt (AI) asosida ishlaydigan prognozlash tizimlari bilan birlashtirish. Bu, sektorlar-aro (ayniqsa, xizmatlar sohasidagi) investitsiyalarning optimal yo‘nalishini aniqlashda subyektivlikni kamaytiradi.

– Auditorlarning xalqaro sertifikatlashini rag‘batlantirish zarur chunki, Auditorlar sonining ortishiga qaramay, ularning malakasini xalqaro darajaga (masalan, ACCA, CPA) olib chiqish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-474-son, 2016 yil 13 aprel

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, PF-5870-son, 2019 yil 9 sentabr

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “O‘zbekiston Respublikasining 2024-2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”, PQ-284-son, 2023 yil 25 avgust.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Auditorlik tashkilotlari faoliyati ustidan tashqi sifat nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 538-son, 2022 yil 28 sentabr.

5. IFRS Foundation. A Conceptual Framework for Financial Reporting (Moliyaviy hisobotning kontseptual asosi). London, Buyuk Britaniya.

6. International Standards on Auditing (ISA) (Xalqaro audit standartlari).

7. www.stat.uz.

O‘ZBEKISTONDA BANK SEKTORINING KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHDAGI ROLI

Raxmanova Ilmira Rustamovna,
Urganch RANCH texnologiya universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda bank sektorining kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishdagi o‘rni chuqur tahlil qilingan. Moliyalashtirishning asosiy vositalari - kreditlash, mikromoliya, lizing va faktoring, kredit kafolatlari, raqamli bank xizmatlari hamda barqaror (“yashil”) moliyalashtirishning iqtisodiy ahamiyati ochib beriladi. Ushbu vositalarning kichik biznesning pul oqimi barqarorligi, investitsion faolligi, hisobot shaffofligi va moliyaviy intizomiga ta’siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Bank infratuzilmasi, axborot nosimmetriyasi, garov talablarining moslashuvi, kredit kafolatlari hamda hududiy tengsizlikning bartaraf etilishi bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bank sektori, kichik biznes, moliyalashtirish, kreditlash, lizing, faktoring, raqamli xizmatlar, kafolatlar.

Аннотация. В статье анализируется роль банковского сектора в финансировании малого и среднего бизнеса Узбекистана. Рассматриваются механизмы поддержки, такие как кредитование, микрофинансирование, лизинг, факторинг, кредитные гарантии, цифровые услуги и «зелёное» финансирование. Показано влияние этих инструментов на стабильность денежных потоков, инвестиционную активность, прозрачность отчётности и финансовую дисциплину малых предприятий. На основе анализа разработаны предложения по развитию инфраструктуры, снижению информационной асимметрии, расширению гарантийных инструментов и улучшению условий финансирования.

Ключевые слова: банковский сектор, малый бизнес, финансирование, кредитование, лизинг, факторинг, гарантии.

Abstract. The article examines the role of the banking sector in financing small and medium-sized enterprises (SMEs) in Uzbekistan. It analyzes key instruments of financial support, including lending, microfinance, leasing,

factoring, credit guarantees, digital banking services, and green financing. The impact of these instruments on cash-flow stability, investment activity, financial transparency, and business discipline is discussed. Based on the findings, practical recommendations are proposed to improve financial access, expand guarantee mechanisms, develop banking infrastructure, and reduce information asymmetry.

Keywords: banking sector, small business, finance, lending, leasing, factoring, guarantees.

Kirish. Kichik va o‘rta biznes mamlakat iqtisodiyotining tayanch bo‘g‘ini bo‘lib, iqtisodiy o‘sish, bandlik va mahalliy bozor faolligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ushbu sektor yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini shakllantirib, hududlarda tadbirkorlik muhitini rivojlantiradi. Biroq kichik biznesning kengayishi va modernizatsiyasi bevosita moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatiga bog‘liq. Moliyalashtirishdagi cheklovlar - garovning yetishmasligi, kredit tarixining bo‘shligi, axborot nosimmetriyasi, hisobot shakllarining murakkabligi - korxonalarning o‘sish sur’atlarini sekinlashtiradi [1].

Bank sektori iqtisodiyotning moliyaviy tayanchi sifatida ushbu muammolarni yumshatish, tadbirkorlik subyektlariga investitsion va aylanma mablag‘ krediti, raqamli xizmatlar, kafolatlar, lizing va faktoring kabi vositalar orqali ko‘mak ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bank tizimining modernizatsiyasi, raqamlashtirilgan xizmatlar ulushining oshishi, davlat kafolatlari kengayishi kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda [2; 3].

Asosiy qism.

Bank kreditlarining kichik biznes uchun ahamiyati

Kichik korxonalar faoliyatini rivojlantirishning asosiy vositasi bank kreditlaridir. Kreditlar yordamida ishlab chiqarish quvvatlari kengaytiriladi, uskunalar yangilanadi, xomashyo xarid qilinadi va aylanma mablag‘lar to‘ldiriladi. Kreditlar nafaqat ishlab chiqarish rollarini bajarsa, balki biznes-intizomni kuchaytiradi: kredit olgan korxona daromad va xarajatlarni aniq rejalashtirishga, hisobotni muntazam yuritishga, soliq intizomiga qat’iy rioya qilishga majbur bo‘ladi [2].

O‘zbekistonda kredit shartlarining yumshatilishi, foiz subsidiyalari, imtiyozli kreditlar dasturlarining kengayishi kichik biznesning kreditga bo‘lgan talabini sezilarli oshirdi. Biroq garov yetishmasligi eng katta to‘siq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun kredit kafolatlari tizimi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mikromoliya tashkilotlari va kreditlar. Mikromoliya sektori kichik biznesning birlamchi moliyaviy tayanchi bo‘lib, hujjatlashtirish jarayoni soddaligi, garov talabi pastligi va qaror qabul qilish jarayoni tezligi bilan ajralib turadi. Bu xizmatlar ayniqsa yangi tashkil qilingan korxonalarga foydali. Mikrokreditlar kichik korxonaga kredit tarixini shakllantirishga yordam beradi va kelgusida bank kreditidan foydalanish imkoniyatini oshiradi [4].

Kredit kafolatlari tizimi. Kredit kafolatlari garov yetishmasligi muammosini bartaraf etuvchi eng muhim mexanizmdir. Kafolatlar yordamida:

- bankning xatari kamayadi;
- korxonaning kreditga kirish ehtimoli oshadi;
- yangi subyektlar kreditlash doirasiga kiradi;
- kreditlar qaytarilish darajasi barqarorlashadi.

Xalqaro tajriba kredit kafolatlarining kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda eng samarali vositalardan biri ekanini tasdiqlaydi [5].

Lizing va faktoringning rolini kuchaytirish. Lizing kichik biznesga qimmat uskunalarni birdaniga xarid qilmasdan, bosqichma-bosqich to‘lov asosida ishlatish imkonini beradi. Bu texnologik yangilanishni tezlashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi [3].

Faktoring esa savdo va xizmat ko‘rsatish subyektlarining naqd pul oqimini tezlashtiradi. Debitor qarzlarining kechikishi kichik biznes uchun eng xavfli moliyaviy muammolardan biri bo‘lib, faktoring uni bartaraf etadi. Banklar tomonidan faktoring xizmatlarining kengaytirilishi kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshiradi [2].

Raqamli bank xizmatlari va moliyaviy intizom. Raqamli bank xizmatlari kichik biznes uchun eng qulay va samarali xizmatlardan sanaladi. Masofaviy to‘lovlar, elektron faktura, onlayn kreditlash platformalari, raqamli hisob-kitoblar bank va tadbirkor o‘rtasidagi axborot oqimini tezlashtiradi va soddalashtiradi. Bu:

- tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi;
- hujjatlashtirishni tartibga soladi;
- hisobotni avtomatlashtiradi;
- soliq intizomini mustahkamlaydi [6].

Raqamli izlar kuchaygani sari kredit baholash ham aniqroq bo‘ladi va axborot nosimmetriyasi kamayadi.

“Yashil” moliyalashtirish imkoniyatlari. Energiya tejamkor texnologiyalar, resurslarni tejovchi uskunalar, quyosh panellari kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ajratilgan kreditlar kichik biznesning xarajatlarini kamaytiradi, ekologik standartlarga moslashuvini kuchaytiradi va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi [8]. Bu davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida rag‘batlantirilmoqda.

Axborot nosimmetriyasi muammosi. Bank va tadbirkor o‘rtasidagi axborot nosimmetriyasi kredit baholash jarayonini murakkablashtiradi. Kichik korxonada hisobot yuritish darajasining pastligi bank uchun xatarni oshiradi va kredit narxini qimmatlashtiradi. Hisobot shaffofligi oshgani sayin kredit shartlari yaxshilanadi, garov talablari yumshaydi, foiz stavkalari pasayadi [1].

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston bank sektorining kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishdagi o‘rni strategik ahamiyatga ega. Kreditlash, mikromoliya, lizing, faktoring, raqamli xizmatlar va kredit kafolatlari kichik biznesning rivojlanishida hal qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bank infratuzilmasining hududlar bo‘yicha rivojlanishi, xizmatlar yakdilligi va kredit shartlarining shaffofligi tadbirkorlik muhitini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Tavsiya etiladi:

- kredit kafolatlari mexanizmini kengaytirish;
- mikromoliya sektorini qo‘llab-quvvatlash;
- raqamli bank xizmatlarini yagona platformaga integratsiya qilish;
- lizing va faktoringni soliqqa oid imtiyozlar orqali rag‘batlantirish;
- kichik biznes uchun soddalashtirilgan hisobot standartlarini joriy etish.

Bu chora-tadbirlar kichik biznesning kapitalga kirishini yaxshilaydi, moliyaviy intizomni kuchaytiradi va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. KOB ko‘rsatkichlari. https://stat.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank sektori sharhlari. https://cbu.uz
3. Osiyo Taraqqiyot banki (ADB). SME Monitor Uzbekistan. https://adb.org
4. Jahon banki. Moliya sektori tahlili - O‘zbekiston. https://worldbank.org
5. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki. Mintaqaviy moliyalashtirish hisobotlari. https://ebrd.com
6. OECD. Kichik biznes siyosati bo‘yicha hisobotlar. https://oecd.org
7. IFRS Foundation. Kichik biznes uchun buxgalteriya standartlari. https://ifrs.org
8. Lex.uz. KOBni qo‘llab-quvvatlashga oid qonun hujjatlari. https://lex.uz

O‘ZBEKISTONDA IFRS S1 VA S2 ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGI VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH YO‘NALISHLARI

Matkarimov Davronbek Matyakubovich,
Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqola O‘zbekistonda IFRS S1 va IFRS S2 standartlarini joriy etishning amaliy mexanizmlarini tahlil qiladi va “boshqaruv–strategiya–risk–ko‘rsatkichlar/maqsadlar” konseptual ramkasi orqali barqarorlik ma’lumotlarini pul oqimlari, kapitalning o‘rtacha tortilgan qiymati (WACC), rentabellik va aktiv sifati bilan bog‘lashni ko‘rsatadi. Uglerod va energiya intensivligi, yoqilg‘i tarkibi, suvdan foydalanish samaradorligi, “yashil” kapital qo‘qilmalar hamda xavfga mos investitsiya qilingan kapitaldan olinadigan rentabellik (ROIC) kabi ko‘rsatkichlarning moliyaviy ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar. IFRS S1; IFRS S2; barqarorlik ochiqlashlari; iqlim riski; resurs samaradorligi; WACC; ROIC; mustaqil ekspertiza; tasdiqlovchi tahlil.

Аннотация. В статье анализируются практические механизмы внедрения IFRS S1 и IFRS S2 в Узбекистане и показано, как концептуальная рамка «управление–стратегия–риски–показатели/цели» связывает данные

устойчивости с денежными потоками, средневзвешенная стоимость капитала (WACC), рентабельностью и качеством активов. Обосновывается финансовая значимость показателей, таких как углеродная и энергетическая интенсивность, топливная структура, эффективность использования воды, «зелёные» капитальные вложения и риск-скорректированный рентабельность инвестированного капитала (ROIC).

Ключевые слова. IFRS S1; IFRS S2; раскрытия устойчивости; климатические риски; эффективность ресурсов; WACC; ROIC; независимая экспертиза; подтверждающий анализ.

Abstract. The paper analyzes practical mechanisms for implementing IFRS S1 and IFRS S2 in Uzbekistan and demonstrates how the “governance–strategy–risk–metrics/targets” framework links sustainability information to cash flows, weighted average cost of capital (WACC), profitability, and asset quality. It substantiates the financial materiality of indicators such as carbon and energy intensity, fuel mix, water-use efficiency, green capital expenditures, and risk-adjusted return on invested capital (ROIC).

Keywords. IFRS S1; IFRS S2; sustainability disclosures; climate risk; resource efficiency; WACC; ROIC; independent expert review; confirmatory analysis.

Kirish. Barqarorlikka doir axborotni **yagona mezonlar** asosida taqdim etish investorlar uchun noaniqlikni kamaytiradi, axborot nosimmetriyasini qisqartiradi va resurslarning **samarali taqsimlanishiga** xizmat qiladi. 2023-yilda qabul qilinib, 2024-yildan kuchga kirgan **IFRS S1** va **IFRS S2** korxonalardan barqarorlik omillarini to‘rtta yo‘nalishda yoritishni talab qiladi: **boshqaruv**, **strategiya**, **risklarni boshqarish**, hamda **ko‘rsatkichlar va maqsadlar** [3;1;2]. Mazkur tuzilma hisobotlarni “hikoya”dan **o‘lchovli ko‘rsatkichlarga** bog‘laydi: masalan, uglerod va energiya intensivligi, suvdan foydalanish samaradorligi yoki “yashil” kapital qo‘qilmalar kabi ko‘rsatkichlar reja va maqsadlar bilan birga beriladi, bu esa natijalarni vaqt bo‘yicha solishtirishga va boshqaruv qarorlarini kuchliroq asoslashga imkon yaratadi [1; 2]. Shu tarzda barqarorlik ma’lumotlari **moliyaviy tahlil** bilan bevosita ulanadi: iqlim va resurslarga oid **xavf** (masalan, narx volatilligi, regulyativ cheklovlar) hamda **imkoniyatlar** (masalan, energiya tejamkor texnologiyalar, “yashil” bozor segmentlari) korxonaning **pul oqimlari**ga, **kapital qiymati**ga va **qiymat yaratilishiga** qanday ta’sir ko‘rsatayotgani aniq ko‘rinadi. Ko‘rsatkichlar pasayib borayotgan uglerod intensivligi yoki oshib borayotgan energiya samaradorligini ko‘rsatganida, bu odatda **joriy faoliyat xarajatlari kamayishi**, **marja yaxshilanishi** va natijada **investorlar uchun noaniqlikning pasayishi** bilan birga keladi; axborot sifati yaxshilangani sari korxona **barqarorroq baholanadi** [1; 2].

Natijada, S1/S2 doirasidagi ochiqlashlar **investorlar e’tiborini** faqat qisqa muddatli foydadan uzoqroq muddatli **barqaror rentabellik** va **risk profiliga** qarata oladi. Bu esa kapitalning **arzonroq** va **barqarorroq** jalb etilishiga xizmat

qiladi: hisobotlar aniq, taqqoslanadigan va **tasdiqdan o‘tkazilgan** bo‘lsa, moliya bozorida talab yuqoriroq, talab yuqori bo‘lganda esa kapital narxi pastroq bo‘ladi [1; 2].

Boshqaruv. Kuzatuv kengashi darajasida ESG mas’uliyati, siyosatlar, ichki nazoratlar va rag‘batlari aniqlanadi. Boshqaruvning barqarorlik bo‘yicha roli aniq belgilansa, ma’lumot zanjiri (data lineage) va javobgarlik aniq bo‘ladi; bu esa ko‘rsatkichlarning sifatini oshiradi va xolis tahlilga sharoit yaratadi [1].

Strategiya. Dekarbonizatsiya maqsadlari, texnologik yo‘l xaritasi (energiya tejamkor uskunalar, EV/NGV logistika, smart-grid), ta’minot zanjiridagi (Scope 3) talablar va kapital taqsimoti (“yashil” kapital qo‘qilmalar ulushi) belgilanadi. Strategiya bozordagi “yashil” premyumlarni, regulyativ xavflarni (mas., CBAM), hamda eksport raqobatbardoshligini hisobga oladi [2].

Risklarni boshqarish. Fizik risklar (issiqlik to‘lqinlari, suv tanqisligi, yomg‘ir rejimi), “transition” risklar (soliq, kvotalar, talabning o‘zgarishi), ob reputatsion va huquqiy risklar **ssenariy tahlili** orqali baholanadi. Risk reyestri limitlar, sug‘urta/xedjing va biznes uzluksizligi rejalari bilan birga olib boriladi [2].

Ko‘rsatkichlar va maqsadlar. CO_2/energiya/suv/chiqindi intensivligi, yoqilg‘i tarkibi, “yashil” kapital qo‘qilmalar, xavfga mos ROIC kabi ko‘rsatkichlar aniq vaqtli **maqsadlar** bilan e’lon qilinadi. Progress monitoring (yillik/choraklik), tarixiy dinamikani taqqoslash va chetga chiqish sabablarini tushuntirish S1/S2 talablari yig‘indisida muhimdir [1; 2].

Bu to‘rtta blok barqarorlik ma’lumotlarini **moliyaviy oqim**ga “o‘tkazadi”: CO_2 va energiya intensivligi pasayishi OPEXni kamaytiradi; resurs samaradorligi marjani oshiradi; shaffoflik va aniqlik WACCdagi risk priyasini tushiradi; modernizatsiya esa aktivlar sifati va uzoq muddatli rentabellikni mustahkamlaydi [1; 2; 3].

O‘zbekiston konteksti: siyosiy moslik, bozor signallari va institutsional bo‘shliqlar

PQ-4477 strategiyasi energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi va resurslardan oqilona foydalanishni maqsad qiladi; **PF-60** modernizatsiya, investitsiya muhiti va raqamli boshqaruvni kuchaytiradi [5]. S1/S2 bu ustuvor yo‘nalishlarni **hisobot va boshqaruv** darajasida yagona tizimga soladi: maqsad–ko‘rsatkich–monitoring uchligini standartlashtiradi, ssenariy tahlilini talab qiladi va investorlar uchun taqqoslanadigan ma’lumot yaratadi [1; 2; 3].

Amaliyotda uchta bo‘shliq ko‘proq uchraydi:

- **Data-infratuzilma**: yig‘ish, konsolidatsiya, metodika va saqlash siyosatlarining notekisligi;
- **Kadrlar salohiyati**: ko‘rsatkichlar metodologiyasi, GHG protokoli, ssenariy modelchalash;
- **Tashqi baholash amaliyoti**: mustaqil ekspertiza va tasdiqlovchi tahlil mexanizmlarining institutsionallaşuvi.

- Bularni hal etish uchun **milliy yo‘riqnomalar**, **yagona formatlar** (kelgusida XBRL-ga tayyorgarlik), **data-hub** va **tashqi ekspert xulosasi** jarayonlarini yo‘lga qo‘yish zarur [5; 6].

Baholash usullari: empirik va ssenariy yondashuv

Panel tahlil. Firma-yil panelida **ROIC**ni ochiqlash sifati (disclosure score), CO_2/energiya intensivligi va “yashil” kapital qo‘qilmalar bilan bog‘lash; sektor va vaqt fiks-effektlari bilan baholash. Kutilma: shaffoflik ↑ → noaniqlik ↓ → WACC ↓ → qiymat ↑ [1; 2; 3].

Ssenariy tahlili (S2). 2030/2035 uchun “Net-Zero” va “BAU” ssenariylarida kapital qo‘qilmalar/OPEX dinamikasi, CF, ΔWACC (iqlim priyasi) va NPV/IRR qayta hisoblanadi. Ko‘rsatkichlar trajektoriyasi (CO_2, energiya, suv) bilan moliyaviy natijalar bog‘lanadi [2].

Resurs samaradorligi indeksi. CO_2, energiya, suv, chiqindi bo‘yicha normalizatsiyalangan kompozit **indeks (0–100)** yuritiladi; uning marjinal foydalilik, aktiv aylanishi va ROIC bilan korrelyatsiyasi tahlil qilinadi. Natijalar bo‘yicha **tasdiqlovchi tahlil** protokoli va **tashqi ekspert xulosasi** tavsiya etiladi [1].

Korporativ joriy etish: amaliy yo‘l-xarita

Boshqaruv. ESG qo‘mitasi, ichki nazoratlar, siyosatlar va rag‘bat KPI’lari. Boshqaruv darajasida “maqsad-ko‘rsatkich-monitoring” sikli va javobgarlik aniq bo‘lishi kerak [1].

Strategiya. Sektor yo‘l-xaritalari bilan mos **dekarbonizatsiya maqsadlari**; ta’minot zanjiri (Scope 3) bilan integratsiya; PPA, energiya tejamkor texnologiyalar, EV/NGV logistika, issiqlik rekuperatsiyasi [2].

Risklar. Fizik/transition risk reyestri, sug‘urta/xedjing siyosatlari, biznes uzluksizligi rejalari; ssenariy tahlili orqali limiti va triggerlari belgilanadi [2].

Ko‘rsatkichlar va maqsadlar. Scope 1–3, CO_2/energiya/suv/chiqindi intensivligi, yoqilg‘i tarkibi, “yashil” kapital qo‘qilmalar, **xavfga mos ROIC**; choraklik/yillik monitoring, izohlar va rejalashtirilgan tuzatishlar [1; 2].

Ichki nazorat va tashqi baholash. Data-lineage, metodika, chegaralar (boundary) va qayta hisoblash protokollari hujjatlashtiriladi. Dastlab **cheklangan hajmdagi tasdiqdan o‘tkazish**, keyin **keng qamrovli tasdiqlovchi tahlil** va **tashqi ekspert xulosasi** amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Bu investorlar uchun ma’lumotlarning ishonchliligini va taqqoslanishini oshiradi [3].

Sektorlar kesimida ko‘rsatkichlar kartasi (namuna)

Energetika: CO_2e/kVt·soat; yoqilg‘i tarkibi; “yashil” kapital qo‘qilmalar ulushi; smart-grid, PPA, diversifikatsiya drayverlari [2].

Transport: CO_2e/t·km; yoqilg‘i sarfi; flotni yangilash; EV/NGV va marshrut optimallashtirish [2].

Sanoat (kimyo, metallurgiya): CO_2e/tonna; issiqlik samaradorligi; LCA va chiqindi aylanishi; rekuperatsiya, H_2 texnologiyalari [2].

Bank-moliya: ochiqlash sifati (disclosure score), ΔWACC, ESG-risk skoringi; yashil obligatsiyalar, loan-pricing mexanizmlari.

XULOSA. IFRS S1/S2 O‘zbekistonda shaffoflikni oshiradi, kapital qiymatini pasaytiradi va resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytiradi. Konseptual ramka (boshqaruv–strategiya–risk–ko‘rsatkichlar) ko‘rsatkichlarni moliyaviy natijalar bilan bog‘laydi; mustaqil ekspertiza, tasdiqdan o‘tkazish va tashqi ekspert xulosasi esa ma’lumotlarning ishonchliligi va taqqoslanishini ta’minlaydi. Sektorlar kesimida mos ko‘rsatkichlar kartasi va milliy yo‘riqnomalar bilan birga, bu yondashuv uzoq muddatli barqaror o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi [1; 2; 3; 4, 5; 6].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IFRS S1 - General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information. IFRS Foundation (ISSB), 26 June 2023. https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/publications/pdf-standards-issb/english/2023/issued/part-a/issb-2023-a-ifrs-s1-general-requirements-for-disclosure-of-sustainability-related-financial-information.pdf

2. IFRS S2 - Climate-related Disclosures. IFRS Foundation (ISSB), 26 June 2023. https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/publications/pdf-standards-issb/english/2023/issued/part-a/issb-2023-a-ifrs-s2-climate-related-disclosures.pdf

3. ISSB issues inaugural global sustainability disclosure standards - IFRS S1 and IFRS S2. IFRS.org, 26 June 2023. https://www.ifrs.org/news-and-events/news/2023/06/issb-issues-ifrs-s1-ifrs-s2/

4. Matkarimov, D. M. (2025). “Роль стандартов устойчивого развития МСФО в трансформации экономики тюркских стран.” *“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2025-yil avgust, № 8, 771–775.

5. PQ-4477 (04.10.2019). “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori https://lex.uz/uz/docs/-4539502

6. PF-60 (28.01.2022). “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni https://lex.uz/docs/5841063

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA SPORT INFRATUZILMASINING RIVOJLANTIRISHDA BYUDJET MABLAG‘LARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

M.N.Mamatov – TDIU mustaqili tadqiqotchisi, Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mamatovmirzied@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada respublikamizda sport infratuzilma ob’ektlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari, sport sohasini moliyalashtirish holati hududlar miqyosida tahliliy o‘rganilgan. Sport ob’ektlaridan foydalanish quvvatlari tahlil qilingan, moliyalashtirishdagi muammolar tadqiq qilingan holda sport sohasini

byudjet mablag‘lari asosida moliyalashtirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sport infratuzilmasi, sport ob’ektlaridan foydalanish quvvatlari, sportni moliyalashtirish mezonlari, hududiy moliyalashtirish talablari.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan sport sohasiga ixtisoslashgan ob’ektlar, xususan, sport muassassalari faoliyati va xizmat ko‘rsatish holati, sport inventarlari bilan ta’minlanish holati, aholining sport ob’ektlarida bandlik darajasi, sport sohasini moliyalashtirish va moliyaviy mablag‘lardan foydalanish holati hamda sport sohasida erishilgan natijalarni tadqiq qilish asosiy maqsad qilib belgilab olingan.

Mamlakatimiz hududlarida faoliyat yuritib kelayotgan sport ob’ektlari va ularni moliyalashtirish holatini tahlil qilish, sport inventarlari bilan ta’minlanish holati, sport ob’ektlarining moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va vaziyatni baholash, sport xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda sport sohasi rivoji bevosita yaratilgan sport infratuzilmasi va uning sport inventarlari bilan ta’minlanishiga bog‘liq. Shu jihatdan, respublika shahar va qishloq hududlarida barpo etilgan sport infratuzilmasi ob’ektlari hisoblangan sport inshootlari hajmiga tahliliy yondashadigan bo‘lsak, respublika hududlarida mavjud sport inshootlarining umumiy soni 2000-yilda 46487 tani tashkil qilgan holda 19,7 foizi yoki 9149 tasi shahar joylarida, 80,3 foizi yoki 37338 tasi qishloq joylarida faoliyat yuritgan.

Tahlillardan xulosa qilish mumkinki, sport inshootlarining qishloq joylarida kamayishi bu bevosita sport murabbiylarining shahar joylariga ko‘chib o‘tishi, qishloq hududlarida sport murabbiylari va sport kadrlarining qo‘nimsizligi hamda hududiy moliyalashtirish va moliyaviy rag‘batlantirish bilan bog‘liq muammolarning mavjudligidan dalolat beradi.

Davlat byudjeti mablag‘lari asosida moliyalashtirilgan va respublikamiz hududlarida barpo etilgan sport inshootlari va ulardan foydalanish ko‘rsatkichlarini hududiy nuqtai-nazardan tahliliy o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Mavjud sport inshootlarining 2016-2024 yillar bo‘yicha viloyatlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, 2016-yilda respublika 50853 tani tashkil etgan bo‘lsa, shundan Farg‘ona va Samarqand viloyatidagi sport inshootlari soni boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Biroq, respublika miqyosida yillar davomida o‘sish tendensiyasi kuzatilsada, viloyatlar kesimida pasayish holati yuzaga kelgan. 2024-yil holatiga ko‘ra, sport inshootlari soni 2022-yilga nisbatan 875 taga kamaygan. 2024-yilni 2016-yilga nisbatan taqqoslaydigan bo‘lsak, 2461 taga yoki 104,8 foizga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

Jami sport inshootlarining bir kunlik quvvati 2016-yilda 1999846 kishini tashkil etgan bo‘lsa, shundan qishloq joylarida 934065 kishini tashkil qilgan. Sport inshootlaridan foydalanish imkoniyatlari yillar davomida o‘sish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lib, xususan 2024-yilda jami sport inshootlarining bir kunlik quvvati

2200845 kishini tashkil qilgan bo‘lsa, shundan qishloq joylarida 1086627 kishini tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2018-2024 yillar kesimida mavjud sport inshootlari soni va ulardan foydalanishning bir kunlik quvvati (o‘tkazish imkoniyati) holatini tahliliy ko‘radigan bo‘lsak, 2018-yilda respublikada jami inshootlar soni 51583 tani tashkil qilgan holda bir kunli quvvati asosan 5 turdagi sport inshooti bo‘yicha 2076269 kishini tashkil etgan. Bu asosan stadionlar, sport zallari, suzish basseynlari, otish tirlari, sport maydoncha va maydonlaridan foydalanish hisobiga foydalanish holati yuzaga kelgan.

Sport inshootlari 2024-yilga kelib ularning soni 53314 taga yetgan holda 6 yil ichida o‘sish ko‘rsatkichi 3,35 foizni tashkil etgan. Sport inshootlaridan foydalanishning bir kunlik quvvati 2024-yilga kelib, 2018-yilga nisbatan 6 foizgacha o‘sishga erishilgan. Biroq, ta’kidlash joizki keltirib o‘tilgan statistik ma’lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, otchoparlar, manejlar, o‘q otish va stendga otish joylarining kunlik foydalanish quvvati deyarli yillar davomida hududiy sport boshqarmalari tomonidan bu jarayon tahliliy-tanqidiy o‘rganilmagan. Bu holat esa aynan shu turdagi ob’ektlarni moliyalashtirish holatiga ta’sir qiladi.

Respublikada 2016-2024 yillar davomida faoliyat yuritgan jami sport-ta’lim muassasalari jami 347 tani tashkil etgan holda shahar joylarida 2016-yilda 314 ta, qishloq joylarida esa 33 ta sport-ta’lim muassasalari faoliyat yuritgan. Shahar joylarida faoliyat yuritgan sport-ta’lim muassasalari soni qishloq joylaridagi sport-ta’lim muassasalari sonidan 9,5 marta ko‘p. 2016-2020 yillarda sport-ta’limi muassasalari sonida deyarli o‘sish kuzatilmagan. 2022-2024 yillarda shahar va qishloq joylarida sport-ta’lim muassasalari sonida 116 foizga o‘sish kuzatilgan. Qishloq joylarida ham sport-ta’lim infratuzilmasini rivojlantirishda sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishilgan.

O‘zbekiston Respublikasi davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar talablaridan kelib chiqqan holda davlat va mahalliy byudjet hisobidan mamlakatimiz hududlarida qurilayotgan sport infratuzilmasi ob’ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini moliyalashtirish borasida ham izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 2022-2024 yillarda respublika byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan sport infratuzilmasi ob’ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish maqsadida moliyalashtirish ishlari amalga oshirilgan. 2021-2024 yillarda byudjetdan moliyalashtirishga tushgan ob’ektlar soni jami 169 tani tashkil qilgan bo‘lsa, shundan, yuqori ko‘rsatkichlar asosan Toshkent viloyati bo‘yicha 24 ta, Toshkent shahri bo‘yicha 27 tani tashkil qilgan.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, respublikada sport sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z samarasini bermoqda, biroq, sport ob’ektlarini qurish, ta’mirlash, sportchilar va ularning murabbiylarini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega hamda bu boradagi yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va unga yechim topish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-iyundagi “Sport terma jamoalari to‘g‘risidagi Nizomni hamda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar ish rejasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 173-sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-2020339
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 03.09.1999-yildagi 414-sonli qarori. https://lex.uz/docs/319286
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi” gi farmoni. https://lex.uz/docs/5841063
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

MOLIYAVIY BOSHQARUV, BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Uktamjonova Zulayxo Anvarjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti, Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti,
Menejment va marketing kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy raqamli texnologiyalarning moliyaviy boshqaruv, buxgalteriya hisobi va audit sohalarida tutgan o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt, blokcheyn, katta hajmdagi ma’lumotlar (big data), bulutli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar ushbu sohalarni samarali boshqarish, shaffoflikni ta’minlash va xatoliklarni kamaytirishda qanday rol o‘ynayotgani ochib berilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar, imkoniyatlar, xavfsizlik masalalari va istiqbolli texnologik yechimlar ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari amaliyotda ushbu sohalarni raqamlashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, moliyaviy boshqaruv, buxgalteriya hisobi, audit, sun’iy intellekt, blokcheyn, RPA, Big Data, kiberxavfsizlik, bulutli texnologiyalar.

Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy boshqaruv, buxgalteriya hisobi hamda audit sohalarida ilg‘or texnologiyalarni joriy etish har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu yo‘nalishlarda raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi. Ushbu tezisda aynan shu masalalar atroflicha yoritiladi.

1. Moliyaviy boshqaruvda raqamli texnologiyalarning o‘rni

Moliyaviy boshqaruv tashkilotning asosiy resurslarini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashga qaratilgan tizimli faoliyatdir. So‘nggi yillarda bu sohada

quyidagi texnologiyalar asosiy o‘rin tutmoqda:

- Business Intelligence (BI): Bu texnologiya orqali tashkilotlar o‘z moliyaviy ko‘rsatkichlarini grafik va analitik ko‘rinishda kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- AI (sun’iy intellekt): Moliyaviy prognozlash, tavakkalchilikni baholash va qarorlar qabul qilishda qo‘llaniladi. Misol: AI algoritmlari kredit reytinglarini avtomatik aniqlab, xavfli qarz oluvchilarni filtrlaydi.
- Big Data: Katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlar bazasi tahlil qilinib, samarali strategiyalar ishlab chiqiladi.

Misol: Yirik kompaniyalar – Microsoft, Tesla, Amazon o‘z moliyaviy qarorlarini data-driven (ma’lumotlarga asoslangan) tahlil orqali shakllantiradi.

2. Buxgalteriya hisobi jarayonlarida raqamli texnologiyalarning tatbiqi

Buxgalteriya hisobi — bu tashkilotning moliyaviy faoliyatini aniq, to‘liq va o‘z vaqtida aks ettirishga qaratilgan tizimdir. Raqamli texnologiyalar ushbu tizimni quyidagi jihatlarda takomillashtirmoqda:

- RPA (Robotic Process Automation): Oddiy va takroriy buxgalteriya operatsiyalari, masalan, faktura to‘ldirish, bank operatsiyalarini kiritish, avtomatik bajartiriladi.
- Bulutli xizmatlar: “Xero”, “Zoho Books”, “FreshBooks” kabi platformalar orqali foydalanuvchilar istalgan joyda buxgalteriya ma’lumotlariga kirishlari mumkin.
- Realtime reporting (real vaqtli hisobotlar): Har qanday moliyaviy operatsiya darhol tizimga kiritiladi va tahlil qilinadi.

Bu bilan nafaqat vaqt tejaladi, balki inson omiliga bog‘liq xatolar kamayadi, shaffoflik ortadi, va nazorat kuchayadi.

3. Audit tizimida raqamli texnologiyalarning transformatsion ta’siri

Audit - buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini aniqlash jarayonidir. Ilgari audit ko‘proq hujjat ko‘rish, qo‘lda tekshirish asosida bajarilgan bo‘lsa, bugungi kunda quyidagi texnologiyalar orqali sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda:

- AI asosida ishlovchi audit tizimlari: “CaseWare IDEA”, “MindBridge AI” kabi vositalar avtomatik audit, tranzaksiya tahlili, firibgarlikni aniqlashda qo‘llaniladi.
- Blokcheyn texnologiyasi: Har bir moliyaviy operatsiyani o‘zgarmas holatda saqlab, uni nazorat qilish imkonini beradi. Bu ma’lumotlar ishonchliligi va audit jarayonining shaffofligini oshiradi.
- Continuous auditing: Uzluksiz audit jarayoni tashkil etilib, har bir operatsiya onlayn ravishda nazorat qilinadi.

Natijada, auditorlar vaqtni tejaydi, chuqurroq va aniqlik yuqori bo‘lgan tahlilga erishadilar.

4. Raqamli transformatsiyada muammolar va istiqbollar

Muammolar:

- Kiberxavfsizlik: Moliyaviy ma’lumotlar xakerlar hujumiga uchrashi mumkin.

- Kadrlar savodxonligi: Ko‘pgina tashkilotlarda raqamli tizimlar bilan ishlay oladigan xodimlar yetarli emas.
- Texnologik xarajatlar: Yuqori darajadagi texnologiyalarni sotib olish va joriy etish har doim ham arzon emas.
- ***Istiqbollar:***
- Adaptive systems (moslashuvchan tizimlar): Tashkilot ehtiyojiga qarab avtomatik moslasha oladigan dasturlar.
- Avtomatik prognozlash: Moliyaviy oqimlar va foyda zararlar avtomatik aniqlanadi.
- Real vaqtli audit va xavf nazorati: Jarayonlarning kechikmasdan, bir zumda kuzatib borilishi.

Bularning barchasi moliyaviy boshqaruv va nazoratning kelajakdagi poydevoridir.

Moliyaviy boshqaruv, buxgalteriya hisobi va audit tizimlarini zamonaviylashtirishda raqamli texnologiyalar hal qiluvchi o‘rin tutmoqda. Raqamli transformatsiya nafaqat jarayonlarni soddalashtiradi, balki ularni aniq, ishonchli va tezkor qiladi. Texnologiyalarni to‘g‘ri joriy etish orqali tashkilotlar raqobatbardoshlikka erishishi, moliyaviy barqarorlikni ta’minlashi va xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritishi mumkin. Shu sababli, bu sohalarda raqamli texnologiyalarni chuqur o‘rganish va ularni amaliyotga to‘liq joriy etish - zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A., “Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy boshqaruv”, Toshkent, 2022.
2. Xolmurodov B., “Audit nazariyasi va amaliyoti”, Toshkent moliya institi-tuti, 2021.
3. Deloitte Insights, “The Future of Finance: AI and Automation”, 2023.
4. PwC Global, “Audit and Digital Transformation Report”, 2022.
5. ISO/IEC 27001:2022 – Information Security Management Systems.
6. EY Report, “Digital Transformation in Accounting and Finance”, 2023.
7. KPMG, “Blockchain and the Future of Audit”, 2022.
8. ACCA Global, “AI’s Role in the Future of Accountancy”, 2021.
9. OECD Report, “Digitalisation and Finance: Opportunities and Risks”, 2020.
10. Harvard Business Review, “The Digital CFO”, 2022.

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining boshqaruv samaradorligini

oshirishda moliyaviy risklarni kamaytirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida kredit, likvidlik va bozor risklarining nazariy asoslari, ularni baholash usullari hamda xalqaro tajribalar o‘rganilgan. Maqolada Basel III standartlari, VaR modeli va stress-testlar kabi zamonaviy risk boshqaruv vositalari batafsil yoritilgan. O‘zbekiston bank tizimi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy risklar, tijorat banklari, risk boshqaruvi, Basel III, kredit riski, likvidlik riski, boshqaruv samaradorligi.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda tijorat banklarining barqaror faoliyati moliyaviy risklarni samarali boshqarish bilan bevosita bog‘liq. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz va 2020-yildagi pandemiya ta'siri ko‘rsatdiki, risklarni noto‘g‘ri baholash va ularni boshqarishda kamchiliklar butun moliyaviy tizimga zarar yetkazishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda, moliyaviy risklarni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Tijorat banklarining boshqaruv samaradorligini oshirish uchun moliyaviy risklarni identifikatsiya qilish, baholash va ularni nazorat qilishning zamonaviy usullarini joriy etish zarur. Xalqaro amaliyotda Basel qo‘mitasining standartlari, VaR (Value at Risk) modeli va stress-testlar kabi vositalar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda O‘zbekiston sharoitida ularni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Asosiy qism. Moliyaviy risklar bankning moliyaviy yo‘qotishlarga duchor bo‘lish ehtimoli sifatida ta'riflanadi. Nazariy jihatdan, moliyaviy risklarning asoslari Markowitzning portfel nazariyasiga (1952) va Sharpe'ning kapital aktivlar narxini belgilash modeliga (CAPM, 1964) borib taqaladi [1]. Zamonaviy bank nazariyasida moliyaviy risklar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

Kredit riski- qarz oluvchilarning o‘z majburiyatlarini bajarolmasligi natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlar riski. Bu tijorat banklarining eng asosiy risk turi hisoblanadi. Kredit riskini baholashda Value at Risk (VaR) modeli qo‘llaniladi. VaR formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathbf{VaR = Z \times \sigma \times \sqrt{t}}$$

bu yerda: Z - ishonch darajasi koeffitsienti, σ - standart og‘ish, t - vaqt muddati.

Likvidlik riski- bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish uchun yetarli likvid aktivlarga ega bo‘lmaslik riski. Basel III standartlariga ko‘ra, likvidlik riskini baholashda Liquidity Coverage Ratio (LCR) ko‘rsatkichi qo‘llaniladi:

LCR = (Yuqori sifatli likvid aktivlar) / (30 kunlik stressli chiqimlar) ≥ 100%

Bozor riski- aktivlar narxi, foiz stavkalari va valyuta kurslarining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlar riski. Bu risk, ayniqsa, bankning savdo

portfelida dominant hisoblanadi [2].

Operatsion risk- ichki jarayonlar, tizimlar yoki inson omillaridagi kamchiliklar tufayli yuzaga keladigan yo‘qotishlar riski. Basel II standartlari bo‘yicha operatsion risk uchun ajratilgan kapital bankning umumiy daromadining 15% ini tashkil qilishi kerak.

Moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy usullari

Xalqaro amaliyotda moliyaviy risklarni boshqarishning quyidagi asosiy usullari qo‘llaniladi:

Basel III standartlari - 2010-yildan boshlab joriy etilgan va banklarning kapital yetarliligini oshirishga qaratilgan. Basel III asosiy talablari:

- Minimal kapital koeffitsienti - 8%
- Tier 1 kapitali - 6%
- Kapital konservatsiya buferi - 2.5%
- Likvidlik qoplash koeffitsienti (LCR) - minimal 100%

Stress-testlar- ekstremal iqtisodiy sharoitlarda bankning barqarorligini baholash usuli. Masalan, AQSh Federal Reserve tizimi yillik stress-testlar o‘tkazib, banklarning resessiyadagi chidamliligini tekshiradi [3].

Hedging strategiyalari- forvard shartnomalar, futures va opsionlar orqali risklarni kamaytirish. Valyuta riski uchun hedging formulasi:

Hedging nisbati = (Himoyalangan pozitsiya) / (Umumiy risk pozitsiyasi) × 100%

Sun'iy intellekt va Big Data - zamonaviy texnologiyalar kredit riskini baholashda 30-40% aniqlikni oshiradi. Machine learning algoritmlari mijozlarning kredit qobiliyatini real vaqt rejimida baholashga imkon beradi.

O‘zbekiston bank tizimida moliyaviy risklarni boshqarish holati

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Basel II va III standartlarini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. 2023-yil holatiga ko‘ra:

- Tijorat banklarining o‘rtacha kapital yetarliligi koeffitsienti - 14.2%
- Likvidlik koeffitsienti - 58.6%
- Noto‘g‘ri kreditlar (NPL) ulushi - 2.3%

Biroq, mahalliy banklarda risklarni boshqarishda ba'zi muammolar mavjud:

- Stress-testlarning cheklangan qo‘llanilishi
- Kredit riskini baholashda zamonaviy modellardan kam foydalanish
- Operatsion risklarni monitoring qilishning yetarli emasligi

AQSh va Yevropa tajribasi shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy risklarni samarali boshqarish uchun quyidagilar zarur:

- Avtomatlashtirilgan risk monitoring tizimlari joriy etish
- Xodimlarni xalqaro standartlar bo‘yicha muntazam o‘qitish
- Tashqi auditorlar va konsultantlar bilan hamkorlik qilish
- Regulyator nazoratini kuchaytirish

Deutsche Bank va JPMorgan Chase kabi yirik banklarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, risklarni boshqarishga ajratilgan investitsiyalar uzoq muddatda bank

samaradorligini 25-30% ga oshiradi [4].

Tahlil va muhokama

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarining boshqaruv samaradorligini oshirishda moliyaviy risklarni kamaytirish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Basel III standartlarini to‘liq joriy etish banklarning kapital bazasini mustahkamlaydi va krizis sharoitlariga chidamlilikni oshiradi.

O‘zbekiston bank tizimi uchun quyidagi tavsiyalar amaliy ahamiyatga ega:

Qisqa muddatli chorar (1-2 yil):

- VaR modelini kredit portfelini baholashda joriy etish
- Likvidlik buferlarini Basel III talablariga muvofiq oshirish
- Operatsion risklarni monitoring qilish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar o‘rnatish

O‘rta muddatli choralar (3-5 yil):

- Stress-testlar tizimini ishlab chiqish va muntazam o‘tkazish
- Machine learning texnologiyalarini kredit riskini baholashda qo‘llash
- Xodimlarning malakasini xalqaro sertifikatlash dasturlari orqali oshirish

Uzoq muddatli choralar (5+ yil):

- To‘liq integratsiyalangan risk boshqaruv tizimini yaratish
- ESG risklarini bankning umumiy risk strategiyasiga qo‘shish
- Xalqaro savdo operatsiyalari uchun kompleks hedging strategiyalarini ishlab chiqish

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu choralarni amalga oshirish tijorat banklarining ROE (Return on Equity) ko‘rsatkichini 3-5 foiz punktga oshirishi mumkin.

Xulosa. Tijorat banklarida moliyaviy risklarni samarali boshqarish zamonaviy bank faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, bu masala bank tizimining barqarorligi va iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Olib borilgan tadqiqot moliyaviy risklarni kamaytirish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tahlil qilish asosida bir qator muhim xulosalarga kelishga imkon berdi.

Birinchidan, moliyaviy risklarning turlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida chuqur tushunchaga ega bo‘lish bank boshqaruvining samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kredit riski, likvidlik riski, bozor riski va operatsion risk bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni alohida emas, balki integratsiyalashgan tarzda boshqarish zarur. Masalan, kredit riskining ortishi bevosita likvidlik riskiga ta'sir etishi mumkin, bu esa bankning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyatini pasaytiradi.

Ikkinchidan, Basel III standartlarini joriy etish tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlaydi va krizis sharoitlariga chidamlilikni sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, kapital yetarliligi koeffitsientini 8% dan yuqori darajada saqlash va likvidlik buferlarini ta'minlash banklarning yo‘qotishlarga bardoshliligini 25-30% ga oshiradi. O‘zbekiston bank tizimida kapital yetarliligi 14.2% ni tashkil etayotgani ijobiy tendentsiya bo‘lsa-da, likvidlik koeffitsientini Basel III talablariga (100%) yetkazish uchun qo‘shimcha choralar

zarur.

Uchinchidan, zamonaviy texnologiyalarning - sun'iy intellekt, machine learning va Big Data tahlilining - risk boshqaruviga integratsiyasi yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu texnologiyalar kredit riskini baholash aniqligini 30-40% ga oshirishi, operatsion risklarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini berishi mumkin. O‘zbekiston banklari uchun raqamli transformatsiya va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish strategik ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, xalqaro tajribadan kelib chiqadiki, stress-testlar tizimini muntazam o‘tkazish banklarning kutilmagan iqtisodiy shokklarga tayyorligini ta'minlaydi. AQSh Federal Reserve va Evropa Markaziy bankining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yillik stress-testlar orqali banklarning zaif tomonlarini aniqlash va oldini olish choralari ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan stress-testlar tizimini joriy etish va tijorat banklarini majburiy tarzda ularda ishtirok etishga majbur qilish zarur.

Moliyaviy risklarni boshqarishga ajratilgan investitsiyalar uzoq muddatda o‘zini oqlaydi. Xalqaro amaliyot shuni tasdiqlaydi ki, risk boshqaruviga yillik daromadning 2-3% ini sarflash banklarning ROE ko‘rsatkichini 3-5 foiz punktga oshiradi va bankrotlik ehtimolini 40-50% ga kamaytiradi. Tadqiqot asosida O‘zbekiston bank tizimi uchun quyidagi strategik tavsiyalar ishlab chiqildi:

Institutsional darajada:

- Markaziy bank tomonidan stress-testlar metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish
- Tijorat banklarida mustaqil risk boshqaruv bo‘limlarini tashkil etish va ularning vakolatlarini kengaytirish
- Basel III standartlarini bosqichma-bosqich to‘liq joriy etish bo‘yicha aniq yo‘l xaritasini tasdiqelash

Texnologik darajada:

- Avtomatlashtirilgan risk monitoring tizimlarini joriy etish
- Machine learning algoritmlarini kredit skoringda qo‘llash
- Kiberxavfsizlik tizimlarini mustahkamlash va kiber-risklarni boshqarish protokollarini ishlab chiqish.

Kadrlar tayyorlash darajasida:

- Bank xodimlarini xalqaro risk boshqaruv standartlari (CFA, FRM) bo‘yicha sertifikatlashtirish
- Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy risk boshqaruvi bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish
- Xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikni kengaytirish

Natijada ta'kidlash kerakki, moliyaviy risklarni samarali boshqarish - bu bir martalik tadbirlar emas, balki doimiy jarayon bo‘lib, u bank boshqaruvining barcha darajalarida amalga oshirilishi kerak. Raqamlashtirish davri sharoitida an'anaviy risklarga qo‘shimcha ravishda kiber-risklar, texnologik risklar va ESG risklari ham ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, kelajakda tadqiqotlarni ushbu yangi risk turlarini o‘rganish, ularni baholash metodologiyasini ishlab chiqish va O‘zbekiston

bank tizimi sharoitida qo‘llash bo‘yicha davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston bank tizimi hozirda ijobiy o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘lib, moliyaviy risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali xalqaro standartlar darajasiga erishish va mintaqaviy lider sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hull J.C. Risk Management and Financial Institutions. – 5th ed. – New Jersey: Wiley Finance, 2018. – 742 p.

2. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: International Regulatory Framework for Banks. – Bank for International Settlements, 2023. – 189 p.

3. PwC. Global Banking Risk Review 2025: Navigating Uncertainty. – PricewaterhouseCoopers, 2025. – 156 p.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank sektori statistikasi: 2023-yil yakunlari. – Toshkent, 2024. – 98 b.

5. Jorion P. Value at Risk: The New Benchmark for Managing Financial Risk. – 3rd.

3-SHO‘BA
MAMLAKAT IQTISODIYOTINI INNOVATSIYALAR VA YASHIL ENERGIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА ТРЕНД НОВОГО ДЕСЯТИЛЕТИЯ

Шермухамедов Аббас Таирович, доктор физико-математических наук, профессор кафедры «Экономика и логистика». Совместный Белорусско-Узбекского межотраслевой институт технической квалификации г. Ташкента,
Абдуллаев Музаффар Абдужаббарович, доктор экономических наук, профессор кафедры.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития зеленлй экономики в Узбекистане.

Ключевые слова. Зеленая экономика, окружающей среда, экологические чистые технологии, 17:09, 4 февраля 2021зеленые финансовые инструменты,энергоэффективность..

Введение. «Зеленая» экономика это трактовка концепции устойчивого развития, которая сводит воедино вопросы экономического, социального и экологического развития. Создание экономической системы снизит нагрузку на окружающую среду и сохранит и восстановит природные экосистемы, и увеличит природный капитал. Необходим системный подход к методам «зеленого» управления, где без реформы финансового сектора и его переориентации в эколого-социальном направлении, без большей открытости и учета факторов экологического и климатического следа решить ряд экологических проблем современности, включая климатический кризис затруднителен.

Umuman olganda, ushbu tendensiyalar O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda izchil rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi. Muqobil energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamining kengayishi, chiqindilarni qayta ishlash tizimining yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu yo‘nalishlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi O‘zbekistonni ekologik jihatdan toza, innovatsion va zamonaviy iqtisodiyotga ega davlat sifatida shakllanishiga muhim hissa qo‘shadi.

Xulosa. Yashil iqtisodiyot bugungi davrning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga ekologik barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Bu esa kelajak avlodlar uchun xavfsiz, qulay va sog‘lom yashash muhitini yaratishga imkon beradi. Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, uning boshqaruv shakllari hamda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi chuqur tahlil qilindi. Xususan, past uglerodli iqtisodiyot, aylanma iqtisodiyot, ekologik qishloq xo‘jaligi va yashil transport kabi yo‘nalishlarning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni alohida ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston misolida shuni ko‘rish mumkinki, so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar va amaliy dasturlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini hayotga tatbiq etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini yaxshilash va energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish borasida katta hajmdagi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotning samarali boshqaruvi faqat ekologik barqarorlikni emas, balki iqtisodiy samaradorlikni ham sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli, ushbu yo‘nalishga oid islohotlarni davom ettirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ekologik madaniyat va tafakkurni rivojlantirish kelgusida dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Kelajakda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiriladigan izchil chora-tadbirlar mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi va O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi ekologik tashabbuslarda yetakchi o‘rin egallashiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beder, S. Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness’, Environmental Conservation, vol. 2011, 38, no. 2, pp. 140-150.

2. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Sh.X.va boshkalar. . Yashil iktisodiyot: Darslik. /. Yashil iktisodiyot: Darslik. / -Toshkent.: “ Universitet” , 2020. -262 b.

3. David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier.Blueprint for a Green Economy: Earthscan, London, GreatBritain, 1989. 192 pp.

4. Lipina S.A., Agapova Ye.V., Lipina A.V.L. Zelenaya ekonomika. Globalnoye razvitiye. - M.: Izd-vo Prospekt, 2016. -s. 234, tiraj 500 ekz.

5. Zelyonaya ekonomika i syeli ustoychivogo razvitiya dlya Rossii: kollektivnaya monografiya / pod nauch. red. S. N. Bobылyova, P. A. Kiryushina,O. V. Kudryavsevoy. - M.: Ekonomicheskiy fakultet

6. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. -T .: “Ma’rifat”, 2024. 224 bet.

7. O‘zbekiton Respublikasi prezidenti yashil iqtisodiyot to‘g‘risidagi qarori (PQ-4477 04.10.2019).

8. Food and Agriculture Organization https:// www.fao. org/faolex/results/details/en/c/LEX-FAOC197240/.

9. World1Bank.https://documents1.worldbank.org/curated/en/ 099240007072223752/pdf/ P1771080edd66408f0bcd9015de19bc66dc.pdf.

10.Global Green Growth Institute https://gggi.org/country/uzbekistan/

11.O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligi https://mininnovation.uz.

12.Корнева А.А. “ Зеленая” экономика и цифровизация в экономической основе концепции устойчивого развития // Научный сетевой журнал “Интеграл” №4/2022.

O‘ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI BELGILAB BERUVCHI OMILLAR VA TENDENSIYALAR

Ashurov Mahammadjon Sotvoldievich - Farg‘ona davlat texnika universiteti menagement va marketing kafedrasi professori

Abdullajonov Davronjon Shokirjon o‘g‘li - Qo‘qon universitetining xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi, e-mail: abdavron94@gmail.com.

Abstrakt: Mazkur maqolada yashil tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning ustivor masalalari O‘zbekiston misolida tahlil qilingan. Oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, O‘zbekistonning bozor islohotlarining navbatdagi bosqichiga o‘tishi uchun qulay sharoit yaratmoqda. “Yashil tadbirkorlik”ga o‘tish mustaqil jarayon bo‘lmasdan, balki barqaror va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o‘tishning ajralmas qismidir. Ushbu yondashuv resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitning oqilona boshqarilishiga e’tibor beradi, bu esa tabiiy resurslar zaxirasini saqlab qolgan holda boshqa sohalarda o‘sish bo‘lishi uchun ko‘proq resurslarni bo‘shatadi.

Kalit so‘zlar: yashil tadbirkorlik; ekologik biznes modeli; barqaror rivojlanish; energiya samaradorligi; qayta ishlash; moliyaviy barqarorlik; yashil investitsiyalar; uglerod izini qisqartirish, inson resurslari;

Kirish. Yashil tadbirkorlik sohasida biznes modellarini takomillashtirish uchun maxsus vositalarni yaratish va ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligini asoslash uchun biznes subyektlarini ekologik deb tasniflash mumkin bo‘lgan aniq mezonlarni belgilash zarur. Dunyoning ko‘p qismlarida chiqindilar hali ham o‘sib bormoqda. Biroq, so‘nggi o‘n yilliklarda bir qancha mamlakatlar chiqindilarini kamaytirishga muvaffaq bo‘lishdi. Shunga ko‘ra, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning EP tushunchasi va mohiyatini aniqlashga yondashuvlarini tahlil qilish, EP va boshqa tadbirkorlik turlari o‘rtasidagi farqlarni ta’kidlash va umumlashtirish, eko-prinsipial faoliyat turlarini aniqlashga mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va biznes sub’ektlarini ekologik deb tasniflash mezonlarini taklif qilish zarur. Biroq, bu rivojlanayotgan dunyoda o‘zgaruvchan global bozorda omon qolish uchun boshqa ko‘nikmalar va bilimlar talab qilinadi.

Texnologik o‘zgarishlarni boshqarish, ijodiy bo‘lish, tavakkal qilish, stressni boshqarish, kontseptual fikrlash va odamlarning xilma-xilligi va individual farqlarini tan olish va hurmat qilish juda muhimdir.

De Figueiredo (2008) fundamental fanlar, gumanitar fanlar, dizayn va hunarmandchilikning jamoaviy ta’siri tendensiyalari muhandislikning to‘rtta o‘lchovi sifatida ko‘rsatishga harakat qildi.

Bundan tashqari, mustahkam yashil innovatsiya ko‘rsatkichlarini muvaffaqiyatli ta’minlash uchun texnologik yutilish qobiliyatini texnologik yo‘nalish, Sanoat 4.0 va ochiq innovatsion istiqbollar bilan birlashtirish taklif etiladi. Firmalar yashil innovatsiyalar va uzoq muddatli istiqbolga qaratilgan hamkorlikdagi innovatsion tashabbuslarni rag‘batlantirishlari kerak [2]. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB)ning “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish dasturi (GEFF) 28 mamlakatda 170 dan ortiq mahalliy moliya muassasalari tarmog‘i orqali faoliyat yuritadi, bu esa taxminan 5 milliard YeTTB kredit portfeliga teng, 218 mingdan ziyod investitsiylar yiliga 9.5 million tonnadan ortiq $C0_2$ chiqindilami kamaytirishga olib keldi. O‘zbekistonda GEFF loyihasi xususiy kompaniyalarga yuqori samarali texnologiyalar va amaliyotlar orqali raqobatbardoshligini oshirish uchun moliyalashtirish, maslahat va grantlar taqdim etadi [3].

Tajriba o‘tkazish uslubiyoti. Cheklangan standartlardan xalos bo‘lish uchun kichik va o‘rta biznes sub’ektlari o‘zlarining odatiy sanoat bilim bazasidan tashqariga chiqib, yangi tajriba manbalarini ham ichkarida, ham tashqarida izlashlari kerak [4]. “Yashil” o‘sish strategiyasining tarkibiy tuzilishi ancha murakkab bo‘lsada uning muhim xususiyati kelajakka qaratilganligi, ya’ni barcha tadbirkorlik faoliyati, ongi va xulq-atvori qulay yashash muhitidagi hayotdan kelajakda foyda olish nuqtayi nazaridan baholanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, quyidagi chizmada jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida online

so‘rovnoma tashkil etildi. Ushbu chizmada Farg‘ona viloyati Qo‘qon shaharining Qo‘qon universiteti talabalari o‘rtasida **Yashil odatlar va ekologik tashabbus** nomli so‘rovnomadan quyidagicha natijalar olindi. *Manba:* https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLScZVNTa7zegbhL0oottKeVr__AD4cufwGAsbQ8eCd3O-K8vmQ/viewform?usp=headerd



a) So‘rovnoma shakli

b) Ishtirokchilar bergan ovozlar hisoboti

Yashil tadbirkorlik - bu nafaqat ekologik toza ishlab chiqarish, balki ish joyida va kundalik hayotda atrof-muhitga zarar keltirmaydigan odatlarni rivojlantirishdir.

Natijalar va muhokama. O‘rta Osiyo davlatlarida, xususan O‘zbekistonda uglerodga qaram korxonalarni ekologik soliqqa tortishdan daromad olish mumkin. Joriy yillarda (2023-2026-yillar) Farg‘ona viloyatida ekologik soliqqa tortishda islohatlar o‘tkazib, ekologiya solig‘i komponentlarini kengaytirish, ya’ni an’anaviy energiyadan foydalanishda, transport sohasida yagona uglerod solig‘ini qo‘llash, poligonlarda chiqindilarni yoqib yuborishda yoki ko‘mishda atrof-muhitga (havoni, suvni ifloslantirganliklari uchun) salbiy ta’siri uchun ekologik soliqqa tortishni joriy qilishni asoslash lozim [5]. Ayni damda ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarning asosiy vazifasi tijorat tashkilotlari va banklarni soliqqa tortish bilan bog‘liq eng samarali me’yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish hamda korxona rahbarlarining vazifasi esa bu boradagi mablag‘larni jalb qilishning samarali usullarini izlashdan iborat.

Iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, energiya va resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va barqaror rivojlanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan yangi biznes modeli korxonaning moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish, ekologik xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish va yashil investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlikning uzoq muddatli muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. O‘zbekiston ob-havo o‘zgarishlari oldida zaif va mamlakatning Ekologik barqarorlik indeksi past deya yozadi Worldbank. Ushbu jumladan shuni aniqlash mumkinki, qurg‘oqchilik va suv toshqinlari oqibatlari tahlillari natijasiga ko‘ra, eng ko‘p zarar ko‘rgan aholi guruhlari daromadlarining darajasi va iste’molda katta yo‘qotishlarga duch

kelmoqda. Boshqa mintaqalarda ob-havoning keskin yomonlashuvidan aziyat chekayotgan aholi miqdori ko‘proq bo‘lsada, bu O‘zbekistonni Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida ijtimoiy himoyasi zaif davlatga aylantirishi ehtimoli borligidan dalolat beradi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan CO_2 chiqindilarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu ko‘rsatkich Osiyo mamlakatlari ichida O‘zbekistonning qazilma yoqilg‘ilarni yoqish va sanoat jarayonlaridan chiqadigan karbonat angidrid (CO_2) chiqindilari holatida ijobiy ko‘rsatkichga erishmoqda.



2-rasm. Transport, elektr energiyasi ishlab chiqarish va isitishdan chiqadigan chiqindilar kiradi, ammo yerdan foydalanishning o‘zgarishi kiritilmagan [6].

So‘nggi yillarda quyosh, shamol va batareyalar narxi keskin pasayib bormoqda, bu esa qazilma yoqilg‘i alternativalarining narxini tobora pasaytirmoqda. Hozirda dekarbonizatsiyani qo‘llab-quvvatlaydigan tizimni yaratish uchun siyosiy o‘zgarishlar juda muhimdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonda yashil tadbirkorlikni rivojlantirishni belgilab beruvchi omillar va tendensiyalardan hududiy rivojlanish dasturlariga: Yashil tadbirkorlikni viloyat va tuman darajasidagi iqtisodiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish, mahalliy ekologik muammolarga moslashtirilgan yashil loyihalarni joriy etish lozim. Bundan tashqari yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus “yashil kreditlar”, “ekologik obligatsiyalar” va “barqaror investitsiya fondlari”ni joriy etish zarur. Bu mexanizmlar kichik va o‘rta biznes subyektlariga ekologik yo‘nalishda faoliyat yuritish uchun moliyaviy imkoniyat yaratadi. Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etgan tadbirkorlik subyektlariga soliq chegirmalari va grantlar ajratish amaliyotini kengaytirish lozim. Yashil tadbirkorlik bo‘yicha o‘quv dasturlari, treninglar va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali ekologik tafakkurga ega yangi avlod tadbirkorlarini tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Yashil tadbirkorlik samaradorligini o‘lchash uchun iqtisodiy, ekologik va

ijtimoiy indikatorlar tizimini ishlab chiqish va ularni milliy statistik hisobotlarga integratsiya qilish tavfsiya etiladi.

Manbalar

1. Hamdamov J.H. Формирование и совершенствование бизнес-моделей экологического предпринимательства. [*Formirovanie i sovershenstvovanie biznes-modeley ekologicheskogo predprinimatelstva*]. PhD Кандидатская диссертация. Владивосток – 2018. – 116 p.

2. Becker, J.M.; Rai, A.; Ringle, C.M.; Völckner, F. Discovering unobserved heterogeneity in structural equation models to avert validity threats. MIS Q. 2013, 37, 665–694. [CrossRef]

3. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. [*Green Economy*]. Toshkent “Ma’rifat” 2024. – 225 b.

4. Hou, R.; Li, S.; Chen, H.; Ren, G.; Gao, W.; Liu, L. Coupling mechanism and development prospect of innovative ecosystem of clean energy in smart agriculture based on blockchain. J. Clean. Prod. 2021, 319, 128466.

5. Bo‘taboyev M.T., Ismanov I.N. “YASHIL” IQTISODIYOT. O‘quv qo‘llanma. ["GREEN" ECONOMY. Study guide]. Farg‘ona-2024. – 229 b.

Internet manbasi:

6. Ekologik barqarorlik indeksi (2024). [*Towards a Greener Economy in Uzbekistan*] Manba: *https://hdl.handle.net/10986/37994*.

O‘ZBEKISTONDA YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH IMKONIYATLARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MISOLIDA

Akishova Shaxnoza Davlet qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, To‘rtko‘l fakulteti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil investitsiyalarni jalb qilish jarayonining hozirgi holati, uning iqtisodiy va institutsional omillar bilan bog‘liq xususiyatlarini tahlil qilinadi. Maqoladada qayta tiklanuvchi energiya manbalarida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat strategiyalari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik natijalari baholanadi. Shu bilan birga, tartibga solishdagi noaniqliklar, texnologik tayyorgarlik darajasi, moliyalashtirish risklari va investorlar uchun ma’lumotlar shaffofligining yetarli emasligi kabi cheklovlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirish hamda qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish yuzasidan tavsiyalarni taklif etadi.

Аннотация. В данной статье проводится анализ современного состояния процесса привлечения зелёных инвестиций в Узбекистан, а также его экономических и институциональных особенностей. Особое внимание уделено реформам последних лет в секторе возобновляемых источников энергии, действующим государственным стратегиям и результатам сотрудничества с международными финансовыми институтами. Наряду с

этим выявляются существующие ограничения, включая регуляторную неопределённость, уровень технологической готовности, финансовые риски и недостаточную прозрачность информации для инвесторов. Полученные результаты позволяют разработать рекомендации, направленные на ускорение перехода Узбекистана к зелёной экономике и повышение инвестиционной привлекательности страны в сфере возобновляемой энергетики.

Abstract. This article analyzes the current state of attracting green investments in Uzbekistan, focusing on the economic and institutional factors shaping this process. Particular attention is given to recent reforms in the renewable energy sector, national strategies adopted in recent years, and the outcomes of cooperation with international financial institutions. In addition, the study identifies key constraints such as regulatory uncertainty, technological readiness, financing risks and insufficient transparency of information available to investors. The findings provide a basis for policy recommendations aimed at accelerating Uzbekistan’s transition to a green economy and enhancing the country’s investment attractiveness in the field of renewable energy.

Kalit so‘zlar: yashil investitsiyalar; qayta tiklanuvchi energiya; quyosh energetikasi; shamol energetikasi; barqaror rivojlanish; yashil iqtisodiyot; investitsiya muhiti.

Ключевые слова: зелёные инвестиции; возобновляемая энергетика; солнечная энергия; ветровая энергетика; устойчивое развитие; зелёная экономика; инвестиционный климат.

Keywords: green investments; renewable energy; solar energy; wind power; sustainable development; green economy; investment climate; public–private partnerships; environmental innovation

Bizga ma’lumki, davlatimiz rahbari tomonidan global dunyoda bo‘layatotgan ekologik o‘zgarishlar hamda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilayotgan keng ko‘lamli ishlarni mamlakatimizda ham amalga oshirish maqsadida 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb belgilandi. Shundan kelib chiqib, 2025-yil uchun qabul qilingan davlat dasturida O‘zbekistonda yashil energetikani rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish va investitsiyalarni jalb qilish borasida asosiy vazifalar belgilandi [1]. Shuningdek, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi me’yoriy hujjatda 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 mlrd kub metr tabiiy gazni tejash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish kabi bir qancha amaliy ishlar ko‘rsatilgan [2]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar energetika, sanoat, agrar sektor va davlat tomonidan tartibga solish tizimini qamrab olgan bo‘lib, asosiy e’tibor yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, uglerod gazi izini

kamaytirish va jahon miqyosida mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan [3].

O‘zbekistonda karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish va YaIMning energiya sig‘imini kamaytirish bo‘yicha ulkan rejalarni amalga oshirish davom etmoqda. Kelgusi yillarda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratgan holda energetika tizimini tubdan qayta qurish amalga oshiriladi. Asosiy yo‘nalishlardan biri quyosh va shamol energiyasini rivojlantirish bo‘lib qolmoqda. Milliy dastur doirasida 2030-yilga borib mamlakat elektr energiyasining kamida 40 foizi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan ishlab chiqarilishi kerak. 2025-yilda yangi quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan, bu esa energetika tizimining quvvatini sezilarli darajada oshiradi.

O‘zbekistonda karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish va YaIMning energiya sig‘imini kamaytirish bo‘yicha ulkan rejalarni amalga oshirish davom etmoqda. Kelgusi yillarda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratgan holda energetika tizimini tubdan qayta qurish amalga oshiriladi [4].

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2019–2024 yillar davomida O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga kirib kelayotgan investitsiyalar sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, quyosh energetikasi bo‘yicha yirik xalqaro kompaniyalar ishtiroki keskin kuchaydi. Shu bilan birga, shamol energetikasi, biogaz va energiya samaradorligi yo‘nalishlari nisbatan sust rivojlanayotgani aniqlandi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining energetik ko‘rsatkichlari [5]

2018-2024-yillarda mamlakatimizda elektr energiyasi ishlab chiqarish barqaror ijobiy dinamikani namoyish etib, 59 mlrd kVt/soatdan 82 mlrd kVt/soatgacha oshdi. Asosiy yo‘nalishlardan biri quyosh va shamol energiyasini rivojlantirish bo‘lib qolmoqda. Milliy dastur doirasida 2030-yilga borib mamlakat elektr energiyasining kamida 40 foizi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan ishlab chiqarilishi kerak. 2025-yilda yangi quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan, bu esa energetika tizimining quvvatini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning energiya sig‘imi darajasi dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib qolmoqda, bu esa ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, energetika tizimlarini raqamlashtirish hamda “yashil sertifikatlar” va uglerod kvotalari ichki bozorlari kabi ekologik tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi [6].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashil investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha ijobiy islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, iqtisodiy, institutsional va texnologik omillar hali to‘liq shakllanmagan. Sektor bo‘yicha qabul qilingan strategiyalar natija bera boshlagan, biroq investitsion jozibadorlikni oshirish uchun tartibga solish barqarorligini kuchaytirish, moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish va infratuzilma modernizatsiyasini jadallashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.01.2025 yildagi PF-16-son.
2. "2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida" gi PF-60- sonli hujjat.
3. “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yiliga mo‘ljallangan davlat dasturi (+infografika). review.uz.
4. 9-sonli “Iqtisodiy sharh” jurnali.
5. K. Abdurahmonov. O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi transformatsiyasi. Raqamlashtirish va sun’iy intellektni joriy etish sharoitida. Iqtisodiy sharh, 9-sonli nashr, 2025-yil
6. UNECE, 2024-yilgi hiosboti
7. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

ISHLAB CHIQARISH VA BANK SEKTORINING O‘ZARO HAMKORLIGI ASOSIDA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASH

Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti doktoranti (DSc)
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur tezisda ishlab chiqarish sektori, ayniqsa to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda bank sektori bilan o‘zaro hamkorlikning ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: to‘qimachilik sanoati, bank sektori, moliyaviy barqarorlik, aylanma mablag‘lar, investitsion kreditlash, lizing, faktoring, eksportoldi moliyalashtirish, yashil moliyalashtirish, klasterlashuv, xalqaro tajriba, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, likvidlik, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В статье раскрыто значение взаимного сотрудничества производственного сектора, особенно предприятий текстильной промышленности, с банковским сектором в обеспечении их экономической устойчивости.

Ключевые слова: текстильная промышленность, банковский сектор, финансовая устойчивость, оборотные средства, инвестиционное кредитование, лизинг, факторинг, экспортное финансирование, «зелёное» финансирование, кластеризация, международный опыт, финансовая поддержка, ликвидность, конкурентоспособность, устойчивое развитие.

Annotation. The article highlights the importance of cooperation between the manufacturing sector-particularly textile enterprises-and the banking sector in ensuring their economic stability.

Key words: textile industry, banking sector, financial stability, working capital, investment lending, leasing, factoring, pre-export financing, green financing, clustering, international experience, financial support, liquidity, competitiveness, sustainable development.

Mamlakat iqtisodiyotining uzluksiz rivojlanishi, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi hamda moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan ularning bank sektori bilan samarali hamkorligiga bog‘liq. Chunki ishlab chiqarish subyektlari investitsiya resurslari, aylanma mablag‘lar, eksport kreditlari, lizing va faktoring kabi moliyaviy instrumentlardan foydalanishda asosan bank tizimiga tayangan holda faoliyat yuritadi. Bank sektorining barqarorligi esa o‘z navbatida real sektor korxonalarining moliyaviy sog‘lomligi, kredit portfeli sifati va iqtisodiy faollikdan kelib chiqqan holda shakllanadi. Demak, ishlab chiqarish va bank sektori o‘rtasidagi hamkorlik ikki tomonlama sinergiya yaratib, iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. To‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zaruriy xom-ashyo materiallari (paxta, kalava-ip)ni xarid qilish, uskunalar hamda matoni bo‘yash vositalarining asosan chet mamlakatlardan import asosida olib

kelish ko‘p hollarda oldindan to‘lov bilan amalga oshirilishi soha korxonalari uchun avanslashtirilgan xarajatlar ulushining ortishini yuzaga keltirib korxonanining likvidlilik darajasining pasayishiga sabab bo‘lgani holda moliyalashtirishga bo‘lgan dastlabki ehtiyojni shakllantiradi. Shuningdek, kalava-ip, mato hamda yakuniy iste’molga tayyor bo‘lgan to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni bir nechta texnologik qayta ishlab chiqarish bosqichlaridan iborat ekanligi yo‘naltirilgan kapitalning qaytarilish davrini uzoqlashtirib, ishlab chiqarishni uzluksiz davom ettirish uchun qo‘shimcha mablag‘larni jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Mahsulotlarning eksportga yo‘naltirilganligi esa valyutaviy moliyalashtirish, eksport xatarlarini sug‘urtalash vositalaridan foydalanishni taqozo etadi. To‘qimachilik bozorlarining yuqori raqobatliligi sababli foyda miqdorining pastligi xarajatlarni optimallashtirish hamda past foizli moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo‘lishning muhimlilik darajasini yana ham oshiradi. Ushbularga ko‘ra, to‘qimachilik sanoati korxonalarining barqaror iqtisodiy rivojlanishiga erishish uchun turli miqdordagi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tashkil etish zarur bo‘lib, u nafaqat an’anaviy kreditlash asosida tashkil etilishi, balki to‘qimachilik korxonalari bilan bank sektorining o‘zaro uzviy faoliyatini yo‘lga qo‘yish asosida shakllantirilishi hamda ushbu munosabat tarkibida investitsiyaviy loyihalash, “yashil” moliyalashtirish kabi zamonaviy vositalarning mavjud bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Jahon amaliyotida moliyalashtirishga bo‘lgan yetarlicha imkoniyatlar bilan birga to‘qimachilik sohasining rivojlanishi o‘rtasida to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligi asoslangan bo‘lib, ushbu integratsion faoliyatni quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin:

- mehnat unumdorligi va texnologik samaradorlikning oshishi. Uzoq muddatli investitsion kreditlashdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan korxonalar avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalarini joriy etish, zamonaviy tizimlar asosida ishlab chiqarishni tashkil etib mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga erishib kelmoqda.

- eksport salohiyatining kengayishi. Banklar tomonidan eksport oldidan kreditlash, valyutaviy kreditlash kabi moliyaviy qo‘llab-quvvatlanib kelinayotgan to‘qimachilik korxonalari uchun yangi bozorlarda o‘z faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari shakllanmoqda.

- operatsion xavf-xatarlarning kamayishi. Qisqa muddatli aylanma kreditlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi mavsumiylik, xom-ashyo narxining o‘zgarishi yoki tashish bilan bog‘liq uzulishlar sababli yuzaga keladigan ishlab chiqarish jarayonidagi to‘xtab qolishlarni shakllanish ehtimolini kamaytiradi.

- ijtimoiy barqarorlik va bandlik. To‘qimachilik sanoati korxonalari va bank sektorining o‘zaro hamkorligini tashkil etish bilan ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytirish uchun qo‘shimcha moliyalashtirish manbai shakllangani holda

nafaqat shahar hududlarida, balki qishloq joylarida aholi bandligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Yuqoridagilar bilan birgalikda, to‘qimachilik sanoati korxonalarining “yashil” ishlab chiqarish jarayonlariga o‘tayotganligi hamda barqaror rivojlanish tamoyillari asosida yangi sanoat modellari shakllanayotgan sharoitda, banklar tomonidan moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish to‘qimachilik sohasini nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta’minlash omillaridan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida to‘qimachilik sanoati va bank sektori o‘rtasida integratsion faoliyatni tashkil etish asosida to‘qimachilik korxonalarining moliyalashtirish manbalarini ko‘paytirishning ijobiy hamda muvaffaqiyatli na’munalari sifatida Hindiston, Xitoy va Turkiya mamlakatlarini keltirish mumkin. Xususan, hozirda Xitoy dunyo bo‘ylab to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, eksport va xom-ashyo importi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Lekin, 1999 – 2000 yillar oralig‘ida mamlakatda to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasida o‘zaro kooperatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yish, uzviy iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud bo‘lgan. SHuningdek, soha korxonalari ishlab chiqarish quvvati past bo‘lgan texnikalardan foydalanganligi sababli iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining pasayishiga hamda atrof-muhitning yuqori darajada ifloslanishiga sabab bo‘lgan. Ushbu muammolar Xitoyning yirik banklaridan biri hisoblangan Xitoy Rivojlanish Banki tomonidan “Xitoyning g‘arbiy hududlarini rivojlantirish” dasturini amalga oshirish asosida to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish va moliyalashtirish natijasida o‘z yechimini topdi [5, 4-12 b.]. Bank sektori tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmi quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘lgan:

1) uzoq muddatli imtiyozli kredit liniyalarini tashkil etish, ya’ni ishlab chiqarish uskunalarini modernizatsiyalash, to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish uchun yillik 2-4 foizlik kreditlar taqdim etish;

2) zaruriy infratuzilmaga (elektr-energiya, gaz, suv, logistikaga) ega bo‘lgan sanoat parklarini (hududlarini) qurilishini moliyalashtirish;

3) ekologik modernizatsiyalash (chiqindisiz ishlab chiqarish, “yashil” sanoat) dasturlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

Bank sektorining to‘qimachilik sanoati korxonalarini qo‘llab-quvvatlashi natijasida erishilgan ijobiy iqtisodiy o‘zgarishlarni quyidagi jadval asosida ko‘rish mumkin.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, banklar tomonidan moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish Xitoyning to‘qimachilik sohasida ishlab chiqarish samaradorligi va eksport hajmining oshishiga sabab bo‘lgani holda mamlakat brendlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirdi. Shuningdek, xom-ashyodan boshlab tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish – yetkazib berish zanjirlarini tashkil etishga xizmat ko‘rsatdi.

1 – jadval.

To‘qimachilik sanoati korxonalari bilan banklar o‘rtasidagi integratsiyaning ijobiy natijalari[15]

T.r.	Ko‘rsatkichlar	Moliyalashtiridan	
		Oldin	Integratsiyadan so‘ng
1.	Uskunadan o‘rtacha foydalanish davomiyligi	>15 yil	<5 yil
2.	To‘qimachilik mahsulotlari eksporti	$50 mlrd	> $120 mlrd
3.	Yuqori qo‘shilgan qiymatni yaratishning barcha bosqichlarini qamrab olgan klasterlar soni	<10	>50
4.	Ishlab chiqarishda avtomatlashtirishning ulushi	<20%	>60%
5.	“Yashil” ishlab chiqarish ulushi	~10%	>45%

Banklar tomonidan to‘qimachilik sanoatini moliyalashtirishning yana bir ijobiy misollaridan biri Hindiston mamlakatining to‘qimachilik korxonalari hisoblanadi. Ma’lumki, Hindiston mamlakati hozirda Xitoy kabi dunyoning yetakchi to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchisi, paxta xom-ashyosi yirik eksport qiluvchisi hisoblanadi. Ushbu darajaga erishish uchun soha korxonalari 2000 yillarda yuqori darajadagi elektr-energiya sig‘imi, ishlab chiqarish quvvati past bo‘lgan uskunalar, moliyalashtirish manbalarining yetarli emasligi hamda to‘qimachilik klasterlarining zaruriy infratuzilmaga ega emasligi kabi bir qator muammolarga duch kelgan. Ushbu masalalar soha korxonalarini iqtisodiy barqarorlikga erishishlari uchun to‘siq hisoblangan. Bu esa davlat banklari tomonidan sohani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Xususan, Texnologiyani yangilash fondi sxemasi (TUFS) va Integratsiyalashgan to‘qimachlik parklari (SITP) dasturlari asosida korxonalarning texnika-texnologiya bazalari takomillashtirilib ekologik toza ishlab chiqarish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatda to‘qimachilik sanoatiga bank sektorining integratsiyalash natijasida Tiriup va Surat shaharlarida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi, shu bilan birga, logistika, to‘qimachilikga yo‘naltirilgan o‘quv markazlarni o‘z ichiga olgan ekotizm barpo etildi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni AQSH, Yevropa va Yaponiya kabi mamlakatlarga eksport qilishga erishildi.

Ko‘plab mamlakatlarda to‘qimachilik sanoatini barqaror rivojlanishi ta’minlash maqsadida banklar tomonidan taklif etiladigan moliyalashtirish manbalari to‘qimachilik klasterining zaruriyatidan kelib chiqgan holda shakllantiriladi. Ushbu yondashuv moliyalashtirishni yuqori maqsadliligini oshirgan holda moliyaviy xavf-xatarlarni oldini oladi.

[15] OECD-FAO 2023-2032: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/07/oecd-fao-agricultural-outlook-2023-2032_859ba0c2/08801ab7-en.pdf?utm_source=chatgpt.com

To‘qimachilik sanoatini yana rivojlantirishga qaratilgan yuqoridagi yondashuvlar korxonalarga ishlab chiqarish quvvatini qisqa vaqt oralig‘ida oshirish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish imkoniyatini shakllantirdi. Bank sektori va to‘qimachilik korxonalarining o‘zaro integratsion faoliyatini ifodalovchi modelning barqaror ijobiy natijaviyligining asosiy omili ushbu iqtisodiyot sektorlarining uzviy faoliyati bo‘lib hisoblanadi. Ushbu tizim banklarning kredit berish yo‘nalishlarini moslashuvchan ekanligi bilan alohida ahamiyatlidir. Moliyalashtirish shartlari korxonaning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini e’tiborga olgan holda muntazam ravishda ko‘rib chiqiladi, bu esa kredit natijasida yuzaga keldigan xatarlarni kamaytirgani holda butun to‘qimachilik klasterining barqarorligini oshirishga xizmat ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida, O‘zbekistonda ishlab chiqarish korxonalari ko‘plab moliyaviy ehtiyojlarni qondirishda tijorat banklariga tayangan holda faoliyat yuritadi:

- investitsion loyihalarni moliyalashtirish (yangi texnologiyalar va modernizatsiya);
- aylanma mablag‘lar uchun qisqa muddatli kreditlar;
- eksport oldi moliyalashtirish (to‘qimachilik, charm-poyabzal va qishloq xo‘jaligi);
- lizing asosida uskunalar xaridi;
- faktoring orqali debitor qarzdorlikni kamaytirish;
- garov, kafolat va akkreditivlar orqali tashqi bozor risklarini pasaytirish.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva, S (2025) “Tarmoqlararo integratsiyani takomillashtirish asosida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash: ishlab chiqarish va bank sektorining o‘zaro hamkorligi”. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, vol. 2, no. 5, Oct. 2025, pp. 327-36, https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss5-pp327-336

2. Григорьева Т. И. Анализ финансового состояния предприятия: учебник для среднего профессионального образования / Т. И. Григорьева. - 3-е изд., перераб. и доп. - Москва: Издательство Юрайт, 2025. - 486 с.

3. Горшков А.С. Разработка научных и методологических принципов повышения эффективности использования энергетических ресурсов на предприятиях текстильной и легкой промышленности и снижения энергоемкости выпускаемой продукции.: Автореф. дис. доктор экон. наук.-Санкт-Петербург, 2019-С.25.

4. Abdullayeva, S. (2025) “Korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo‘nalishlari”. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, vol. 3, no. 9, Sept. 2025, pp. 347-53, https://doi.org/10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss9-pp347-353.

5. Wei Jigang (2020) China’s Industrial Policy: Evolution and Experience / United Nations conference on trade and development. https://unctad.org/system/files/official-document/BRI-Project_RP11_en.pdf?utm_source=chatgpt.com

YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDA SUN’IY INTELLEKTNING ROLI

Maxmudov Anvarjon Maxmudovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchi
Telefon:+998(90)6303169, anvar_maxmudov1968@mail.ru

Annotatsiya. Tog‘ridan to‘g‘ri yashirin iqtisodiyotning ko‘lamini baholash juda ham qiyin, lekin yashirin sektorni ulushi sezilarli darajani tashkil etmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi yashirin iqtisodiyotni tahlil qilish, soyaga qochishga sabab bo‘layotgan asosiy sabablarni aniqlash hamda yashirin iqtisodiyot bilan kurashish yo‘nalishlarini belgilashdir.

Kalit so‘zlar: Yashirin iqtisodiyot, soliqlar, soya, raqamli iqtisodiyot, bandlik, iqtisodiyotni legallashtirish, sun’iy intellekt

Аннотация. Напрямую оценить масштабы теневой экономики очень сложно, но доля теневого сектора значительна. Основной целью данной статьи является анализ теневой экономики, выявление основных причин ухода в тень, определение направлений борьбы с теневой экономикой.

Ключевые слова: Теневая экономика, налоги, тень, цифровая экономика, занятость, легализация экономики, искусственный интеллект

Annotation. It is very difficult to directly assess the scale of the shadow economy, but the share of the shadow sector is significant. The main purpose of this article is to analyze the shadow economy, identify the main reasons for going into the shadows, and identify areas for combating the shadow economy.

Keywords:
Shadow economy, taxes, shadow, digital economy, employment, legalization of the economy, artificial intelligence

Yashirin iqtisodiyot muammosi butun dunyoda eng keskin muammolardan biri hisoblanadi. Soliqdan yashirilgan daromadlar, noqonuniy pul o‘tkazishlar soliq solinadigan bazaning kamayishiga olib keladi va buning natijasida qonunga bo‘ysunuvchi soliq to‘lovchilar uchun soliq yuki sezilarli ta’sirini o ‘tkazadi, natijada soliq yukining nomutanosibligi halol soliq to‘lovchilarning raqobatbardoshligini yo‘qotishiga olib keladi. Intizomli soliq to‘lovchilarni soyaga kirishga undaydi. Shuning uchun ularning paydo bo‘lish sabablarini o‘rganish va unga qarshi kurashish yo‘llarini aniqlash muhim ahamiyatga ega ilmiy va amaliy vazifadir.

Iqtisodiyotda yashirin sektorning mavjudligi murakkab muammolardan biridir. Bunga nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, ijtimoiy va hatto psixologik sabablar mavjud bo‘ladi. Jahon tajribasi va ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda bir vaqtning o‘zida ko‘plab kanallar orqali ta’sir kuchini amalga oshirilishi kerak. Har qanday bir tomonlama yondoshish nafaqat muvaffaqiyatsizlik, balki qarama-qarshilikka ham olib kelishi mumkin

Iqtisodiyotni soyadan samarali olib chiqish uchun, avvalo, buni asosiy sabablarini aniqlash kerak:

- nisbatan yuqori soliq yuki, ayniqsa mehnat soliqlari (shu jumladan ijtimoiy to‘lovlar);
- iqtisodiy faoliyatni haddan tashqari "ortiqcha tartibga solish", biznes yuritish uchun ma'muriy to‘siqlar;
- davlat muassasalarining xizmat ko‘rsatish sifatini pastligi, himoyaning yo‘qligi, mulk huquqini bilmaslik, mustaqil sud tizimining yo‘qligi, axborot erkinligi, hukumat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining yo‘qligi va boshqalar;
- mehnat bozorini tartibga solishning sifatsizligi, noqonuniy migratsiya muammolari;
- noqonuniy ishchi kuchi;
- nazorat qiluvchi organlar vakillari o‘rtasidagi korruptsiya.

Yuqorida sanab o‘tilgan sabablarni ketma-ket yo‘q qilish qiyin. Ular bir-biriga o‘zaro bog‘lanib, ayovsiz doirani hosil qiladi.

Iqtisodiyotning yashirin sektori haqida gapirganda, ayniqsa, norasmiy bandlik muammosiga to‘xtalib o‘tish kerak.

Ba'zi ma'lumotlarga ko‘ra, dunyo qishloq xo‘jaligida band bo‘lmagan 60 foiz ishchilar iqtisodiyotni yashirin sektorida band.

Bu sohalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Tibbiyot xodimlari tomonidan ishdan bo‘sh vaqtlarida ko‘rsatayotgan tibbiy xizmatlari);
- repititorlik xizmatlari;
- kichik hajmdagi maishiy buyumlarni ta’mirlash ishlari;
- transport xizmatlari;
- uyda bolaga qarab turish, katta yoshdagilarga qarash xizmati;
- elektr ustalarining ishdan bo‘sh vaqtidagi xizmatlari;
- sartaroshlarning xizmat joyidan tashqari bajargan ishlari;
- uyda yetishtirilgan mevalar savdosi va boshqalar.

Barcha yuqoridagilarni nazoratga olishga qaratilgan harakatlar iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamaydi.

Xalqaro tajribada bu kichik holdagi yashirin aylanma mablag‘lari tabiiy deb qaralibgina qolmay, balki quvvatlantiriladi chunki aholi kambag‘alchilikdan chiqish uchun o‘z muammolarini mustaqil, davlatdan yordam olmay yechmoqdalar. Shuning uchun asosiy e’tiborni katta soliq qoidabuzuvchilariga qaratish lozim.

Sun’iy intellektning yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashdagi asosiy yo‘nalishlari:

1. Soliq boshqaruvida SI asosida monitoring va prognozlash

Sun’iy intellekt soliq to‘lovchilarning real vaqt ma’lumotlari asosida xatti-harakatini tahlil qilib, ularning daromad va xarajatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni aniqlashi mumkin.

Mashinaviy o‘rganish algoritmlari soliq to‘lovchilarda soliqdan bo‘yin tovlash ehtimolini prognozlaydi.

SI asosidagi risk baholash tizimlari tekshiruvlarni aniq obyektlarga yo‘naltiradi, ortiqcha byurokratik yukni kamaytiradi.

Elektron hisob-fakturalar va naqd pulsiz to‘lovlar tarmog‘idan olingan ma’lumotlar SI tomonidan avtomatik tahlil qilinadi.

2. Noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni aniqlash

Banklar va moliyaviy institutlar SI yordamida quyidagilarni aniqlash imkoniga ega:

- g‘ayrioddiy tranzaksiyalar;
- soxtalashtirilgan hujjatlar;
- pul yuvish sxemalari;
- shubhali raqamli izlar va blokcheyn tahlili.

Neyron tarmoqlar tranzaksiyalarni real vaqt rejimida filtrlab, inson aniqlay olmaydigan murakkab shablonlarni topishi mumkin.

3. Mehnat bozorida yashirin bandlikni aniqlash

SI ijtimoiy tarmoqlar, bandlik agentliklari, mehnat shartnomalari va korxonalar faoliyatidan olingan ma’lumotlarni solishtirib, norasmiy ishlayotgan xodimlar bo‘yicha xavf indikatorlarini yaratadi. Kompyuter ko‘rish texnologiyalari ishlab chiqarish maydonlarida real vaqt monitoringini kuchaytiradi.

4. Davlat xaridlari va korrupsiya xavfini kamaytirish

- SI tender jarayonlaridagi narxlarning sun’iy oshirilganligini aniqlovchi algoritmlarni yaratadi.
- Tarmoq tahlili (network analysis) orqali manfaatlar to‘qnashuvini fosh qiladi.
- Davlat xaridlari bo‘yicha ochiq ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilib, korrupsion risklarni baholashni osonlashtiradi.

Sun’iy intellektning afzalliklari

1. **Tezlik va aniqlik** – SI katta hajmdagi ma’lumotlarni sekundlar ichida qayta ishlaydi.
2. **Inson omilining kamayishi** – korrupsiyaga moyillik va sub’yektiv qarorlar qisqaradi.
3. **Prognozlash imkoniyati** – yashirin iqtisodiyotning rivojlanish tendensiya-larini oldindan aniqlash imkonini beradi.
4. **Integratsiyalashgan boshqaruv** – soliq, bojxona, bank va huquqni muhofaza qilish tuzilmalari o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuvini avtomat-lashtiradi.

Muammolar va cheklovlar

- SI algoritmlarining shaffof bo‘lmaganligi (“qora quti” muammosi).
- Ma’lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlikka oid risklar.
- Sifatli ma’lumotlar bazasining yetishmasligi.
- Texnologiyalarni joriy etishda yuqori xarajatlar.

- Kadrlar kompetensiyasining pastligi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, sun’iy intellekt yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda strategik ahamiyatga ega innovatsion vositadir. U soliq boshqaruvi, moliyaviy xavfsizlik, korrupsiyaga qarshi kurash va mehnat bozori monitoringida yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Mamlakatlarda SI texnologiyalarini keng tatbiq qilish, ma’lumotlar almashinuvi tizimini yaratish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va malakali kadrlar tayyorlash yashirin iqtisodiyotni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

Ushbu jarayonning muvaffaqiyati davlat siyosati, biznes sektori va ilmiy jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikka bog‘liq bo‘lib, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

SUV RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA YASHIL ENERGETIKA YECHIMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Sotvoldiyeva Muslimaxon G`ayratjon qizi - FDTU, tayanch doktorant

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekiston sharoitida suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va yashil energiya yechimlaridan foydalanishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari tahlil qilinadi. Raqamli monitoring, IoT sensorlari va qayta tiklanuvchi energiya asosidagi suv infratuzilmalari suv yo‘qotishlarini kamaytirish, energiya sarfini optimallashtirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni tezlashtirishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston suv xo‘jaligini modernizatsiya qilish bo‘yicha strategik qarorlar uchun amaliy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Suv boshqaruvi, raqamli texnologiyalar, yashil energiya, IoT, barqaror rivojlanish.

Annotation: This thesis analyzes the economic and ecological benefits of using digital technologies and green energy solutions in water resource management in Uzbekistan. Digital monitoring, IoT sensors, and renewable energy-based water infrastructure are shown to reduce water losses, optimize energy consumption, and accelerate the achievement of sustainable development goals. The research results provide a practical basis for strategic decisions to modernize Uzbekistan’s water management system.

Keywords: Water management, digital technologies, green energy, IoT, sustainable development.

Аннотация: В данной работе анализируются экономические и экологические преимущества использования цифровых технологий и решений на основе «зеленой» энергии в управлении водными ресурсами в Узбекистане. Показано, что цифровой мониторинг, сенсоры IoT и водная инфраструктура на основе возобновляемых источников энергии снижают потери воды, оптимизируют потребление энергии и ускоряют достижение

целей устойчивого развития. Результаты исследования обеспечивают практическую основу для стратегических решений по модернизации системы управления водными ресурсами Узбекистана.

Ключевые слова: Управление водными ресурсами, цифровые технологии, зеленая энергия, IoT, устойчивое развитие.

Kirish. O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va ekologik muvozanatni saqlash kontekstida, davlat siyosati so‘nggi yillarda “yashil” iqtisodiyot va suv resurslarini samarali boshqarishga katta e’tibor qaratmoqda. “O‘zbekiston – 2030” milliy strategiyasida aynan «Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish» yo‘nalishi muhim ustuvorliklardan biri sifatida belgilangan. 2020-yilning 10-iyulida Prezident tomonidan qabul qilingan PF-6024-son farmon bilan “O‘zbekiston Respublikasida suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi” tasdiqlandi, bu esa mamlakatda suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish va irrigatsiya sektorini optimallashtirish bo‘yicha institutlar va siyosiy mexanizmlar yaratishni nazarda tutadi. Shuningdek, Prezidentning 2019-yil 27-noyabrdagi farmoni “Aholining ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish va uning sifatini yaxshilash” hamda “suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish” bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ko‘zda tutgan. 2025–2028-yillarga mo‘ljallangan suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi ham tasdiqlangan. Ushbu dastur doirasida nasos stansiyalarining elektr dvigatellarini zamonaviy energiya tejamkor modellar bilan almashtirish, shuningdek, 15 ta nasos stansiyasida muqobil energiya manbalarini o‘rnatish rejalashtirilgan. [1]

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish siyosatiga mos ravishda, O‘zbekiston ekologik barqarorlik strategiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan. “Yashil iqtisodiyot” davlat dasturi asosida shamol va quyosh energetikasini kengaytirish, uglerod emissiyalarini kamaytirish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilgan. Bular nafaqat iqtisodiy foyda, balki tabiiy-kimyoviy muvozanatni saqlash, suv va energiya resurslari o‘rtasidagi muvozanatni (energy-water nexus) rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi tahdidlari fonida raqamli texnologiyalar (sensorlar, monitoring, GIS) va yashil energetika yechimlari orqali boshqaruv samaradorligini oshirish muhim strategik yo‘nalishga aylanmoqda.[2]

Shu sababli, ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishda raqamli innovatsiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini birlashtirish yo‘llari, ularning iqtisodiy samarasi va barqaror rivojlanishga ta’siri o‘rganiladi. Tahlil natijalari mamlakat uchun siyosat va investitsiya strategiyalarini shakllantirishda amaliy tavsiyalar berishi mumkin.[3]

Asosiy qism. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun suv resurslarini samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish masalasi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish siyosiy ustuvorlik sifatida

belgilangan. Mamlakatda suv xo‘jaligi tizimining modernizatsiyasi doirasida irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, suv yo‘qotishlarini kamaytirish, nasos stansiyalarida energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash hamda suv-energiya tizimlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.[4]

2025–2028-yillarga mo‘ljallangan irrigatsiya va suv resurslarini boshqarish dasturi doirasida 2,5 ming kilometrdan ortiq irrigatsiya tarmoqlarini qayta tiklash, beton qoplamali kanallar ulushini 39 foizdan 47 foizga oshirish va bu orqali suv yo‘qotishlarini sezilarli kamaytirish maqsad qilingan. Dastur bo‘yicha har yili davlat byudjetidan sezilarli mablag‘lar ajratilishi, shuningdek, xalqaro moliya institutlari tomonidan qo‘shimcha mablag‘ jalb qilinishi belgilangan. Nasos stansiyalaridagi 562 ta nasos va yuzlab elektr dvigatellarni energiya tejamkor modellar bilan almashtirish, 15 ta yirik nasos stansiyasida quyosh energetikasini joriy etish kabi vazifalar suv-energiya tejash bo‘yicha muhim qadamlar hisoblanadi.

Suv ta’minoti past bo‘lgan maydonlarni qisqartirish va qishloq xo‘jaligi uchun zarur suv miqdorini barqaror ta’minlash maqsadida suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish ishlari olib borilmoqda. 2028-yilgacha 1,4 million gektarda suv tejovchi texnologiyalarni, jumladan, tomchilatib sug‘orish usullarini qo‘llash belgilangan bo‘lib, bu suv sarfini kamaytirish bilan birga, hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi. Dastur doirasida 12 mingdan ortiq meliorativ quduq va 1 750 nasosda zamonaviy monitoring va hisoblash tizimlarini joriy etish rejalashtirilgan. Bu orqali suv oqimining real vaqtdagi monitoringi yo‘lga qo‘yilishi, suvdan foydalanishning shaffofligi va boshqaruv sifatining oshishi kutilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning tatbiqi, xususan IoT sensorlari, sun’iy intellektga asoslangan prognozlash tizimlari, SCADA va GIS platformalari suv boshqaruvi tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida suv oqimi to‘g‘risidagi ma’lumotlar uzluksiz to‘planadi, tahlil qilinadi va avtomatlashtirilgan boshqaruv algoritmlari orqali optimal qarorlar shakllantiriladi. Infrastrukturadagi nosozliklarni erta aniqlash, suv yo‘qotishlarini minimallashtirish va irrigatsiya taqsimotini hududlar bo‘yicha adolatli rejalashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Raqamli boshqaruvning joriy etilishi suvdan foydalanish bo‘yicha iqtisodiy samaradorlikni sezilarli oshiradi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va suv xo‘jaligidagi inson omiliga bog‘liq xatoliklarni qisqartiradi. [5]

Yashil energetika yechimlarining tatbiqi suv-energiya tizimlarida barqarorlikni ta’minlashning muhim tarkibiy qismidir. Quyosh panellari bilan jihozlangan nasos stansiyalari elektr energiyasiga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytiradi, uglerod emissiyasini pasaytiradi va tizimning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Energiya tejamkor nasos uskunalari elektr sarfini kamaytirishi natijasida suv ta’minoti tizimining umumiy ishlash xarajatlari qisqaradi. Bunday texnologiyalar ayniqsa suv tanqisligi yuqori bo‘lgan hududlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi jadval O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida erishilishi kutilayotgan asosiy ko‘rsatkichlarni umumlashtiradi:

1-Jadval

O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va yashil energiya bo‘yicha amaldagi davlat tashabbuslari va chora-tadbirlari

Ko‘rsatkich	Hozirgi holat	2028-yilga mo‘ljallangan natija
Suv tejash hajmi	-	14 mlrd m^3
Beton qoplamali kanallar ulushi	39 %	47 %
Suv ta’minoti past maydonlar	424 ming gektar	276 ming gektar
Suv tejovchi texnologiyalar maydoni	-	1,4 mln gektar
Nasos stansiyalari energiya iste’moli	6,8 mlrd kVt·soat	6,2 mlrd kVt·soat

Mazkur ko‘rsatkichlar raqamli transformatsiya va yashil energiya texnologiyalarining integratsiyasi natijasida suv xo‘jaligi tizimida sezilarli samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Tizimning samaradorligi ortishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, suvdan foydalanishning adolatli mexanizmi shakllanadi, ekologik barqarorlik mustahkamlanadi va suv-energiya nexusining strategik ahamiyati kuchayadi.[6]

Umuman olganda, suv resurslarini boshqarishda raqamli innovatsiyalar va yashil energiya yechimlaridan foydalanish O‘zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va institutsional barqarorlikka erishishda ham muhim vositadir. Ushbu yondashuv mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalariga, xususan “O‘zbekiston-2030” maqsadlariga to‘liq mos keladi va global ekologik chaqiriqlarga javob beruvchi innovatsion boshqaruv modelini shakllantiradi.

Xulosa. O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va yashil energiya yechimlarini joriy etish barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda qabul qilingan strategiya va dasturlar suvni tejash, yo‘qotishlarni kamaytirish, monitoringning aniqligini oshirish hamda energetik samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks islohotlarni jadallashtirmoqda. IoT sensorlari, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, GIS platformalari va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlovchi infratuzilmalar suv xo‘jaligini modernizatsiya qilishda real natija bermoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish va yashil energetika integratsiyasi O‘zbekistonning suv xavfsizligini mustahkamlash, ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda strategik ustunlik yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4477-son qarori.https://lex.uz/docs/4543266

2. “Suv resurslarini boshqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6024-son Farmoni. https://lex.uz/docs/5264320

3. O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi. https://strategy.uz

4. “Qishloq xo‘jaligida raqamlashtirishni rivojlantirish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. https://lex.uz

5. OECD. Water Governance in Central Asia: Modernization and Digitalization Pathways. OECD Publishing, 2022.

6. UN-Water. World Water Development Report. United Nations, 2023.

SUSTAINABLE DEVELOPMENT STRATEGIES IN CONSTRUCTION INDUSTRY ENTERPRISES BASED ON DIGITALIZATION AND GREEN TECHNOLOGIES

Shakhnozakhon Nishonova
Fergana State Technical University, Uzbekistan

Abstract. The article explores contemporary challenges and future opportunities for achieving sustainable development within construction industry enterprises, emphasizing the decisive role of innovative technologies in enhancing productivity and mitigating environmental damage. As one of the most resource-intensive and carbon-heavy sectors, the construction industry - especially the segment producing cement, concrete, bricks, and metal structures - continues to exert significant ecological pressure.

The research identifies key problems such as excessive energy use, high levels of CO_2 emissions, substantial waste generation, and the sluggish adoption of modern technological solutions in many countries. It highlights a range of innovative practices, including the development of low-carbon “green” concrete, the utilization of alternative fuel sources, the digital transformation of production processes, and the expansion of recycling and secondary raw-material processing.

The article substantiates the need for a comprehensive, multidimensional approach that incorporates state support mechanisms, the implementation of global ESG and ISO standards, and the formation of long-term sustainable corporate development strategies.

Keywords: sustainable development, construction industry, digitalization, green technologies, low-carbon materials, energy efficiency, alternative fuels, circular economy, ESG standards, ISO standards, innovative technologies, waste recycling, environmental impact, building materials production

Introduction. The rapid digital transformation and the global shift toward low-carbon development have fundamentally reshaped the strategic priorities of enterprises operating in the construction industry. As one of the most resource-

intensive and environmentally impactful sectors, the construction materials industry is now required not only to increase production efficiency, but also to adopt modern digital tools and “green technologies” that ensure sustainable, socially responsible, and environmentally safe development.

According to the International Energy Agency (IEA), the construction sector - including the production of cement, concrete, and other building materials - accounts for nearly 38% of global CO_2 emissions, making it one of the central targets of global decarbonization efforts. In this context, digitalization (BIM, IoT, AI-based monitoring systems) and ecological innovations (low-carbon cement, alternative fuels, circular economy models) are becoming the main drivers of modernization and sustainable transformation within the industry.

The growing demand for energy-efficient, environmentally friendly construction products, as well as the global expansion of ESG requirements, compels enterprises to revise traditional management systems. Today, competitiveness in the construction materials sector directly depends on the ability of enterprises to integrate digital decision-making tools, reduce carbon intensity, optimize resource consumption, and comply with international sustainability standards such as ISO 14001, ISO 50001, LEED, and EDGE.

Therefore, studying the mechanisms of sustainable development at the intersection of digital technologies and green innovations is of high scientific and practical relevance. Digital platforms ensure transparency and operational control, while green technologies reduce environmental impact - together forming an integrated management model that defines the future trajectory of the construction industry. The article examines how combining digitalization and eco-innovations contributes to improving efficiency, environmental performance, and long-term competitiveness of construction industry enterprises.

Challenges Facing Construction Industry Enterprises

Enterprises operating in the construction materials sector face a number of complex, systemic challenges that hinder their transition toward sustainable and innovation-driven development. These challenges are closely interconnected and manifest across technological, environmental, economic, and organizational dimensions.

First, the industry remains highly carbon-intensive. Cement and concrete production contribute significantly to global CO_2 emissions due to the energy-demanding clinker burning process. This makes construction materials production one of the largest industrial emitters, requiring a rapid shift toward low-carbon, energy-efficient technologies.

Second, the sector is characterized by excessive energy consumption. The reliance on outdated production technologies, combined with high thermal requirements, leads to elevated operational costs and increased environmental pressure. In many enterprises, ineffective energy management systems further exacerbate these inefficiencies.

Third, resource inefficiency and waste generation remain critical problems. Large volumes of industrial and construction waste are still underutilized, while recycling rates remain low, especially in developing economies. This contradicts the principles of circular economy and limits the potential for sustainable resource use.

Fourth, the pace of digital transformation and innovation adoption is insufficient. Despite the proven benefits of digital tools - such as BIM, IoT monitoring, robotics, and AI-based analytics - their implementation is often delayed due to financial constraints, institutional gaps, and lack of qualified personnel. As a result, many enterprises continue operating under traditional, low-efficiency management systems.

Fifth, existing institutional and regulatory mechanisms do not always provide adequate incentives for sustainable development. Limited access to “green financing,” insufficient environmental regulation, and lack of ESG-based reporting reduce the motivation of enterprises to implement sustainability-oriented reforms.

Sixth, the sector faces social and labor-related challenges, including low levels of automation, a high proportion of manual labor, and insufficient occupational safety standards. These issues negatively influence productivity, workplace well-being, and long-term human capital development.

Collectively, these problems demonstrate the urgent need to redesign industrial development strategies by integrating digitalization, eco-efficient technologies, and advanced management models. Only a systemic transformation - combining innovation, sustainability, and digital tools - can ensure long-term competitiveness and responsible growth in the construction industry.

Innovative Approaches for Sustainable and Digital Transformation in Construction Materials Production

The construction materials industry is undergoing a profound transformation driven by the dual imperatives of digital modernization and ecological sustainability. Today, enterprises must not only increase production efficiency but also adapt their business models to the principles of low-carbon development, circular economy, and intelligent management systems. The following innovative approaches represent the most significant directions shaping the sector’s modern evolution.

1. Development of Eco-Efficient Concrete and Low-Carbon Cement

Cement production remains one of the largest industrial contributors to global CO_2 emissions. To address this, enterprises worldwide are actively developing eco-friendly concrete formulations that reduce clinker content and incorporate industrial by-products such as fly ash, slag, and natural pozzolans.

Low-carbon binders not only decrease emissions but also enhance material durability, making them an essential component of sustainable construction. The transition toward such materials aligns with international climate requirements and offers promising opportunities for developing countries to modernize their manufacturing processes.

2. Integration of Alternative and Renewable Energy Sources

The adoption of alternative fuels - such as RDF, biomass, and waste-derived energy - is accelerating the industry’s shift toward cleaner production. Leading cement producers have demonstrated that substituting fossil fuels with alternative energy sources can reduce emissions by more than 20–30%.

Additionally, integrating solar, wind, and waste heat recovery systems into production lines increases energy independence and reduces long-term operational costs. This reinforces both environmental responsibility and economic sustainability.

3. Implementation of Circular Economy Principles and Closed-Loop Production

Circular economy models are becoming a strategic priority for the construction materials sector. Closed-loop systems enable the reuse of waste generated during construction, demolition, and manufacturing processes.

Recycled aggregates, crushed concrete, and secondary raw materials not only reduce environmental impact but also stabilize supply chains by lowering dependency on natural resources. Countries such as Japan, Germany, and the Netherlands are leading examples, with recycling rates exceeding 85–90%.

For developing economies, adopting circular production models presents a powerful opportunity to reduce waste, increase resource efficiency, and modernize industry standards.

4. Digital Transformation and Intelligent Manufacturing Technologies

Digitalization is now the cornerstone of sustainable industrial development. Construction materials enterprises increasingly rely on:

- BIM (Building Information Modeling) for precise planning and reducing material waste;
- IoT-based monitoring systems for real-time control of energy consumption and equipment performance;
- AI and predictive analytics for process optimization, defect detection, and preventive maintenance;
- ERP and automated quality-control systems for transparent and integrated management.

These technologies significantly enhance operational resilience, reduce costs, and improve environmental performance. According to McKinsey, digitalization can lower material losses by approximately 15% and reduce total project expenses by up to 20%.

5. Energy-Efficient Production Systems

Improving energy efficiency remains one of the industry’s most effective pathways toward sustainability. Waste Heat Recovery (WHR) units, modern kiln technologies, and smart energy management platforms allow enterprises to reduce fuel consumption and generate a portion of electricity internally.

Such systems not only reduce the carbon footprint but also strengthen industrial competitiveness, particularly in markets with rising energy prices.

6. Smart Safety Systems and Workforce Digital Upskilling

Introducing robotics, automated handling systems, and AI-supported safety controls reduces reliance on manual labor and enhances workplace safety.

Simultaneously, digital upskilling programs, training in green technologies, and cooperation with research institutions create conditions for sustaining innovation and building long-term human capital.

Conclusion

Together, these innovative approaches redefine the operational and strategic landscape of the construction materials industry. The integration of digital solutions and green technologies not only ensures regulatory compliance and environmental protection but also boosts economic efficiency, product quality, and global competitiveness.

This dual-transformation model - digital + green - forms the foundation for a resilient, future-oriented construction sector capable of meeting the challenges of sustainable development.

References

1. Meadows D., Randers J., Meadows D. Limits to Growth: The 30-Year Update. – Chelsea Green Publishing, 2004.
2. Sachs J. D. The Age of Sustainable Development. – Columbia University Press, 2021.
3. United Nations Industrial Development Organization. Industrial Development Report 2022. – Vienna: UNIDO, 2022.
4. International Energy Agency. World Energy Outlook 2023. – Paris: IEA, 2023.
5. Воробьев А. В. Устойчивое развитие: теория, методология, практика. – СПб.: Питер, 2022.

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI INNOVATSIYALAR VA YASHIL ENERGIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Xolmurodov Muhammadjon Dilmurod o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Inson resurslarini boshqarish fakulteti, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotini innovatsiyalar va yashil energiya asosida rivojlantirish masalalari keng tahlil qilinadi. Maqolada innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi, ilmiy-tadqiqot ishlari, raqamli transformatsiya va energiya samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, yashil energiya manbalaridan foydalanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklari O‘zbekiston misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuv va qayta tiklanuvchi energiya integratsiyasining mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ta’sirini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, yashil energiya, raqamli iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, texnologiya.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития экономики страны на основе инноваций и «зелёной» энергетики. Анализируется влияние научных исследований, цифровой трансформации и энергоэффективности на устойчивое развитие. Особое внимание уделено опыту Узбекистана по внедрению возобновляемых источников энергии и инновационных технологий.

Ключевые слова: инновация, зелёная энергетика, цифровая экономика, устойчивое развитие, технологии.

Abstract. This article analyzes the development of the national economy based on innovation and green energy. It examines the role of research, digital transformation, and energy efficiency in sustainable growth. The study emphasizes Uzbekistan’s experience in implementing renewable energy sources and innovative technologies.

Keywords: innovation, green energy, digital economy, sustainable development, technology.

Bugungi kunda global miqyosda iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida innovatsiyalar va yashil energiya manbalari e’tirof etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barqaror iqtisodiyot faqat tabiiy resurslar emas, balki ilmiy yondashuv va texnologik yangiliklar asosida rivojlanadi [1]. O‘zbekiston ham 2030-yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida innovatsion iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya sohasini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan.

Innovatsion iqtisodiyot - bu ilmiy izlanishlar, yangi texnologiyalar va intellektual salohiyat asosida shakllanadigan iqtisodiy tizimdir. U ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytiradi va raqobatbardoshlikni ta’minlaydi [3]. O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ‘Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030’ qabul qilingan bo‘lib, unda ilmiy-tadqiqot institutlari, texnoparklar va startap ekotizimlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Yashil energiya deganda qayta tiklanuvchi energiya manbalari - quyosh, shamol, biomassa va gidroresurslardan foydalanish tushuniladi. Bu energiya turlari ekologik xavfsiz bo‘lib, uglerod chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston geografik jihatdan quyosh nurlanishi yuqori bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, mamlakatda yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda [4]. Masalan, Navoiy viloyatida 100 MVt quvvatli quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi, bu yiliga minglab tonna karbonat angidrid chiqindilarini kamaytiradi [5].

Innovatsiyalar va yashil texnologiyalar o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va energiya saqlash tizimlari yashil iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Masalan, aqlli tarmoqlar (smart grid)

elektr energiyasining ishlab chiqarish va taqsimlanishini avtomatik tarzda boshqaradi [6]. O‘zbekiston bu yo‘nalishda hamkorlikda xalqaro moliya institutlari bilan ishlamoqda, xususan Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki bilan bir nechta energiya samaradorligi loyihalari amalga oshirilmoqda [7].

Bugungi globallashuv davrida iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri - innovatsiyalarni joriy etish va barqaror energiya manbalaridan foydalanish**dir**. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalar va yashil energiya siyosati nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bois, O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga asoslangan rivojlanish yo‘lini tanlamoqda.

Yashil energiya - qayta tiklanuvchi manbalarga (quyosh, shamol, biomassa, gidro va geotermal energiya) asoslangan energiya ishlab chiqarish tizimidir. Xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki:

- Germaniya “Energiewende” dasturi orqali 2030-yilgacha energiya iste’molining 80 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan olishni maqsad qilgan.
- Xitoy dunyoda eng yirik quyosh panellari ishlab chiqaruvchi va shamol elektr stansiyalarini quruvchi davlatga aylangan.
- Daniya shamol energiyasi bo‘yicha yetakchi bo‘lib, elektr energiyasining qariyb 50 foizini shamol turbinalari orqali oladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat iqtisodiyotini innovatsiyalar va yashil energiya asosida rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishidir. Bu yo‘l bilan O‘zbekiston barqaror iqtisodiy o‘sishga, ekologik xavfsizlikni ta’minlashga va xalqaro raqobatbardoshlikka erishadi. Innovatsion yondashuvlar va yashil texnologiyalar uyg‘unligi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. – New York: Harper & Row, 1985.
2. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030. – Toshkent, 2022. – 120 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi rasmiy sayti – https://mininnovation.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–57-son qarori, 2023-yil 9-fevral.
5. World Bank Report: Uzbekistan Energy Transition. – Washington, D.C., 2023.
6. OECD (2021). Green Growth and Innovation: Policy Framework. – Paris: OECD Publishing.
7. Osiyo Taraqqiyot Banki. Renewable Energy Development in Central Asia. – Manila, 2022.

INNOVATIVE AND GREEN STRATEGIES FOR ENHANCING LABOR PRODUCTIVITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Abdukhakimova Farangiz Sidiqjon kizi
Master’s Student, Department of Economics,
Ferghana state technic university, Uzbekistan

Abstract. The development of the national economy increasingly depends on innovation and the implementation of green energy solutions. This article explores how industrial enterprises can enhance labor productivity through the integration of innovative technologies and environmentally sustainable practices. The research highlights the importance of introducing energy-efficient production systems, digital transformation, and strategic management tools that align with the principles of the green economy. The study concludes that a combination of innovation and green energy not only increases productivity but also ensures long-term industrial competitiveness and sustainable development.

Keywords: innovation, green energy, industrial enterprises, labor productivity, sustainable development.

Аннотация. Развитие национальной экономики всё больше зависит от внедрения инноваций и решений в области зелёной энергетики. В статье рассматриваются возможности повышения производительности труда на промышленных предприятиях за счёт интеграции инновационных технологий и экологически устойчивых практик. Подчёркивается значение внедрения энергоэффективных производственных систем, цифровой трансформации и стратегического управления, основанных на принципах зелёной экономики. Сделан вывод, что сочетание инноваций и зелёной энергетики способствует не только росту производительности, но и повышению конкурентоспособности и устойчивому развитию промышленности.

Ключевые слова: инновации, зелёная энергия, промышленные предприятия, производительность труда, устойчивое развитие.

Annotatsiya. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi innovatsiyalar va “yashil energiya” yechimlarini joriy etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu maqolada sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari innovatsion texnologiyalar va ekologik barqaror amaliyotlar integratsiyasi orqali tahlil qilinadi. Tadqiqotda energiya tejamkor ishlab chiqarish tizimlarini, raqamli transformatsiyani va yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan strategik boshqaruv vositalarini joriy etish zarurligi ta’kidlanadi. Xulosa sifatida, innovatsiyalar va yashil energiya uyg‘unligi nafaqat unumdorlikni oshiradi, balki sanoatning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ham ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, yashil energiya, sanoat korxonalari, mehnat unumdorligi, barqaror rivojlanish.

In the era of global transformation, the competitiveness of national economies increasingly depends on innovation, technological modernization, and the transition to sustainable energy systems. Industrial enterprises are the core of economic growth, yet they remain among the largest consumers of energy and natural resources. Therefore, achieving higher labor productivity while reducing environmental pressure has become a strategic objective for policymakers and enterprises worldwide.

The concept of a *green economy* is gaining momentum as a key instrument for combining economic efficiency with environmental responsibility. Green innovations-such as energy-efficient technologies, renewable energy sources, digital automation, and resource optimization-offer opportunities to significantly improve the efficiency of industrial processes. As a result, industries can simultaneously increase productivity, reduce production costs, and minimize negative environmental impacts.

For developing economies like Uzbekistan, where industrial modernization is one of the government’s top priorities, the integration of green energy solutions and innovative practices is especially crucial. Despite steady industrial growth, many enterprises still face low productivity levels due to outdated technologies, inefficient energy use, and insufficient innovation management. This situation requires a shift toward innovation-based and environmentally friendly production models that ensure long-term competitiveness and sustainable development.

The main goal of this research is to analyze the relationship between innovation, green energy implementation, and labor productivity in industrial enterprises. The study identifies key factors influencing productivity growth and provides evidence of how green and innovative strategies contribute to higher performance and sustainability in the industrial sector.

The relationship between innovation, productivity, and sustainability has been widely studied in economic literature. According to Aghion and Howitt (2009), innovation acts as a key driver of long-term productivity growth by improving technological efficiency and creating new production processes[1]. Their endogenous growth theory highlights that technological progress directly increases the output per worker and overall industrial competitiveness.

Krugman (1991) emphasizes that countries integrating innovation into their industrial strategies achieve a stronger position in global trade, as productivity becomes the main determinant of comparative advantage[2]. Similarly, the OECD (2019) report on *Productivity Growth in the Digital Age* identifies innovation and digitalization as critical tools for enhancing industrial efficiency and achieving sustainable economic development[3].

Recent studies on the green economy extend this view by linking innovation with environmental performance. Porter and van der Linde (1995) propose that eco-innovation not only reduces environmental impact but also enhances competitiveness through improved resource efficiency and cost reduction[4]. The concept of *green innovation* suggests that environmentally friendly technologies

stimulate both economic and ecological benefits, creating a “win–win” effect for enterprises and society.

In the context of developing economies, UNIDO (2022) highlights that green industrialization is essential for achieving inclusive and sustainable growth[5]. For countries like Uzbekistan, the shift toward renewable energy, energy-efficient equipment, and digital industrial management is a necessary step toward improving labor productivity and aligning with global sustainability goals.

Thus, the theoretical literature demonstrates that innovation and green energy are interrelated factors that positively influence industrial productivity, competitiveness, and sustainability. However, empirical evidence on how these mechanisms operate within emerging economies remains limited, particularly regarding the industrial sector of Uzbekistan - a gap this study aims to address. This research is based on a mixed-methods approach, combining quantitative statistical analysis and qualitative assessment of industrial enterprises adopting innovative and green energy technologies.

Table 1

The study uses publicly available data from the following sources:

Source	Type of Data	Indicators Used
State Committee of Statistics of Uzbekistan (2020–2024)	Official industrial and energy statistics	labor productivity index, industrial output, energy intensity
Ministry of Energy of Uzbekistan (2023–2024)	Renewable energy and efficiency programs	share of renewable energy, reduction in energy losses
OECD (2019), World Bank (2023) reports	Global data on digitalization and productivity	innovation adoption index, digital transformation impact

Author’s calculations are based on grouped and processed datasets from these sources.

Research model. To determine the impact of green innovation on labor productivity, the following model was applied:

LP=f(INN,GE,DT,EC)LP = f(INN, GE, DT, EC)LP=f(INN,GE,DT,EC) Where:

- LP – labor productivity growth
- INN – innovative technologies adoption
- GE – green energy and renewable energy integration
- DT – digital transformation level (automation, IoT, smart metering)
- EC – energy consumption optimization (energy efficiency)

A correlation analysis and comparative evaluation were used to measure how the implementation of green energy solutions affects productivity and operational efficiency in enterprises. Hypothesis: *Integration of innovative and green energy technologies has a positive impact on labor productivity and reduces production costs.*

Table 2

Change in labor productivity depending on innovation adoption

Innovation adoption level (enterprise group)	Average productivity growth (%)	Energy cost reduction (%)
Low (traditional production)	2–4%	0–3%
Medium (partial automation, basic energy monitoring)	6–12%	5–10%
High (green energy + full automation + digital monitoring systems)	18–27%	20–35%

Source: Author’s calculations based on data from OECD, World Bank, Ministry of Energy of Uzbekistan (2024).

Enterprises that combine automation with green energy solutions achieve up to 27% labor productivity growth, while those that operate under traditional methods show minimal improvements.

Table 3

Impact of green energy usage on industrial performance (Uzbekistan sample)

Indicator (2024)	Enterprises using green energy	Enterprises not using green energy
Labor productivity index (baseline = 100%)	118%	102%
Operational cost savings	–22%	–3%
CO_2 emissions reduction	–30%	0%

The introduction of renewable energy (solar panels, heat recuperation, and energy management systems) significantly reduces operating costs, lowers emissions, and leads to higher productivity growth.

The results confirm the hypothesis that integrating innovation and green energy creates a synergistic productivity effect:

- digital automation reduces human errors and downtime;
- energy-efficient systems reduce costs, which increases value added per employee;
- smart monitoring systems improve production planning and maintenance.

Thus, enterprises using innovative and eco-friendly solutions achieve long-term competitiveness and sustainable development.

This research demonstrates that the integration of innovation and green energy solutions plays a decisive role in enhancing labor productivity in industrial enterprises. The empirical results and comparative analysis confirm that enterprises adopting renewable energy systems, automation, and digital transformation achieve:

- lower production costs due to reduced energy consumption,

- increased output per worker through process optimization,
- improved environmental performance and reduced emissions,
- strengthened long-term competitiveness in both domestic and global markets.

The key finding is that a combined implementation of innovative technologies and green energy generates a synergistic productivity effect, where efficiency gains are significantly higher than when these practices are applied separately. This synergy creates a “win–win” outcome: productivity increases while environmental impact decreases.

For countries such as Uzbekistan, where industrial modernization and energy efficiency are national priorities, the transition toward green innovation should be considered a strategic direction. Policies that support digitalization, green financing, and incentives for renewable energy adoption can accelerate industrial transformation and ensure sustainable economic development.

Thus, innovative and green strategies are not simply optional improvements- they are essential instruments for building a competitive and future-oriented industrial economy.

References:

1. Aghion, P., & Howitt, P. (2009). *The Economics of Growth.* Cambridge, MA: MIT Press. ISBN: 978-0-262-51366-1. pp. 45–68. DOI:
2. Krugman, P. (1991). *Geography and Trade.* Cambridge, MA: MIT Press. ISBN: 978-0-262-11162-1. pp. 21–35.URL:
3. OECD. (2019). *Productivity Growth in the Digital Age.* Paris: OECD Publishing. ISBN: 978-92-64-31181-1. pp. 9–27.DOI:
4. Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a New Conception of the Environment–Competitiveness Relationship. *Journal of Economic Perspectives*, *9*(4), 97–118.DOI: https://doi.org/10.1257/jep.9.4.97
5. UNIDO. (2022). *Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World.* Vienna: United Nations Industrial Development Organization. ISBN: 978-92-1-106456-2. pp. 56–72. URL: https://www.unido.org/resources-publications
6. State Committee of Statistics of Uzbekistan. (2024). *Industrial Development and Labor Productivity Indicators: Statistical Bulletin.* Tashkent: UzStat. URL: https://stat.uz/
7. Ministry of Energy of Uzbekistan. (2024). *Renewable Energy Development Program 2024–2030.* Tashkent: Ministry of Energy. URL: https://minenergy.uz/
8. World Bank. (2023). Green Growth and Industrial Energy Efficiency Report. Washington, DC: World Bank Group. URL: https://www.worldbank.org/

4-SHO‘BA
MAMLAKAT IQTISODIYOTINING RIVOJLANTIRISHIDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINING O‘RNI

TEXNIK OLIY O‘QUV YURTLARIDA IQTISODIY FANLARNI IMITATSION MODELLAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI

Boymatov Tuychivoy Alijonovich
Farg‘ona viloyati oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i
Email: tuychiboyboymatov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnik oliy ta’lim yo‘nalishlarida talabalarining iqtisodiy, boshqaruv, qaror qabul qilish, korxonalar barqarorligini oshirish bo‘yicha iqtisodiy xulosalar bera olish bo‘yicha bilimlarini oshirish, shuningdek texnik ta’lim yo‘nalishlari talabalarini iqtisodiy fanlarni imitatsion modellar orqali o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar: interaktiv usullar, loyihaviy o‘qitish, elektron ta’lim, imitatsion model tushunchasi, turlari (dinamik, stsenariyli, rolli, agentli modellar), xorijiy va mahalliy tajribada simulyatsiya asosida iqtisodiy ta’lim, ta’lim jarayonida iqtisodiy tahliliy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi muammolarni o‘rganishda simulyatsion model yaratish konsepsiyasi: o‘quv stsenariylari va algoritmlarni ishlab chiqish jarayonlarini o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: texnik ta’lim yo‘nalishlari, iqtisodiy bilimlar, korxonalar barqarorligini ta’minlash, o‘qitish metodlari, imitatsion model, interaktiv usullar, loyihaviy o‘qitish, elektron ta’lim, iqtisodiy ko‘nikmalarini shakllantirish.

Oliy ta’limni isloh qilishda bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash oliy ta’lim tizimining eng asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Texnika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida iqtisodiy fanlarni o‘qitish jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki talabalarda real ishlab chiqarish va boshqaruv muhitida zarur bo‘ladigan tahliliy, boshqaruv va iqtisodiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Bu esa o‘quv jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishni, innovatsion metod va vositalardan foydalanishni talab etadi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ta’lim jarayoniga keng ko‘lamli axborot-kommunikatsiya vositalarini, elektron o‘quv resurslarini, virtual va imitatsion modellarni joriy etish imkonini yaratdi. Ayniqsa, iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, biznes muhitidagi turli stsenariylarni sinovdan o‘tkazish, iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘zgarishining oqibatlarini tahlil qilishda simulyatsion o‘qitish texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali talabalarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy muammolarni hal etish

ko‘nikmalari, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tahliliy yondashuv va tanqidiy fikrlash malakasi shakllanadi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha an’anaviy yondashuvlarda ko‘proq nazariy bilimlarni berishga e’tibor qaratilib, talabalarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash masalasi yetarli darajada ta’minlanmagan. Natijada texnik yo‘nalishdagi mutaxassislar ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy asoslangan qarorlar qabul qilish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardosh boshqaruv tizimlarini joriy etishda muammolarga duch kelmoqda. Shu sababli ta’lim jarayoniga imitatsion modellarni keng joriy qilish, ularni iqtisodiy fanlarni o‘qitishga moslashtirish, metodik asoslarini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda nafaqat iqtisodiy sohada, balki muhandislik, texnologiya va boshqa texnik yo‘nalishlarda ham iqtisodiy qarorlar qabul qilish kompetensiyalariga ega bo‘lgan mutaxassislarga talab yuqori. Xalqaro tajribada simulyatsion o‘qitish texnologiyalari - biznes o‘yinlar, virtual laboratoriyalar, stsenariy asosidagi modellar, agentli modellashtirish va raqamli “tvins” (digital twin) texnologiyalari keng qo‘llanilib, talabalar bilimini amaliyot bilan uzviy bog‘lash imkonini bermoqda. Shu nuqtayi nazardan, texnika oliy ta’lim tizimida iqtisodiy fanlarni imitatsion modellar asosida o‘qitish metodikasini ishlab chiqish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga oid qaror va farmonlari ham ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi. Texnika OTMlarida o‘quv jarayonini simulyatsiya asosida tashkil qilish - bu talabalarga nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan holda, ishlab chiqarishdagi real iqtisodiy jarayonlarni xavfsiz muhitda sinab ko‘rish imkonini beradigan zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘ladi.

Texnika oliy o‘quv yurtlarida talabalarga o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalarining pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq etishning uch qismga O‘zbekistonda, MDH mamlakatlarida va G‘arb mamlakatlarida o‘rganilishi sifatida tasniflash mumkin.

Xorij tajribasiga nazar solsak, ta’lim sohasidagi islohotlar aynan texnika oliy o‘quv yurtlarining texnologik-pedagogik zamonaviy o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida amalga oshirish orqali sifatli ta’lim amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan interventsion texnik ta’lim tadqiqotini taqdim etadi. Imitatsion-variativlik pedagogikasi asosan texnika oliy ta’lim sohasidagi bo‘lajak kadrlarni tayyorlash va ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun matnlarning ichki tuzilishini tahlil qilishni o‘qitishdan iboratdir. Asosiy e’tibor texnik matnlarni pedagogik texnologiyalar yordamida tushunish hamda sinergetik, germenevtik va praksiologik yondashuv orqali o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik va vizual-amaliy yo‘nalganlik imkoniyatlarini kengaytirish vositasida talabalarning texnik oqilonalik orqali texnika tilini bilish, o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik

asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalarini mazmun mohiyati va texnika ta’limidagi ahamiyatini talabalar ongida shakllantirishga qaratilgan. Dunyoning ilg‘or xalqaro oliy ta’lim texnika oliy o‘quv yurtlarida olib borilayotgan islohotlarda belgilangan maqsadlarga e’tibor berilganda, imitatsion-variativlik asosida o‘qitish - bo‘lajak muhandislar uchun ta’lim jarayoni, jumladan, hozirgi vaqtda o‘rganish va o‘rganilgan tadqiqotlardan kelajakda butunlay yangi sharoitlarda yoki vaziyatlarda foydalanish imkoniyatidir. Ushbu tadqiqot ishimizda imitatsion-variativlik asosida o‘qitish yordamida texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarini kasbiy kompetentliklarini oshirish jihatlari, o‘z kasbini texnologik madaniyatni tashkil etuvchi komponentlar, mutaxassislik fanlarni o‘qitishdagi o‘rni va mazmunini integrallashuvi o‘laroq tushunishni rivojlantirish yoki ularni texnologik jixatdan takomillashtirish usullarini yaratish masalasi ekanligi yoritilgan. Bu jarayonda albatta asosiy fundamental va aprior omil bu imitatsion model hisoblanadi.

Evropada, xususan Xorvatiya va Sloveniya iqtisodiy - menejment fakultetlarida o‘qituvchilar o‘rtasida olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, simulyatsion o‘yinlar ta’lim jarayonida talabalarni faol ishtirokka undaydi, motivatsiyani oshiradi hamda o‘rganish samaradorligini kuchaytiradi. Yevropalik olimlar Javier Sierralarning tadqiqotlarida Yevropa Ittifoqi kengashi simulyatsiyasini qo‘llagan holda talabalar o‘zaro muhim siyosiy-iqtisodiy qarorlarni rollarda o‘ynab o‘zlashtirgan, bunga ular "muammoni yechish jarayonini yanada murakkab his qildik va siyosiy faolligimiz oshdi" deya baho berishgan. Tina Beranich, Marjan Herichkolarning tadqiqotlarija biznes simulyatsiyasi bo‘lib, ayniqsa ERP (Enterprise Resource Planning) kontseptsiyalarini o‘rgatishda qo‘llanilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar ushbu simulyatsiyani semestr boshida kiritish orqali talabalar ishtirokini oshirgan va o‘rganish natijalarini yaxshilagan. Germaniyalik olim R.Geismarning tadqiqotlarida Interaktiv brauzer asosidagi makroiqtisodiy modellar taklif qilingan. Ushbu model asosida IS-LM va Solow modelini brauzerda ishlovchi interaktiv simulatsiya orqali o‘qitishda talabalar real vaqt rejimida parametrlarni o‘zgartirib, model natijasini kuzatish orqali nazariyani amalda tushunib borilgan.

Agent-Based Computational Economics (ACE) yondashuvi iqtisodiy tizimni ko‘plab agentlar orqali modellashtiradi. Bu agentlar o‘zaro aloqada bo‘lgan murakkab adaptiv tizimni yaratadi. Bu yondashuv Bozor strukturalari, dinamikasi, noaniqlik, emergent xususiyatlarni o‘rganishda qo‘llaniladi. BMT tomonidan ishlab chiqilgan Policy Priority Inference (PPI) — byudjetni agentlarga asoslangan modellashtirish orqali taqsimlash va siyosat ustuvorliklarini aniqlash uchun mo‘ljallangan yozilma bo‘lib, iqtisodiy va siyosiy qarorlarni simulatsiya qilishda yuqori darajadagi metod hisoblanadi. Shuningdek, STEM metodlari yordamida talabalar individual va guruh ichidagi menejerlik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv talabalarni real biznes vaziyatlarini simulyatsiya orqali boshqarishga o‘rgatadi.

Ushbu yondashuvlar asosida texnik oliy ta’lim muassalari talabalarining

iqtisodiy bilimlarini oshirida o‘qitishning quyidagi innovatsion metodlaridan foydalanish mumkin.

1-jadval.

Iqtisodiy bilimlarini oshirishda innovason metodlar

Yondashuv turi	Afzalliklari	Qo‘llanilish sohalari
Iqtisodiy o‘yinlar va simulyatsiyalar	Talabalarni faollikka jalb qiladi, nazariyani amaliyot bilan bog‘laydi	Mikroiqtisodiyot, bozordagi strategik qarorlar qabul qilishda
Interaktiv brauzer modellari	Onlayn-learning uchun qulay, vizual tushuntirish	Makroiqtisodiyot darslarini tahlil qilishda
Agent-based modellashtirish	Tizim ichidagi murakkab interaktsiyalarni o‘rganishga imkon	Iqtisodiy tizimlar dinamikasi, adaptiv modellardan foydalanishda
Intopia simulatsiyasi	Guruhda learning, strategik raqobat ko‘nikmalarini shakllantiradi	Boshqaruv, biznes strategiyalarini ishlab chiqishda
PlatBox (dasturlashsiz)	Tasviriy interfeys bilan qulay	Dasturlashsiz simulyatsiya yaratish bosqichlarida
PPI (BMT)	Siyosat tahlili uchun realist model, makroiqtisodiy misol	Siyosat, davlat byudjetlari, makro ixitola darslarida

O‘zbekistonda Yangi uyg‘onish davri, ya’ni raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarga asoslangan Uchinchi Renessans davri - O‘zbekistonning taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning muhim yo‘nalishi bu globallashuv sharoitida innovatsion texnologiyalardan to‘g‘ri foydalana oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo‘ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy muhandislikni texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishdagi moddiy texnik baza hamda dasturiy vositalari orqali darslarni o‘tishda pedagog boshqaruvchi vazifasida bo‘lishi kerak. Bu tamoyil dars o‘tishda rejalashtirilgan o‘quv metodik qo‘llanma yordamida dars o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida faollashtirishni ta’minlaydi. Keyingi jarayon darslarni rejalashtirish jarayoni hisoblanib, unda EHM dasturlarini tayyorlash hamda kommunikatsion vositalarni faollashtirish hisoblanadi

Texnik oliy o‘quv yurtlarida iqtisodiy fanlarni simulyatsion modellar asosida o‘qitish metodikasi, talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Bu metodika, ayniqsa, iqtisodiy nazariyalar va usullarni real dunyo muammolariga tatbiq etishda samarali bo‘lib, talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini rag‘batlantiradi. Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini oson hamda tushunarli qilib tinglovchiga havola qilish ham ular oldiga qo‘yilgan maqsadlardan biri hisoblanadi. Mavzularga mos ravishda virtual resurslarni ilg‘or pedagogik metodlar bilan yaratish rivojlanishni ta’minlaydi. O‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni

takomillashtirish texnologiyalari ijtimoiy tushunchalardagi nazariy va metodologik atama bo‘lib, unga ko‘ra jamiyat taraqqiyoti texnika va texnologiyaning rivojlanishi bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari asosida texnologiya bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta muammo, xususan, konsepsiyani o‘qitishdagi pedagogik muammolar, texnika va texnologiya tabiati, ijtimoiy ahamiyati muhokama qilinmoqda. Jumladan, modellarni tanlash va tayyorlashda o‘qitilayotgan iqtisodiy fanlarga mos keluvchi real hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi simulyatsion modellar tanlanadi. Bu modellar talabalarga iqtisodiy hodisalar, bozordagi o‘zgarishlar va boshqa omillarni tushunishga yordam beradi.

O‘quv jarayoniga integratsiya qilishda tanlangan modellar darsliklar, amaliy mashg‘ulotlar va talabalar tomonidan o‘tkaziladigan loyihalarga kiritiladi. Talabalarga modellarni tahlil qilish, ulardagi omillarni o‘zgartirish va natijalarni baholash o‘rgatiladi.

Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda talabalar modellar yordamida iqtisodiy holatni tahlil qilish, eng yaxshi yechimlarni izlash va qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar.

O‘z-o‘zini baholash va mulohaza yuritishda talabalar o‘zlarining bajarilgan ishlarini va modellardan olingan natijalarni tahlil qilib, o‘zlarini baholashadi. Bu ularning fanlarni chuqurroq tushunishlariga va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishlariga yordam beradi.

Шундай қилиб, илдам ривожланаётган мамлакатимизда раҳбарлик лавозимларига мураккаб ўтиш даврининг талабларига мос, замонавий билимларга эга кадрларни танлаш, тайёрлаш ва уларнинг заҳирасини шакллантириш бугунги куннинг долзарб масаласига айланди. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг биринчи йўналишида “Кадрларни танлаш ва жой-жойига қўйиш жараёнига янгича, замонавий ёндашувлар жорий этиш” мақсади қўйилганлиги бежизга эмаслигини кўришимиз мумкин.

Раҳбар кадрлар ва уларнинг заҳираси билан ишлашни амалда ривожлантириш, мазкур соҳада амалга оширилаётган ишларни мунтазам кузатувлар асосида ўрганиб бориш ва таҳлил қилиш, тегишли тадбирлар, келажакда қилиниши зарур бўлган ишларни олдиндан режалаштириш талаб этилади. Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёев таъбири билан айтганда “Ислоҳот – бу янгиланиш, ўзгариш дегани. Ислоҳотлар ижобий натижа бериши учун, аввало раҳбарларимиз ва одамларимиз ўзгариши керак.... Бу мақсадга эришиш учун биринчи навбатда барча даражадаги раҳбарлар, барча етакчилар ўз фаолиятини танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик асосида ташкил этишини бугун ҳаётнинг ўзи талаб қилаябди” [2. 27-б.].

Ана шу ва бошқа муаммо ҳамда камчиликларни тезроқ ҳал этиш, ушбу соҳада амалга оширилаётган ижобий ишларни оммалаштириш ва янада такомиллаштириш устида тинимсиз изланишлар олиб бориш, уларни амалиётга жорий этиш мақсадга мувофиқ бўлади. Ҳозирда мамлакат миқёсида бошқарув кадрларига бўлган талаб ва таклифни ўрганиш, ушбу кадрларни тайёрловчи ва уларни талаб қилувчи ташкилотлар ўртасидаги муносабатларни мувофиқлаштириш биринчи галдаги вазифа бўлиб қолмоқда.

Бу борада 2022 йилнинг 4 август куни бўлиб ўтган Давлат хизматини ислоҳ қилиш ва бошқарувда натижадорликни ошириш чора-тадбирларига бағишланган видеоселектор йиғилишида Президент ҳар қандай “Соҳа рақобатбардош бўлиши учун малакали кадрлар, илм-фан ва инновациялар зарур”лигини таъкидлаб, “ҳар бир вазирлик ва ҳокимлик кадрлар танлашни олий ўқув юртларидан бошлаши керак”лигини қайд этди. Шунингдек, ушбу йиғилишда бугун “Иқтисодиётда хусусий сектор ўсиб бораётгани сари

малакали кадрларга талаб ошиб бораётганлиги” ҳам айтиб ўтилди, шундай экан ушбу амалиётни бизнес тузилмаларида ҳам қўлланса маҳсулот ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва ишлар бажариш сифати ошиб, уларнинг самарадорлиги таъминланган бўлар эди.

Бинобарин, олий ва ўрта махсус ўқув юртларини битираётган мутахассисларнинг рақобатбардошлигини ошириш, жумладан кадрларни бошқариш ва лидерлик фаолиятига умумий тайёрлашдан алоҳида ҳамда мақсадли тайёрлашга ўтиш, яъни профессионал менежерлар тайёрлашга ўтишI, уларни талаб қилувчи ташкилотларда эса кадрларни танлаш, жой-жойига қўйиш ва мунтзам малакасини ошириш механизмларини такомиллаштириш талаб этилмоқда.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, бугун мамлакатда барча соҳалардаги каби бошқарув тизимини такомиллаштириш борасида амалга оширилаётган изчил ва тизимли ислоҳотлар қаторида жойлардаги бошқарув тизимларида ва унинг энг асосий элементи бўлмиш кадрларни танлаш, жой-жойига қўйиш ва улар билан ишлаш йўналишлари ва механизмларида ушбу изланишда амалга оширилган таҳлиллар, амалий таклиф ва тавсиялар ўзининг ижобий натижасини кўрсатади деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари.–Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020 й.

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2021 й.

3. Тўхтабоев А. Жойларда кадрлар билан ишлашни такомиллаштириш масалалари. Монография. –Андижон: «ANDIJON NASHRIYOTI», 2002 й. 214 б.

4. Тўхтабоев А. Менежер фазилатлари. Ўқув қўлланма. –Т.: «MATRIX PRINT» МЧЖ , 2008 й. 172 б.

5. To‘xtaboyev A.T. Tashkiliy xatti-harakatlar. Darslik. –T.:“Universitet”, 2021 y. 260 bet.

“INTELLEKTUAL ELCHILAR KORPUSI”NI SHAKLLANTIRISH – MAMLAKATNING “YUMSHOQ KUCH”I VOSITASI SIFATIDA

Izzatillayev Otabek Olimjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati devoni,
Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘limi mudiri,
tel.: (97) 462-29-23; el. manzil: o.izzatillayev@gmail.com

“Bugungi kunda har qanday mamlakatning taraqqiyoti va dunyoda raqobatbardoshligi, avvalo, ta’lim sifatiga, ilm-fan rivojiga bog‘liqdir.” Sh.M.Mirziyoyev [1, 121-b.]

Annotatsiya. Maqolada globallashuv sharoitida “yumshoq kuch” siyosati orqali mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashda ta’lim sohasining o‘rni tahlil qilingan. Xususan, xorijiy talabalarni O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga jalb etishning hozirgi holati, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Maqolada xorijiy talabalarni jalb etish va ularning salohiyatidan samarali foydalanish bo‘yicha tizimli yondashuvni va institutsional asoslarni shakllantirish zarurligi ilgari surilgan. Shuningdek, muallif tomonidan ilk marotaba fanga yangi tushuncha – “intellektual elchilar korpusi” kiritilib, uning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, “yumshoq kuch”, “intellektual elchilar korpusi”, “dunyo onglari uchun kurash”, xorijiy talabalar, oliy ta’lim konsepsiyasi, ta’lim diplomatiyasi.

Аннотация. В статье проанализирована роль системы образования в укреплении международного имиджа страны посредством политики «мягкой силы» в условиях глобализации. В частности, раскрыто современное состояние, существующие проблемы и перспективы привлечения иностранных студентов в систему высшего образования Узбекистана. В работе обоснована необходимость формирования системного подхода и институциональных основ по привлечению иностранных студентов и эффективному использованию их потенциала. Кроме того, автором впервые в научный оборот введено новое понятие – «корпус интеллектуальных послов», раскрыто его содержание и значение.

Ключевые слова: образование, «мягкая сила», «корпус интеллектуальных послов», «борьба за умы», иностранные студенты, концепция высшего образования, образовательная дипломатия.

Abstract. The article analyzes the role of the education system in strengthening the country’s international image through a policy of “soft power” in the context of globalization. In particular, it reveals the current state, existing problems, and prospects for attracting foreign students to the higher education system of Uzbekistan.

The paper substantiates the need to develop a systematic approach and institutional framework for attracting foreign students and effectively utilizing their potential. In addition, the author introduces a new concept into scientific discourse for the first time – the “Corps of intellectual ambassadors” – and reveals its content and significance.

Keywords: education, “soft power,” “Corps of intellectual ambassadors,” “battle for minds,” foreign students, concept of higher education, educational diplomacy.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida jahon siyosiy, iqtisodiy va madaniy maydonida tobora kuchayib borayotgan muhim jarayonlardan biri – bu “dunyo onglari uchun kurash” (“battle for minds”, “competition for hearts and minds”) deb ataladigan yangi formatdagi raqobatdir. Agar XX asrda davlatlar asosan harbiy

yoki iqtisodiy ustunlik uchun bellashgan bo‘lsa, XXI asrda ularning ta’sir kuchi avvalo axborot, g‘oya va qadriyatlar orqali inson ongiga ta’sir o‘tkazish qobiliyati bilan belgilanmoqda.

Bu kurashning mohiyati shundaki, har bir davlat o‘z milliy manfaatlarini faqat siyosiy yoki iqtisodiy instrumentlar bilan emas, balki axborot siyosati, madaniyat, ta’lim, fan va texnologiya orqali ham ilgari surishga intilmoqda. Shu yo‘l bilan mamlakatlar jahon jamoatchiligida ijobiy imidj yaratish, o‘z qadriyatlarini jozibador ko‘rinishda taqdim etish va boshqa davlatlarning elitalari hamda yosh avlodining ongini shakllantirishga harakat qilmoqdalar.

“Yumshoq kuch” deb ataladigan ushbu jarayonda g‘oyalar, ta’lim dasturlari, axborot resurslari va fan yutuqlari davlatlar ta’sirining strategik quroliga aylanmoqda. Bu jarayonda O‘zbekiston ham faol ishtirok etib, o‘z milliy madaniyati, ta’lim tizimi va ilmiy salohiyati orqali xalqaro maydonda ma’naviy ta’sirini kuchaytirishi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Tahlil. Ta’kidlash joizki, so‘nggi o‘n yilda O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari soni 3,2 baravarga, xorijiy oliy ta’lim muassasalarining mamlakatimizdagi filiallari soni esa 4,2 baravarga ortdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning kelgusida yurtimizda TOP-100 talikka kirgan universitetlar filiallari ochilishi to‘g‘risidagi tashabbusi [2] mamlakatda ilmiy-intellektual salohiyatning o‘sib borayotganidan, bilim eksporti va ta’lim sohasidagi xalqaro integratsiya jarayonlari izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo miqyosida tahlil etilganda, oliy ta’lim muassasalari soni bo‘yicha O‘zbekiston yetakchi o‘rinni egallamoqda (Diagramma №1).

Diagramma №1



* *Ma’lumotlar O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston respublikalarining statistika organlari hamda Turkmaniston Ta’lim vazirligining veb-sahifalarida mavjud axborotlar asosida shakllantirilgan.*

Ushbu natijalar faqatgina ta’lim infratuzilmasining kengayishi bilan emas, balki mamlakatning intellektual imkoniyatlari va inson kapitali salohiyatining sifat jihatidan o‘sishi bilan ham bog‘liq.

Shu bilan birga, mazkur o‘zgarishlar jamiyatda bilim va malakaga asoslangan ijtimoiy tuzilmalarning shakllanishiga, ya’ni “bilim jamiyati” sari harakatning tezlashishiga olib kelmoqda. Ta’lim tizimining kengayishi ijtimoiy lift funksiyasini kuchaytirib, yosh avlodning ijtimoiy faolligini va fuqarolik identifikatsiyasini mustahkamlaydi.

O‘zbekistonda oliy ta’limni isloh qilish jarayonlari nafaqat ichki ehtiyojlarga, balki jahon ta’lim makonida munosib o‘rin egallash strategiyasiga ham xizmat qilmoqda. Xususan, mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi qo‘shma dasturlar, ikki diplomli ta’lim modellari, professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi dasturlari orqali yangi avlod mutaxassislari – global fikrlaydigan, xalqaro standartlarda bilim oladigan va milliy manfaatlarni jahon miqyosida ifoda eta oladigan kadrlar shakllanmoqda.

Bu jarayon natijasida xalqaro ta’lim almashinuvi orqali transmilliy ijtimoiy tarmoqlar paydo bo‘lmoqda. Ular nafaqat bilim almashishni ta’minlaydi, balki davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy ishonch va muloqotni kuchaytiradi. Shu jihatdan, xorijiy talabalarning soni ortishi O‘zbekistonning global ijtimoiy kapitalini kengaytirish jarayoni sifatida qaralishi mumkin.

Xorijiy talabalarni jalb etish davlatning xalqaro nufuzi va ijobiy imijini mustahkamlashga xizmat qiluvchi “yumshoq kuch” siyosatining muhim va samarali instrumentlaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu vosita orqali mamlakatlar o‘z madaniy qadriyatlari, ilmiy salohiyati va ijtimoiy modelini jahon hamjamiyatiga namoyon etadi. Sotsiologik nuqtai nazardan, xorijiy talabalarning jamiyatga integratsiya jarayoni ijtimoiy muhitning ochiqlik darajasi va inklyuzivlik ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunday siyosat nafaqat xorijiy yosh avlod va intellektual elita orasida mamlakat haqida ijobiy tasavvur shakllantiradi, balki uzoq muddatli xalqaro hamkorlik va ishonch muhitini vujudga keltiradi.

Xususan, 2025-yilning 8 oyi davomida 14216 nafar xorijiy fuqaro O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olishni boshlagan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 28,8 foizga o‘sgan. Xorijiy talabalarning asosiy qismini Turkmaniston (4603 nafar) va Hindiston (3477 nafar) fuqarolari tashkil etgan. Shuningdek, Tojikiston (1392), Xitoy (710), Pokiston (700) va Janubiy Koreya (553)dan kelgan talabalar soni ham salmoqli ulushga ega. Qolaversa, AQSh (319), Buyuk Britaniya (110) hamda Janubiy Afrika Respublikasi (98) [3] kabi davlatlardan kelgan talabalarning mavjudligi O‘zbekiston ta’lim tizimining xalqaro nufuzi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Bu statistik ma’lumotlar nafaqat ta’lim sohasiga oid ko‘rsatkich, balki O‘zbekistonning xalqaro ijtimoiy munosabatlar tizimidagi nufuzini aks ettiruvchi indikator sifatida ham baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining jadal rivojlanishiga qaramasdan, xorijiy talabalar ulushi hozircha juda past darajada qolmoqda. Tahlillarga ko‘ra, mamlakatda tahsil olayotgan xorijiy talabalarning umumiy soni barcha talabalar kontingentining bor-yo‘g‘i 1 foizini tashkil etadi [4]. E’tiborli jihati shundaki, 2019-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlarida xorijiy talabalar ulushini 2019-yildagi 1 foizdan 2025-yilda 10 foizga yetkazish rejalashtirilgan edi. Biroq oradan 7 yil o‘tganligiga qaramasdan xorijiy talabalarning ulushi o‘zgarishsiz 1 foizligicha qolmoqda [5]. Mazkur Konsepsiyada xorijiy talabalar ulushini oshirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan bo‘lsa-da, ushbu natijalarga qanday islohotlarni va chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erishilishi aks ettirilmagan.

Ayni paytda O‘zbekistonda xorijiy talabalarga asosan bilim berish jarayoniga e’tibor qaratilgan bo‘lib, ularning mamlakatda orttirgan tajriba, malakalari va ijtimoiy salohiyatidan kelgusida samarali foydalanishning tizimli mexanizmi hozircha shakllanmagan. Bu esa xorijiy bitiruvchilar bilan uzoq muddatli hamkorlikni ta’minlash va ular orqali O‘zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlash imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda.

Xorijiy talabalar soni bo‘yicha mamlakatimiz ko‘rsatkichlari Markaziy Osiyo miqyosida nisbatan past hisoblanadi. Masalan, Qirg‘izistonda 2024-yil holatiga ko‘ra xorijiy talabalar soni 49,5 ming nafarni tashkil etib [6], mintaqada yetakchilik qilgan bo‘lsa, Qozog‘istonda xorijiy talabalar soni 31,5 ming nafarni tashkil etgan. Qozog‘iston 2028-yilga kelib ushbu ko‘rsatkichni 100 ming nafarga yetkazishni rejalashtirmoqda [7].

Shu munosabat bilan, xorijiy talabalarni kengroq jalb etish masalasi nafaqat ta’lim tizimi rivojining ustuvor yo‘nalishi, balki mamlakatning xalqaro imiji va geosiyosiy nufuzini mustahkamlashning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki xalqaro talaba mobilligi orqali O‘zbekiston dunyo ta’lim maydonida o‘z brendini shakllantiradi, ilmiy hamkorlik sohasini kengaytiradi va global bilim aylanmasiga chuqurroq integratsiyalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekistonda ta’lim olgan xorijiy fuqarolar o‘z mamlakatlariga qaytgach, davlat boshqaruvi, diplomatiya, tadbirkorlik, axborot, texnika va ilmiy sohalarda faoliyat yuritishi orqali mamlakatimizda orttirgan bilim, tajriba va qadriyatlarni amalda tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ular ikki tomonlama hamkorlik loyihalarini amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot tashabbuslarini rivojlantirish hamda investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish orqali O‘zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, xorijiy talabalarni faqat ta’lim jarayoniga jalb etish bilan cheklanib qolmasdan, ularning ilmiy, madaniy va ijtimoiy salohiyatidan samarali foydalanishning tizimli mexanizmlarini yaratish zarurligi aniqlandi. Bu borada O‘zbekistonda tahsil olgan bitiruvchilardan iborat **“intellektual elchilar korpusi”**ni **(“Corps of intellectual ambassadors”)**

shakllantirish mamlakatning “yumshoq kuch” diplomatiyasini institutsional asosda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunday korpus ijtimoiy kapitalning yangi shaklini – “transmilliy bilim tarmoqlari”ni yaratadi. Ushbu tarmoqlar jamiyatlararo muloqotni kuchaytirish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash va madaniy diplomatiyani chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mamlakatimizda ta’lim olgan xorijlik talabalar bilan uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida **“O‘zbekiston xalqaro bitiruvchilar assotsiatsiyasi”**ni tashkil etish taklif etiladi.

Assotsiatsiya xorijiy bitiruvchilarning yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish, ular bilan doimiy muloqotni ta’minlash, ilmiy va madaniy diplomatiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakatning global nufuzini mustahkamlaydi.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlariga ko‘ra, xorijiy talabalar ulushining o‘zgarishsiz qolayotgani, ushbu konsepsiyani qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Bu jarayonda xorijiy talabalarni O‘zbekistonga kengroq jalb qilish bo‘yicha maxsus **“Open Education Uzbekistan”** davlat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dasturda ta’lim sohasida xalqaro marketing strategiyasini shakllantirish, respublikamizda xorijiy mamlakatlarning nufuzli oliy ta’lim muassasalari ulushini ko‘paytirish, xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlarini taqdim etish, ta’lim vizasi tizimini soddalashtirish hamda chet el talabalari uchun akademik va madaniy moslashuv dasturlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar nazarda tutilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi O‘zbekistonning xalqaro ta’lim maydonidagi mavqei mustahkamlanib, mamlakat “intellektual elchilar” orqali o‘zining “yumshoq kuch” siyosatini samarali tatbiq etishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2024. – B. 121.

2. Sh.M. Mirziyoyev. O‘qituvchilarga ehtirom va yoshlarga imkoniyat mamlakat kelajagini ta’minlaydi /

URL: https://president.uz/uz/lists/view/8482

3. O‘zbekistonda tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni ortmoqda / O‘zbekiston milliy axborot agentligi veb-sayti /

URL: https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-tahsil-olayotgan-xorizhlik-talabalar-soni-ortmoqda_766469?q=%2Fposts%2Fozbekistonda-tahsil-olayotgan-xorizhlik-talabalar-soni-ortmoqda_766469

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining Statistika integrallashgan axborot tizimi /

URL: https://siat.stat.uz/reports-filed/1357/table-data

5. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 08.10.2019-y., №PF-5847 //

URL: https://lex.uz/docs/4545884

6. Qirg‘iz Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti /

URL: https://stat.gov.kg/ru/statistics/obrazovanie/

7. International students in Kazakhstan reach all-time high / International education news, events and recruitment for a global network (The PIE) /

URL: https://thepienews.com/international-students-in-kazakhstan-reach-all-time-highs/

ПРОБЛЕМЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕГИОНАХ КЫРГЫЗСТАНА

Исламова Ульзана Бахадировна, преподаватель, ulzana_79@mail.ru
Султаналиева Нургул Шермаматовна, доцент, sultanalieva79@mail.ru
Сакибаев Канатбек Шерикбаевич доцент,
Абдазова Айжан Алижановна, магистрант Ошский государственный университет, Ош, Кыргызстан

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные проблемы внедрения и развития инклюзивного образования в регионах Кыргызской Республики. Анализируются существующие барьеры, влияющие на доступность образования для детей с особыми образовательными потребностями, такие как недостаток инфраструктуры, нехватка квалифицированных кадров и социальные стереотипы. Предлагаются меры по совершенствованию инклюзивной политики, направленные на повышение качества образования и развитие человеческого капитала страны.

Ключевые слова: инклюзивное образование, регионы, Кыргызстан, доступность, дети с особыми потребностями, педагогика, человеческий капитал.

Аннотация. Макалада Кыргыз Республикасындагы инклюзивдүү билим берүүнүн өнүгүүсүндөгү көйгөйлөр каралат. Өзгөчө муктаждыктары бар балдар үчүн билим берүүнүн жеткиликтүүлүгүнө тоскоол болгон негизги факторлор – кадрлардын жетишсиздиги, инфраструктуранын начарлыгы жана коомдогу маалымдуулуктун төмөн деңгээли талданган.

Негизги сөздөр: инклюзивдүү билим берүү, Кыргызстан, мүмкүнчүлүк теңдиги, педагогика, адам капиталы.

Аннотация (узб.):Мақолада Қирғиз Республикасининг ҳудудларида инклюзив таълимни жорий этиш ва ривожлантиришдаги долзарб муаммолар кўриб чиқилади. Таълим олиш имкониятига таъсир қилувчи тўсиқлар - инфратузилманинг етишмаслиги, малакаси етарли кадрлар камлиги ва

ижтимоий стереотиплар таҳлил қилинади. Инклюзив сиёсатни такомиллаштириш бўйича таклифлар илгари сурилади.

Калит сўзлар: инклюзив таълим, Қирғизистон, имкониятлар тенглиги, педагогика, инсон капитали.

Abstract (eng.): The article examines the current issues of implementing and developing inclusive education in the regions of the Kyrgyz Republic. It analyzes barriers such as insufficient infrastructure, lack of qualified teachers, and social stereotypes that hinder access to education for children with special needs. The paper also provides recommendations to improve inclusive policies aimed at enhancing education quality and developing human capital.

Keywords: inclusive education, Kyrgyzstan, accessibility, regions, special needs, human capital.

В контексте государственной образовательной стратегии приоритетное значение приобретает инклюзивное образование, ориентированное на предоставление равноправного доступа к образованию для всех категорий детей, вне зависимости от их физических, психологических характеристик или социально-экономического положения. В рамках реализации Четвертой Цели устойчивого развития ООН, акцентирующей внимание на обеспечении качественного образования для каждого, развитие инклюзивной образовательной системы становится особенно значимым вектором развития для Кыргызской Республики.

На протяжении последних лет в Кыргызстане реализуются инициативы, направленные на создание благоприятных условий для обучения детей с ограниченными возможностями здоровья. В частности, внедряются специализированные образовательные программы, разработанные с учетом особых потребностей данной категории обучающихся, а также усиливается акцент на педагогических аспектах инклюзии. Тем не менее, несмотря на определенные достижения в этой области, в различных регионах Кыргызстана по-прежнему наблюдаются значительные затруднения, препятствующие эффективному внедрению и функционированию полноценной инклюзивной модели образования.

Одним из ключевых вызовов является недостаточное количество квалифицированных специалистов, способных эффективно работать с детьми, имеющими особые образовательные потребности. Нехватка специально обученных педагогов, психологов и логопедов, а также дефицит вспомогательного персонала, приводит к тому, что образовательные учреждения не всегда могут обеспечить необходимую поддержку и индивидуальный подход к каждому ученику.

Другим важным аспектом является необходимость совершенствования нормативно-правовой базы, регулирующей инклюзивное образование в Кыргызстане. Требуется разработка четких и однозначных регламентов, определяющих порядок организации образовательного процесса для детей с

ограниченными возможностями здоровья, а также механизмы финансирования и ресурсного обеспечения инклюзивных образовательных учреждений.

Необходимо также отметить важность создания доступной и адаптированной образовательной среды, соответствующей потребностям всех учащихся. Это подразумевает обеспечение безбарьерного доступа к образовательным учреждениям, наличие специализированного оборудования и учебных материалов, а также организацию психолого-педагогического сопровождения для детей с особыми образовательными потребностями.

Я думаю что, для успешного развития инклюзивного образования необходимо активное вовлечение всех заинтересованных сторон, включая родителей, представителей общественных организаций, а также самих учащихся. Важно создать атмосферу взаимопонимания и сотрудничества, где каждый ребенок чувствует себя принятым и ценным членом общества. Расширение программ повышения осведомленности и вовлечение сообщества в поддержку инклюзивного образования могут способствовать более плавному и эффективному внедрению инклюзивных практик.

Инклюзивное образование основано на принципе предоставления равных возможностей для получения полноценного образования каждому индивиду. В соответствии с ратифицированной Кыргызской Республикой в 2019 году Конвенцией ООН о правах инвалидов, государства несут ответственность за обеспечение инклюзивного образования на всех ступенях.

В международном опыте (например, в Финляндии, Казахстане и Узбекистане) инклюзия понимается не только как образовательная методика, но и как общественная структура, способствующая воспитанию толерантности в социуме. Инклюзивное обучение ориентировано на повышение качества человеческого капитала, поскольку образование выступает фундаментом для социальной и экономической стабильности.

Текущее состояние инклюзивного образования в Кыргызстане, согласно сведениям Министерства образования и науки КР на 2024 год, характеризуется наличием около 250 школ с элементами инклюзии, охватывающих более 5 тысяч детей с особыми образовательными потребностями. Бишкек и Ош демонстрируют более активное внедрение инклюзивных программ, в то время как в сельской местности наблюдается значительное отставание.

В регионах часто отсутствуют специализированные классы, логопедические и психологические кабинеты. Уровень квалификации педагогических кадров в сельских школах не всегда соответствует требованиям для работы с детьми, нуждающимися в индивидуализированном подходе.

Вместе с тем, следует отметить успешные инициативы, такие как проекты, реализуемые при поддержке ЮНИСЕФ и ПРООН, в рамках

которых проводятся тренинги по инклюзивной педагогике и создаются ресурсные центры на базе школ.

Дальнейшее развитие инклюзивного образования в Кыргызстане требует комплексного подхода, включающего законодательные, финансовые и образовательные меры. Необходимо усовершенствовать нормативно-правовую базу, регулирующую процесс инклюзии, с целью четкого определения прав и обязанностей всех участников образовательного процесса: учащихся с особыми образовательными потребностями, их родителей, педагогов и администрации образовательных учреждений.

Важным аспектом является увеличение финансирования инклюзивного образования. Средства должны направляться на повышение квалификации педагогических кадров, создание специализированных классов и ресурсных центров, оснащение школ необходимым оборудованием и учебными материалами. При этом необходимо учитывать региональные особенности и потребности, уделяя особое внимание сельским районам, где инфраструктура и кадровый потенциал часто уступают городским.

С целью повышения качества инклюзивного образования необходимо усилить взаимодействие между Министерством образования и науки КР, местными органами управления образованием, общественными организациями и международными партнерами. Важно обмениваться опытом и передовыми практиками, а также привлекать экспертов для разработки и реализации образовательных программ и методик, адаптированных к потребностям детей с особыми образовательными потребностями.

Особую роль в развитии инклюзивного образования играет повышение осведомленности общества о принципах и преимуществах инклюзии. Необходимо проводить информационные кампании, направленные на формирование толерантного отношения к детям с особыми образовательными потребностями и их включение в общественную жизнь. Только совместными усилиями возможно создание инклюзивного общества, где каждый имеет возможность реализовать свой потенциал.

Проблемы внедрения инклюзивного образования в регионах:

Инфраструктурные ограничения.

Многие школы в регионах не приспособлены для детей с особыми потребностями: отсутствуют пандусы, адаптированные туалеты, лифты и специальное оборудование.

Кадровый дефицит.

Недостаток подготовленных педагогов, дефектологов и ассистентов является одной из главных проблем. Программы повышения квалификации охватывают не более 20% учителей.

Финансовые трудности.

Бюджетное финансирование инклюзивных проектов остается низким, а внебюджетные источники привлекаются редко.

Социально-культурные барьеры.

В обществе сохраняются стереотипы, мешающие интеграции детей с инвалидностью. Родители часто опасаются за психологическое состояние ребёнка, предпочитая индивидуальное обучение.

Неравенство между городом и селом.

Большинство инклюзивных программ реализуются в крупных городах, что создаёт региональный разрыв в доступе к качественному образованию.

Пути решения и рекомендации

Для эффективного развития инклюзивного образования в регионах Кыргызстана целесообразно реализовать следующие меры:

- Разработать региональные программы инклюзии, учитывающие местные особенности и ресурсы.
- Организовать системную подготовку и переподготовку педагогов по вопросам инклюзивной педагогики.
- Расширить сотрудничество с международными организациями (ЮНИСЕФ, ЮНЕСКО, ПРООН) для получения методической и материальной поддержки.
- Внедрить цифровые технологии для дистанционного обучения детей с ограниченной мобильностью.
- Проводить просветительские кампании для родителей и общественности, направленные на снижение дискриминации и повышение уровня толерантности.
- Создать ресурсные центры при школах и педагогических вузах, которые будут обеспечивать методическую и психологическую поддержку учителей.
- Развитие инклюзивного образования является ключевым направлением формирования человеческого капитала Кыргызстана. Решение выявленных проблем в регионах позволит обеспечить равные образовательные возможности для всех детей и станет важным шагом на пути к устойчивому развитию общества.

Создание доступной, справедливой и качественной образовательной среды должно стать приоритетом не только для государства, но и для всего общества, ведь именно инклюзивное образование формирует культуру равноправия и социальной ответственности.

Я считаю инклюзивное образование, как стратегический инструмент формирования человеческого капитала, предполагает создание условий, при которых каждый ребенок, вне зависимости от своих физических, интеллектуальных или социальных особенностей, имеет возможность получать образование в общеобразовательной среде. Да, это требует комплексного подхода, включающего пересмотр образовательных стандартов, адаптацию учебных программ и создание доступной инфраструктуры.

В контексте Кыргызстана, где социокультурные и экономические различия регионов особенно ярко выражены, необходимо учитывать

специфические потребности каждой территории. Проведение тщательного анализа существующей образовательной среды в регионах, выявление барьеров, препятствующих инклюзии, и разработка адресных программ поддержки позволят обеспечить более эффективное внедрение инклюзивных практик.

Необходимо также отметить важность подготовки квалифицированных педагогических кадров, способных работать с детьми с особыми образовательными потребностями. Программы повышения квалификации, семинары и тренинги для учителей должны стать неотъемлемой частью системы образования. Важно обеспечить педагогов необходимыми методическими материалами и технологиями, позволяющими эффективно адаптировать учебный процесс к индивидуальным потребностям каждого ученика.

Инклюзивное образование не только способствует развитию человеческого капитала, но и играет важную роль в формировании толерантного и социально ответственного общества. Создавая равные возможности для всех детей, мы воспитываем поколение, которое ценит разнообразие, уважает права человека и готово строить справедливое и устойчивое будущее для Кыргызстана.

Список литературы

1. Закон Кыргызской Республики «Об образовании». - Бишкек, 2021.
2. Конвенция ООН о правах инвалидов. - Нью-Йорк, 2006.
3. Министерство образования и науки Кыргызской Республики. Отчет об инклюзивном образовании, 2024.
4. UNICEF Kyrgyzstan. Inclusive Education Program Report, 2023.
5. UNESCO. *Inclusive Education: Guidelines for Policy Development*, Paris, 2022.

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIMIDA AUDITORIYA YUKLAMASINI XALQARO STANDARTLARGA YAQINLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ROLI

Seidullaev A. K., dotsent, PhD
Qoraqalpoq Davlat Universiteti, Nukus, O‘zbekiston
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston oliy ta’limida auditoriya yuklamasini xalqaro standartlarga, xususan ECTS tamoyillariga moslashtirishda raqamli texnologiyalarning roli tahlil qilinadi. LMS Moodle, EMIS PATT va sun’iy intellekt (AI) vositalari yordamida yuklamani o‘lchash, muvozanatlashtirish va baholashni tarqatish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mikro-

kredensiallar (Coursera, edX) orqali pre-class ishlarni onlayn formatga o‘tkazish va blended learning modelini tatbiq etish bo‘yicha amaliy takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: auditoriya yuklamasi, ECTS, kredit-modul tizimi, LMS Moodle, EMIS PATT, raqamli texnologiyalar, blended learning, mikro-kredensiallar, Coursera, SI ta’limda, yuklama optimallashtirish.

Abstract. The article analyzes the role of digital technologies in adapting classroom workload in Uzbek higher education to international standards, particularly ECTS principles. It examines the possibilities of measuring, balancing, and distributing workload assessment using LMS Moodle, EMIS PATT, and artificial intelligence (AI) tools. Additionally, the article offers practical suggestions for transitioning pre-class work to an online format through micro-credentials (Coursera, edX) and implementing a blended learning model.

Keywords: classroom load, ECTS, credit-module system, LMS Moodle, EMIS PATT, digital technologies, blended learning, micro-credentials, Coursera, in AI education, load optimization.

Аннотация. В статье анализируется роль цифровых технологий в адаптации аудиторной нагрузки в высшем образовании Узбекистана к международным стандартам, в частности, к принципам ECTS. Рассматриваются возможности измерения, балансировки и распределения оценки нагрузки с помощью инструментов LMS Moodle, EMIS PATT и искусственного интеллекта (ИИ). Также представлены практические предложения по переводу предаудиторной работы в онлайн-формат через микро-креденциалы (Coursera, edX) и внедрению модели смешанного обучения.

Ключевые слова: аудиторная нагрузка, ECTS, кредитно-модульная система, LMS Moodle, EMIS PATT, цифровые технологии, blended learning, микро-креденциалы, Coursera, ИИ в образовании, оптимизация нагрузки.

Kirish. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda tub islohotlar jarayonida bo‘lib, uning markazida *kredit-modul tizimi*ni joriy etish va xalqaro standartlarga moslashish turibdi. Bu islohotlar 2019-yilda tasdiqlangan “Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi – 2030” hujjatida belgilangan bo‘lib, unda oliy ta’limni modernizatsiya qilish, talaba markazida yondashuvni kuchaytirish va xalqaro reytinglarda ko‘rinishni oshirish asosiy maqsad sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Konsepsiyaga ko‘ra, 2030-yilgacha O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining 85 foizi kredit-modul tizimiga to‘liq o‘tishi, 10 ta universitet dunyoning TOP-1000 reytingiga kirishi, 30 ta OTM dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o‘tishi rejalashtirilgan. [1]

Kredit-modul tizimi *ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System)* tamoyillariga asoslanadi. ECTS Yevropa oliy ta’lim makonida ta’limni shaffof qilish, talaba mobilligini ta’minlash va yuklamani o‘lchash uchun ishlab chiqilgan. Uning asosiy tamoyili – o‘quv natijalari va ish yuklamasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash. Bir yillik to‘liq yuklama 60 kreditga teng bo‘lib, bu 1 500–

1 800 soat ishni anglatadi; har bir kredit 25–30 soatga mos keladi. Bu vaqt nafaqat auditoriya mashg‘ulotlarini, balki mustaqil o‘qish, loyiha, laboratoriya va baholash jarayonlarini ham qamrab oladi. [2]

Ammo amaliyotda muammo shundaki, ko‘plab OTMlarda yuklama hanuz “dars soati”ga asoslanadi. Bu esa talabalarning mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini cheklaydi, baholash sanalarining to‘planishi (deadline clustering) stressni oshiradi. Xalqaro tadqiqotlar og‘ir yuklama nafaqat talaba farovonligiga, balki o‘qituvchilarning ilmiy samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. [3] tadqiqotda og‘ir o‘qitish yuklamasi ilmiy ish sifatini pasaytirishi, o‘qituvchilar ko‘proq dars berishga majbur bo‘lganda tadqiqot faoliyati cheklanishi aniqlangan.

Shu nuqtada *raqamli texnologiyalar* – LMS (Moodle), EMIS, sun’iy intellekt (SI) va *blended learning* – yuklamani optimallashtirish va xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda hal qiluvchi vosita sifatida ko‘rilmoqda. *Digital Uzbekistan – 2030* strategiyasi doirasida ta’limni raqamlashtirish, onlayn platformalarni kengaytirish, IT Park va Coursera hamkorliklari orqali raqamli kompetensiyalarni oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda [4]. UNESCO ham O‘zbekistonda *EMIS PATT* vositasini joriy etib, ta’lim ma’lumotlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, yuklama monitoringini shaffof qilish va qaror qabul qilishni ma’lumotlarga asoslash bo‘yicha strategik baholashni boshladi [5].

Bundan tashqari, UNESCO va UNICEF hamkorligida o‘qituvchilarni *SI va ICT kompetensiyalari* bo‘yicha tayyorlash, blended learning metodlarini tatbiq etish va LMS analitikasi orqali yuklamani nazorat qilish bo‘yicha treninglar o‘tkazilmoqda. Bu jarayonlar O‘zbekiston oliy ta’limida yuklamani xalqaro standartlarga moslashtirish va sifatni oshirish uchun zarur poydevor yaratmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’limida yuklamani ECTS tamoyillari asosida qayta dizaynlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va talaba markazida yondashuvni kuchaytirish – ta’lim sifatini oshirish, global reytinglarda ko‘rinishni yaxshilash va raqamli iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlashning eng muhim sharti hisoblanadi.

ECTS va O‘zbekistonda kredit-modul tizimi. O‘zbekiston oliy ta’limida yuklamani xalqaro standartlarga yaqinlashtirish jarayonida raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu jarayon faqat auditoriya soatini kamaytirish emas, balki talaba ish yuklamasini muvozanatlashtirish, baholashni tarqatish va o‘quv natijalarini ECTS tamoyillariga moslashtirishni talab qiladi. Shu nuqtada *LMS (Learning Management System)*, *EMIS (Education Management Information System)* va *sun’iy intellekt (SI)* kabi vositalar ta’limni raqamlashtirishning asosiy drayverlari sifatida ko‘rilmoqda.

LMS platformalari, xususan Moodle, O‘zbekistonda keng joriy etilgan bo‘lib, ular ta’lim jarayonini raqamlashtirishda markaziy rol o‘ynaydi. LMS orqali talabalarning faolligi, topshiriq topshirish vaqti, forum ishtiroki kabi ko‘rsatkichlarni real vaqtda kuzatish mumkin. Bu ma’lumotlar asosida kurs dizaynini moslashtirish, baholash sanalarini tarqatish va yuklamani muvozanatlashtirish imkoniyati yaratiladi. Masalan, deadline clustering (bir necha

yirik topshiriqning bir haftaga to‘planishi) LMS analitikasi yordamida aniqlanadi va o‘qituvchilar uni kamaytirish choralarini ko‘rishi mumkin. JEECAR tadqiqotida O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tajribasi LMSning talaba faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

LMSning yana bir afzalligi – ish yuklamasi matritsasini sillabusga integratsiya qilish. Har bir modul uchun nazariya, amaliyot va mustaqil ta’lim soatlari LMSda ko‘rsatiladi, bu esa ECTS tamoyillariga mos shaffoflikni ta’minlaydi. Bundan tashqari, LMS orqali *blended learning* modelini tatbiq etish osonlashadi: nazariya onlayn, auditoriya esa muhokama va amaliyot uchun. Bu model pandemiya davrida sinovdan o‘tdi va hozirda ko‘plab OTMlarda tatbiq etilmoqda.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan *EMIS PATT (Progress Assessment Tool)* O‘zbekistonda Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib joriy etildi. Ushbu tizim ta’lim ma’lumotlarini boshqarishning shaffofligini oshiradi, yuklama monitoringini fakultet va kafedra darajasida KPI paneli orqali amalga oshirish imkonini beradi. KPIlar orasida *ECTS/hafta, engagement, pass rate* kabi ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lib, ular ta’lim sifatini baholashda muhim ahamiyatga ega. EMISning joriy etilishi OTMlarda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish madaniyatini shakllantiradi, bu esa yuklamani optimallashtirishda strategik ahamiyatga ega.

HEMISning yana bir afzalligi – LMS bilan integratsiya qilish imkoniyati. Bu integratsiya orqali kurs → kafedra → fakultet → OTM darajasida yuklama ko‘rsatkichlari real vaqtda kuzatiladi. Masalan, bir fakultetda haftalik ECTS yuklamasi normadan oshsa, tizim avtomatik signal beradi va boshqaruv choralarini ko‘rish imkonini yaratadi.

Sun’iy intellekt (SI) ta’limda yuklamani boshqarish va ma’muriy jarayonlarni avtomatlashtirishda samarali vosita sifatida ko‘rilmoqda. OECD TALIS 2024 hisobotida SI yordamida yuklama cho‘qqilarini prognoz qilish, engagement pasayishini oldindan aniqlash va kurs dizaynini optimallashtirish imkoniyatlari ta’kidlangan. SI LMS ma’lumotlarini tahlil qilib, talabalarning yuklama balansini oldindan sozlash, baholash sanalarini qayta taqsimlash va topshiriqlarni modulga bo‘lib berish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

Bundan tashqari, SI yordamida *personalizatsiya* amalga oshiriladi: talabaning o‘rganish tezligi, topshiriq bajarish sifati va engagement darajasiga qarab individual tavsiyalar beriladi. Bu esa talaba yuklamasini optimallashtirish bilan birga, o‘quv natijalarini ham yaxshilaydi.

Blended learning modeli – nazariya onlayn, auditoriya esa muhokama va amaliyot uchun – talaba yuklamasini muvozanatlashtirishda eng yaxshi yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bu model talabalarga mustaqil o‘rganish imkonini kengaytiradi, auditoriya vaqtini esa yuqori darajali ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltiradi. Xalqaro tadqiqotlar blended learning talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirishini, stressni kamaytirishini va engagementni kuchaytirishini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda Digital Uzbekistan 2030 strategiyasi doirasida blended learningni keng joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bu jarayon LMS, EMIS va SI integratsiyasi bilan uyg‘unlashganda, yuklama muvozanati va ta’lim sifati sezilarli darajada oshadi.

Amaliy takliflar va mikro-kredensiallar. O‘zbekiston oliy ta’limida yuklamani xalqaro standartlarga yaqinlashtirish faqat nazariy tamoyillarni qabul qilish bilan cheklanmaydi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun amaliy mexanizmlar, raqamli vositalar va innovatsion yondashuvlar zarur. Quyida auditoriya yuklamasini optimallashtirish, talaba markazidagi ta’limni kuchaytirish va ECTS tamoyillariga moslashish uchun eng samarali strategiyalar ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston OTMlarida ko‘plab fanlar bo‘yicha darslar 80 daqiqa davom etadi. Bu format ko‘pincha nazariy ma’ruzaga to‘liq sarflanadi, natijada talabalarda passiv o‘rganish holati yuzaga keladi. Taklif etilayotgan yondashuv – *80 daqiqalik darsni ikki blokka bo‘lish.* Bu model *flipped classroom* va *blended learning* tamoyillariga mos keladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nazariya onlayn formatda berilganda va auditoriya faqat interaktiv faoliyat uchun ishlatilganda, talabalarning o‘zlashtirish darajasi 20–30% ga oshadi.

ECTS tamoyillariga ko‘ra, talaba ish yuklamasining katta qismi mustaqil ta’limga to‘g‘ri keladi. Ammo amaliyotda bu jarayon ko‘pincha nazorat qilinmaydi. LMS Moodle bu muammoni hal qilish uchun ideal platforma:

Materiallar joylashtirish: slaydlar, video, testlar, forumlar.

Monitoring: topshiriq topshirish vaqti, engagement darajasi, forum faolligi.

Baholashni tarqatish: deadline clusteringni kamaytirish uchun LMS dan foydalanish.

JEECAR tadqiqotida O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tajribasi LMSning talaba faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi[6].

Ko‘plab kurslarda baholash sanalari semestr oxiriga to‘planadi, bu esa talabalarda stressni oshiradi va yuzaki o‘zlashtirishga olib keladi. LMS analitikasi yordamida baholash sanalarini haftalar bo‘yicha tarqatish mumkin. Masalan, muddati to‘plangan topshiriqlar nisbati (*deadline clustering ratio*)ni 2–3 haftadan 6–8 haftaga tarqatish orqali yuklama muvozanati ta’minlanadi. Bu yondashuv talabalarning stress darajasini kamaytiradi va o‘qituvchilarga baholash jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi.

Mikro-kredensiallar – qisqa muddatli, kompetensiyaga yo‘naltirilgan onlayn kurslar – auditoriya yuklamasini yengillashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. *Coursera* va *edX* kabi platformalar bilan hamkorlik orqali OTMlar sillabusga taxlanuvchi tarkib (*stackable content*) qo‘shishi mumkin. Bu yondashuvning afzalliklari:

- *Darsdan oldingi (Pre-class) ishlarni onlaynga ko‘chirish:* talaba nazariy materialni mustaqil o‘rganadi.

- *Auditoriya vaqtini muhokama va ko‘nikmalarga yo‘naltirish:* yuqori darajali kompetensiyalarni rivojlantirish.

O‘zbekistonda *Coursera* bilan hamkorlikda “*Bir million dasturchi*” loyihasi doirasida 600 mingdan ortiq foydalanuvchi bepul kurslardan foydalangan, bu raqamli kompetensiyalarni oshirishda muhim qadam bo‘ldi. *edX* platformasi ham professional sertifikatlar va modul kurslarni taqdim etadi, ularni ECTSga ko‘chirish (*mapping qilish*) orqali talaba yuklamasini modulga bo‘lib berish mumkin[7].

Raqamli transformatsiya faqat texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmaydi; o‘qituvchilarni yangi metodlar va vositalarga tayyorlash zarur. UNESCO va UNICEF hamkorligida O‘zbekistonda o‘qituvchilar uchun SI va ICT kompetensiyalari bo‘yicha treninglar o‘tkazilmoqda. Bu treninglar *LMS*dan samarali foydalanish, *blended learning* dizayni, baholashni raqamlashtirish va *SI* yordamida yuklamani prognoz qilish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantiradi .

Xulosa va taklif. O‘zbekiston oliy ta’limida auditoriya yuklamasini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish – ta’lim sifatini oshirish, talaba farovonligini ta’minlash va ilmiy samaradorlikni kuchaytirishning eng muhim sharti. Bugungi kunda yuklama ko‘pincha “*dars soati*”ga asoslanib belgilangan bo‘lib, bu talabalarning mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini cheklaydi, baholash sanalarining to‘planishi (deadline clustering) stressni oshiradi va o‘qituvchilarning ilmiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro tadqiqotlar og‘ir yuklama nafaqat talaba farovonligiga, balki o‘qituvchilarning ilmiy samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi .

Shu bois, ECTS tamoyillariga moslashish zarur. ECTS bo‘yicha bir yillik to‘liq yuklama 60 kreditga teng bo‘lib, bu 1 500–1 800 soat ishni anglatadi; har bir kredit 25–30 soatga mos keladi . Bu yondashuv nafaqat auditoriya mashg‘ulotlarini, balki mustaqil o‘qish, loyiha, laboratoriya va baholash jarayonlarini ham qamrab oladi. Demak, yuklamani qayta dizaynlash faqat dars soatini kamaytirish emas, balki talaba ish yuklamasini muvozanatlashtirish, baholashni tarqatish va mustaqil ta’limni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi.

Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. LMS Moodle talabalarning faolligi, topshiriq topshirish vaqti, forum ishtiroki kabi ko‘rsatkichlarni real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Bu ma’lumotlar asosida kurs dizaynini moslashtirish, deadline clusteringni kamaytirish va yuklamani muvozanatlashtirish mumkin. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan *EMIS PATT* tizimi esa ta’lim ma’lumotlarini boshqarishning shaffofligini oshiradi, yuklama monitoringini fakultet va kafedra darajasida KPI paneli orqali amalga oshirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt (SI) yordamida yuklama cho‘qqilarini prognoz qilish, engagement pasayishini oldindan aniqlash va kurs dizaynini optimallashtirish mumkin. OECD TALIS 2024 hisobotida SI ta’limda yuklamani boshqarish va ma’muriy jarayonlarni avtomatlashtirishda samarali vosita sifatida ko‘rsatilgan[8]. Bundan tashqari, *blended learning* modeli – nazariya onlayn, auditoriya esa muhokama va amaliyot uchun – talaba yuklamasini muvozanatlashtirishda eng yaxshi yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Takliflar quyidagilar:

- Har bir kurs uchun ish yuklamasi matritsasini sillabusga kiritish.
- *LMS* analitikasi asosida yuklamani real vaqtda nazorat qilish.
- Baholash sanalarini tarqatish va *deadline clustering*ni kamaytirish.
- Mikro-kredensiallarni sillabusga qo‘shish (*Coursera*, *edX*) va *pre-class* ishlarni onlaynga ko‘chirish.
- O‘qituvchilarni *SI* va raqamli kompetensiyalar bo‘yicha muntazam tayyorlash (UNESCO va UNICEF treninglari).

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son

2. European Commission: Directorate-General for Education, Youth, Sport and Culture, *ECTS users’ guide 2015*, Publications Office of the European Union, 2015, https://data.europa.eu/doi/10.2766/87192

3. Nur-tegin, Kanybek, Sanjay Venugopalan, and Jessica Young. “Teaching Load and Other Determinants of Research Output Among University Faculty.” *The American Economist* 65, no. 2 (2020): 300–311. https://www.jstor.org/stable/27130000.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.

5. https://unes.co/lubh51

6. https://internationalednews.com/tag/oecd/

7. Gabi, J. and Chikwa, G. (2025), Time to (Re-)think-Feel ‘Quality’ in Higher Education Learning and Teaching. Higher Educ Q, 79: e70036. https://doi.org/10.1111/hequ.70036

8. OECD (2025), *Results from TALIS 2024: The State of Teaching*, TALIS, OECD Publishing, Paris, https://doi.org/10.1787/90df6235-en.

РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА КАК ФАКТОР СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Рустамова Махфуза Махмудовна
Старший преподаватель, PhD кафедра “Менеджмент и маркетинг»,
Ферганский государственный технический университет,
Email : M.Rustamova1005@gmail.com

Annotatsiya: To‘qimachilik sanoatida raqobatning kuchayishi va raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish

va sohadagi kompaniyalarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash uchun asosiy resurs sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati xodimlarini tayyorlash va uzluksiz ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

